

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**E.M.Mardonov**

**MATEMATIK TASAUVURLARNI  
SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA  
METODIKASI**

Maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Samarqand – 2021**

**UDK 51 (07)**  
**BBK 22.11**  
**O 49**

**Mardonov E.M.** Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun. Oquv qo'llanma. – Samarqand:SamDU nashri, 2021.– 244 bet.

*Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni hosil qilish maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlari, ularni matematik o'yinlar orqali amalga oshirishning usullarini shakllantirishga qaratilgan.*

**Muallif:** dots. **E.M.Mardonov**

**Mas'ul muharrir:** SamDU “Matematik fizika va funksiyalar nazariyasi” professori f.m.f.d **E.S.Sattarov**

SamDU “Matematik analiz kafedrası” dotsenti **A.U.Arziqulov**

*Samarqand davlat universiteti Kengashining 2021 yil 31 iyundagi №13-bayonnoma qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-6088-3-2

© Samarqand davlat universiteti, 2021

## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	5
KIRISH.....	7

### **I BOB. MATEMATIK TASAVURLARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANINING UMUMIY MASALALARI**

1.1. Matematik tasavurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsad va vazifalari.....	9
1.2. Arifmetika fani rivojida sharq matematiklarining tutgan oʻrni.....	12
1.3. Pedagogik psixologik adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarini rivojlantirish masalalari.....	18
1.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda taʼlimning asosiy didaktik prinsplari va tamoyillari.....	22
1.5. MTT ning turli yosh guruhlarida matematika mashgʻulotlarini tashkil qilish.....	24

### **II BOB. MATEMATIK TASAVURLARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI XUSUSIY MASALALARI**

2.1. 3-4-yoshli bolalarda miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish.....	41
2.2. Bolalarda maktabgacha taʼlimda elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish.....	48
2.3. Oʻyin va oʻyin mashqlaridan foydalanish.....	59
2.4. Bolalarda son- sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, ularni sanashga oʻrgatish.....	67
2.5. MTT oʻrta va katta guruhlarda son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish.....	77
2.6. MTT tayyorlov guruhlarida son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish.....	85
2.7. Bolalarda predmetlarning oʻlchami va ularni oʻlchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.....	91
2.8. Bolalarda shartli oʻlchov yordamida turli oʻlchamlarni oʻlchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish .....	104
2.9. MTTda kichik va tayyorlov guruhlarida predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.....	124
2.10. MTTda katta va tayyorlov guruhlarida predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.....	130
2.11. Bolalarda fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.....	140
2.12. Bolalarda vaqt tasavvurlarini shakllantirish .....	158

### **III BOB. MTTTLARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI HUQUQIY ASOSLARI**

3.1. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari (O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari).....	176
3.2. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalari.....	180
3.3 “Ilm yo‘li” variativ dasturi.....	190
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:</b> .....	241

## SO‘Z BOSHI

Mazkur o‘quv qo‘llanma maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni hosil qilish maktabgacha ta‘limda o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlari, ularni matematik o‘yinlar orqali amalga oshirishning usullarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quv qo‘llanma birinchi bobida matematik tasavvurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi fanining umumiy masalalari : matematik tasavvurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsad va vazifalari; arifmetika fani rivojida sharq matematiklarining tutgan o‘rni; pedagogik psixologik adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarini rivojlantirish masalalari; maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta‘limning asosiy didaktik prinsplari va tamoyillari MTT ning turli yosh guruhlarida matematika mashg‘ulotlarini tashkil qilish nazariy masalalari qaralgan.

Ikkinchi bobida matematik tasavvurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi xususiy masalalari: 3-4-yoshli bolalarda miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish; bolalarda maktabgacha ta‘limda elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish; o‘yin va o‘yin mashqlaridan foydalanish; bolalarda son - sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, ularni sanashga o‘rgatish; MTT o‘rta va katta guruhlarda son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish; MTT tayyorlov guruhlarida son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish; bolalarda predmetlarning o‘lchami va ularni o‘lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; bolalarda shartli o‘lchov yordamida turli o‘lchamlarni o‘lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; MTTda kichik va tayyorlov guruhlarida predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; MTTda katta va tayyorlov guruhlarida predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; bolalarda fazoviy tasavvurlarini shakllantirish; bolalarda vaqt tasavvurlarini shakllantirish usullari bayon etiladi.

Uchinchi bobida MTTlarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi huquqiy asoslari: ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari (O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari); ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalari qarab otiladi.

Umuman olganda, o'quv qo'lanma dastur asosida yozilgan va shu soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchilar va magistrantlar uchun ham ilmiy va o'quv faoliyatlarida qo'llashlarida foydali bo'lishi mumkin deb hisoblayman.

Muallif

## KIRISH

Mustaqillik yillarida Respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda. Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Dastur asosida keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan: bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish; maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish; 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash. Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishiladi: yuqori sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga; bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etishga; 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirishga; qishloq joylardagi

maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirishga; bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobarga oshirishga. Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida bo'ladi.

Rejalashtirilgan barcha ishlarni amalga oshirish ko'p jihatdan yoshlarimiz, fuqarolar va ularning vatanparvarligi, insoniyligiga bog'liq ekanini ta'kidladi: «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishi, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotiga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutmog'imiz kerak».



# I BOB. MATEMATIK TASAVURLARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANINING UMUMIY MASALALARI

## 1.1. Matematik tasavurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsad va vazifalari

### 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda matematik ta'limning ahamiyati.

Yosh avlodni o'z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoiylik ruhida kelajak taqdiri uchun mas'ullikni his eta oladigan, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab — avaylash ruhida jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo'lmaz vazifa ekan, bunda barcha ta'lim — tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi xodimlardan katta- katta ishlarni bajarishni talab etadi.



1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi Qonuni (2020 yil) uzluksiz ta'limni bir butun tizimini yaratish vazifasini ilgari surdi va mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarni yanada oshirdi. Yana shunga bog'liq holda Respublikadagi pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish masalasi dolzarb masalaga aylandi.

MTTarini tayyorlash tizimida matematik tassavurlarini shakllantirish nazariyasi va metodikasi kursi muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda MTTda matematika o'qitish butun sistemasida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Maktab oldiga yangi maqsadlarning qo'yilishi MTTlarida matematik ta'lim berish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Maktabgacha ta'limda bolalariga matematikadan samarali ta'lim berish bo'lajak tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish» kursini egallab, chuqur o'zlashtirib olmoq'i lozim.

2. Bolalar bogchasida matematik ta'lim berish metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishda ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi?).

2. Maktabgacha ta'limda matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish kerak?), bolalarga bilimlar qanday berilganda, bu bilimlar fan, texnika va madaniyatning hozirgi zamon rivojlanishi talablariga mos keladigan bo'ladi.

3. Matematik bilim berish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak?), ya'ni bolalar hozirgi kunda zarur bo'lgan bilimlarni, malakalarni, ko'nikmalarni va aqliy faoliyati, qobiliyatlarini egallab oladigan bo'lishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak? Matematik bilimlarni egallash jarayonida bolalar shaxsining garmonik rivojlanishi va shakllanishini amalga oshirish uchun qanday o'qitish kerak?

4. Matematik bilim berish vositalarini — darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma qo'llanmalar va texnik vositalarni ishlab, (nima yordamida o'qitish).

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning mashg'ulotdan tashqari formalarini qanday o'tkazish kerak?)

Mashg'ulot ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak? Mashg'ulot protsessidagi ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?).



## **2. Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi fanining maqsadi, predmeti va uning asosiy vazifalari.**

Bolalarga bilim berish maqsadlari, metodlari, vositalari va formalari metodik sistemaning asosiy komponentlaridir.

Matematika fani oldida turgan maqsadlar: umumiy ta'lim, amaliy va tarbiyaviy maqsadlaridan iboratdir. Amaliy maqsadlar: matematik bilim berishdan kuzatilgan amaliy maqsadlar bolalarning nazariyani amaliyotga bog'lay olishidan, ya'ni olingan bilimlarni amaliy

masalalarni hal qilishga, bolalar to'plam va son haqida; kattalik (miqdor)larning bir-biriga nisbati haqida, eng oddiy geometrik figuralar haqida boshlang'ich tasavvurga ega bo'ladilar, joy va vaqtni bilishni o'rganadilar: bolalar olgan bilimlarini o'zlarining kundalik mehnat va o'yin faoliyatida va maishiy hayotida uchraydigan matematikaga doir savol va masalalarni hal qilishga tatbiq eta bilish malakalarini hosil qilish kerak.



### **Kursning ta'limiy maqsadlari:**

Bolalarga real olamdagi yuz beradigan eng sodda hodisalardagi miqdoriy nisbatlarni tushunishga va olamdagi fazoviy formalarni (joylashishlarini); natural son, geometrik figura, miqdor va boshqa tushunchalar abstrakt ammo ular real borliqdagi predmetlarga xos bo'lgan bog'lanish va munosabatlarni aks ettiradigan hajmda bilimlar berish, Bu bilimlar fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishga mantiqiy fikrlay olishga yordam berishi kerak.

Matematikani o'rgatish bolalarda o'z ona tilida xatosiz so'zlashga, o'z fikrini aniq va ravon qilib bayon eta olishga o'rgatishda yordam berishi kerak. Matematikani bayon etishda sergaplikka yo'l qo'yish mumkin emas, bunda har bir so'zni o'z o'rnida ishlata bilish ayniqsa muhimdir.

#### **Maqsad:**

1. Bolalarni maktabda asosiy fanlardan bilim olishga o'rgatish (shu qatorda matematikadan ham).

2. Yosh bolalarga matematik bilim berish.

**Tarbiyaviy maqsadlar:** Matematikaga doir bajariladigan ishlar bolalarni boshqa oladigan bilimlariga qaraganda ko'proq sabotlikka, tirishqoqlikka, puxtalikka, aniqlikka o'z fikr va xulosalarini nazorat qila olishga, ayniqsa kuzatish, tajriba va fahmlash asosida aytiladigan fikrlarining ravon bo'lishiga e'tibor bera bilishga odatlantirish kerak. Bolalarda matematik bilimlarga bo'lgan qiziqish, matematik xarakterdagi masalalarni sabr — toqat va tirishqoqlik bilan yechish ko'nikmalari



rivojlantiriladi. Induktiv va deduktiv tafakkurning boshlang'ich ko'nikmalarini azaliy operatsiyalarni, ya'ni analiz qilish, sintez qilish, taqqoslashni, abstraktlashtirish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga idroklilik va ziyraklikni, fazoviy tasavvurlarni va xayolni o'stirishga matematik ta'lim berish katta yordam qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda matematik tasavvurlarni shakllantirish ahamiyati shundaki bolalarni maktabda matematika geometriya va chizmachilik fanlarini puxta egallashlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda va ularni maktabga tayyorlashda matematik bilimlarning roli.
2. Matematik bilim berish vositalari nimalardan iborat.


## **1.2. Arifmetika fani rivojida Sharq matematiklarining tutgan o'рни**

*1. Muhammad ibn Muso-al Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jamshid Giyosiddin al-Koshiy, Ulug'bek asarlarida arifmetikaning rivojlanishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar.*

Hayotimizda chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Xalqimizning asriy orzusi mustaqillikka tinch, parlament yo'li bilan erishdik. Istiqlol tufayli o'zbek xalqi o'zining haqiqiy tarixini, jahon tan olgan madaniy va ma'rifiy boyliklarini, urf-odat va an'analarini tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblardan ko'p bo'lgan. Muhammad ibn Muso-al Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jamshid Giyosiddin al-Koshiy, Ulug'bek va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz o'z asarlarida arifmetikaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoladilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Biz ularning asarlari bilan tanishib chiqamiz.

## MUHAMMAD IBN MUSO-AI XORAZMIY



1. Muhammad ibn Muso-al Xorazmiy 783 yilda Xorazmda, Xivada tugʻilgan. Yoshligidan ilm-fanga qiziqqan. Qunt bilan arab, fors, hind va yunon tillarini oʻrgangan. Donishmand sifatida tanilgan, IX asr boshlarida oʻz davrining katta ilmiy va madaniy markazi hisoblangan Bagʻdodga taklif qilingan. Xorazmiy saroyda barakali ijod qilib, Sharqning dastlabki akademiyasi («Bayt-ul-Hikmat») «Donishmandlar uyi "da faol ishtirok etdi.

Xorazmiy juda koʻp asarlar yaratgan boʻlsa ham ularning hammasi bizga yetib kelmagan.

Xorazmiyning arifmetika va algebraga oid asarlari matematika tarixida yangi davrni oʻrta asrlar matematikasi davrini boshlab berdi, hamda matematikaning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga beqiyos hissa qoʻshdi.

Oʻquvchilar algebra, algoritm soʻzlarini koʻp eshitishgan. Algebra matematikaning katta bir boʻlimi, algoritm esa hozirgi zamon hisob texnikasining, matematikasining asosiy termini.

Algebra, algoritm soʻzlari matematik, astranom va geograf, «Hozirgi zamon algebrasining otasi «al — Xorazmiy nomi bilan bogʻliqdir. Uning «Al — jabr val-muqobala» risolasi keyinchalik Yevropada «algebra» deb ataladigan boʻldi.

Ayni shu asar tufayli Al-Xorazmiy nomidan XII asr boshlarida «algoritm» termini paydo boʻldi.

Xorazmiyning matematikaga oid shoh asarlari Gʻarb va Sharq xalqlari tillariga tarjima qilinib, koʻp asrlardan buyon qoʻllanma sifatida xizmat qiladi.

Xorazmiyning «Hind hisobi va sonlari haqida», «Al-Jabr», «Arifmetika», «Marmar soat haqida», «Yer surati», «Tarix kitobi», «Yahudiy eralari va bayramlari» haqida asarlari, ayniqsa maʼlum va mashhurdir. Uning «Ziji» nomli asari dastlabki astronomik asar sifatida Sharqdagina emas, Gʻarbda ham shu fan rivoji uchun katta xizmat koʻrsatgan.

Muhammad ibn Muso Xorazmiyning ibratli hayoti, ijodi, yaratgan asarlari, qoldirgan merosi bebaho boylik boʻlib, hozirgacha ham qimmatini va ahamiyatini yoʻqotmagan.

## MUHAMMAD TARAG'AY ULUG'BEK(1394- 1449)



Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394-yilda Eronda Sultoniya shahrida tug'ilgan. Ulug'bek — buyuk o'zbek olimi va davlat arbobi. U Temurning (1336-1405) nabirasi. Ulug'bekning otasi Shohrux (1377 -1447) ham davlat arbobi bo'lgan. Asl nomi Muhammad Tarag'ay. 1409 yilda Shohrux otasining davlati o'rnida ikkita mustaqil davlat tuzdi. Biri Xuroson - markazi Hirot, ikkinchisi

Movaraunnahr- markazi Samarqand. Hirotni Shohruh o'zi boshqardi. Movarounahrni boshqarishni esa Ulug'bekka topshirdi. Bobosi Temurning aksi sifatida Ulug'bek harbiy yurishlarni yoqtirmas edi. U juda zarur bo'lsagina, biror xon uning davlati chegarasini buzsa, unga qarshi yurish qilar edi. Uni ilm-fan, qurilish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish ko'proq qiziqtirar edi. U 1447 yil Buxoroda, 1490 yil Samarqandda, 1432-1433 yillari G'ijduvonda madrasa qurdirdi. «Bibixonim» masjidi, «Go'ri - Amir» maqbarasi va «Shohi-Zinda»ni qurilishini nihoyasiga etkazdi.

Taxminan 1424-1428 yillari u Samarqand yaqinidagi Obi Rahmat tepaligida o'zining rasadxonasini qurdirdi. Rasadxonaning binosi 3 qavatli bo'lib, uning asosiy quroli - sektantning balandligi 50 metrcha edi.

Ulug'bekning ilm - fanga qiziqishida, birinchidan bobosi- Temur bilan o'zga yurtlarga qilgan safarlari, bobosi saroyidagi shoirlar va olimlar bilan o'tkaziladigan suhbatlar, otasi - Shohruxning noyob kitoblarini sevishi va yig'ishi, yunon olimlari Platon, Aristotel, Gippark, shuningdek, o'z vatandoshlari - Xorazmiy, Beruniy Ibn Sinolarning asarlari bilan yaqindan tanish bo'lish, o'sha zamonda O'rta Osiyoda matematika, astronomiya va boshqa fanlardan yetuk asarlar mavjudligi sabab bo'lgan. Bu shart sharoitlarning hammasi Ulug'bek ilmiy yo'nalishining shakllanishiga, Samarqandda «Astronomiya maktabi» ning vujudga kelishga sabab bo'ldi.

Ulug'bek maktabining muhim ilmiy ishlaridan biri «Ulug'bek ziji» yoki «Ziji ko'ragoni» deb ataluvchi astronomik jadvallardir. Zij, kirish ya'ni nazariy qism va Ulug'bek rasadxonasida o'tkazilgan kuzatishlar bo'yicha tuzilgan jadvallardan iborat.

Zijda yil hisobi jadvallari, trigonometrik jadvallar, sayyoralar harakati jadvali va yulduzlar ro'yxati bor.

Ulug'bekning trigonometrik jadvallari 10 ta o'nli xona aniqligida hisoblangan. Hisoblash vositalari deyarli bo'lmagan bir davrda bu ishlarni bajarish uchun anchagina hisobchilar talab qilingan. Ehtimol, hisoblash markazi bo'lgandir?!

Ulug'bekning sinus va kosinuslar jadvallari bir daqiqa oraliq bilan tuzilgan. Zijda Ulug'bek bir gradusning sinusini hisoblash uchun alohida risola yozganligi qayd qilindi. Ammo uning bu asari hozircha topilmagan.

Zijning amaliy astronomiyaga ta'lluqli qismida elliptik ekvatorga og'ishi, osmon yoritgichlarining koordinatlarini aniqlash, yerdagi ixtiyoriy punktning geografik uzunligi va kengligini aniqlash, yulduzlar va sayyoralar orasidagi masofalarni aniqlash kabi masalalar bor. Ulug'bek Oy va Quyosh tutilishlarini ikki usulda:

1. O'zi tuzgan jadvallar yordamida;
2. Bevosita hisoblab aniqlash mumkinligini aytadi va usullarga doir misollar keltiradi.

Ulug'bekning yulduzlar ro'yxati 1018 yulduzdan iborat bo'lib, u yulduz turkumlari bo'yicha joylashtirilgan. Ro'yxatda har bir yulduzning turkumdagi nomeridan tashqari, uning yulduz turkumidagi o'rnining qisqacha tavsifi, 1437 yildagi teng kunlik nuqtasiga nisbatan uzunligi va kengligi berilgan.

Buyuk olimning «Risolayi Ulug'bek» nomli astronomik va «Tarixi ulusi arbaa» nomli tarixiy asari ham o'rganilmagan. Bu asarlar, umuman, fan tarixida ham ma'lum va noyobdir.

Shuni ham aytish kerakki, musulmon mamlakatida va umuman, islom madaniyatida aniq fanlar, ayniqsa, astronomiya va matematika nihoyatda muhim o'rin tutdi, chunki musulmon qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, erta tongdan oqshomga qadar uning uchun besh vaqt nomoz farzdir. Nomoz vaqtlari esa har bir geografik kenglikda ham Quyoshning Yerdan balandligiga qarab belgilanadi. Undan tashqari islomda qabul qilingan Hijriy yil hisobi 354 kunni tashkil qiluvchi 12 qamariy oydan iborat bo'lib, hilolni masjid minorasidan yoki rasadxona tepasidan ko'z bilan ko'rib aniqlangan.

Shuning uchun musulmon kishining hayoti astronomiya, matematika, jo'g'rofiya, hunarmandlik va me'morchilikka aloqador bo'lgan.

Reaktsion doiralar tazyiqi ostida Ulug‘bekning o‘g‘li- Abdullatif 1449 yilning kuzida otasini Makkaga safari bahonasida Samarqand yaqinida qatl ettirdi.

Ulug‘bekning jasadi Samarqandda dafn etilgan.

1449 yili Ulug‘bekning fojeali o‘limidan so‘ng Samarqand olimlari asta sekin yaqin O‘rta sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketdilar. Ular o‘zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va «Zij»ning nusxalarini ham yetkazdilar. Xususan, Ali Qushchi 1473 yil Istambulga borib, u yerda rasadxona qurdirdi. Shu tariqa Ulug‘bek «Zij»i Turkiyada tarqaldi va Turkiya orqali Yevropa mamlakatlariga ham yetib bordi.

Hozirgi kundagi ma‘lumotlarga ko‘ra, «Zij»ning 120 ra yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud.

### **JAMSHID G‘IYOSIDDIN AL-KOSHIY**

O‘rta Osiyolik atoqli matematik va astronom. To‘liq ismi Jamshid Ibn Ma'sud Ibn Maxmud G‘iyosidin al-Koshiy.



Taxminan 1430 yilda Samarqandda vafot etgan. Uni “Koshoniy” ham deb atashadi, chunki u Eronning Koshon shahrida tug‘ilgan.

Koshoniyning tarjimai holi haqida deyarli ma‘lumotlar yo‘q. Ba'zi matematika tarixchilarining yozishiga qaraganda u boshlang‘ich ma‘lumotni o‘z ona shahri Koshiyda olgan. XV asrda Koshon ancha rivojlangan shahar bo‘lgan. U o‘zining olimlari, ayniqsa qo‘li gul ustalari bilan sharqda dong taratgan. O‘rta asr olimlari singari Koshiy ham fanning juda ko‘p sohalari bilan shug‘ullangan. U qiziqqan fanlar qatorida meditsina ham bo‘lgan. Koshiyni Ulug‘bek o‘zining astronomiya maktabida ishlashga taklif qilgan. Astronomiya maktabi uchun ilmiy kadrlar zarur edi. Koshiy Ulug‘bek madrasasida Astronomiya va matematikadan dars berdi. Bir vaqtning o‘zida u Ulug‘bek maktabida olib borayotgan ilmiy ishlarda ham ishtirok etdi. U ilmiy ishlarning yakuni sifatida "Hisob kaliti", "Aylana haqida risola", "Vatar va sinus haqida risola" nomli va boshqa ko‘plab asarlarni yaratdi. Koshiyning matematika sohasida qilgan kashfiyotlari juda katta. Uning zamonida hisoblash ehtiyojlari uchun 60 li sanoq sistemasidan foydalanilar edi. U birinchi bo‘lib o‘nli kasrlarni kashf qildi va ular ustida amallar bajarishning qoidalarini ko‘rsatib berdi.

Koshiyning ikkinchi kashfiyoti sonlardan  $n$ -darajali ildiz chiqarish amali edi. Koshiy Umar Hayyom asarlari orqali formulani ixtiyoriy



natural darajalar uchun bilgan va undan ixtiyoriy sondan natural darajali ildiz chiqarishda foydalangan. Bu usul Koshiygacha bo'lmaganmi, degan savolga matematika tarixchisi P.Lukey bu usul kub ildiz chiqarish uchun Ahmad al-Nasafiyda uchrashini aytdi. Lekin Nasafiy bilan Koshiy orasidagi davrda bu usul bilan Umar Hayyom shug'ullangan bo'lishi kerak deb taxmin qiladi. Lekin bu usulning istalgan natural p-lar uchun umumlashtirishi shubhasiz Koshiyga taaluqli.

Koshiyning "Aylana haqida risola" asari aylana uzunligining o'z diametriga nisbatan, ya'ni  $\pi$  sonini hisoblashga bag'ishlangan.  $\pi$  ning aniq qiymatini hisoblash bilan olimlar juda qadim zamonlardan boshlab shug'ullanishgan.

Koshiy  $\pi$  ning qiymatini hisoblashda Arximedning usuli aylanaga ikki muntazam ko'pburchak chizishdan foydalanadi. U muntazam (3.228) - ko'pburchakning perimetrini hisoblab,  $2\pi$  ning oltmishli sanoq sistemasidan ushbu qiymatini keltiradi.

1	1	1	1
1016	609	2	6010

O'nli sanoq sistemasida u quyidagicha  $2\pi=6,2831853071795865$  yoki  $\pi=3,1415926535897932$ .

Koshiyning uchinchi asari - "Vatar va sinus haqida risola" hozircha topilmagan. Lekin "Hisob kaliti" asarida eslatilishicha, Koshiyning bu asari ham matematikaning muhim muammolaridan bo'lishi-berilgan yoy va vatarga ko'ra uning uchdan birining vatarini anglashga, hozirgi belgilashlarda esa  $\sin 30^0$  bo'yicha  $\sin 10^0$  ni topishga bag'ishlangan.

Trigonometriyaning bu usuli matematikadagi juda ko'p masalalar bilan bog'liq.

Birinchi, u  $x^3+g=rx$  ko'rinishidagi kub tenglamaning ildizlarini integratsion usulda hisoblash, ikkinchidan qadimgi klassik masala-burchak trisektsiyasi bilan bog'liq.

Yuqorida eslatganimizdek Koshiy Ulug'bekning astronomiya maktabida olib borilgan matematik hisoblash ishlarida faol qatnashgan, o'zi ham astronomiyaga oid bir nechta asarlar yozgan. Ammo uning asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Xulosa qilib aytganimizda, Al- Xorazmiy, Ulug'bek, Forobiy boshqa bir qancha allomalarimiz qatorida Koshiy ham o'zining bir qator matematikaga oid asarlarini yozdi. G'iyosiddin Koshiy nafaqat matematikaga oid, balki astronomiyaga oid ham asarlar yaratdi. U hamma fanlarga qiziqadi va mukammal o'zlashtiradi.

G'iyosiddin Koshiyning asarlari hozirgi kunda ham qo'llanilmoqda.

Ayniqsa uning matematik asarlari matematik olimlar uchun juda foydali bo‘lmoqda.

### **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Muhammad ibn Muso-al Xorazmiy asarlarida arifmetikaning rivojlanishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar

2. Jamshid Giyosiddin al-Koshiy asarlarida arifmetikaning rivojlanishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar.

3. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek asarlarida arifmetikaning rivojlanishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar.

## **1.3. Pedagogik psixologik adabiyotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarini rivojlantirish masalalari**

### ***1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika elementlariga o‘rgatish to‘g‘risida.***

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda va boshlang‘ich maktab yoshida elementar matematika tasavvurlarini taraqqiy ettirish muammolari ustida ilmiy ishlar olib borgan pedagoglardan: Y.N.Tixeevaning sistema va qarashlarini tanqid qildi. Bolalarni aqliy tomondan tarbiyalashda boshlang‘ich matematik tushunchaga katta ahamiyat beradi.

Y.N.Tixeeva «bola bilimni hayotdan olishi kerak, hayotning o‘zi har qadamda bolaning oldiga amaliy vazifalarni qo‘yadi, ya‘ni o‘lchash, sanash, ayirishlar. Har bir normal bola kattalarning yordamisiz 10 gacha sanashni bilib oladi», deydi. Ayniqsa birinchi o‘nlik sonlarni bilib olishga katta ahamiyat beradi. U bolani sanashga o‘rgatishda majbur qilmaslik kerak, faqat unga ko‘rgazmali, didaktik material berish kerak deydi. Maxsus material bilan birgalikda tabiiy materiallar tashlandiq materiallar berish kerak, deydi. Y.N.Tixeeva birinchi bo‘lib matematik tasavvurlarga o‘rgatish programmasini tuzishga urinib ko‘radi. Son-sanoqqa o‘rgatishda o‘n ichida sanash, bir va ko‘p tushunchasidan boshlab raqamlar bilan tanishtirishning soat bilan tanish masalalar yechish, kasrlar bilan tanishtirishni kattalik va shakllar bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. Y.N.Tixeeva sanamasdan sonlarni bir ko‘rishda ilib olish metodini tavsiya etadi, ya‘ni monografik metod asosida. 1915 yilda Y.N.Tixeeva “Bog‘chada son-sanoq” kitobini yozadi. Uning qarashlari bir-biriga ziddir. Nazariyada bolalarning taraqqiyotiga aralashmaslik kerak desa, amalda esa tarbiyachining o‘yin va mashqlarida rahbarlik rollarini qo‘llab-quvvatlaydi. Son haqidagi

tushuncha tugʻma deb, bolalarni maxsus mashgʻulotlarda sanashga oʻrgatishga yoʻl qoʻymaslik kerak, deydi. Shuning uchun son-sanoq metodikasini ishlab chiqmaydi, balki son-sanoqqa oʻrgatish programmasini belgilab chiqadi. Y.N.Tixeeva didaktik va hayotiy materiallarning rolini koʻrsatdi, uni oʻrgatishda ketma-ketlik, sistemalilik, takroriylik prinsipiga amal qilishni koʻrsatdi. Y.N. Tixeevaning kamchiligi u oʻrgatishda asosiy metod faqat didaktik oʻyin metodi deb hisoblaydi. Lekin Y.I. Tixeevaning didaktik oʻyinlari va didaktik materiallaridan foydalanish mumkin.

F.N.Blexer koʻp yillar bolalarda matematik tasavvurlarni oʻstirish masalalari ustida ishladi. U quyidagi kitoblarni yozdi:

- «Bolalar bogʻchasi va tayyorlov guruhida matematika»,

- «Didaktik oʻyinlar»,

- «Birinchi sinfda qiziqarli oʻyinlar va mashqlar»,

1932, 1934, 1938, 1945, 1958 yillardagi tarbiya dasturlarining matematikaga oʻrgatish boʻlimini ishlab chiqdi.

F.N.Blexer bolalarni sanashga oʻrgatish kerak emas, sharoit yaratish kerak deydi. U maxsus mashgʻulotlarni inkor etadi. Faqat tayyorlov guruhlardagina mashgʻulot oʻtkazish kerak, deydi. U koʻproq yakkamayakka yoʻl-yoʻlakay oʻrgatishni maʼqullaydi. Bu bilan u Y.N. Tixeeva va L.K.Shlegerlarning fikrini quvvatlaydi. F.N.Blexer didaktik oʻyinlarga katta ahamiyat beradi. U juda qiziqarli didaktik oʻyinlarni ishlab chiqdi. Didaktik oʻyin bu oʻrgatishning eng asosiy metodi deydi. “Didaktik oʻyinlar” kitobida tarbiyachilarning ish tajribalaridan foydalanadi, lekin ilmiy asoslanmaydi. Chunki biz bilamizki bolalarni faqat maxsus mashgʻulotlardagina oʻrgatish mumkin.

Didaktik oʻyin esa asosiy metodlardan faqat bittasidir. Lekin u birdan bir metod boʻla olmaydi. U boshqa metodlar bilan birgalikda qoʻllaniladi. Shunday qilib, F.N. Blexer 30-40 yillar ichida bogʻcha ishiga katta hissa qoʻshdi. Lekin hayot bir joyda turmaydi, oxirgi 50-60 yillar davomidagi ilmiy ishlarning natijalari bolalar bogʻchasida elementar matematika tasavvurlarini ishini ilmiy asosda olib borish imkonini berdi. Hozirgi vaqtda F.N.Blixerning didaktik oʻyinlaridan qisman foydalanish mumkin.

A.M.Leushina oʻzining butun hayotiy faoliyati davrida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga sanoqni oʻrgatish masalalari boʻyicha ish olib bordi, Leushinaning pedagogik ishlari: “Bolalarni bogʻchada sanashga oʻrgatishga tayyorlash” 1959-1961 yillardan boshlab bosilib chiqdi. «Bolalar bogʻchasida sanoq mashgʻuloti» kitobi 1963 yilda

bosilib chiqdi. Juda ko'p maqolalari «Doshkolnaya vospitaniya» jurnalida bosilib chiqdi. Pedagogika institutlari uchun «Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'limda elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish» kitobi bosilib chiqdi. A.M. Leushina tomonidan 1962-63 yillardagi dastur ham ishlab chiqarilgan. A.M. Leushina bolalarning elementar matematik tasavvurlarini o'stirish bo'limining muallifi hisoblanadi. A.M. Leushina o'zining keyingi 20-30 yillik faoliyatida bolalarni sanoqqa o'rgatish masalalari bo'yicha ish olib bordi. U bolalarning matematik tasavvurlarni o'stirish bo'yicha ish olib borayotgan pedagoglar va shu kafedra olimlariga rahbarlik qildi.

A.M. Leushina o'zining ishlari asosida ilmiy tekshirish eksperimental ishlari shu mavzudagi psixologlarning tekshirishi, bolalarni yaxshi tarbiyalash ilmiy tekshirishlar, bolalarni maktabga



tayyorlashda yordam beradi. A.M. Leushina ishlarining asosiy tanqidi bularni o'zining metodida isbotlaydi. Bundan 30-40 yil oldin psixolog va pedagoglarimiz elementar matematikaning vaqt, tevarak-atrof, shakl bo'limlari ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu albatta juda ham kech edi. 1969-70 yillardagi dasturga birinchi bo'lib matematik tasavvurlarning boshqa bo'limlari ya'ni vaqt, tevarak atrof, kattalik, shakl bo'limlari kiritildi. A.M. Leushina sanoq bo'limi bo'yicha ikkinchi kichik gruppadan boshlab haftada 1 marta maktabga tayyorlov gruppada, haftasiga 2 marta maxsus mashg'ulotlar o'tkazishni taklif qildi. Uning taklifiga binoan bunday mashg'ulotlar 1970 yildan boshlab o'tila boshladi.

Uning xizmatlari evaziga pedagogika institutlari va pedagogika bilim yurtlarida matematika kurslari uzaytirilgan. U oxirgi 20-30 yillar davomida bolalarni sanoqqa o'rgatish masalasi bo'yicha ish olib borgani uchun matematik tasavvurlarining boshqa masalalari bo'yicha ish olib borolmaydi. Lekin shunga qaramay 1968 yilda bolalar bog'chasi tarbiya programmasining sanoq bo'limi u tomonidan ishlab chiqildi.

A.M. Leushinaning 1963 yilda chiqqan «Bolalar bog'chasida sanoq bo'yicha mashg'ulotlar» asari bolalar bog'chasining o'zida o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari qo'lyozma bo'yicha yozilgan. Olimlar va psixologlar elementar matematika bo'yicha bir qancha ishlar olib bormoqdalar. A.M. Leushina bolalarni son-sanoqqa o'rgatishni ilmiy

metodga asoslab yangidan tuzdi. Sanoqqa o'rgatish aqliy vazifalar asosida tuzildi.

Bosqichma-bosqich ko'pliklar bilan tanishtirish, sonlar bilan tanishtirish, miqdor son, tartib son, sonlarni birliklardan iborat tarkibiy miqdori bilan tanishtirish, 5 ni 2 kichik songa ajratish, kichik son dan 5 sonini hosil qilishga o'rgatish, sonlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish arifmetik masalalar yechish, ikki to'plamni taqqoslash, ular o'rtasidagi tenglik va notenglikni aniqlashga o'rgatish o'rganilgan.

A.M.Leushinaning xizmatlari yana shundaki, u analizator yordamida sanashga o'rgatishning xilma-xil mashqlarini ishlab chiqdi.

## ***2. 50-90 yillarda O'zbekistondagi bolalar bog'chalarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishga o'rgatish metodikasi masalalari.***

50-90 yillarda O'zbekistondagi bolalar bog'chalari elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi asoslari rivojlanishi bo'yicha ko'pgina pedagoglar ish olib bordilar. Jumladan: Bikbaeva H.U. 1973- yildan boshlab, Rossiyalik pedagoglar, Leushina A.M., Stolyar A.A., Metlina L. S larning ishlarini ko'rib chiqib, ularning hammasi bizning O'zbekiston bolalar bog'chalariga to'g'ri kelmasligini isbotlaydi va yangi dastur yaratdi.

Metodistlar Qosimova X.I., Ibroximova Z.I lar bilan birgalikda 1995- yili «Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish» mavzusida o'rta va oliy pedagogika bilim yurtlari uchun o'quv qo'llanma tayyorladilar.

Respublikadagi pedagogika o'quv yurtlari uchun Bikbaeva N.U. Qosimova X.I. bilan birgalikda «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish asoslari va metodikasi» kursi bo'yicha dastur tayyorladi.

Bolalar bog'chalarning turli yosh guruhlari uchun qo'llanma tayyorlangan.

### **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda va ularni maktabga tayyorlashda matematik bilimlarning roli.

2. Matematik bilim berish vositalari nimalardan iborat?

#### 1.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta'limning asosiy didaktik prinsplari va tamoyillari

##### 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta'limning asosiy didaktik prinsiplari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik taasavvurlarni shakllantirishda pedagogikadagi asosiy prinsplaridan foydalanamiz. Ular quyidagilardan iborat.

**Ilmiylik prinsipi** bog'chada o'rganiladigan faktlarni ular fanda qanday yoritiladigan bo'lsa, shunga moslab yoritishni talab qiladi, ya'ni biz ilmiylik to'g'risida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda berilayotgan bilim mazmuni ilmiylik asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

M:  $2 + 2 = 4$  ilmiy asosida.  $2+2=5$ lar ham uchrab turadi, lekin bu ilmiy asosda emas.

M:  $3=7$

Isboti.

$$\begin{aligned}15-15 &= 35-35 \\3*(5-5) &= 7*(5-5): (5-5) \\3 &= 7\end{aligned}$$

Isbotdagi xatoni toping. Javob:  $5-5 = 0$ , biz bilamizki nolga bo'lish mumkin emas.

**Tarbiyaviylik prinsipi** maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tassavvurlarni shakllantirishda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga harakatini, ularni egallash va mustaqil kengaytira olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi shu bilan birga ularda tafakkurni shakllantirish, matematik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, xotira va diqqatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash kabi ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu prinsip maktabgacha yoshdagi bolalarda ziyraklik, topqirlik, aqllilik xislatlari bilan birga Vatanga muhabbatni hamda rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalash ham matematika mashg'ulotlarida amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini ifodalaydi.

**Nazariya va amaliyotning birlik prinsipi.** Bu prinsip berilgan nazariy bilimlarning hayotga, amaliyotga bog'lanishini butun choralar bilan kengaytira borishni talab qiladi. Matematika nazariyadan bevosita har-xil mashq va masalalarni yechishga o'tish yo'li bilan bu prinsip keng suratda amalga oshiriladi. Haqiqatdan ham yosh bolalarga har kuni ko'zi bilan ko'rib yurgan xonada, ko'chada, uydagi narsalar bilan bog'langan

holda mashg'ulot o'tish, ya'ni bilim berish lozim, chunki bu bolalarning tez tushunib olishiga, o'zlashtirishiga yordam beradi.

**Ko'rgazmalilik prinsipi.** Bolalar tafakkurining aniqlikdan abstraktlikka qarab rivojlanish xususiyatlariga bog'liqdir. Matematikani o'qitishdan asosiy maqsad — mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iboratdir; biroq matematikani o'qitish aniq fakt va obrazlardan ajralmasligi, aksincha, har qanday masalani o'rganishi shu aniq fakt va obrazlarni tekshirishdan boshlash kerak.

Ko'rgazmalilik o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi va bilimning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

M: doira haqida gapirganimizda bolaning har biriga doirachalardan berib qo'yib bolalar ikki qo'llari orasida ushlab ko'rishlari kerak. Uning dumaloq ekanini, tekis ekanini qo'l uchidagi bolaning hamma analizatorlari qatnashgan holda eslarida yaxshiroq qoladi.

**Bilimlarni o'zlashtirishda sistemalilik, ketma-ketlik va mustahkamlik prinsipi.** Matematikada materialni sistemali bayon etishning ahamiyati juda katta, chunki matematikada ayrim faktlar orasidagi mantiqiy bog'lanishlar g'oyat muhimdir. Bolalarga berilayotgan bilim parcha-parcha bo'lib qolmay, bir-biri bilan bog'langan holda oson misollardan boshlanib asta — sekin murakkablashtirib borilishi lozim.

**Puxta o'zlashtirish prinsipi** esa matematikada ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Matematik tushunchalar o'zaro shu qadar bog'langanki, majburiy minimumning biror qisminigina bilmagan taqdirda ham bolalar o'z bilimlarini hayotda foydalana olmay qoladilar va matematik bilim olishni davom ettirish qiyinroq bo'ladi.

Matematikada son va sanoq, kattalik, geometrik figuralar, tevarak atrofni bilishni, vaqtni chamalash malakalarini puxta egallashining ham ahamiyati juda katta. Ayniqsa matematikada boshqa fanlardagiga qaraganda ham, programmaning biror qismini yaxshi o'zlashtirmasdan va malakani yaxshi mustahkamlamasdan turib, muvaffaqiyat bilan oldinga qarab borish mumkin emas.

**Individual yondashish (ravonlik) prinsipi.** Ravonlik prinsipi bolalarning yosh xususiyatlarini, ya'ni qobiliyatlarini, psixologiyasini hisobga olish kerak degan talablardan kelib chiqadi va bu prinsip matematikani o'qitish protsessida amalga oshirilishi shart. (Lekin bizning bog'chalarimizda bu prinsip amalga oshirilmayapti).

## **2. MTTda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari.**

MTT ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyati va salohiyatlarini hisobga olish.
- Ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi:
- Bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish:
- Bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash:
- O'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish:
- Bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish:
- Bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash:
- MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi:
- Milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish:
- Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbari javobgar bo'ladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'limdagi asosiy didaktik prinsiplarning umumiy mohiyati nimada?
2. Ilmiylilik prinsipi qanday qo'llaniladi?
3. Tarbiyaviylik prinsipining mohiyatini ayting.
4. Ko'rgazmalilik prinsipini tushuntiring?
5. Nazariya va amaliyotning borligi prinsipining mohiyati nimadan iborat?
6. Individual prinsipini qo'llash qanday afzalliklarga ega?

## **1.5. MTT ning turli yosh guruhlarida matematika mashg'ulotlarini tashkil qilish**

**1. MTTda sensor tarbiya berish.** Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Samarali faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan



buyumlar, applikasiyalar yasash) sezgi va idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratibgina qolmay, balki buyumning shaklini, rangini, joyini bilib olishga ham ehtiyoj paydo qiladi. Biror narsaning rasmini chizishdan oldin bolani buyumlarning rangiga qarab taqqoslashga o'rgatiladi, suratlarni ko'zdan kechirishda esa qanday qilib rang yordamida tasvirning badiiy ifodaliligiga erishilishini ko'rish qobiliyati rivojlanadi.



Bog'chada bolalar butun yil davomida tabiat bilan tanishtirib boriladi, ularga o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish topshiriladi. Bu suv, yer, quyosh issiqligining xususiyatlarini sezib bilib olish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Bolalar tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lish tufayli gul, toshlarning nomini osongina va bajonu dil bilib oladilar, keyinchalik ularning shakli, rangi, tuzilishi, hidi, nomini silliqligi va mayinligiga qarab topadilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar "oldinga", "orqaga", "tepada –pastda", "uzoq –yaqin", "chapda –o'ngda" kabi fazoviy tasavvurlarni o'zlashtirib oladilar va hayotiy vaziyatda ularga amal qiladilar, buyumlarning shakli, ular o'lchamining farqiga yetadilar, ularni o'zaro taqqoslaydilar.

Bolalar tabiat bilan tobora ko'proq aloqada bo'lishlari tufayli taassurotlari eshitib ta'sirlanish xususiyatlari ortib boradi. Bolalarni qushlarning sayrashi, barglarning shitirlashi, shamolning guvillashi, yomg'irning shatur –shuturi va mo'laqaldiroqning gumburlashini diqqat bilan tinglashga o'rgatish zarur.

Sensor tarbiyaning asosiy usullaridan biri –tekshirishdir.

Tekshirish –buyumlarni maxsus ravishda tashkil etilgan idrok qilishdan iborat bo'lib, uning natijalaridan keyinchalik ma'lum bir

mazmunli faoliyatda foydalaniladi. Tekshirish jarayonida bolalar katta – kichiklikni, shaklin, fazoviy munosabatlarni, rangni, nutq tovushlari bilan musiqiy tovushlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish va farqlashga o‘rganadilar.

Mashg‘ulotlarda bolalarning hissiy bilish tajribasini egallab olishlari muhim rol o‘ynaydi. Holbuki shu mashg‘ulotlarda bolalarning sezgi, idrok va tasavvurlarini tarbiyalashga jonli rahbarlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Bolalar biror buyumni nima uchun sinchiklab qarash, ba’zi tovushlarni yaxshilab eshitish kerakligini aniq tushunganlaridagina, ularda sinchiklab qarash, narsa va hodisalarni idrok qilish malakasi hosil bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni narsa va hodisalarni idrok qilishga o‘rgatib, ularga qiladigan ishlarining ma’nosini aniq tushuntirib berishi lozim. Shundagina ular ancha tushungan holda idrok qiladilar va u biror maqsadga qaratilgan bo‘ladi: axir, daraxat shoxlari (novdalarini) yaxshilab ko‘zdan kechirilmasa, uning rasmini chizish ancha qiyin bo‘ladi.

Boshqa faoliyat turlariga, masalan, mehnatga tayyorgarlik ko‘rishda tegishli tekshirish usullari tanlanadi.

Masalan, qog‘oz va gazlamaning xossalarini aniqlash uchun tarbiyachi bolalarga qog‘oz va gazlamani g‘ijimlanganda nima bo‘lishini eshitib ko‘rishni, qog‘oz va bir parcha gazlamani yirtib ko‘rishni, qog‘oz va gazlamadan qilingan qo‘g‘irchoq ko‘ylagini suvda yuvishni taklif etadi.

To‘plangan tajribalarni bolalar boshqa buyum va hodisalarga ko‘chiradilar, undan kundalik hayotlarida foydalanadilar: “kel, qumga suv quyamiz, u nam bo‘ladi, biz undan tunnel quramiz”, “Bu chelakni ko‘tarma, unda qum bor, u juda og‘ir”.

Buyumlarning xususiyatlarini, nomini va ta’rifini aniqlash, ularni ma’lum bir xossalariga ko‘ra taqqoslash uchun didaktik o‘yin va qo‘llanmalardan ham foydalanish mumkin. Ular bolalar bilan olib boriladigan xilma –xil mashg‘ulotlar, mehnat, kuzatishlar va bolalarning mustaqil ishlarida yaxshigina qo‘shimcha material hisoblanadi.

**2. Mashg‘ulot ta’limning tashkiliy sharti ekanligi.** Ta’lim shakli deganda ta’lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma’lum bir vaqtda o‘tkaziladi.

Ta’lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xususiyatiga, o‘tkazish joyiga, shuningdek kun tartibida egallagan o‘rniga qarab bir –biridan farq qiladi.

Bolalar bog'chasida ta'limning frontal (umumiy), guruh bilan va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida va shunga o'xshashlarda amalga oshirib boriladi.

Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot –pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy –gigiyenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq–hisob harakatlari kabi turli–tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab. Mustahkamlaydi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta –sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar, o'z –o'zini yaxshi tashkil etadigan bo'lib qoladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlari rivojlana boradi.

Bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir –birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish –yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs –o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni, ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialini yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi.

Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga erishish, hikoya qilinayotgan voqyeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi tako'llashtirib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi.

Bolalar bog'chasida kichkintoylarni tevarak –atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, tasviriy san'at mashg'ulotlari, qurish –yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejali suratda muo'lalada bo'lishidan iborat bo'lib .bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daklar ixtiyoriy diqqati o'sib borgani sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalarni bilan bir yo'la olib boriladi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r



berishni talab etadi, ya'ni u bolaning aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur; mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini, dasturning har xil

bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.

Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqa davom etishi bolalar bog'chasi tarbiya dasturida ularning yosh xussiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda o'tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot setkasini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki, haftaning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojlantirish, savodga o'rgatish va h.k.) Jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi mashg'ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yiladi.

Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Bog'cha dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni (bular tabiatga muhabbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishini nazarda tutadi: bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug' kishilarga muhabbat va hurmat, o'lkaning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ijtimoiy hodisalar, voqealar to'g'risida umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardagi bolalarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabki bilimlar asosida vatan to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o'qituvchining mehnati haqidagi bilimlar xilma -xil mehnat turlari haqidagi ma'lumotlar sistemasining bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar-ijtimoiy mehnatning jamoa xarakteri to'g'risidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy

xarakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o‘xshash ko‘pdan – ko‘p mehnat turlari bilan tanishishi lozim.



**3. Mashg‘ulotning turlari va tuzilishi.** Didaktik maqsadiga ko‘ra mashg‘ulotlar quyidagi xillarga bo‘linadi: bolalarga yangi bilim beruvchi mashg‘ulotlar, bolalarning egallagan bilimlarni mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg‘ulotlar: bolalarning bilimini tekshiruvchi – sinovchi mashg‘ulotlar; kompleks mashg‘ulotlar.

1. Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan maqsad - ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak –atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to‘g‘risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg‘ulotlarga yangi obyektни kuzatish, hikoya qilib so‘zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg‘ulotlar hamma yosh guruhlarida o‘tkaziladi.

2. Bolalarning to‘plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg‘ulotlar. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarni anglab olish va daslabki umumlashtirishga o‘rgatishdir. Buning uchun tanish obyekt kuzatiladi, ikki narsa solishtiriladi (xona o‘simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o‘yinlar, suhbatlar o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotni o‘tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o‘zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o‘zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar –detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimini sinovchi mashg‘ulotlar. Bunday mashg‘ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo‘yicha

o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni o'zlashtirib oldilarmi –yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zining bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulotni tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

4. Mujassam (kompleks) mashg'ulotlar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarini amalda qo'llashga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat konstruksiyalash, tevarak –atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o'stirish, savod o'rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Mashg'ulotga to'g'ri tayyorgarlik ko'rib, uyushgan holda o'tkazilganda, bolalar oldiga ma'lum aqliy vazifa qo'yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi va ularning diqqatini ma'lum tomonga yo'naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani hal etish yo'lidagi qiyinchilikni yengish imkoniyati tug'iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyg'onib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o'ylaydi va vazifaning uddasidan chiqish uchun fahm – farosatini ishga soladi.



Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachining ko'rsatmasi, namunasiga qarab malaka va ko'nikmalarni o'rganadi. Bu bolalarning amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamini, mo'yqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish, narsa yasash, solishtirish, umumlashtirish,

asbraksiyalashni o'rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning hadeb takrorlanaverishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

**Mashg'ulot tuzilishi.** Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o'ylab olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.

**Bolalarni uyushtirish.** Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko'rinishi, joy –joyiga to'g'ri o'tirishganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. "Quloq solinglarchi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibdi!", deb mashg'ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to'g'isidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi.



Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga



borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

**Asosiy qism.** Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoatchilik munosabatlarini alohida munosabat bilan qo'shib olib boriadi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi.

Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak. Zarurat tug'ilsagina takrorlash mumkin.

Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi.

Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtirali. Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi.

Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son –sanoqqa o'rgatishda, qurish – yasashda, rasm chizganda qanday qilishi, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi).

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Masalan, son –sanoq mashg‘ulotida bolalar sanash materiali bilan o‘zlari mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig‘iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko‘paytirishadi. Buning uchun o‘yinchoqlardan ham foydalanish mumkin.

Mashg‘ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o‘z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg‘ulot yakka tartibda olib boriladigan bo‘lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish –yasash, konstruksiyalash), bolalar ishni har xil vaqtda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg‘ulot tugashiga bir necha daqiqa qolganda mashg‘ulotni tugatish kerakligi to‘g‘risida ularni ogohlantiradi.

Mashg‘ulotni tugatayotib, tarbiyachi o‘tkazilgan mashg‘ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg‘ulotda qatnashganini gapiradi, ba‘zan kelgusi mashg‘ulotda nimalar o‘tishlarini aytadi.

Bolalarning o‘quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimni to‘g‘ri baholashga bog‘liq.

Qo‘yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to‘g‘ri baholab, “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deyish bola uchun oddiy maqtovdan ancha qimmatlidir.



Ish qanchalik yaxshi tahlil qilinsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

Mashg‘ulotdan keyin tarbiyachi bolalarni o‘yinga taklif etadi, boshqa mashg‘ulot bo‘lmasa, sayrga tayyorlanishadi.

Mashg‘ulotda tarbiyachining bolalarga qo‘yadigan talabi ularning yoshi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Birinchi kichik guruh bolalarini ikkiga bo‘lib mashg‘ulot o‘tiladi. Tarbiyachi birinchi guruh

bolalari bilan mashg'ulot o'tiladi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg'ulot o'tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi mashg'ulot paytida hamma bolalarning faol qatnashishlariga harakat qiladi: savolga to'g'ri javob berishlarini, ko'rsatilgan narsaning nomini aytishlarini, rasm chizishlarini, narsa yasashlari va hokazolarni kuzatadi.

Agar bolalar ikkinchi kichik guruhga yangi kelgan bo'lishsa, dastlabki 1-2 haftada tarbiyachi faqat xohlagan bolalar bilangina mashg'ulot o'tkazadi: bolalar yangi sharoitni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan keyingina hamma bolalar bilan mashg'ulot o'tkaziladi.

Daslabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarni guruh xonasi, qo'g'irchoq va o'yinchoqlar bilan tanishtiradi. Qo'g'irchoqlar yordamida mashg'ulot o'tkazadi. Tarbiyachi avval bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otadi, keyin esa mashg'ulotning hamma uchun majburiy ekanligini sekin – asta bolalar ongiga singdirib boradi.

Sekin – asta mashg'ulot bolalar xulqiga moslab murakablashtirib boriladi. Ular mashg'ulot paytida axloq qoidalarini egallab oladilar: to'g'ri o'tirish, chalg'imaslik, tarbiyachi va o'rtoqlarini diqqat bilan eshitish, tarbiyachi so'ragandagina javob berish, javob berganda o'rnidan turish, kerak bo'lsa stolning oldiga borish va hokazolarni o'rganadilar.

Katta bolalar o'zlarini tez tashkil eta bilishlari lozim: bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga osonlik bilan o'tishlari, mashg'ulot vaqtida ish joylarini ozoda saqlashlari, rasmga qarab so'zlaganda ko'rsatkichdan foydalanishlari, javob berganda gavdalarini to'g'ri tutib turishlari, nutqlari tushunarli bo'lishi, shartli darajada baland ovozda gapirishlari, to'la javob berishlari, mashg'ulotdan keyin o'z ish joylarini yig'ishtirib qo'yishlari kerak.

Mashg'ulot paytida talabni bajarish axloq normasiga aylanib qolishi kerak. Bu ikki narsa asosida shakllanadi, birinchisi tarbiyachining obro'siga asoslanilsa, ikkinchisi ma'lum talabning rivojlanishi bilan (o'qib olish va bajarish uchun eshitish kerak, qiziqarli bajarish zarur) amalga oshiriladi. Tashqaridan qaraganda bolalar xulqida hech qanday farq ko'rinmaydi – bu odatdagi intizomga xulqida hech qanday farq ko'rinmaydi – bu odatdagi intizomga bo'ysunishning natijasi, ikkinchidan, bu o'quv faoliyati rivojlanganligining belgisi, ta'limning ta'siridir.

Mashg‘ulotda axloq qoidalariga rioya qilish bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, maktab ta’limiga madaniy tayyorgarlikning hissiy –axloqiy qismi hisoblanadi.

**4. Tarbiyachining mashg‘ulotga tayyorlanishi.** Mashg‘ulotning sifati va uning natijasi tarbiyachining unga qanday tayyorgarlik ko‘rganiga bog‘liq. Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuniga quyidagilar kiradi: mashg‘ulotni rejalashtirish, kerakli jihozlarni tayyorlab qo‘yish, bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash.

Tarbiyachi bir bo‘limdan bitta emas, balki butun bir mashg‘ulotlar sistemasini rejalashtirgandagina ma’lum natijaga erishishi mumkin. Masalan: “Kiyim qanday tikiladi?” mavzusini rejalashtirishda bir qancha mashg‘ulotlarni belgilab chiqadi: kiyimni qanday tikish to‘g‘risida gapiradi va tikish uchun kerakli narsalarni ko‘rsatadi; yaqinroqdagi atelyega ekskursiyaga boriladi gazlamalar to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi. Birinchi mashg‘ulotda bolalarning tikish va kiyim to‘g‘risidagi bilimlari aniqlanadi; bolalar tikuv mashinasi va tikish uchun kerak bo‘ladigan boshqa asboblarni bilan tanishishadi; tarbiyachi bolalarga ularni ko‘rsatib, gapirib beradi, qisman tikish jarayonini ko‘rsatadi.

Ikkinchi mashg‘ulotda bolalar atelyedagi asbob –anjo‘llarni, tikuvchilarning ish jarayonini kuzatishadi, texnik moslamalar (elektr tikuv mashinalari, dazmollaydigan mexanik presslar, elektr qaychilar) bilan tanishishadi va qanday kiyimlar tikilishini bilib olishadi. Uchinchi mashg‘ulotda bolalar har xil matodan tikilgan kiyimlar bilan tanishib, ularni bir –biridan farqlashga o‘rgatiladi.

Shunday qilib, tarbiyachi har bir mashg‘ulot mazmunini konkretlashtiradi, bajarish usullarini tanlaydi, bunda albatta bolalarning yoshi va imkoniyatlari e‘tiborga olinadi.

Ba’zi bir mashg‘ulotlarga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi va u rejada ham aks ettiriladi. Masalan, “Bizning bayram” degan mavzudagi rasm mashg‘ulotidan oldin bolalar bilan bayramona bezatilgan ko‘chalarga sayr uyushtirish, rasmlarni ko‘rish, oynayi jahon orqali ko‘rsatilgan bayram eshittirishlari bo‘yicha suhbat o‘tkazish mumkin. Tayyorgarlik ishlari bolalarning mashg‘ulotga hissiyot tayyorgarligini ta’minlaydi. Tarbiyachi mashg‘ulotning borishini batafsil o‘ylab ko‘radi. Unga ajratilgan vaqtdan samarali foydalanishga intiladi.

Masalan, yuqorida aytib o‘tilgan “kiyim qanday tikiladi?” mavzusiga oid birinchi mashg‘ulotning borishi quyidagicha bo‘lishi mumkin: pedagog bolalarga bir –birlarining kiyim –boshlarini ko‘zdan kechirish va bu haqda gapirib berishni taklif etadi. Agar 3 -4 boladan

so'ralsa, bunga 3-4 daqiqa kerak bo'ladi. Keyin tarbiyachi: "Kiyimlaringizni kim bergan?", "Magazindan tayyor holda sotib olinadigan kiyimlar qayerda tikilishini kim biladi?", "Tikish uchun qanday buyumlar kerak?" degan savollarni beradi. Bu savollarga javob berish ham 3-4 daqiqa vaqtni oladi. Shundan keyin bolalarga gazlama, andaza, qaychi, santimetr, igna, angishvona, tikuv mashinasini ko'zdan kechirish va har bir buyumning vazifasini so'zlab berish taklif etiladi. Bunga 8 -10 daqiqa vaqt ketadi. Shu mashg'ulotning o'zida tarbiyachi qo'g'irchoq kiyimi tikishning ayrim jarayonlarini, andaza bo'yicha fartukni bichib olish, tikuv mashinasida cho'ntakni tikish, qo'lda tugmalarni qadash va tikishdagi ketma-ketlik haqida gapirib berishi kerak. Bunday mashg'ulot 20 -25 daqiqa davom etadi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachi tegishli metodik adabiyotlardan foydalanadi.

Murakkab mashg'ulotlarga tayyorlanish konspekt tuzishni taqozo etadi. Unda mashg'ulotning mazmuni (ta'lim va tarbiyaviy vazifalar), tayyorlanishi kerak bo'lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan daslabki ishlar (agar bunga zarurat bo'lsa), mashg'ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko'rsatiladi. Mashg'ulot jarayonini bayon yetib yozishda mashg'ulotning boshi va oxirida yakun chiqarish va keyingi faoliyat turiga o'tishda) bolalarni uyushtirish va keyingi faoliyat turiga o'tishda) bolalarni uyushtirishni alohida ajratib ko'rsatish kerak.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun jihozlarni o'z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg'ulotning mazmuniga va tarbiyachi belgilangan metodik usullarga bog'liq.

Odatda metodika xonasida "Bolalar bog'chasida ta'lim tarbiya dasturi"ning hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi. Yetishmaganini tarbiyachi o'zi tayyorlaydi, ba'zan bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalb etadi. Mashg'ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuq emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun yetarli ekanligini tekshiradi.

Agar tarbiyachi ekskursiya o'tkazadigan bo'lsa, u oldindan ekskursiya o'tkaziladigan joyga borib kelishi, kuzatish uchun obyekt tanlashi, bolalarni qanday joylashtirishni o'ylab qo'yishi, eng yaqin va xavfsiz avtomabillarni atalashi kerak. Mayda sanoq materiali, rasm mashg'uloti, applikasiya, qurish -yasash, uchun materiallar, she'r, ertak matnlari oldindan tayyorlab qo'yiladi. Ba'zi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ancha oldin boshlanadi. Masalan, kichik guruh bolalariga

ekish yoki ko'chat o'tqazishga qiziqish uyg'otish uchun ularga ko'karib turgan o'simlikgi ko'rsatish kerak. Buning uchun uni avval yetishtirish zarur.

Navbatchilar mashg'ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stullarni qulay qilib joylashtiradilar, qo'llanma va materiallarni qo'yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlaridan oldin bolalar poyabzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar.

### **Mashg'ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.**

Tarbiyachi bolalar bog'chasida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy– tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy–siyosiy va ilmiy–pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq.

Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati–uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi –bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy –fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda qanday namoyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomonidan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, ahloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart–sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

Tarbiyachi har bir bolaning kelajakka haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har bir taasurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish –fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va

tashvishlar, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozdin qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bo'lishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy gapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim.

Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto'g'ri o'sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: "Tezroq yuvininglar –nonushtaga kech qolyapmiz", "O'yinchoqni tezroq yig'ishtiringlar, sayrga yoki mashg'ulotga kech qolyapmiz" va hokazo deb shoshiltirish kerak emas.

Ta'lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg'ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo'llay olishlari ularning yaxshi o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir.

Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma –xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydalanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagi mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha ta'limning yakunlovchi bosqichlarida o'tkaziladi.

Bolalar olgan bilimlaridan o'z o'yinlarida keng foydalanadilar:rasm chizish, qirqib olish, qurish –yasash sohasidagi malakalarni qo'llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o'yinlarning mazmunida aks ettiriladi.

## **5. Matematika mashg'ulotlarini o'tkazishga qo'yiladigan talablar:**

1. Matematika mashg'ulotlarida son-sanoq bo'limi bilan bir qatorda dasturning boshqa bo'limlarini ham rejalashtirish, son-sanoq bo'limidagi dastur vazifasi hamma mashg'ulotlarda ham asosiy o'rinni egallashi kerak.

2. Har bir mashg'ulotda ikki uch vazifasi rejalashtiriladi. Birinchisi yangi, keyingilari takroriy.

3. Olti- sakkiz mashg'ulotdan keyin takroriy tipda mashg'ulotlarni o'tkazish tavsiya qilinadi.

4. Matematika mashg'ulotlarida eng asosiy o'rgatish usuli ko'rgazmali o'rgatish usulidir. O'rgatish usulida harakatli o'yin, didaktik o'yin usullari katta o'rin egallaydi.

5. Matematika mashg'ulotlarida dastur mazmuni ko'rgazmali materiallar asosida bolalarga tushuntirib boriladi.

6. Ikkinchi kichik va o'rta guruhda mashg'ulotlarni yakunlashda tarbiyachi dastur mazmunida bolalarga tushunarli so'zlar bilan umumlashtirib aytib beradi.

### **Pedagogik masala.**

Maktabga tayyorlov guruhida matematikaga qiziquvchi bir necha bola bor edi. Ular qiziqarli masalalarni o'ylab topar edilar. Bu masalalar barcha bolalar bilan birgalikda muhokama qilinadi.

Original masalalarni tarbiyachilar maxsus daftarlariga yozib olardilar.

### **Nazorat savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiyachilar to'g'ri ish olib borishganmi?
2. Mashg'ulotlarda va kundalik hayotda bunday bolalarga individual yondashash nimadan iborat bo'lishi kerak?
3. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorlanishi qanday olib boriladi.
4. Matematika mashg'ulotlarini o'tkazishga qo'yilgan talablar:



## II BOB. MATEMATIK TASAVURLARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI XUSUSIY MASALALARI

### 2.1. 3-4-yoshli bolalarda miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish

#### 1. 3-4 yoshdagi bolalarda narsalarning shaklini idrok qilish xususiyatlari.

3-4 yoshdagi bolalarni buyumlarning shakli, katta-kichikligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu hossalarni to‘g‘ri idrok qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to‘g‘ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va hatto ahloqiy tarbiyasi ham shunchalik muvofaqiyatli bo‘ladi, ya‘ni bolalar umuman samarali rivojlanib boradi. Masalan, bir yarim yashar bola ariqning kengligini chamalab ko‘rib, uning ustidan hatlab o‘ta oladimi; ikki yoshli bola besh bo‘lakdan iborat martyoshkani to‘g‘ri yig‘a oladimi; maktabgacha tarbiya yoshdagi bola shakli va barglariga qarab ikki xil gulni bir-biridan farqlay oladimi, bu gullarning shakli va rangini chizayotgan rasmida aks ettira oladimi - bularning hammasi ma‘lum darajada bolaning idrok qilishining qanchalik rivojlanganiga bog‘liq bo‘ladi.



Bola ikki-uch yoshida, - deb yozadi L.A.Venger - o'zining sensor rivojlanishida muhim qadam qo'yishi lozim, ya'ni bu buyumlar o'rtasida, ularning shakli, katta-kichikligi, bo'shliqdagi holati, rangi va boshqa xossalari bo'yicha mavjud bo'lgan munosabatlarni ("bir xil" va "har xil", "katta" va "kichik" munosabatlarni) belgilab chiqishni o'rganishi kerak. Shakllarni to'g'ri idrok qila olish, mo'ljallay bilish qobiliyati amaliy faoliyatning ko'pgina turlarida, ayniqsa, ikki-uch yoshli bolalarning asosiy faoliyati - narsalarga oid faoliyatida juda ish beradi. O'z navbatida faqat narsaga oid faoliyatgina bir yoki ikki narsaning qismlarini birga qo'yish (masalan, qutichani o'z shakliga mos qopqoq bilan berkitish yoki matryoshkaning har ikki bo'lagini to'g'ri tanlash), ikki narsani shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biriga taqqoslash kabi amaliy vazifalarni o'rta qo'yish bilan sensor harakatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Narsalarni har tomonlama tekshirish, hisobga olish va shakliga qarab solishtirishni bilmaydigan bola bunday amaliy vazifalarni hal qila olmaydi.

Bundan 300 yil muqaddam buyuk chex pedagogi Yan Amos Ko'menskiy bolalarga ta'lim va tarbiya berishni ilk yoshdan boshlash kerakligi haqida gapirib, kishida narsalarni his qilish qobiliyatini iloji boricha ertaroq shakllantirish zarur, chunki butun hayoti mobaynida uning ko'p narsalarni bilib olishi, sinab ko'rishi va bajarishiga to'g'ri keladi, deb yozgan edi. Y.A. Komenskiy bolalarning sensor tarbiyasini to'g'ri tashkil etishga katta e'tibor berib, ularni 1-2 yoshidanoq voqealidagi xilma-xil rangdagi buyumlarni bir-biridan ajrata bilishga mashq qildirishni taklif etgan edi. U "Ona maktabi" nomli asarida katta yoshdagi kishilarga eng kichik bolalarni tarbiyalashda ularning e'tiborini osmon gumbazi, daraxtlar, gullar go'zalligiga jalb qilish va chiroyli kiyimlar kiyintirishni maslahat bergan edi.

"Aytilgan narsalarni faqat rasmlardagina emas, balki real voqelikda ham ko'rsatish juda foydalidir", - deb tavsiya qilgan edi Komenskiy.

Sensor tarbiya yuzasidan olib borilgan ish ilk yoshdagi bolalarda narsalar bilan bo'ladigan harakatlarning rivojlanish darajasini, jumladan ularning ikki narsani shakliga qarab bir-biriga taqqoslay olish ko'nikmasini, maxsus tashkil etiladigan o'yin faoliyatida namoyon bo'ladigan bu ko'nikmani o'rganishdan boshlanadi. Olib borilgan ish quyidagilarni: a) geometrik figuralarni quticha teshigiga yoki taxta o'yiqlariga solish harakatlarining mazmuni va hususiyatlarini; b) ikki yoshga qadam qo'ygan bolalar ikki narsani qanchalik taqqoslay olishlari va

bu vazifani hal qilish uchun qanday usullardan foydalanishlarini; v) hajmli va yassi figuralar bilan bir turkumi seriyali o'rgatuvchi mashg'ulotlar o'tkazishning eng maqsadga muvofiq izchilligini, ya'ni dastavval bolaga nimani taklif qilish kerakligini - hajmli shakllar bilan o'tkaziladigan harakatlarni yoki yassi figuralar bilan bo'ladigan harakatlarni taklif qilish kerakligini aniqlashga yordam berishi lozim.



1 bosqichda tarkib toptiruvchi vazifalarga muvofiq geometrik shakllarni ularning shaklini hisobga olib qutichaga va taxta teshiklariga to'g'ri tushirish yoki qo'yish o'rgatiladi. O'rgatish jarayonida ilk yoshdagi bolalar oliy nerv sistemasi va psikasining rivojlanishiga oid bir qator o'ziga xos xususiyatlarni hisobga oldik. Bu xususiyatlar N.M. Shchelovanov va N.M. Aksarina

tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, quyidagilardan iborat edi: tormoz - harakatga keltirish reaksiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi (bir yarim yoshgacha bo'lgan bolalarda), ixtiyoriy harakatlarning sust rivojlanganligi (buning natijasida nutq bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlarni yaxshi bajarmaydilar), maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga nisbatan ularda diqqatning beqaror bo'lishi.

Shuning uchun ham biz solishtirish harakatlarini o'rgatish vaqtida foydalanilgan metodik usullarni ham shunga muvofiq tanladik:

1. Shakllar bilan teshiklarning shaklini bolalarga barmoqlar yordamida havoda yasab ko'rsatish. Bolaning diqqat-e'tiborini harakatlar va predmetlarga jalb qilish, shuningdek ularni kattalarga o'xshab figuralar shaklini havoda chizishga undash maqsadida barcha harakatlarni so'z bilan tushuntirib turish.

2. Harakat usullarini ko'rsatish va tushuntirib berish. Masalan, "Sharcha dumaloq, uni dumaloq teshikka tushiramiz", "Kubik qanday shaklda bo'lsa, tushiriladigan teshik ham shunday shaklda bo'ladi" va hokazo. "Xuddi shunday", "Yo'q unday emas" degan so'zlarni aytib bolaning diqqatini predmetlarning o'xshashi yoki farq qilishiga qaratish.

3. Bolaning harakatlariga bevosita rahbarlik qilish, figuralarni quticha va taxtaning teshiklariga tushirayotganda unga yordam ko'rsatish.

Biz bolaga solishtirib ko‘rish harakatlarini mashq qilish imkonini berar ekanmiz, har bir topshiriqning bajarilishi ijobiy natijalar bilan tugashini kuzatib boramiz.

O‘rgatish jarayonida bolaning qiziqishini (mo‘ljallash faoliyatini) oshirish maqsadida topshiriqlarning uchala usuli bir-biri bilan ketma-ket almashtirib turildi, bu navbat keyinchalik ham saqlab qolindi.



Bizning bundan keyingi tajribalarimiz bolalarning ikkita predmetni shakli bo‘yicha bir-biriga o‘xshashligini belgilash ko‘nikmasidan predmetlarni namunaga qarab tanlab olish sharoitida, tashqi mo‘ljallash harakatlarini bajarishni istisno qiladigan tanlab olish sharoitida shakllarning yangi turlariga o‘tishga bag‘ishlanadi.

1- bosqichdagi o‘rgatish ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida tarkib topgan tashqi mo‘ljallash harakati figuralarning teshikka taqqoslanishiga oid amaliy vazifaning o‘zini ham muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi. Bolalar figura va teshiklarning burchaklari hamda tomonlarni bir-biriga mos kelishi yo‘li bilan ularning bir xilligini yoki bir xil emasligini aniqladilar, bunda ular shakllarning fazoda o‘zaro mos kelishi kabi mezonga asoslandilar.

Agar bu o‘rinda teshikning shakli etalon funksiyasini bajaruvchi namuna, figura va tekshirilayotgan ob‘ekt bo‘lib xizmat qilsa, bolalar ob‘ektlarini o‘zaro shakliga qarab taqqoslashni o‘rganib oladilar, shu bilan birga ob‘ektlarning bittasidan boshqasining shakliga baho beradigan o‘lchov sifatida foydalandilar, deb hisoblash mumkin.

Biz ikkita ob'ektni fazoda bir-biriga joylashtirish va harakat natijalarini oldindan ko'z bilan ko'rib turish harakatlarini muvoffaqiyatli bajargan bolalar "namunaga qarab tanlash" vazifasini ham ko'z bilan ko'rib bajara oladilar, ya'ni namuna bilan taqdim qilingan har bir ob'ektni tekshirish va ularning bir xilligini shakliga qarab belgilashni biladilar, degan fikrda edik. O'rgatish natijasida bolalar ikki yarim yoshdan boshlab pozitiv harakatlarni o'zlashtirib olganlaridan keyin murakkab shakldagi figuralarni namunasiga qarab tanlash vazifasini bajara oladilar. Ma'lumki, pertseptiv harakatlarda namunani tanlash uchun taklif qilingan ob'ektlar bilan birga joylashuvi amalga oshiriladi va shakllarning mos kelishi bir xillik mezonni sifatida foydalaniladi.



Ko'rsatib o'tilgan tajribada bolalar yassi figuralar bilan ish ko'rgan bo'lsalar, endi ular hajmli jismlar va figuralar bilan ish ko'radilar. Bu figuralarni bir-biriga joylashtirish yoki fazoda namunani va ob'ektni bir-biriga sig'dirish mumkin emas.


Bajariladigan ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ikki xil shakldagi qo'ziqorinlarni namunaga qarab tanlash, bunda ularning rangiga e'tibor berilmaydi.
2. Ikki xil shakldagi guldonlarni namunaga qarab tanlash.
3. Ikki xil shakldagi matryoshkalarini namunaga qarab tanlash (bunda hajmga e'tibor berilmaydi).
4. Uch xil shakldagi bayroqchalarni namunaga qarab tanlash (bunga rangga asosiy e'tibor qaratilmaydi).


Ilk yoshdagi bolalar uchun ko'p miqdordagi ob'ektlar ichidan namunaga qarab tanlab olish vazifasi ob'ektlar orasidagi farqlar

kamayganda ham qiyin ekanligini hisobga olib, o'rganish jarayonida ularga har tomonlama yordam ko'rsatildi. Namunaga qarab tanlash bo'yicha berilgan topshiriqlar oralig'ida bolalar ikkita ob'ektzni o'zaro taqqoslash harakatlarini unutib qo'ymasliklari uchun ular bilan geometrik figuralarni teshikka tushirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi.

Tarbiyachi bolaga "xuddi shunday figurani" ko'rsatishni taklif qilib, namunaning shaklini qo'li bilan fazoda yasab ko'rsatdi, uni tanlab olinadigan figuralar bilan bir qatorga qo'ydi va namunani figura bilan taqqoslash harakatiga bolaning o'zini ham jalb qildi, uning shakli bo'yicha o'xshashligini yoki farq qilishini aniqlashni topshirdi.



Ikki xil shakldagi qo'ziqorinni namunaga qarab tanlash. qo'ziqorinlar bilan o'tkazilgan mashg'ulotda tarbiyachi ularning shaklini barmog'i bilan havoda "yasab" ko'rsatayotib, bolalarga: "Bu qo'ziqorinning oyog'i ingichka, qalpog'i esa katta", "Ikkinchi qo'ziqorinning oyog'i yo'g'on, qalpog'i esa kichik", deb tushuntiradi. Tushuntirishdan keyin har ikkala shakldagi qo'ziqorin bolalar stoli ustiga qator qilib qo'yiladi.



Bolalar tarbiyachi taklifiga ko'ra har bir qo'ziqoriga mos keladigan 3 ta qizil va 2 ta jigar rang qo'ziqorin tanlashlari kerak. Tarbiyachi ko'rsatadigan qo'ziqorin esa bola tanlab olish

kerak bo'lgan qo'ziqorin uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Qo'ziqorinlar bilan bo'lgan mashg'ulotda qatnashgan 26 ta bolalardan 13 tasi vazifani to'g'ri tushunib, uni mustaqil hal qildi, ayrim hollardagina topshiriqni takrorlashga va tarbiyachining namunaning shakli bilan yasab ko'rsatishga ehtiyoj sezilar. Bu bolalar namunaning shaklini yasab ko'rsatishni diqqat bilan kuzatib turdilar katta yoshdagi kishiga taqlid qilib, qo'ziqorinning oyoqchasini aylantirib chiqishga va uning qalpoqchasini silashga harakat qildilar, har bir qo'ziqorinni uzoq ko'zdan kechirdilar. sinab ko'rilayotgan bolalar dastlabki talabga va "Sendagi xuddi shunday qo'ziqorin qani?" degan savolga stol ustidagi har ikkala qo'ziqorinni ko'rsatdilar. Tarbiyachining: "qaragin, bu qo'ziqorinning oyoqchasi ingichka (yoki yo'g'on, uni qo'yish oson)" degan gapini eshitishi bilan, ular bir xildagi qo'ziqorinlarni tanlab, "Oyoqchasi ingichkami?", "Mana yana, mana yana!" degan so'zlarni ovoz chiqarib takrorladilar. Qo'ziqorinlarni qator qilib tizish, keyin ularni ko'zdan kechirish ko'p bolalarga ma'qul bo'ldi. Afsuski, qo'ziqorinlar joyini almashtirish ko'pincha bolalarning e'tiborini asosiy vazifa - namunaga qarab tanlashdan nechta tortar edi.

Ayrim bolalar tanlashda qatnashib, o'zoq vaqt namunani ko'zdan kechirib turdilar, "xuddi shundaymi?" deb yana so'radilar, katta yoshdagi kishining qo'l harakatlarini o'z qo'ziqorinlarida takrorladilar. Ko'rsatilgan ikkinchi jigar rang qo'ziqorinda ham xatoga yo'l qo'yildi: bola buni borshqa shakldagi jigarrang qo'ziqorin qatoriga kiritdi. Samarali o'rgatishning asosiy sharti bolaning vazifani bu o'rinda figuraning shakli bilan teshikning shaklini bir-biriga taqqoslash vazifasini tushinishidir.

Taqqoslash harakatlarini o'rgatish vaqtida quyidagilardan foydalaniladi:

1. Figura va teshikning shaklini katta yoshdagi kishi va bolaning barmoqlari bilan havoda yasab ko'rsatish, hamma harakatlarni so'z bilan tushuntirib turish. Bu usul ilk yoshdagi bolalarga o'rgatishda katta ahamiyatga egadir; u bir Tomonda, bolaning diqqat e'tiborini harakatlariga, predmetlarga jalb qilishga yordamlashsa, ikkinchi tomondan, katta yoshdagi kishining harakatlariga taqlid qilishga undaydi.

2. Bolaning hatti-harakatlariga bevosita rahbarlik qilish, quticha va taxta teshiklariga figuralarni tushirish vaqtida amaliy yordam ko'rsatish. Bolalarga taqqoslash harakatlarini mashq qilish imkonini berib, uning ko'zlangan natijaga erishuvini, fikri boshqa narsalarga chalg'imasligini, uning harakatlari hamisha ijobiy natijalar bilan tugashini kuzatamiz. Figura tushirilishi yoki qo'yilishi lozim bo'lgan teshikni oldin ko'rsatishni ("qayerga qo'yish kerak") taklif qilinadigan maxsus usul

foydali bo‘ladi. Bunda quticha yoki taxta boladan birmuncha nariroqda ushlab turiladi, unga shundan keyingina harakat qilishga ruxsat etiladi. Bu usul bolaning topshiriqni bajarishdagi amalda sinab ko‘rish harakatlaridan ko‘z bilan ko‘rib taqqoslashga o‘tishiga yordam beradi. Figurani qo‘yishdan oldin bolaning e’tiborini figuralar bilan teshiklarning farqini bilib olishga qaratish usuli juda qo‘l keladi. Xulq-atvori shoshiladigan, tez tutoqib ketadigan va harakatlari ixtiyorsiz bo‘lgan bolalarga o‘rgatishda bu usul ayniqsa yaxshi samara beradi

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Ilk yoshdagi bolalarda narsalarning shaklini idrok qilish xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Bolalarga geometrik figuralar va teshiklarni amalda bir-biri bilan solishtirishni o‘rgatish deganda nimani tushunasiz?
3. "Namunaga qarab tanlash" vazifasini hal qilish vaqtida bolalarni ish predmeti ko‘z bilan ko‘rib taqqoslashga o‘rgatish deganda nimani tushunasiz?

## **2.2. Bolalarda maktabgacha ta’limda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish.**

### **1. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish usullari**

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachi o‘qitishning har xil usullarini - amaliy, ko‘rsatmali, og‘zaki, o‘yin usullaridan foydalanadi. Usulini tanlashda bir qatorlilar-mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh, va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi.



Tarbiyachining metod va usullarning asosli tanlanishiga, har bir aniq holda ulardan ratsional foydalanishga doimo e'tibor berib turishi quyidagilarni ta'minlaydi:

- elementar matematik tasavvurlarning

muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;



- tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o'lchami, shakli bo'yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o'lchami yoki soni bo'yicha orttirish yoki, kamaytirish)ni, analiz qilinayotgan ob'ektlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiy belgi sifatida ajratish, aloqa va bog'lanishlarini aniqlash malakasi;

- bolalar o'zlashtirgan amaliy ish usullari (masalan, qarshi qo'yish, sanash, o'lchash bilan taqqoslash)ni yangi sharoitlarda qo'llashga yo'naltirish va mazkur vaziyatda ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xossalari, bog'lanishlarni aniqlash, topishning amaliy usullarini mustaqil izlashga yo'naltirish. Masalan, o'yin shart-sharoitlarida belgilarning tartibi, almashinib kelish qonuniyatini, umumiy xossalarni topishni o'rgatish mumkin.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy metod yetakchi metod hisoblanadi. Uning mohiyati bolalarning buyumlar yoki ularning o'rnini bosuvchilar (tasvirlar, grafik rasmlar, modellar va h. k.) bilan ishlashning jiddiy aniqlangan usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- aqliy faoliyat uchun asos bo'ladigan har xil amaliy ishlarni bajarish;

- didaktik materiallardan keng foydalanish;

- didaktik materiallar bilan amaliy ishlash natijasi sifatida tasavvurlarning paydo bo'lishi;

- eng elementar usulda sanash, o'lchash va hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish;

- turmush, o'yinda, mehnatda, ya'ni faoliyatning har xil turlarida shakllangan tasavvur va o'zlashtirilgan harakatlardan keng foydalanish.

Mazkur usul maxsus mashqlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu mashqlarni ko'rsatish uchun belgilangan material shaklida, tashkil qilinishi yoki tarqatma material bilan mustaqil ish ko'inishida topshiriq shaklida berilishi mumkin.



Mashqlarni hamma bolalar bir vaqtda yoki bitta bola doska yoki tarbiyachining stoli oldida bajarishi yakka tarzda bo'lishi lozim. Hamma bolalar bajaradigan mashqlardan bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashdan tashqari, nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin. Yakka-yakka tarzda bajariladigan mashqlar ham o'sha vazifalarni bajaradi-yu, ammo ular bolalar faoliyatida yo'nalish oladigan namuna sifatida ham xizmat qiladi. Ular orasidagi bog'lanishlar vazifalarining umumiyliги bilangina emas, balki doimo almashinib kelishi, qonuniy ravishda bir-birlarining o'rnini bosishi bilan ham aniqlanadi.

Hamma yoshdagi guruhlarda bajariladigai mashqlar o'yin elementlari kichik guruhda - syurpriz moment ko'rinishida, o'xshash harakatlar, ertak qahramoni va h. k. dan iborat bo'ladi. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterini oladi.

Mashqlar bolalarning yoshiga qarab qiyinlashtirila boriladi. Ular bir necha bo'g'inlarda tashkil topadi. O'quv-bilish mazmuniga oid o'yin-mashqlar muammo shaklida emas, ko'pchilik hollarda ularni bajarish uchun tasavvur bo'yicha harakat qilish, topqirlikni namoyish qilish, aqillilikni ko'rsatish talab qilinadi. Chunonchi, tarbiyachi kichik guruhdagi bolalardan har qaysi quyovni sabzi bilan siylashni taklif qiladi; katta guruhdagi bolalardan esa, doskaga osib qo'yilgan kartochkadagi doirachalar nechtaligini aytishni, guruh xonasidan xuddi shuncha buyum topishni, kartochkadagi doiralar miqdori bilan guruhdagi; buyumlar miqdori teng ekanini isbotlashni taklif qiladi. Agar

birinchi holda mashq shartli ajratilgan bitta bo'g'indan iborat bo'lsa, ikkinchi holda 3 ta bo'g'indan iborat bo'ladi.

Kompleks mashqlar eng samaralidir, chunki, ular dasturning har xil bo'limlariga doir masalalarni bir vaqtda bir-biri bilan birga hal qilish imkonini beradi. Masalan, «Geometrik figuralar», «Kattalik», «Miqdor va sanoq» bo'limlariga oid masalalarni bir vaqtda hal qilish imkonini, beradi. Bu xil mashqlar mashg'ulotlarning foydali ish koeffitsiyentini oshiradi.

Bolalar bog'chasida bunday xildagi mashqlar (ya'ni bir xil maqsadni ko'zlovchi va bir ma'noda amalga oshiriluvchi mashqlardan) keng foydalaniladi, bunday mashqlar tufayli zarur faoliyat usullari bajariladi: sanoqni, o'lchashni, eng sodda hisoblashni egallash amalga oshiriladi.

Mashqlarni tanlashda ularning tarkiban bir mashg'ulotda birga hal qilinishinigina emas, balki istiqboldagisi ham hisobga olinadi. Bir mashg'ulotdagi mashqlar sistemasi yil davomida o'tkaziladigan har xil mashqlarning umumiy sistemasiga tarkiban qo'shib ketishi kerak.

Hozirgi vaqtda mavjud; mashqlar sistemasi hamma yosh guruhlarda ushbu qoida asosida tuziladi, har bir oldin keluvchi va undan keyin keluvchi mashq umumiy elementlar-materiali, harakat usullari, natijalarga ega. Uzaro bog'liq va o'zaro o'xshash harakat usullari (masalan, ustiga qo'yish, yoniga qo'yish), munosabatlar (masalan, katta-kichik, ortiq-kam, baland-past, keng-tor), arifmetik amallar (qo'shish-ayirish)ni o'zlashtirishga oid mashqlarni berish vaqt jihatidan yaqinlashtiriladi yoki bir vaqtda beriladi.

Mashqlarda o'zaro bog'lanishlarning mumkin bo'lgan hamma variantlarini nazarda tutish kerak. Masalan, har xil ob'ektlarni bir xil o'lchovda o'lchashni, bir xil ob'ektlarni har xil o'lchovda o'lchash, har xil ob'ekt-larni har xil o'lchovlarda o'lchash va h. k. ni tashkil qilish mumkin. Bola mashqlarni bajarishda bir xil matematik aloqalar, bog'lanishlar va munosabatlarning har xil ko'rinishlari bilan to'qnashib, ularni oson va tez tushunib, umumlashtira oladi. Bolalarning mashqlarni bajarish jarayonidagi faollik, mustaqillik, ijodkorlik ko'rsatishlariga qarab, reproduktiv (taqlidiy) va produktiv mashqlarni ajratish mumkin.

**2. Reproductiv va produktiv mashqlar.** Reproductiv mashqlar harakat usulini oddiy takrorlash (tiklash)ga asoslangan. Bunda bolalarning harakatlari kattalar tomonidan namuna, tushuntirish, talab, nima qilish va qanday qilishni belgilovchi qoidalar shaklida to'la

chegaralanishi mumkin. Ularga qat'iy ergashish ijobiy natija beradi, topshiriqni to'g'ri bajarishni ta'minlaydi, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgap xatolarning oldini oladi. Mashqlarnig borishi va natijasi tarbiyachining bevosita kuzatuvda bo'ladi, u ko'rsatmalar, tushuntirishlar bilan bolalar harakatini to'g'rilab turadi.

Produktiv mashqlar shunisi bilan harakterliki, ularda harakat usullarini bolalarning o'zlari to'la yoki qisman ochishlari kerak bo'ladi. Bu bolalarning: mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yaqinlikni talab qiladi, maqsadga yo'nalغانlik va maqsadga intilishni shakllantiradi. Odatda tarbiyachi nima qilish kerakligini aytadi, ammo harakat usulini aytmaydi ham, ko'rsatmaydi ham. Mashqlarni bajarishda bola fikrlash va amaliy sinashlardan foydalanadi, fikrlarni aytadi va ularni tekshiradi, mavjud bilimlarini ishga soladi, ulardan yangi vaziyatlarda foydalanishini o'rganadi, aqlliligi, topqirligini ko'rsatadi. Bu xil mashqlarni bajarishda pedagog bevosita emas, balki bilvosita yordam beradi, bolalarga o'ylash va yana bir marta harakat qilishni taklif qiladi, to'g'ri harakatlarni ma'qullaydi, bola ilgari bajargan shunga o'xshash mashqlarni eslatadi va h. k.

Produktiv va reproduktiv mashqlar nisbati bolalarning yoshlari, amaliy va bilimiga doir masalalarni echish tajribalari qandayligi, matematik tasavvurlarning xarakteri va ularning bolalarda qay darajada rivojlanganligi bilan aniqlanadi.


Bolalarning yoshi "kattalashishi bilan mashqlarni bajarishdagi mustaqilliklari ortadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarnig mustaqil faoliyatlarini tashkil qiluvchi va yo'naltiruvchi og'zaki ko'rsatmalar, tushuntirishlar, oydinlashtirishlarning roli orta boradi. Bolalar topshiriqni, mashqni bajarganlaridan keyin o'z harakatlarini va o'rtoqlarining harakatlarini, o'zini-o'zi va o'zaro tekshirishni o'rganadilar. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda o'sha o'qitishning mustaqil usuli sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uni amaliy usullar guruhiga kiritish ham mumkin. Bunda har xil o'yinlarning, har xil amaliy harakatlarning, masalan, qismlardan butun tuzish, figuralar qatorlari, sanoq, ustiga va yoniga qo'yish,, guruhlash, umumlashtirish, taqqoslash kabi harakatlarni o'zlashtirishdagi alohida ahamiyati hisobga olinadi.

Didaktik o'yinlardan eng ko'p foydalaniladi. Bola bilish mazmunini o'yin shakliga kirgan o'rgatuvchi masalani (o'yin mazmunida), o'yin harakatlari va qoidalari oldindan nazarda tutilmagan holda o'zlashtiradi. Didaktik o'yinlarning hamma turi (buyumli, stolda

o‘ynaladigan bosma va og‘zaki turlari) elementar matematik tasavvurlarni; shakllantirishning samarali vosita va usullaridir. Buyumli va og‘zaki o‘yinlar matematika mashg‘ulotlarida va ulardan tashqarida o‘tkaziladi, stolda o‘ynaladigan- bosma o‘yinlar odatda mashg‘ulotdan bo‘sh vaqtlarda o‘tkaziladi.



Harakatli usullar va ularga mos tasavvurlar shaklidagi bilimlarni bolalar mashg‘ulotdan tashqari vaqtda oladi, o‘yinlar (syujetli- didaktik, didaktik va boshqa xil o‘yinlar) da esa shu bilimlarni aniqlashtirish, mustahkamlash, sistemalashtirish uchun yaxshi sharoitlar yaratiladi.



Elementar matematik tasavvurlarni o‘rgatish va shakllantirish metodi mashg‘ulotlarda har xil turdagi o‘yinlardan, uning alohida elementlaridan (syujetli-rolli, harakatli va b.), usullaridan (syurpriz moment, musobaqa, izlash va b.), o‘yin va didaktik boshlanishlarni kattalarning rahbarlik va o‘rgatuvchi roli hamda bolalarning bilimni faollashtirishni birga qo‘shib olib borishdan foydalanishni nazarda tutadi.

Ko'rsatmali va og'zaki metodlar elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy va o'yin metodlari bilan birga qo'llaniladi. Bu ularning mohiyatini hech bir kamaytirmaydi. Bolalar bog'chasida ko'rsatmali, og'zaki va amaliy metodlarga taalluqli va bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda qo'llaniladigan usullardan keng foydalaniladi:

1. Harakat usulini tushuntirishlar bilan ifodalash (namoyish qilish), tarbiyachi namunasini ko'rsatadi. Bu o'qitishning asosiy usuli bo'lib, u ko'rsatmali - harakatli-amaliy xarakterga ega, har xil didaktik vositalarni jalb qilish bilan bajariladi, bolalarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beradi. Unga quyidagi talablar qo'yiladi:

- harakatni ko'rsatish usullarining aniqligi, qismlarga bo'linganligi;
- harakatlarning og'zaki tushuntirishlar bilan ifodalanishi;
- harakatni ko'rsatishda kuzatuvchi nutqning aniqligi, qisqaligi va ifodali bo'lishi;
- bolalarning idrok, tafakkur qilishlari va nutqlarini faollashtirish.

2. Mustaqil mashqlarni bajarish uchun yo'l-yo'riq. Bu usul tarbiyachining harakat usullarini ko'rsatichi bilan bog'liq bo'ladi va undan kelib chiqadi. Yo'l-yo'riqlarda zarur natijani olish uchun nima qilish kerakligi va qanday qilish kerak ekani aks ettiriladi. Katta guruhlarda yo'l-yo'riqlar topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin to'liq berib bo'linadi, kichik guruhlarda esa har bir yangi harakatdan oldin beriladi.

3. Tushuntirishlar, anglatishlar, ko'rsatmalar. Bu, og'zaki usullardan tarbiya-chi harakat usulini ko'rsatish yoki bolalarning topshiriqni bajarishlarida, xatolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf qilish kabi maqsadlarda foydalanadi. Ular qisqa, aniq va obrazli bo'lishi kerak.

Hamma yoshdagi guruhlarda yangi harakatlar (yoniga qo'yish, o'lchash) bilan tanishtirishda ko'rsatish o'rinli, ( ammo bunda to'g'ridan-to'g'ri taqlidni yo'qqa chiqaruvchi aqliy faoliyatni aktivlashtirish kerak. Yangi harakatni o'zlashtirishda, sanash, o'lchash malakalarini shakllantirishda takroriy ko'rsatishdan qochish kerak. Harakatni o'zlashtirish va uni takomillashtirish og'zaki usullar-tushuntirishlar, ko'rsatmalar, savollar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda harakat usuliniig nutqiy ifodasi o'zlashtiriladi.

4. Hamma yoshdagi guruhlarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning asosiy usullaridan biri bolalarga savollar berish

usulidir. Pedagogikada savollarning quyidagi klassifikatsiyasi qabul qilingan:

- reproduktiv - matematik (faraz qilishga oid) savollar (qancha? Bu nima? Bu figura nima deb ataladi? Kvadrat uchburchakdan nimasi bilan farq qiladi?);

- reproduktiv - bilishga doir savollar. (Agar men yana bitta kubcha qo‘ysam, tokchadagi kubchalar qancha bo‘ladi? qaysi son katta (kichik): to‘qqizmi yoki etti?)

- produktiv- bilish savollari (Doirachalar 9 tadan bo‘lishi uchun nima qilish kerak? Chiziqni qanday qilib teng qismlarga bo‘lish mumkin?).

- qatordagi qaysi bayroqcha qizil ekanini bilish uchun nima qilish kerak?

Savollar bolalarning idrok, xotira, nutqlarini aktivlashtiradi, materialning tushunilishini va o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda bir qancha savollardan foydalaniladi. Bular buyumning konkret belgilari, xossalarini, amaliy ish natijalarini tavsiflashga yo‘naltirilgan, ya’ni uning xususiyatlarini qayd qiluvchi eng sodda savollardan boshlab, bog‘lanishlar, munosabatlar, aloqalar o‘rnatishni, ularni asoslash va tushuntirib berishi, eng oddiy isbotlashlarni talab qiluvchi murakkab savollar juda muhimdir. Bunday savollar ko‘pincha tarbiyachi namuna ko‘rsatganidan keyin, bolalar mashqlarni bajarib bo‘lganlaridan keyin beriladi. Masalan, bolalar qog‘oz to‘g‘ri to‘rtburchakni teng ikki qismga bo‘lganlaridan keyin tarbiyachi so‘raydi: «Sen nima qilding? Bu qismlar nima deb ataladi? Nega bu ikki qismiing ,har birini yarimta deb atash mumkin? qismlarning shakli qanday? kvadratlar hosil bo‘lishini qanday isbotlash mumkin? To‘g‘ri to‘rtburchakni to‘rtta teng qismga bo‘lish uchun nima qilish kerak?»

Xarakteri bo‘yicha turli savollar har xil tipdagi bilish faoliyatini, ya’ni o‘rganilgan materialni qayta tiklovchi reiroduktiv faoliyatdan boshlab, muammoli. masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan produktiv faoliyatlarga da’vat qiladi, undaydi.

Metodik usul sifatida savollarga qo‘yiladigai talablar quyidagilar:

- aniqlik, konkretlik, go‘zallik (lakonizm);
- ifodalarning turli-tumanligi.
- mantiqiy izchillik;
- bolalarning yoshlari va o‘rganiladigan materialga bog‘liq holda reproduktiv va produktiv savollar orasidagi optimal munosabat;

- savollar bolaning fikrini uygotishi, uning tafakkurini rivojlantirishu, o'ylashga majbur qilishi, kerakli narsani ajratishi, tahlil o'tkazishi, taqqoslashi, qarshi qo'yishi, umumlashtirishi lozim;

- savollar miqdori ko'p bo'lmasligi, ammo qo'yilgan didaktik maqsadga erishish uchun etarli bo'lishi kerak;

- yo'l-yo'riq beruvchi va alternativ savollardai foydalanmaslik kerak.

Tarbiyachi odatda savolni butun guruhga beradi, unga javobni chaqirilgan bolagina beradi. Ayrim hollarda, ayniqsa, kichik guruhlariga xos bo'lib yalpi javob berishlari ham mumkin. Bolalarga javobni o'ylashlari uchun imkoniyat berish kerak.

Katta yoshdagi bolalarga savollarni mustaqil ifodalashni o'rgatish kerak. Konkret vaziyatda, didaktik materialdan foydalanib, tarbiyachi bolalarga buyumlarning miqdori, ularning tartib o'rinlari, o'lchami, shakli, o'lchash usullari haqida bir-birlaridan so'rashni taklif qiladi. Tarbiyachi bevosita taqqoslash natijalari bo'yicha savollar (Katta kvadrat bilan to'g'ri to'rtburchakni taqqosladi.)

**5. *Tekshirish va baholash.*** Bu usullar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib. bolalarning topshirini bajarish jarayonini kuzatish ular ishlarining natijalari, javoblari orqali amalga oshiriladi. Mazkur usullar ko'rsatmalar, tushuntirishlar, o'qdirishlar, kattalar tomonidan harakatlarning namuna sifatida ko'rsatilishi bevosita yordam berish bilan qo'shib olib boriladi. Tarbiyachi bolalar bilan bajariladigan yakka va jamoa ishlari jarayonida xatolarni tuzatishni amalga oshiradi. Amaliy ta'sir ko'rsatadigan va nutq xatolari tuzatilishi kerak. Tarbiyachi xato sabablarini tushuntiradi, namuna beradi yoki misol sifatida boshqa bolalarning harakatlari, javoblaridan foydalanadi. Tarbiyachi sekin-asta tekshirishni o'zini-o'zi tekshirish va o'zaro tekshirishlar bilan qo'shib olib boradi. Bolalar sanashda, o'lchashda, oddiy hisoblashlarda yo'l qo'yishlari mumkin bo'lgan tipik xatolarni bilgani holda uning oldini olishga harakat qiladi.

Bolalarniig harakat usuli va natijalari, xulqlari baholanishi kerak. Kattalarning namuna bo'yicha yo'nalish olishga o'rgatuvchi baholari, o'rtoqlarining baholari va o'zini-o'zi baholash bilan qo'shib olib boriladi. Bu usuldan mashqlarning, o'yinlarning, mashg'ulotlarning borishida va oxirida foydalaniladi.

Bolalarnnng yoshlariga qarab bilimlari va harakat usullarini o'zlashtirganliklarini tekshirish va baholash o'ziga xos xususiyatga ega. Natijalar ham tekshiriladi, bahoning differensiallashganligi va mazmuni




ortadi. O'rgatuvchi usullardan tashqari bu hamma usullar tarbiyalovchi funksiyalarni ham bajaradilar, o'rtoqlariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, ularga yordam berish istagi va malakasini tarbiyalashga yordam beradi.

6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishni borishida taqqoslash, tahlil, sintez, umumlashtirishlar faqat bilish jarayonlari (operatsiyalari) sifatidagina emas, balki o'qitish jarayonida bolaning fikrlashini yo'nalish yo'lini aniqlovchi metodik usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Ob'ektlar orasidagi o'xshashlik va farqlarning miqdori, shakli, kattaligi, fazoviy joylashuvi, vaqt oralig'ida davomiyligi va h. k. bo'yicha taqqoslanadi. Ular dastlab minimal miqdordagi buyumlarini taqqoslashga o'rgatiladi. Shundan keyin buyumlar miqdori tobora ko'paytirilib, taqqoslanadigan darajasi shunga mos ravishda kamaytiriladi.

Analiz va sintez metodik usullar sifatida birgalikda keladi. Bu usullardan foydalanishga bolalarda «ko'p» va «bitta» haqidagi tasavvurlarni shakllantirishni misol qilib olish mumkin. Bu tushunchalar kuzatish va buyumlar bilan amaliy harakatlar bajarishda paydo bo'ladi.

Tarbiyachi guruhga bolalar qancha bo'lsa, shuncha bir xil o'yinchoq olib kiradi. Har bir kichkintoyga bittadan o'yinchoq ulashib beradi, keyin o'yinchoqlarni birgalikda yig'ib oladi. Guruh bolalari ko'z o'ngida buyumlar guruhi alohida buyumlarga maydalanadi, ulardan esa yana butun hosil qilinadi.

Analiz va sintez asosida bolalar umumlashtirishga o'rgatiladi. Bunda barcha kuzatish va harakatlarning natijalari jamlanadi. Bu usullar orqali miqdoriy, fazoviy va vaqtga oid munosabatlarning aniqlashni, asosiysini, muhimini ajratishga yo'naltiriladi. Umumlashtirish mashg'ulotining har bir qismi oxirida va butun mashg'ulot oxirida amalga oshiriladi. Dastlab tarbiyachi, keyin esa bolalarnng o'zlari umumlashtirishadi.



Taqqoslash, sintez, analiz, umumlashtirish ko‘rsatmalilik asosida har xil didaktik vositalarga jalb qilingan holda amalga oshiriladi. Kuzatishlar, buyumlar bilan amaliy harakatlar bajarish, ular natijalarni nutqda aks ettirish, bolalarga beriladigan savollar metodik usullarning tashqi ifodasidir. Bu metodik usullar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi va ko‘pincha kompleks (birgalikda) ravishda foydalaniladi.

7. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida ba'zi maxsus harakat usullari namoyon bo‘ladi. Bular ustiga va yoniga qo‘yish, buyum shaklini tekshirish, buyum «qo‘lda tortish, fishka-ekvivalentlarini kiritish, bittalab qo‘shib sanash va bittalab ajratib sanash kabilardan iborat.

Bu usullarni bolalar ko‘rsatish, tushuntirish, mashqlarni bajarish jarayonida egallab oladilar va keyinchalik ulardan tekshirishda, isbotlashda, tushuntirish va savollarga javoblarda, o‘yinlar va faoliyatning boshqa turlarida foydalanadilar.

8. Modellashtirish-ko‘rsatmali amaliy usul. Bu usul o‘z ichiga modellar yaratish va bu modellardan bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish maqsadlarida foydalanishni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda bu metodni nazariy va konkret-metodik ishlab chiqish endigina boshlandi. quyidagi omillar tufayli favqulodda istiqbollidir:

- modellar va modellashtirishdan foydalanish bolani aktiv pozitsiyaga qo‘yadi, uning bilish faoliyatini rivojlantiradi.
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bola ayrim modellar va modellashtirish elementlari;
- ko‘rsatmali ta'sir etuvchi va ko‘rsatmali - obrazli fikrlashlarni kiritish uchun ba'zi psixologik asoslarga ega.
- matematik tushunchalarning hammasi beistisno real borliqning o‘ziga xos modeli deb qaraladi.

Modelli didaktik vosita, shu bilan birga, yetarlicha samarali vosita deb qarash kerak. Modellardan foydalanish usullarini egallab olishganida bolalar oldida maxsus munosabatlar sohasi - modellar bilan original munosabatlar sohasi ochiladi va mos ravishda ikkita o‘zaro zich bog‘liq akslantirishlar rejasi -real ob'ektlar rejasi va bu ob'ektlarni qayta tiklovchi modellar rejasi shakllanadi. Bu akslantirish rejaları ko‘rsatmali - obrazli va tushunchaviy fikrlashni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Modellar har xil rolni bajarishi mumkin: biri tashqi aloqalarni tasvirlaydi, bolaning mustaqil payqay olmaydigan bog‘lanishlarni ko‘rishiga yordam beradi, boshqalari izlanayotgan, ammo yashirin aloqalarni, narsalarning bevosita idrok qilinmaydigan xossalarini tasvirlaydi. Vaqtga doir (sutka, hafta, yil, taqvim qismlari modellari), miqdoriy (sonli zinacha, sonli figura va b.), fazoviy (geometrik figuralar modellari) tasavvurlarni shakllantirishda modellardan keng foydalaniladi. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish buyum, predmet-sxematik, grafik modellar qo‘llaniladi.

Modellar va modellashtirishdan foydalanish o‘qitishning boshqa usullari bilan birga qo‘shib olib borilishi kerak.

**Nazorat ucun savol va topshiriqlar:**

1. Modellashtirish nima?
2. Tekshirish va baholash deganda nimani tushunasiz?
3. Ko‘rgazmali va og‘zaki metod deganda nimani tushunasiz?

### **2.3. O‘yin va o‘yin mashqlaridan foydalanish**

#### **1. O‘yin turlarining o‘ziga xos xususiyatlari**

*O‘yinning turlari:* Bolalar o‘yinlari o‘zining rang -barangligi bilan ajralib turadi. Ular o‘z mazmuni va tashkil etilishiga ko‘ra ,bolalarga ta'sir darajasiga ko‘ra ,turlichadir. Bolalarning barchasi bolalar o‘yinlarini to‘g‘ri rahbarlik qilishi uchun ularni albatta guruhlash zarur.Pedagogika o‘yinlarini 2 ta katta guruhga bo‘lish juda keng tarqalgan; *ijodiy o‘yinlar va qoidali o‘yinlar* .

Ijodiy o‘yinlarning mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar va ularning o‘z ta’surotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

Qoidali o‘yinlar kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi .Mazmunli qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Tayyor qoidali o‘yinlarning

katta guruhini halqa o‘yinlari tashkil etadi , ularning ko‘plari avloddan avlodga o‘tib , bizga yetib kelgan .

*O‘yinning tuzilishi:* O‘yin bu bola faoliyatining turi. Shunday ekan, barcha faoliyatda bo‘lgani kabi unda ham qator hislatlar; maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining asosiy savollar harakatlar, natijaning mavjudligi kabilar hosdir.

Bola o‘yindagi maqsadiga erishish uchun o‘ziga sheriklar tanlaydi, zarur o‘yinchoqlarni topadi, o‘yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi, o‘yinchilar bilan hilma hil muloqotlarga kirishadi. Bola maktab



yoshiga kelib o‘yin mavzusi va mazmunini kelisha oladigan ro‘llarni taqsimlaydigan, o‘z o‘yin faoliyatini ruhiy tarzda asosiy savollashtiradigan bo‘ladi. Boshqa faoliyat turlarida bo‘lgani kabi o‘yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati; uning pisixik bilish jarayonlari, irodasi,

hissiyoti va ta’sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi. O‘yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o‘z bilimlarini qo‘llaydi.

*Didaktik o‘yinlar* ta’limiy o‘yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O‘yinda o‘yin niyati, o‘yin qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin niyati o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa, o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

- navbatma-navbat ta'sir etish;
- so‘ralganda javob berish;
- o‘rtoqlari fikrini eshita olish;

- o‘yin jarayonida boshqalarga halaqit bermaslik;
- o‘yin qoidasini bajarish;
- o‘z xatosini tan olish.

Didaktik o‘yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O‘yinda o‘yin tempi va ritmi katta rol o‘ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko‘p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o‘yin ishtirokchilarini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) *buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan*; b) *stol-doska*; d) *og‘zaki so‘z o‘yinlari*.

Buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o‘ynaladigan o‘yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o‘yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to‘g‘risida umumiy tushuncha.

**2. Didaktik o‘yinning o‘ziga xos xususiyatlar.** Didaktik o‘yin ayni zamonda ko‘proq kichik bolalar uchun xos bo‘lgan o‘qitish (o‘rgatish) formasidir. Uning manbalari xalq Pedagogikasida bo‘lib, unda qo‘shiq aytib, turli xarakterli bajarib o‘ynaladigan o‘yinlarni birga qo‘shish asosida ko‘pgina ta’limiy o‘yinlar yaratilgan. Tadbirlarda, qo‘shiq aytib o‘ynaladigan o‘yinlarda "Ladushki", "Qushim boshi", "Oq terakmi - ko‘k terak" kabi o‘yinlarda ona bolasining diqqat e’tiborini tevarak - atrofdagi narsalarga qaratadi, ularni nomini aytadi.

Didaktik o‘yinda bolalarning o‘yin faoliyati uchun xos bo‘lgan barcha strukturali elementlar g‘oya, mazmun, o‘yin xarakatlari, qoidalari va natija bor.

Didaktik vazifaning borligi o‘yinning ta’limiy xarakterini, uning mazmuni bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilganligini ta’kidlaydi. Mashqulotlarda bolalar oldiga to‘g‘ridan -to‘g‘ri vazifa qo‘yiladi. Masalan: "Sehrli qalpoqchalar sirini ochamiz" o‘yinida tarbiyachi bolalarni narsa haqida gapirib berishga o‘rgatish, ularning ravon nutqini rivojlantirish vazifasini qo‘yadi. O‘yin vazifasi - qalpoqcha ostidagi narsani bilib olishdan iborat bo‘ladi. O‘yin vazifasi ba’zan o‘yinning nomida berilgan bo‘ladi: "Ajoyib xaltachada nima bor ekan, bilib olamiz", "Kim qaysi uychada yashaydi" va hokazo. O‘yinga qiziqish uni bajarishga intilish o‘yin xarakatlari bilan aktivlashadi. Ular, o‘yin xarakatlari qanchalik xilma-xil va mazmunli bo‘lsa, bilish va o‘yin vazifalari shunchalik muvaffaqiyatli hal qiladi.

Bolalarni o‘yin harakatlariga o‘rgatish dardkor. Shundagina o‘yin ta‘limiy harakter kasb etadi va mazmunli bo‘ladi. O‘yin harakatlariga esa o‘yinda sinash maqsadida yurish, harakatning o‘zini ko‘rsatish, obrazni ochib berish va hakazolar orqali o‘rgatiladi.

Kichik bolalarning o‘yinlarida o‘yin harakatlari barcha o‘ynovchilar uchun bir xil. Bolalar uchun o‘yin vazifasi – ma‘lum masofadan turib sharni darvozaga dumalatish kerak, bunda to‘p darvozadan o‘tayotganda unga osib qo‘yilgan qo‘nqiroqchalar jaranglab ketishi lozim.



Bolalarni guruhlarga ajratilsa yoki o‘yinda rollar bo‘lsa, o‘yin harakatlari xilma-xil bo‘ladi. Masalan, "Do‘kon" o‘yinida xaridorlar harakati sotuvchilar harakatiga qaraganda boshqacha, topishmoq aytish va uni topish o‘yinlarida topishmoq aytuvchilar bilan jumboqni topuvchilarning o‘yin harakatlari turlicha bo‘ladi va hokazo.

O‘yin harakatlari hajmi ham turlicha bo‘ladi. Kichik guruhlarda - ko‘proq takrorlanadigan (bir - ikkita) harakatlar bajariladi, katta guruhda esa o‘yin harakati besh - oltita harakatni o‘z ichiga oladi. Sport xarakteridagi o‘yinlarda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yin harakatlari vaqt jixatidan bo‘lib yuboriladi va ketma-ket amalga oshiriladi. Keyinchalik, o‘yin harakatlarini o‘zlashtirib olgach, bolalar biror maqsadni ko‘zlab, aniq, tez, bir - birlari bilan kelishib harakat qiladilar va o‘yin vazifasini yaxshi bilib olgan sur‘atda xal etadilar.

Qoida didaktik o‘yin elementlaridan biridir. U ta‘lim vazifasi hamda o‘yin mazmuni bilan belgilanadi va o‘z navbatida, o‘yin harakatlari xakteri va uslubini belgilab beradi, bolalarning hatti-harakatini, ular bilan tarbiyachi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yadi va boshqaradi. Qoidalar yordamida tarbiyachi bolalarda

o'zgaradigan sharoitda yo'l topib olish qobiliyati, paydo bo'lgan istaklaridan o'zini tiyish, emotsional - irodaviy zo'r berish malakasini shakllantiradi. Buning natijasida bolalarda o'z xarakterlarini boshqarish, ularni boshqa o'ynovchilar xarakterlari bilan bog'lash qobiliyati rivojlanadi.

O'yin qoidalari ta'lim beruvchi (o'rgatuvchi), uyushtiruvchi va tartibga (intizomga) soluvchi xarakterga ega. Ta'lim beruvchi qoidalar bolalarga nimani qanday bajarish kerakligini o'rgatishga yordam beradi; ular o'yin xarakterlari bilan bog'liq bo'ladi, ularning rolini oshiradi, bajarish usullarini aniqlashtiradi; qoidalarning uyushtiruvchi xarakteri o'yindagi tartib, izchillik va bolalarning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi; o'yinning intizomga soluvchi xarakteri esa nimani qilish mumkin emasligini va nima uchun shunday qilmaslik kerakligini oldini oladi.

Tarbiyachi qoidalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, o'yinda ularni ko'paytirib yubormasligi, ulardan faqatgina zarurlarigina qo'llanishi kerak.

Tarbiyachi tomonidan o'rnatilgan o'yin qoidalarini bolalar asta-sekin o'zlashtirib oladilar. Shularni e'tiborga olib, ular o'zlari va o'rtoqlari hatti - harakatlarining to'g'riligini, o'yindagi o'zaro munosabatlarni baholaydilar.

Didaktik o'yin natijasi - har qanday yo'l bilan erishilgan g'alabagina emas, balki bolalarning bilimlarini o'zlashtirishda, aqliy faoliyatini rivojlantirishda, o'zaro munosabatlarda erishgan yutuqlari ko'rsatkichidir. O'yin vazifalari, harakatlar, qoidalar, o'yin natijasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan, ana shu tarkibiy qismlardan bo'lmasligi, o'yinning bir butunligini buzadi, uning ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini kamaytiradi.

**3. O'yinchoqlar va o'yin qo'llanmalari bilan o'ynaladigan o'yinlar.** O'yinchoqlar va o'yin qo'llanmalari didaktik o'yinning moddiy markazidir. Pedagog shu maqsadni ko'zlab o'yinchoqlar, suratlar, turli predmetlarni tanlashi va ularni ma'lum bir joyda saqlashi kerak. O'yin vaqtida bu qo'g'irchoqni guruhdagi hamma bolalar ko'ra olishi uchun, uning o'lchami 40-50 sm bo'lishi kerak. Uning jixozlariga quyidagi narsalar kiradi:

- kiyim-bosh: kunduzgi ko'ylak, shim, paypoq;
- ko'ylak: ipakdan tikilgan ko'ylaklar; peshband, qishki, mavsumbop, paltolar;
- bosh kiyimlar: shapka, panama, ro'molcha;
- oyoq kiyimlar: etik, tufli, yumshoq tapochkalar;

- koʻrpa-yostiq jildlari, yostiq, choyshab, dasturxon, sochiq va hokazolar.

Bu narsalarning hammasi turli rangda va shularga muvofiq tusda, turli sifatdagi materialdan tayyorlanishi, ilgagi, piston va tugmalari bogʻishlari vazifasiga muvofiq va bolalar qoʻlining hajmiga mos boʻlishi kerak.

Qoʻgʻirchoqdan tashqari, oʻyinga transport, hayvonlar, qushlar, idish - tovoq va hokazolarni aks ettiruvchi koʻpgina boshqa oʻyinchoqlar kiritiladi. Bu oʻyinchoqlar "Ajoyib xalqacha" bilan oʻynaladigan oʻyin, magazin oʻyinlari, topishmoq oʻyinlarning majburiy jixozlarini tashkil etadi. Shuningdek, xilma-xil texnikaviy oʻyinchoqlar va texnik vositalar: kino, televizor, magnitofon va boshqalardan ham foydalanish kerak. Bularning hammasi hozirgi bolalar talablariga javob beradi, oʻyinlar mazmunini ancha yuqori saviyaga koʻtaradi, qoidalar va oʻyin harakatlarini rang-barang qiladi va pedagogning didaktik vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Koʻpgina ogʻzaki oʻyin deb atalmish oʻyinlar oʻyinchoqlarsiz va materiallarsiz oʻtkaziladi. Bular soʻzdan va bolalardagi mavjud tasavvurlardan foydalanishga asoslangan boʻladi. Bular topishmoq oʻyinlar, taqqoslab koʻrish, klassifikatsiyalash va hokazolarga oid oʻyinlardir.

**4. Stol ustiga qoʻyib oʻynaladigan oʻyin qoʻllanmalar.** Suratlar, predmetli loto, domino tipidagi xilma-xil oʻyin qoʻllanmalari, tematik oʻyinlar ("Qayerda nima oʻsadi?", "Bu qachon boʻladi?", "Bu kimga kerak?" va boshqalar); harakat aktivligi, mahorat va xokazolarni talab etadigan oʻyinlar ("Uchuvchi qalpoqchalar", "Moʻljalga tekkiz" va boshqalar); mozaika tipidagi oʻyinlar stol ustida oʻynaladigan oʻyinlar qatoriga kiradi. Stol ustida oʻynaladigan bosma oʻyinlar bolalarning ong - bilim doirasini kengaytirishga, oʻstirishga yordam beradi, idroklilikni, oʻrtogʻining harakteriga eʼtibor berishni, oʻyinning oʻzgaruvchi sharoitlariga qarab ish koʻradi, oʻz yurishi natijalarini oldindan koʻra bilish uquvini rivojlantiradi. Oʻyinda ishtirok etish sabr -toqat, qoidalarga qatʼiy rioya qilishni talab etadi va bolalarga katta quvonch baxsh etadi.

Kichkintoylarga moʻljallangan oʻyin mazmuni ular uchun tushunarli boʻlishi kerak. Loto kartochkalarida, juft - juft suratlarda, buklama kitoblarda oʻyinchoqlar, uy-roʻzgʻor buyumlari, eng oddiy transport vositalari, sabzavotlar, mevalar tasvirlanadi. Asosiy kartadagi suratlarga mos keladigan juft suratlar tanlash, rasmda tasvirlangan



predmetni, uning biror sifatini aytish bolalarning lugʻat boyligini, qisqacha tushintiruvchi nutqini rivojlantiradi.

Katta guruh bolalari uchun stol ustida oʻynaladigan bosma oʻyinlar qiziqarli boʻlib, ularda tabiat xodisalari aks ettiriladi, turli xil transport tasvirlanadi, "Kim nimada yuradi, suzadi, uchadi", ertak qahramonlari ishtirok etadi. Bu va shunga oʻxshash oʻyinlar bolalardan mashgʻulotlarda, ekskursiyalardagi kuzatish prosessida oʻzlashtirilgan bilimlarni eslash va qoʻllashni talab etadi. Katta yoshdagi bolalar uchun mazmunida, oʻyin harakatlarida va qoidalarda chaqqonlik, aniqlik, tezkorlik, idroklilik elementlari bor boʻlgan oʻyinlar qimmatli va qiziqarlidir. Har bir bolalar bogʻchasida juda ham rang-barang oʻyinlar yigʻindisi boʻlishi hamda mustaqil faoliyat uchun ajratilgan vaqtda bolalarning ulardan bemalol foydalanishlariga sharoit yaratilishi kerak.

Ovutuvchi - oʻyinlar alohida guruhni tashkil etadi. Ularda ajoyiblik, kutilmaganlik, kulgililik elementlari aniq ifodalangan boʻlib, hazil, yumor bor. Ularning asosiy vazifasi - bolalarni xursand qilish, kuldirishdan iborat. Koʻpchilik oʻyinlarning mazmuni va qoidalari yoki tez bajariladigan oʻyin harakatlarini, yoki kichiklashtirilgan harakatlarni talab etadi. Ularning baʼzilari tez, koʻpincha tasodifiy reaksiya uygʻotadi, boshqalari esa bolalarni irodaviy zoʻr berishga oʻrgatadi.

"Quyunchani tutib ol", "Qoʻngʻiroqchali bekinmachoq", "Suratlarni kim tezroq yigʻadi" kabi oʻyinlar ovituvchi - oʻyinlar qatoriga kiradi.

Ijodiy oʻyinlar sujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Sujet oʻyin faoliyati tizimida asosiy komponent sifatida oʻz ichiga personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini oladi. Ijodiy oʻyinlarda hayotiy vaziyatning mavjud boʻlishi bolaning tafakkurini oʻstirib, sujet va rollar oʻyin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy sujetli-rolli oʻyinlarning oʻziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi — bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, oʻyin mazmuniga qarab oʻzgarib boradi. Kichik yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan qiziqarli harakatlar boʻlsa, bola katta boʻlgan sari oʻyindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab boʻlib xizmat qiladi.

Shunga koʻra, oʻyinlarni sujeti, mazmuniga koʻra 3 guruhga boʻlish mumkin:

1. Maishiy oʻyinlar (oila, bolalar bogʻchasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).

2.Mehnat mavzusidagi o‘yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o‘z-o‘ziga xizmat va b.).

3.Ijtimoiy mavzudagi o‘yinlar.

Milliy xalq o‘yinlari ikki guruhga bo‘linadi:

1. Milliy harakatli o‘yinlar.

2. Milliy xalq o‘yinlari.

Milliy harakatli o‘yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo‘lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog‘lom, jasur, qat‘iyatli, chaqqon, uddaburon bo‘lib o‘shishlarida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Xalq milliy o‘yinlarida millatning o‘tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari jamlangandir.

*1-2 yoshli* bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari. «Barmoqqa-barmoq», «G‘oz-g‘oz», «G‘oz tursin», «Bo‘p-bo‘p», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom» o‘yinlari go‘dak endi bir-ikki qadam tashlashni o‘rganayotgan vaqtda gavdasini to‘g‘ri tutishga yordam beradigan o‘yinlar hisoblanadi.

*3-4 yoshli* bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: «Ot o‘yin», «Kesak qo‘ydi», «Ko‘z boylagich», «Guli chamber», «Aval-akam», «Tayoq irg‘itish», «Quloq cho‘zish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

*4-5 yoshli* bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: «Chir aylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor o‘yin», «Ko‘pkari», «Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan».

*Katta yoshdagi* bolalar uchun o‘yinlar: «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do‘ppi yashirma», «Charxpalak», «Besh tosh», «0q terak-mi ko‘k terak». Bu o‘yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o‘z-o‘zini boshqara olish va o‘ziga ishonch tarbiyalanadi, qat‘iyatlilik ko‘nikmalari shakllanadi, fikrlashga o‘rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo‘lishga tayyorlanib boriladi.

Xalq milliy o‘yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o‘z Vatanini sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo‘shiqlardan zavqlanish tuyg‘ulari, shuningdek o‘sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Xalq milliy o‘yinlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

- milliy o‘yinlarni tashkil etishda ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;

- xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

- bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoit (o‘yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;

- maktabgacha ta’lim muassasalari, oila va mahallalar o‘rtasida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlari va musobaqalar o‘tkazish.

Xalq harakatli o‘yinlarini tashkil etish va bolalarga o‘rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

- bolani ruhiy jihatdan o‘yinga tayyorlash;
- o‘yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e’tibor berish;
- har bir o‘yinning pedagogik tomonlarini nazardan qochirmaslik;
- o‘yinlarni ijtimoiy-foydali mehnat bilan boglagan holda hayotga tatbiq etish;
- o‘yin davomida o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash;
- jamoa bo‘lib birgalikda harakat qilish, jamoa manfaatiga hurmat va e’tiborli bo‘lish.


#### **Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xalq milliy harakatli o‘yinlar haqida gapiring?
2. Milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyati nimalarda iborat?
3. Milliy harakatli o‘yinlarni turli yosh guruhlarida tashkil eting?
4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida, bolalar xayotida o‘yinning qanday ahamiyati bor?
5. Bolalar xayotida mazmunli o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikringiz.
6. Harakatli o‘yinlar bolalami sog‘lom qilib tarbiyalashning muhim sharti ekanligini yoritib bering.

## **2.4. Bolalarda son- sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish, ularni sanashga o‘rgatish**

**1. Miqdor va sanoq.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o‘qitish o‘ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshida

echilishi kerak bo'lgan vazifalar hal qilinmasa, maktabgacha o'qitish muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Bu vazifalardan biri konkret bilimlar va tafakkur usullaridan abstrakt bilim va usullarga o'tishdan iborat. Bu xil o'tish saviyasi, ayniqsa, matematika o'qitish uchun zarurdir. Bunday saviyaning bo'lmasligi yoki etarli bo'lmasligi ikki tomonlama qiyinchilikka olib keladi. Bir tomondan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko'pincha maktabga mavhum matematik usullarni egallagan holda keladilar, ularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda abstrakt bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konkret shart – sharoitlarda matematik usullarni egallagan holda keladilar, ularni bartaraf qilish juda qiyin bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bolalar maktabda abstrakt bilimlarni egallar ekanlar, ko'pincha ularni formal, asl mazmunini tushunib etmagan holda o'zlashtiradilar. Shuning uchun ham konkret shart – sharoitlarda matematik bilimlarni qo'llanish imkoniyati juda cheklangan bo'ladi. Shu sababli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitishning muhim vazifasi matematik abstraktlashlar bilan konkret borliq orasidagi bog'lanishni ta'minlaydigan bilim va harakatlarning oraliq saviyasini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak.



Tekshirishlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarga matematika o'qitishda o'tish saviyasi mazmuni quyidagilardan iborat:

Birinchidan, shunday faoliyat va masalalarni o'zlashtirish kerakki, ularda matematik operasialarni qo'llashning zarurligi bolalarga yaqqol ko'rinib turadi. Bu, bir tomondan, bolaning amaliy faoliyati bilan bevosita bog'liq (tenglashtirish, taqqoslashga oid) masalalar, ikkinchi tomondan, ularga shunday shartlar kiritiladiki, bunda mazkur masalalarni matematik vositalardan foydalanmay turib (masalan, fazoda

ajratib qo'yilgan ikki to'plamni amalda tenglashtirish) amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

Ikkinchidan, muhitning shunday munosabatlarini ajratish kiradiki, bu munosabatlarni qo'llanish bolaga konkret buyumlardan matematik obektlarga o'tish (masalan, buyumlarni ma'lum belgilari bo'yicha guruhga kiritish va shu asosda to'plam munosabatlarini, tenglik – tengsizlik munosabatlarini, qism – butun munosabatlarini hosil qilish) imkonini beradi.

Tekshirish natijalari shuni ko'rsatadiki, matematik operatsiyalar maktabgacha yoshdagi o'zlashtirilgan shunday masalalar va munosabatlar asosida kiritilsa va qayta ishlansa, matematikani egallash samaraliroq bo'ladi. Yo haddan tashqari konkretlik, yo matematik bilimlarning formalligi tufayli paydo bo'ladigan qiyinchiliklar mazkur holda paydo bo'lmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qitishda matematik bilimlar tarkibini tekshirish tenglik – tengsizlik, qism – butun munosabatlari, bilvosita tenglashtirish sanoq va arifmetik amallarni to'liq va ongli o'zlashtirish uchun asos bo'ladigan sodda masalalar va munosabatlarning o'zidan iborat ekanini ko'rsatdi. Bu munosabat va masalalarni (ularning eng sodda shakllarini bolalar 3 yoshdan boshlab tushuna boshlaydilar. Ular bunday mashg'ulotlarga katta qiziqish bilan yondashadilar, xuddi shu erning o'zida o'zlashtirganlari (tenglik, qism – butun va h.k. munosabatlari)ni o'yinlarga ko'chiradilar, turmushda amaliy ishlar qilishda foydalanadilar, bir – birlariga (katta va tayyorlov guruhi bolalari) shunga o'xshash masalalarni taklif qiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurlarini o'rganish, tekshirish asosida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish dasturi tuzildi. Bu dastur quyidagi besh bo'limdan iborat: "Miqdor va sanoq", "Kattalik", "Geometrik figuralar", "Fazoda mo'ljal olish", "Vaqtga nisbatan mo'ljal olish".

Endi har xil guruhlarda "Miqdor va sanoq" bo'limi ustida ishlash uslubiyati haqida fikr yuritamiz.

**Ikkinchi kichik guruh.** Maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanoqqa o'rgatishdagi bosh vazifalardan biri bir to'plam elementlarini ikkinchi to'plam elementlari bilan taqqochlash, solishtirish yo'li orqali bolalarni to'plamlarni taqqoslashga o'rgatishdan iborat. Bu dastlabki bosqich kelgusida sanoq faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bola miqdoriy taqqoslash usullarini egallaydi. Bola sanashni bilmaydi, shu sababli u oldin taqqoslanayotgan to'plamlarning

qaysinisi ko‘p qaysinisi kam ekanini, yoki ular teng quvvatli ekanini aniqlashni o‘rganadi. Bolalarda kelgusida matematik tasavvurlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan sanoqqa o‘rgatishning boshlang‘ich davriga bog‘liq.

Ikkinchi kichik guruhda tarbiyachi bolalarda to‘plam alohida bir jinsli elementlar (buyumlar) majmui haqidagi tasavvurni rivojlantirishi kerak.

O‘qitishni buyumlarining sifat, xossalarini ajratishga oid mashqlardan boshlash kerak. Masalan, bir qancha o‘yinchoqlar ichidan xuddi tarbiyachi qo‘lidagidek o‘yinchoqni topish taklif qilinadi. “Xuddi shunday o‘yinchoqni topish taklif qilinadi. “Xuddi shunday kubchani (bayroqchani, sharni) ber”. Shundan keyin har kubchani (bayroqchani, sharni) ber”. Shunday keyin har xid rangli (o‘lchamli, shakldagi) 2 -3 ta buyum orasidan xuddi shu rangdagi (o‘lchamli, shakldagi) buyumni tanlash topshirig‘i beriladi.

Navbatdagi bosqich berilgan belgi – alomatlari bo‘yicha buyumlarni tanlash va guruhlariga ajratishga, oid mashqlardan iborat bo‘lishi kerak. Masalan: “Qizil rangli hamma kubchalarni mana bu qutiga sol, bu qutiga esa hamma kichik matryoshkalarini yig‘, mana bunisiga esa hamma katta matryoshkalarini yig‘”. Bunday mashqlar natijasida bolalar har xil buyumlarning umumiy belgilari bo‘yicha bir guruhga birlashtirish mumkin ekanini tushuna boshlaydilar: “Bular qo‘g‘irchoqlar”, “Bular koptoklar”, “Bular bayroqchalar” kabi.

Tarbiyachi bolalarni guruhdagi buyumlarning biron qismi uchungina umumiy bo‘lgan belgilarni ko‘ra olishga o‘rgatadi. Masalan, bayroqchalar ko‘pligini, ammo ularning ba‘zilari sariq, ba‘zilari esa ko‘k ekanini ko‘rsatadi. (Sariq bayroqchalar ko‘p, ko‘k bayroqchalar ham ko‘p).

Miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda bir jinsli (bir xil) buyumlardan guruhlar tuzish va guruhni alohida buyumlarga ajratishga doir har xil o‘yin – mashqlar ma’lum o‘rinni olishi kerak. Odatda bu o‘yin mashqlar darsda ma’lum izchillikda o‘tkaziladi.

Birinchi mashg‘ulotda bir xil o‘lcham va rangli mutlaq aynan o‘yinchoqlarning – sabzilar, archalar, jo‘ja qancha bo‘lsa, o‘yinchoqlar ham shuncha bo‘lishi kerak. Tarbiyachi dastlab bolalarga bittadan o‘yinchoq ulashadi, o‘z harakatlarini ushbu so‘zlar bilan tushuntiradi: “Men archalar juda ko‘p. Men bolalarning hammasiga bittadan archa berib chiqaman. Menda bitta ham ham archa qolmaydi...” shunday keyin bolalarga murojaat qiladi “Har biringizda nechtdan archa bor?”

Shundan keyin tarbiyachi hamma o‘yinchoqni yig‘ib oladi, bunda u bitta ham yo‘q (bolada) juda ko‘p (tarbiyachida) so‘zlariga urg‘u beradi.

Mashqni boshqa o‘yinchoqlar bilan yana bir marta takrorlash mumkin. Har gal tarbiyachi ko‘p, bitta, bittadan, bitta ham yo‘q, hech narsa yo‘q so‘zlarini ishlatadi; “Qancha?”, “Qanchadan?” – savollarini qo‘yadi. Kichkintoylar buyumlarni va ular qanchadanligini (ko‘p, bitta) aytadilar. Mashg‘ulotning borishida bolalar to‘plam alohida buyumlarga ajralishiga va alohida buyumlardan tuzilishi mumkinligiga ishonch hosil qiladilar.


Ikkinchi mashg‘ulot ham shunga o‘xshash o‘tkaziladi. Dastlab oldingi mashg‘ulotda foydalanilgan o‘yinchoq turlarining biri bilan ish tashkil qilinadi, keyin esa o‘yinchoq yoki buyumlarning yangi xili olinadi, ular bir xil bo‘lishi shart emas: ular turlicha o‘lchamli va har xil rangli bo‘lishi mumkin. O‘yinchoqlar guruhlariga ajratiladi, masalan, bir savatga sariq koptoklar, ikkinchi savatga qizil koptoklar yig‘iladi; katta baliqchalar katta idishga, kichik baliqchalar kichik idishga solinadi.

Mashg‘ulotning borishida tarbiyachi umumlashtiradi. Masalan: “Savatda (yoki to‘r xaltada) koptoklar ko‘p”, ammo “katta to‘r xaltada katta koptoklar ko‘p, kichik to‘r xaltada kichik koptoklar ko‘p” yoki “Ariqda ko‘p baliq suzib yuribdi”, yoki “Qizil yoki sariq qayiqchalar ko‘p”. Bu xil mashqlarni kamida to‘rt marta o‘tkazishdan iborat ekanini bilib olganlaridan keyin; ular bir xil buyumlar guruhlarini mustaqil ajratishni, tevarak – atrofdan alohida (bitta) buyumlarni va buyumlar majmuini (ko‘p) mustaqil topishga o‘rganadilar.

Honada qanday buyumlar ko‘p, qaysi buyumlar bittaligini ayta olish uchun kichkintoylar murakkab fazoviy –miqdoriy tahlilni amalga oshiradilar, ya’ni qandaydir bir buyumni ajratadilar. So‘ngra unga diqqat bilan qarab qanday buyumlar bor – yo‘qligini qarab, bir xil buyumlarni yagona to‘plamga xayolan birlashtirishlari kerak.

A.M.Leushina bolalarda buyumlarning miqdoriy tomonlarini abstraktlashtirish va bir xil buyumlarni yagona to‘plamga xayolan birlashtirish malakasini sekin –asta rivojlantirish imkonini beradigan mashqlar tizimini ishlab chiqdi.

Kichkintoylarning “Bitta” va “ko‘p” tushunchalarini mustahkamlash uchun ko‘rsatilgan miqdordagi buyumlarni har xil rangli ikkita qatorga joylashtirishni taklif qilish mumkin.



Tarbiyachi quyidagicha topshiriq beradi: “Chapdagi ko‘k qatorga bitta jo‘ja, o‘ngdagi yashil qatorga ko‘p jo‘ja qo‘ying”. Qatorlarning o‘rnini almashtirib yoki har qaysi qatorga joylashtirish kerak bo‘lgan buyumlar soni haqidagi ko‘rsatmani o‘zgartirib, tarbiyachi bolalarni buyumlar miqdorini oldin qatorlar rangi bilan, keyin esa ularning fazoviy joylashuvlari bilan boglashni o‘rgatadi.

Shuningdek, kichkintoylar buyumlarning chapda, o‘ngda, yuqorida, pastda bir – biriga nisbatan qanday joylashganliklarini aniqlashni ham o‘rganadilar.

Topshiriqni bajarib bo‘lganlaridan keyin tarbiyachi bolalardan har qaysi qatorda qanchadan o‘yinchoq (bitta yoki ko‘p) borligini so‘raydi. Bu xil ishga kamida ikki – uch mashg‘ulot ajratiladi.

Tarbiyachi “Topshiriq” o‘yinini tashkil qilishi mumkin, bu o‘yinda bolalar to‘plamni aniqlashni, buyumlarni mustaqil tanlashni o‘rganadilar. Bu o‘yin uchun buyumlar birlik va ko‘plikda berilmog‘i lozim, masalan birinchi stolga bitta, ikkinchi stolga ko‘p o‘rdakcha qo‘yish mumkin. Bolalar tarbiyachining topshirig‘iga ko‘ra oldin ko‘p, keyin esa bitta o‘rdakchani olib kelishadi. Topshiriqni qiyinlashtirish ham mumkin: bir stolning o‘ziga bitta archa va ko‘p qo‘ziqorin qo‘yishi mumkin. Bu orada bolalar o‘yinchoqlarni olib kelmaydilar, balki stolga yaqin kelib. Unda nimalarni ko‘rayotganlarini gapirib berishadi.

O‘yinchoq guruhlarini tobora har xil joyga, ya‘ni: stollarga, deraza tokchalariga, gilamga joylashtirish mumkin. Topshiriqni bajarishdan oldin bolalarning e‘tiborini xonaning alohida joylariga (deraza tokchasi, gilamning o‘ng Tomonidagi burchak va b.) qaratish kerak, shundan keyin ularning o‘zlari ham yaxshi orientir (mo‘ljal) ola boshlaydilar.

Bolalar avval “ko‘p gullar”, “Bitta daraxt” kabi sodda gaplardan foydalanadilar. Keyin ular ikkita sodda gapni bitta murakkab gapga birlashtirishni o‘rganadilar: “Gullar ko‘p, daraxtlar esa bitta”.



“Bitta” va “ko‘p” tushunchalarini mustahkamlash uchun har xil usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalarga ko‘p marta chapak chalishni, bir marta baland sakrashni, bolg‘a bilan ko‘p marta taqillatishni, so‘ngra tarbiyachi bolg‘a bilan necha marta taqillatgan bo‘lsa (2-3 martadan ko‘p emas), shuncha marta taqillatishni taklif qilishi mumkin. Keyin ular ikkita sodda gapni bitta murakkab gapga birlashtirishni o‘rganadilar: “Gullar ko‘p, daraxtlar esa bitta”.

“Bitta” va “ko‘p” tushunchalarini mustahkamlash uchun har xil usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalarga ko‘p marta chapak chalishni, bir marta baland sakrashni, bolg‘a bilan ko‘p marta taqillatishni, so‘ngra tarbiyachi bolg‘a bilan necha marta taqillatgan bo‘lsa (2-3 martadan ko‘p emas), shuncha marta taqillatishni taklif qilish mumkin.

“Uloqlar bilan echki” o‘yini. Bu o‘yinning maqsadi ayrim elementlardan to‘plam tuzish bo‘yicha mashq qildirish, o‘yin boshlanishiga qadar kichkintoylarni “Bo‘ri bilan etti uloq” ertagi bilan tanishtirish, echki bitta, uloqlar esa ko‘p ekanini aniqlash, o‘yinchoq echki bilan uloqlarni ko‘rish. Shundan keyin bolalardan kimdir ko‘zini berkitadi, tarbiyasi esa uloqlarni har xil joyga yashiradi. Echki ma‘raydi: “Me-e”, bola ko‘zini ochib, uloqlarni qidira boshlaydi. Tarbiyachi bunday deydi: “Uloqlar shoxdor echkidan yashirinishdi, qaydasiz uloqchalar, qaydasiz, jajjivoylar?”. Bola uloqni topib, bir so‘zi bilan uni stolga qo‘yishi zamonog‘ echki yana ma‘raydi: “Me-e”. Tarbiyachi echki yana bitta uloqni qidirishni so‘rayapti, deydi. O‘yin hamma uloq topilguncha davom etadi. Eng oxirida echki “Rahmat” uloqlar ko‘p, ularning hammasi topildi”, - deydi.

“Jajjivoy” o‘yini oldingi o‘yinga o‘xshash o‘tkaziladi. Bitta mushuk va ko‘p mushukcha, bitta tovuq va ko‘p jo‘ja, bitta o‘rdak va ko‘p o‘rdakcha bo‘lishi mumkin va h.k.

“Bitta” va “ko‘p” tushunchalarini farq qildirish uchun sharlar, xalqachalar, toshchalar va boshqa narsalar bilan o‘yin o‘tkazishi mumkin. Tarbiyachi stolga bitta va ko‘p buyum qo‘yadi. U bitta buyumni ko‘rsatib, “Bitta shar (tugma, xalqacha)” deydi. Shundan keyin buyumlar guruhlarini ko‘rsatadi va deydi: “Ko‘p narsalar (tugmalar, halqalar)”. Tarbiyachi bolalarga bittadan shar olishni taklif qiladi va shunday deydi: “Naimada bitta shar, Jasurda bitta shar, Voxidda bitta shar. Yana bitta shar kimda, ko‘rsating. Har kim o‘z sharini stolga savatga, qutiga qo‘ysin. Har kimda bittadan edi, endi nechta bo‘ldi? Ko‘p”.

Bolalarga xaltachalar, savatchalar, qutichalar tarqatish va ularga oldin bitta buyum, keyin esa ko‘p buyum solishni taklif qilish mumkin.

“Bitta” va “ko‘p” tushunchalarini mustahkamlash uchun o‘yin – mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tarbiyachi stolga bir varaq qog‘ozni qo‘yadi, uning ustiga istalgan hayvon o‘yinchoqlardan, masalan, olmaxonlarning bir nechtasini (5-6 tasini) qo‘yadi. Shundan keyin bolalarga murojaat qiladi: “Maysazorda olmaxonlar” ko‘p. Men bitta olmaxonni mehmonga chaqiraman. Sen ham chaqir. Iroda (Said). Iroda (Said) nechta olmaxonni chaqirdi? Mendagi olmaxonlar nechta?”.

Bolalar navbati bilan to qog‘ozda bitta ham o‘yinchoq qolmaguncha bittadan o‘yinchoq oladilar. Tarbiyachi so‘raydi: “Maysazorda nechta olmaxon qoldi? (Bitta ham qolmadi). Mendagi olmaxonlar qancha? (Ko‘p). Yana maysazorda olmaxonlar ko‘p bo‘lsin uchun kelinglar bunday qilaylik. (O‘yinchoqlarni oldingi joylariga qo‘yadi). Said (Vohid), senda nechta olmaxon qoldi? (Qolmadi) Maysazorda olmaxonlar nechta bo‘ldi? (ko‘p)”.

Bunday o‘yin – mashqlarni boshqa hayvonlar to‘plami bilan ham o‘tkazish mumkin, bular o‘rdak bilan o‘rdakchalar; ayiq bilan ayiqchalar, cho‘chqa bilan cho‘chqachalar bo‘lishi mumkin. Bu xil mashqlarning borishida bola har bir guruh alohida buyumlardan iborat ekanini tushuna boshlaydi, guruhdan bitta buyumni ajratishni, “ko‘p”, “bitta” tushunchalarini farq qilishni o‘rganadi. Bu o‘rinda mazkur tushunchalar bir – biriga qarshi qo‘yilmaydi (mana- ko‘p, mana – bitta), balki bir – biriga taqqoslanadi. “Bitta” guruhning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Bu mashqlarni o‘tkazishda tarbiyachi bolalarga tez – tez “Qancha?” savolini berishi kerak; ularni ko‘p, bitta, bitta ham yo‘q so‘zlarini ishlatishga undashi kerak. Kichkintoylar javob berayotganida buyumlarning o‘zini ham, ularning miqdorini (bitta quyoncha, ko‘p quyoncha) ham aytishlarini talab qilish zarur.

Mashg‘ulotga har xil illyustrasiya materiallarning kiritilishi ham bolalarning “bitta” va “ko‘p” tushunchalarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Chunonchi, “Mushuk mushukchalari bilan”, “It bilan itchalar” rasmlariga qarab, bolalar bitta mushuk va ko‘p mushukchalar, bitta it va ko‘p itchalar deyishadi, bolalar bitta sabzavot va ko‘p mevalarni topadilar, bitta katta pomidor va ko‘p kichik pomidorlarni topadilar.

Jismoniy tarbiya va musiqa, tasviriy faoliyatlarga oid mashg‘ulotlarda bolalar har doim “ko‘p” va “birlik” tushunchasi bilan uchrashadilar. Masalan, koptoklar va cho‘plar ko‘p, xoda esa bitta, bayroqchalar va ro‘molchalar ko‘p, zina esa bitta.

Rasm solish vaqtida tarbiyachi bolalarning qalami nechtaligini soʻraydi (har kimda bittadan, hammada esa koʻp).



Musiqqa mashgʻulotida bolalar barabanning har bir taqillashiga yoki boshqa musiqqa asbobining har bir ovozigina stolga yoki stolga bittadan oʻyinchoq qoʻyadilar.

Tarbiyachi oʻz ishida kundalik turmushdan ham keng foydalanishi mumkin. Uning topshirigʻi bilan bola bitta, keyin yana bitta qoshiq keltiradi. Yoki bitta katta va koʻp

kichik qoshiqlarni keltiradi. Tarbiyachi bolalarga kitob oʻqib berar ekan, kitobining bittaligini, uning varaqlari esa koʻpgina ekanini taʼkidlaydi. Tabiatda sayr qilib yurganda tarbiyachi, bolalar eʼtiborini bitta terak va koʻp qaragʻay oʻsayotganiga, qumli joy bittaligiga, skameykalari esa koʻp ekaniga qaratadi.

Kichik guruh bolalari toʻplamda alohida elementni ajratishga va shu elementlarni bitta toʻplamga birlashtirishga, toʻplamni yagona butun deb qabul qilishga shunday qilib oʻrgatiladi.

**Miqdoriy tasavvurlarni shakllantirishga oid ishning navbatdagi bosqichi maktabgacha yoshdagi bolalarni buyumlar guruhlarini taqqoslashga oʻrgatish, “tenglik” va “tengsizlik” tushunchalari bilan tanishtirish.** Bu bosqichda bolalarga bir guruhning har bir buyumini boshqa guruh buyumlari bilan mos keltirish va shu yoʻl bilan (sanamasdan) qaysi guruhda ular koʻp, qaysi guruhda ular kam yoki tengdan ekanini aniqlashni oʻrgatish muhimdir. Tarbiyachi bolalarga buyumlarni ustiga qoʻyib va yoniga qoʻyib taqqoslash usullarini oʻrgatadi. Eng sodda amaliy taqqoslash uchuli – ustiga qoʻyib taqqoslashdan boshlash kerak. Masalan, tarbiyachi buyumlarga (3-5 ta) ularning tasvirlarini qanday qoplash kerakligini koʻrsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bu usulni egallab olganlaridan keyin bolalarni buyumlarning kartochkadagi tasvirlari ostiga qoʻyishga, bunda ular orasidagi intervalni qatʼiy saqlagan holda (yaʼni buyumlar orasidagi masofaga qatʼiy amal qilgan holda) oʻrgatish kerak.

Tarbiyachi buyumlarni bir – birining ustiga va yoniga qoʻyish yoʻllari bilan taqqoslash usulini bolalarga oʻrgatganidan keyin, toʻplamlarning tengligi (tengsizligi) ni oʻrnatishga, “tengdan” (qancha boʻlsa, shuncha), koʻp kam” munosabatlarini oʻrnatishni

o'rgatadi. Shu maqsadlarda buyumlarning ikki guruhini taqqoslashga doir har xil mashqlardan foydalaniladi. Masalan, bolalar qo'g'irchoqlar va piyolalar, quyunchalar va sabzilarning miqdorlari teng yoki teng emasligini, qaysi buyumlar: chelakchalar yoki kurakchalar, qizil yoki ko'k doirachalar ko'p yoki kam ekanini aniqlaydilar. Taqqoslash uchun buyumlarning miqdori teng (2 va 2,3 va 3,4 va 4,5 va 5) va tengmas (2 va 3,3 va 4,4 va 5 ta buyumga ortiq yoki kam) doirachalar beriladi.

Tarbiyachi shogirdlarini buyumlar guruhlarini taqqoslaganda qanday obektlar ko'p, qandaylari kam ekanini aytishga o'rgatadi ("Qizil doirachalar ko'k doirachalardan...ta ortiq, ko'k doirachalar qizil doirachalarga nisbatan... ta kam, ko'k doirachalar nechta bo'lsa qizil doirachalar ham shuncha").

Tarbiyachi bir xil buyumlarning orasidagi miqdoriy munosabatlarni doim almashtirib turishi kerak. Masalan, shunday qilish kerakki, ko'k doirachalar qizil doirachalar qancha bo'lsa, shuncha bo'lsin. Taqqoslanayotgan guruhlarining fazoviy holatlarini ham o'zgartirib turish kerak. Masalan, to'plam polotnosining goh ustki, goh pastki qatoriga ko'proq (kamroq) miqdorda buyumlarni joylashtirish kerak, bolalar kartokchada ham mos ravishda shu ishni bajarishlari kerak. Bunday mashqlarni bajarish jarayonida bolalar har xil turdagi va rangdagi buyumlar (ayiqchalar, mashinachalar, yashil, sariq, sharlar va h.k.) ortiq, kam, teng bo'lishi mumkinligini bilib oladilar.

O'quv yili oxirida bolalarga har xil o'lchamdagi buyumlar miqdorini taqqoslashni (ustiga yoki yoniga qo'yish bilan) o'rgatish kerak. Chunonchi kichik va katta kubchalar guruhlarini taqqoslashda (har bir katta kubkachaga bittadan kichik kubchani qo'yib) kichkintoylar bitta kichik kubcha juftsiz qolganini, demak, kichik kubchalar ko'p, katta kubchalar kam ekanini aniqlaydilar. Shunga o'xshash mashqlarda munosabatlarning, ya'ni katta obektlar ko'p, kichiklari kam; kattalari kam, kichiklari ko'p; katta va kichik obektlar miqdori teng kabi munosabatlarning har xil variantlarini o'rgatish kerak.

Buyumlar majmualarini taqqoslashda har xil analizatorlarga suyanish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, tarbiyachi dastlab bolalarni kaftga har bir urganda (cho'p bilan stolga urishda) stolga bittadan o'yinchoq qo'yishga o'rgatadi, keyingi mashg'ulotlarda stolga nechta o'yinchoq qo'yilgan bo'lsa (2-3 ta), kaftga shuncha urushni taklif qiladi. Shundan keyin tarbiyachining o'zi bolg'acha bilan necha marta urganini tinglash va kaftga shuncha marta urishni topshiriq qilib berishi mumkin.

Bu xil mashqlar jarayonida bolalar har xil analizatorlar yordamida idrok qilinadigan ikki guruh, elementlarini juftlab taqqoslashni o'rganadilar.

### **Nazorat uchun savollar.**



1. Miqdor va son-sanoq haqidagi bilimlar qaysi yoshdan o'rgatiladi?
2. Miqdor va son –sanoqni bolalarga o'rgatishda qanday o'yinlardan foydalaniladi?
3. Tenglik va tengsizlik haqida bolalarga necha yoshdan o'rgatiladi?
4. Tenglik va tengsizlik haqida bolalarga qanday o'yinlardan foydalaniladi?

## **2.5. MTT o'rta va katta guruhlarda son sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish.**

**O'rta guruh.** 4 yoshli bolalarni o'qitishning asosiy vazifasi ularni to'g'ri usullardan foydalanib, 5 ichida buyumlarni, tovushlarni, harakatlarni sanashga o'rgatishdir.

Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi sanash namunasini ko'rsatib o'zi sanaydi, bolalar esa u sanagan buyumlarning umumiy miqdorinigina aytadilar, ya'ni sanoq jarayonini tarbiyachi o'z zimmasiga oladi, sanoq natijasini bolalar aytishadi.

Sanoqqa o'rgatish bir – birining ostiga parallel joylashgan 2 qator buyumlar guruhini taqqoslash asosida tuziladi. Taqqoslanuvchi guruhlar yonma –yon turgan sonlarni ifodalashi kerak: 1 va 2,2 va 3,3 va 4,4 va 5. bu sonining hosil bo'lish prinsipini o'zlashtirish uchun ko'rsatmali asos hosil qiladi, bolaning bir to'plam bir son bilan, ikkinchi to'plam boshqa son bilan atalishini tushunishga yordam beradi



Masalan, tarbiyachi sanoq zinasini (narvoni) ning pastki pog'onasiga 2 ta buyum (2 ta archa) qo'yadi, ularni qayta sanaydi, bunda bolalar e'tiborini natijaviy songa qaratadi. Shundan keyin ustki pog'onaga archalar ustiga aniq mos keltirib boshqa buyumlarni (2 ta olmaxonni) qo'yadi. Ularni sanaydi, bolalarga miqdoriy munosabatlarni (2 ta

olmaxon va 2 ta archa, archalar va olmaxonlar miqdori tengdan) namoyish qiladi. Shundan keyin tarbiyachi ustki pog‘onaga yana bitta olmaxon qo‘yadi va darhol miqdoriy munosabatlarni aniqlaydi: “Olmaxonlar ko‘paydimi yoki kamaydimi?” – “Ko‘paydi”. Bolalar “ko‘pni” juda yaxshi ko‘radilar. “Bitta olmaxonning jufti yo‘q, u archasiz – olmaxonlar ko‘p, archalar esa kam. Archalar 2 ta, olmaxonlar nechta? Sanab chiqish kerak”. Tarbiyachi sanaydi: “bir, ikki, ...” Shundan keyin yangi so‘z – uch sonini aytadi: (Hammasi bo‘lib, 3 ta olmaxon”) tarbiyachi qo‘lini aylantirib ishora qiladi, bu ishora – uch soni sanab chiqilgan uchala olmaxonning hammasiga tegishli ekanini bildiradi, shundan keyin xulosa chiqaradi: “Jami olmaxonlar uchta”. Bolalardan olmaxonlar qanchaligini takrorlashni so‘raydi, darhol ularning e‘tiborlarini sonlardan qaysilari katta, qaysilari kichik ekaniga qaratadi: “uch ikkidan katta, ikki uchdan kichik. Uch katta, ikki esa kichik”. Bolalar bunga ko‘rsatmali ishonch hosil qiladilar. Ular, agar guruhlardagi buyumlar tengdan (baravardan) bo‘lsa, ularning miqdori bir xil sonning o‘zi bilan belgilanishini ko‘radilar (2 ta olmaxon va 2 ta archa), agar 1 ta buyum olinsa (qo‘shilsa), buyumlar kam (ko‘p) qolishini va guruh yangi son – uch bilan belgilanishini ko‘radilar. Bolalar har bir son buyumlarning ma‘lum miqdorini belgilashini tushuna boshlaydilar.

Bola katta sonni qanday hosil qilish (1 dan 2,2 dan 3 va h.k) mumkinliginigina emas, balki 1 ni ayirish bilan katta son dan kichik sonni hosil qilish (2 dan 1,3 dan 2,4 dan 3) ni ham ko‘rishlari muhimdir. Shu sababli har bir yangi sonning hosil bo‘lishida tarbiyachi tengsizliklardan tengliklar hosil qilishning 2 ta usulini ko‘rsatishi kerak. Chunonchi, olmaxonlar bilan archalar misolida u 1 ta archa qo‘shadi va buyumlar tengdan – 3 va 3 dan (3 tadan) bo‘ladi. Shundan keyin tarbiyachi oldingi kartinani tiklaydi (3 ta olmaxon va 2 ta archa) va tengsizliklardan tengliklar hosil qilishning boshqa usulini ko‘rsatadi; 1 ta olmaxonni olib qo‘yadi va buyumlar yana tengdan bo‘ladi: 2 va 2 (2 tadan).

Yangi sonning hosil bo‘lishini har xil buyumlarning 3 -4 guruhini taqqoslab ko‘rsatish kerak. Masalan, tarbiyachi archalarni oladi va ularning o‘rniga oldin 2 ta, keyin 3 ta quyunchani qo‘yadi (tavsiflangan usulda harakat qilib), quyunchalar soni bilan olmaxonlar sonini taqqoslaydi. Shundan keyin tarbiyachi olmaxonlarni oladi va ularning o‘rniga sabzilarni qo‘yadi. Har gal bolalar qaysi guruhda buyumlar ko‘p,

qaysinisida kamligini aniqlaydilar, ularni sanaydilar, (ikki usul bilan) tenglikni tiklaydilar.

Bolalar guruhda hammasi bo‘lib nechta buyum borligini bilish uchun sanash kerakligini sekin – asta tushuna boshlaydilar.

Tarbiyachi sanash usullarini ko‘p martalab ko‘rsatadi va tushuntiradi. Sanashni o‘ng qo‘l bilan chapdan o‘nga qarab olib borish malakasini tarbiyalaydi, sanash jarayonida buyumlarning tartibi bilan, ularga qo‘l tekkazib ko‘rsatish kerak, oxirgi sonni aytib, buyumlarning hamma guruhidan qo‘lni aylantirib chiqib, umumlashtiruvchi imo – ishoralar qilishni o‘rgatadi.

Sanashga o‘rgatish jarayonida bolalarga sonlar tengligini har xil sharoitda – guruhlardagi buyumlar orasidagi masofa har xil, buyumlar kattaliklari bo‘yicha har xil, keyinroq esa ularning joylashuvlari shakli bo‘yicha har xil bo‘lgandan ko‘ra olishni o‘rgatish kerak. Masalan, bir guruhda buyumlar bir – biridan katta masofada joylashgan, boshqa guruhda esa yaqin joylashgan bo‘lib, nisbatan kam o‘rinni oladi, ammo ularning miqdori ikkala guruhda ham bir xil. Bolalar bunga ikkala guruhdagi buyumlarni sanab chiqib ishonch hosil qiladilar. katta va kichik buyumlarning tengligi ham, qator yoki biror geometrik figura (masalan, doira, kvadrat, uchburchak) shaklida joylashtirilgan buyumlar tengligi ham shunday qaraladi. Tengliklarni tekshirish uchun bolalarga bir guruh buyumlarni ikkinchi guruh buyumlari qarshisiga (juftlab) joylashtirish, ularni sanab chiqish va topilgan sonlarni taqqoslashni taklif qilish mumkin.

Shuningdek, tengsizliklarni taqqoslashga doir mashqlar o‘tkazish kerak. Bunda bolalarga qandaydir buyumlar ikkinchi taqqoslanayotgan guruhdagi buyumlardan kam joy egallashiga qaramay (ularning joylashuvi kattaligiga qarab), ko‘p bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatish kerak. Bu xil mashqlar bolani buyumlarning soni ularning o‘lchami va joylashuvlariga bog‘liq bo‘lmasligini tushunishga olib keladi.

Bolalar buyumlarni sanash malakasini egallab olganlaridan keyin, ularni obektlarni sanab ajratishga, mustaqil ravishda ma’lum sondagi buyumlarni o‘z ichiga olgan guruhlar tuzishga o‘rgata boshlash, bunda ularga sanash usulini ko‘rsatish kerak. Tarbiyachi stolga bir xil ko‘p o‘yinchoqlarni joylashtiradi va umumiy miqdordan 3 ta o‘yinchoqni sanab ajratish kerakligini aytadi. Guruhlardan 1 ta o‘yinchoqni olib, tarbiyachi uni stolning boshqa bir chekkasiga qo‘yadi va “Bir” deydi. So‘ngra indamay yana bitta o‘yinchoqni oladi va uni birinchisining oldiga qo‘yib, “ikki” deydi va h.k. tarbiyachi son so‘zini u o‘yinchoqni

ajratib qo'yilgan o'yinchoqlar yoniga qo'yganidan keyingina aytadi. Shundan keyin bolalarga kichkina o'yinchoqlar to'plami tarqatiladi va to'plamdan ma'lum miqdorni (2-3 ta o'yinchoqni) olish taklif qilinadi. Bundan keyin ushbu xildagi mashqlarni o'tkazish maqsadga muvofiq: "Stol atrofida nechta qo'g'irchoq o'tirgan bo'lsa, shuncha piyolani ajratib sana". "4 ta quyonchani ajratib sana va keltir" "3 ta quyoncha va 4 ta sabzi keltir" va h.k. Shuningdek, nafaqat sanoq malakalisni mustahkamlaydigan, balki shu bilan bir vaqtda shakl, o'lchov haqidagi tasavvurlarni shakllantirish imkonini beradigan, fazoda orientir (yo'nalish) olishni rivojlantirishga yordam beradigan mashqlarni ham o'tkazish kerak. Masalan, buyumlarni sanash va ularning o'lchamlarini taqqoslash, fazoda joylashuvlarini aniqlash (chapda, o'ngda, yuqorida, pastda, ustida, tagida) mumkin.

Ko'rish analizatorari ishtirokida, buyumlarni sanash bilan bir qatorda, bolalarni tovush chiqarib, ushlab ko'rib, shuningdek harakatlarni sanash bo'yicha mashq qildirish kerak. Masalan, tarbiyachi bolalarga o'zi barabanga, stolga, childirmaga, metallofonga va h.k. ga necha marta urishni sanashni, necha qadam qo'yganini sanashni taklif qiladi; kartochkaga nechta buyumning rasmi solingan bo'lsa, shunga harakat qilishni, bolg'acha bilan necha marta ursa, shuncha marta taqillatishni taklif qiladi. Shundan keyin bolalarni aytilgan son bo'yicha harakat bajarishga o'rgatish kerak: "To'rt marta o'tirib turing", "Koptokni uch marta osmonga irgiting" va h.k. Har xil analizatorlar ishtirokida sanash bolaning yakuniy sonning ma'nosini chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

O'rta guruhda bolalar birinchi marta 5 gacha bo'lgan sanoq tartibi bilan tanishtiriladi. U yoki bu buyumning tartib bo'yicha o'rnini topish o'rgatiladi. "Qancha?", "Qaysi?", "Sanoq bo'yicha nechanchi?" savollariga to'g'ri javob berishga o'rgatiladi.

Bolalarni sanashga o'rgatish mashg'ulotlarning mazmuni quyidagidek bo'lishi mumkin:

Tarbiyachi stol ustiga 3 ta har xil (qizil, sariq, yashil) rangli avtomobilni qo'yadi, bolalardan avtomabillarning rangini aytishni, so'ngra stolda hammasi bo'lib nechta mashina borligini sanab berishni so'raydi. Bolalar "bir, ikki, uch" va h.k. deb sanab, hamma avtomabillarning nechtaligini aytib beradilar. Tarbiyachi yashil avtomobil nechanchi o'rinda turganini qanday bilish mumkinligini so'raydi. Buning uchun ham sanash kerak, ammo boshqacha sanash kerakligini aytadi va avtomabillarni tartibi bilan (chapdan o'ngga qarab)



qayta sanaydi: “Birinci, ikkinchi, uchinchi”. Bolalar bilan birga yashil mashina uchinchi o‘rinda turibdi, deb xulosa chiqaradi. So‘ngra tarbiyachi sariq mashinani eng oxiriga qo‘yadi va bolalarga sariq mashina nechanchi o‘rinda turganini aniqlashni so‘raydi. Yashil mashina nechanchi o‘rinda turganini so‘raydi va h.k. Tarbiyachi o‘yinchoqlarning o‘rinlarini almashtirib, bolalarni sanoq tartibi bo‘yicha mashq qildiradi. U har gal buyumlarni chapdan o‘ngga qarab, tartibi bilan sanash kerakligini eslatadi.

Shundan keyin bolalarga har xil rangli, masalan, sariq, yashil, ko‘k rangli uchta cho‘pni stolga qator yoyishni taklif qilish mumkin. Bolalar birinci, ikkinchi, uchinchi cho‘pning rangini aytishlari, shundan keyin uchinchi (ikkinchi, birinchi) cho‘pni qizil rangli cho‘p bilan almashtirishlari kerak. Topshiriqni bajarib, bolalar qaysi (sanoq bo‘yicha qaysi) cho‘pni almashtirganlarini aytishlari kerak.

**2. Katta guruhda** bolalarga har bir son o‘z ichiga ma’lum sondagi birliklarni olishi haqida bilim berish zarur. 5 ichidagi sonlarning birliklardan iborat tarkibi haqidagi tasavvurlar ham konkret misollarda shakllantiriladi.

Bolalar buyumlar guruhlarini, ularning belgilari, sifati bo‘yicha tahlil qilishga, so‘ngra sonning birliklarini aytishga o‘rgatiladi. Masalan, tarbiyachi stol ustiga har xil rangdagi 4 ta kubchani qo‘yib, kublar nechta? Qanday rangdagisi nechta?, deb so‘raydi. Oxirgi savol buyumlar miqdorini ularning ranglari bo‘yicha tahlil qilishga yo‘naltiradi: “Qandaylari qancha?” – 1 ta qizil, 1 ta ko‘k, 1 ta sariq, 1 ta yashil” – “Hammasi – chi?” – “Hammasi 4 ta kub” – “Demak, 4 – bu 1,1,1 va 1. shundan keyin yana bolalardan sonning birliklarini, so‘ngra sonning o‘zini aytish so‘raladi (1,1,1 va 1 – bu 4)

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o‘qitishda buyumlar haqidagi har xil bilimlaridan, ularni differensiallash yoki guruhlarga birlashtirish, alohida alomatlari bo‘yicha umumlashtirish malakalaridan foydalanish kerak. Masalan, hammasi bo‘lib 5 ta o‘yinchoq bor. “Qandaylari qancha? – “1 ta quyon, 1 ta matryoshka 1 ta ayiq, 1 ta qo‘g‘irchoq, 1 ta tulki”. – “Demak, 5- bu 1, 1, 1, 1 va 1”. Bolada butun miqdorni ko‘rish va uni aytish, sonning birliklarini (sonni tuzuvchi har qaysi birlikni) aytish, ularni birlashtirib, bir son bilan aytish malakasi shunday shakllantiriladi.

Sonning birliklardan iborat tarkibini o‘rganishda bolalarning geometrik figuralar haqiagi bilimlaridan, buyumlarning kattaliklari bo‘yicha munosabatlarini ayta olishlaridan foydalanish kerak. Masalan,

3 geometrik figuralarni – uchburchak, doira, kvadratni tahlil qilish uchun har xil uzunlik va rangdagi qog‘oz poloskalarni olish mumkin. Bu poloskalarining bittasi sariq – eng qisqa, bittasi ko‘k – biroz uzunroq, bittasi yashil – yanada uzunroq, bittasi oq – 2 ta kam uzunroq, bittasi qizil – eng uzun, jami esa 5 ta – bu 1, 1, 1, 1 va 1.

Bolalar olgan bilimlarini har xil topshiriqlar yordamida mustahkamlashi kerak. Masalan, tarbiyachi sonli kartochka ko‘rsatadi va bolalarga buyumlarni, sonda nechta birlik borligi ko‘rinib turadigan qilib sonli kartochkani ko‘rsatadi, bolalar esa doira, kvadratni tahlil qilish uchun har xil uzunlik va rangdagi qog‘oz poloskalarni olishi mumkin. Bu poloskalarining – bittasi yashil – yanada uzunroq, bittasi oq – 2 ta kam uzunroq, bittasi qizil – eng uzun, jami esa 5 ta – bu 1, 1, 1, 1 va 1.

Bolalar olgan bilimlarini har xil topshiriqlar yordamida mustahkamlashi kerak. Masalan, tarbiyachi sonli kartochka ko‘rsatadi va bolalarga buyumlarni, sonda nechta birlik borligi ko‘rinib turadigan qilib joylashtirishni taklif qiladi. Yoki u 3 ta doirachali, sonli kartochkani ko‘rsatadi, bolalar esa doira, uchburchak va kvadratni qo‘yadilar. Bolalardan 3 ta doirachali, sonli kartochkani ko‘rsatadi, bolalar esa doira, uchburchak va kvadratni qo‘yadilar. Bolalardan 3 ta figurani nega ajratib sanaganini, u qaysi figuralarni ajratib qo‘yganini (1 ta doira, 1 ta uchburchak, 1 ta kvadrat), 3 sonida nechta birlik borligini so‘rash mumkin.

Shunday qilib, tarbiyachi bolalarni natural sonlarning hosil bo‘lishi bilan tanishtiradi; sonni bir birlik orttirish yoki kamaytirishga qarab. Katta yoki kichik son hosil bo‘ladi.

Katta guruhda bolalarda tartib sonlardan foydalanish malakasini rivojlantirish davom ettiriladi. Bola shu yoshda ham ko‘pincha sonning tartib qiymatini miqdor qiymati bilan almashtirib yuboradi. Shu sababli bolalarga tartib sonning mohiyatini ochib berish, miqdor son har doim ham tartib son bilan ustma – ust tushavermasligini ko‘rsatish, tartib son esa har doim buyumlarning ma‘lum miqdorini bildirib turishini ko‘rsatish kerak. Tartib sanoqni kiritishga qadar bolalarga “qancha”? degan savolga javob berishda faqat chapdan o‘ngga qarab sanashnigina emas, balki o‘ngdan chapga qarab ham, o‘rtasidan boshlab ham sanash mumkinligini, qator emas, boshqacha joylashtirilgan buyumlarni istalgan buyumlardan boshlab sanash mumkinligini ham ko‘rsatish kerak. Agar sanoq (biror buyumni o‘tkazib yubormay, sanashning qaysi buyumdan boshlanganini va qaysilarining sanalganini eslab qolib) to‘g‘ri olib borilsa, natija har doim bir xil chiqaveradi.

Bola tartib sanoqda “nechanchi?” savoliga javob berish talab qilinganda buyumlarni har doim qator qilib joylashtirishlarini o‘zlashtirib olishi kerak. Odatda chapdan o‘ngga qarab sanashadi. (O‘ngdan chapga qarab sanash ham mumkin, ammo bola sanoq qanday tartibda olib borilayotganini bilishi kerak).

Bolalar buyumning boshqa buyumlar orasidagi tartibini aniqlashda sanoqning yo‘nalishi muhim ahamiyatga egaligini bilib oladilar. Tarbiyachi har doim “qancha?” savoliga sanab chiqilgan buyumlarning hammasi qanchaligini aytish bilan, “qaysi?” (“sanoq bo‘yicha nechanchi?”) savoliga bir buyumlar orasidagi o‘rinni bilib, javob berish kerakligini va birinchi, ikkinchi, uchinchi deb sanash kerakligini eslatadi va ta’kidlaydi.

Bolalarni “qaysi?”, “nechanchi?” savollarini tushunish va farqlash bo‘yicha mashq qildirish uchun ularni buyumlarning kattaligi va rangiga qarab taqqoslash malakalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, ularga rangli qog‘oz poloskasi hammasi bo‘lib qanchaligini, yuqoridagi birinchi poloska qanday rangda ekanini; qaysi poloska beshinchi, yashil poloska hisob bo‘yicha nechanchi ekanini, qora poloska hisob bo‘yicha nechanchi ekanini topish topshirig‘i beriladi. Bunday topshiriqlarda geometrik figuralar – katta uchburchak, doira, uchburchak, to‘rtburchak, rangi bir xil, ammo har xil kattalikdagi katta uchburchak, katta doira, katta to‘rtburchaklardan foydalanish mumkin. (“Katta doira sanoq bo‘yicha nechanchi?, qaysi figura to‘rtinchi? Katta to‘rtburchak sanoq bo‘yicha nechanchi?” Keyingi figurani ayting. U qanday? Oltinchi figura nima deb ataladi?”).

“Qaysi?” savolini tushunish malakasi hafta haqidagi bilimlarni aniqlashga doir mashqlarda ham mustahkamlanadi. Masalan, tarbiyachi haftaning birinchi kuni nima?, haftaning uchinchi kuni qanday atalishini, haftaning nechanchi kuni payshanba? Va h.k. savollarni har xil ifodalashi kerak. Bu ham diqqatni to‘plash, ham bilimlarni yanada chuqur o‘zlashtirishga imkon beradi.

O‘yin uchullari ham samaralidir. Chunonchi, o‘qituvchi gapiradi va u o‘z nutqini flanelegrafda namoyish qilish bilan kuzatib boradi. Podada qanday hayvonlar borligini ayting. Hayvonlarni narigi qirg‘oqqa o‘tkazish kerak. Ko‘prik tor bo‘lgani uchun ular bir –birining orqasidan ketma- ket ketishadi. Diqqat bilan qarang nima birinchi ketmoqda? Nima ikkinchi bo‘lib ketmoqda? Sigirning orqasidan nima ketmoqda? ...Qo‘ydan oldin nima ketmoqda? Nima oxirida ketmoqda? Qo‘zichoq

hisob bo'yicha nechanchi? Hammasi bo'lib nechta hayvon ko'priktan o'tmoqda?

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning katta guruhida turlicha kattalikdagi har xil joylashgan buyumlardan ikkitadan, beshtadan, to'qqiztadan kabi ifodalarni qo'llab, tengliklarni aytishga o'rgatish davom ettiriladi.

Daslabki ma'lumotlarni didaktik tarqatma materiallar bilan bajariladigan mashqlarda berish maqsadga muvofiq. Bolaga 4 ta uchburchakni ajratib sanash va ularni qator qilib qo'yishni; shuncha doirachani ajratib sanab, ularni uchburchaklar ostiga joylashtirish; doiralar betiga ularga teng miqdorda, kvadratlar nechtaligini qayta sanashni taklif qilish mumkin. Nihoyat, ushbu savolni ham berish kerak. "Har bir qatorda nechtadan geometrik figura bor?" bu saovlga har xil javob berishga yo'l qo'yish mumkin: ixcham javob – "To'rttadan"; to'liq javob: "To'rttadan geometrik figura" yoki "Har bir qatorga to'rttadan geometrik figura joylashtirilgan".

Bunday topshiriqlar bolalarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Tarbiyachi sonli kartochkachani, buyumni ajratib sanab qo'yishni taklif qiladi. Kartochkani yana bir marta ko'rsatadi va sonni aytadi, bolalar shuncha buyumni ajratib sanab qo'yishadi. Shundan keyin tarbiyachi so'raydi, "Siz nechtadan o'yinchoq qo'ydingiz?" yoki "Stolda nechta o'yinchoq va kartochkada nechta doira bor?".

Bolani o'z atrof – tevaragidan tengliklarni topish bo'yicha mashq qildirish zarur. (Bolalar stol atrofida 2 tadan, 4 tadan o'tirishibdi, stollar qatorga bittadan qo'yilgan, har qaysi stol yonida 2 tadan kursi (stul) turibdi. Har qaysi shkafchada 5 tadan sochiq bor va h.k).

Katta guruhda bolalarning biri ko'proq, biri kamroq joy olganda ham buyumlar guruhlari teng bo'lishi mumkinligi haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi. Tarbiyachi flanelegrafga (doskaga) uchburchaklar va kvadratlarni bir –birining tagiga qo'yadi. Bolalar ularning miqdorini aniqlaydi (5 va 5). Shundan keyin tarbiyachi uchburchaklarni boshqacha qo'yadi; ularni sanab chiqish va daslabki miqdor o'zgargan yoki o'zgarmaganligini aytishni so'raydi: endi kvadratlar va uchburchaklar nechtadan, bo'ldi; nima o'zgardi (uchburchaklarni boshqacha qo'ydingiz, endi ular ko'proq joy oldi).

"Kvadratlar o'shancha – 5 ta ekani ko'rinib turishi uchun ularni qanday qo'yish (uchtiga qo'yish yoki yoniga qo'yish) mumkin?" – deb so'raydi tarbiyachi oxirida.

Boshqacha vaziyatdan ham foydalanish mumkin: kvadratlarni uchburchaklar tagiga bittadan oralatib qo'yish va bolalarga bunday savollarni berish mumkin: u yoki bu figuraning miqdori o'rgandimi? Kvadratlar va uchburchaklar nechtdan? Ular 5 tadan ekanini qanday tekshirish mumkin? (sanash, bir –birining ostiga qo'yib chiqish).

### **Nazorat uchun savollar.**

1. O'rta guruhda son-sanoq haqidagi bilimlar qanday o'rgatiladi?
2. Katta guruhda son-sanoq haqidagi bilimlar qanday o'rgatiladi?
3. Tarbiyachi o'rta guruhlarda son-sanoq haqidagi bilimlarni o'rgatishda qanday o'yinlardan foydalanadi?
4. Katta guruhda son-sanoq haqidagi bilimlarni o'rgatishda qanday o'yinlardan foydalanadi?

## **2.6. MTT tayyorlov guruhlarida son-sanoq haqidagi bilimlarni shakllantirish.**

### **1. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining 10 ichida sanash, ajratib sanash ko'nikmalarini takomillashtirish.**

Maktabga tayyorlash guruhida tarbiyachi bolalarning 10 ichida sanash, ajratib sanash ko'nikmalarini takomillashtiradi. Bolani har xil yo'nalishda sanashga, qaysi buyumlar sanalganini, sanash qaysi buyumlardan boshlanganini eslab qolib, hech bir buyumni ikki marta sanamay, bitta ham buyumni o'tkazib yubormay sanashga o'rgatiladi.

“Tengdan”, “baravardan”, “ko'p”, “kam” tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek sanoq ko'nikmalarini puxta shakllantirish ko'p miqdordagi rang – barang mashqlardan va ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanilgandagina mumkin bo'ladi. Tarbiyachi buyumlarni har xil kombinatsiyalarda; bir guruhni qator qilib, ikkinchi guruhni doira bo'yicha, boshqasini esa bir nechta (2-3 qism) guruh qilib joylashtiradi va h.k. Tarbiyachi bolalarni shunday usullarni izlashga undaydiki, ular yordamida buyumlarning joylashishlariga nisbatan qulay va tez hisoblashlari mumkin bo'ladi.

Bolalarga tovushlarni, harakatlarni sanashga, buyumlar miqdorini sezish bo'yicha aniqlashga doir topshiriqlar berish zarur.

Mazkur yosh bosqichida bolalarni tartib sanoq bo'yicha mashq qildirishni davom ettiriladi. Masalan, tarbiyachi 5-8 ta buyum tasvirlangan kartochkani bolalarga ko'rsatadi. Hamma buyumlar qancha ekanini, u yoki bu buyum sanoq bo'yicha nechanchi ekanini so'raydi. (Daftar oldida nechta buyum turibdi? Qaysi buyumlar? Kitob bilan

ruchka orasida qaysi buyumlar turibdi? Ruchka sanoq bo'yicha nechanchi? va h.k.)

Maktabga tayyorlash guruhida bolalar sonlarning teskari kelish tartibi bo'yicha sanashga o'rgatiladi. Dastlab bunday mashqlar konkret materialda o'tkaziladi. Bunday mashqlarni uncha katta bo'lmagan sonlardan boshlash tavsiya etiladi. Masalan, tarbiyachi stoliga 5 ta o'yinchoq (buyum) qo'yilgan. Bolalar bu buyumlarni sanab bo'lganidan keyin tarbiyachi ularni bittadan olishni aytadi, bolalar esa qolgan o'yinchoqlar sonini (...beshta..., to'rtta..., uchta..., ikkita..., bitta ... hech nima) aytishlari kerak.

Mashqdan mashqqa o'tilgani sari buyumlar miqdori ko'paytirib boriladi. Shundan keyin bolalarda sonlarni teskari tartibda ko'rgazmali materialsiz ayta olish malakasi asta –sekin hosil qilina boradi. Shu maqsadda “Keyingi (oldingi) sonni ayt”, “Sanashni davom ettir”, “Keyingi (oldingi) sonni ayt”, “Sanashni davom ettir”, “Kichik sonni ayt”, “Kim katta?” “Koptokni ushla” kabi og'zaki didaktik o'yinlar tavsiya qilinadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar raqamlar bilan tanishganlaridan keyin, bunday o'yinlar raqamlardan foydalanib o'tkaziladi. Bolalar raqamli kartochkalarni natural qator sonlarining kelishi kartochkalarni natural qator sonlarining kelishi tartibida joylashtiradilar. So'ngra tarbiyachining topshirig'iga binoan sonlarni teskari tartibda (beshdan boshlab, ettidan boshlab, to'qqizdan boshlab va h.k.dan boshlab) aytadilar.

Mashg'ulotlar mazmuniga 10 ichida sonlarning birlardan iborat tarkibini mustahkamlashga yo'naltirilgan mashqlarni kiritish zarur.

## **2. Bolalarga tovushlarni, harakatlarni sanashga, buyumlar miqdorini sezish bo'yicha sanashga o'rgatish.**

7 yoshga qadam qo'ygan bolalarni o'qitishda raqamlar bilan tanishtirishga katta o'rin ajratiladi. Tarbiyachi buyumlar miqdori haqida tushunchani ularni sanash bilangina emas, balki kattalardek raqamlarga qarab ham bilish mumkinligini aytadi. Rasmdan samolyotni ko'rsatadi va darhol 1 raqamini qo'yadi. Shundan keyin qator mashqlar bajariladi. Masalan, tarbiyachi 1 raqamini namoyish qiladi, bolalar esa shuncha buyumni ko'rsatishadi. Tarbiyachi nechta buyumni ko'rsatsa, bolalar qanday raqam kerakligini aytishadi va uni o'z oldilariga qo'yishadi. 1 raqami haqidagi bolalarning tasavvurlarini mustahkamlash uchun ularga 1 dan qancha katta, 1-2dan qancha kichik va h.k.ni raqamlar bilan ko'rsatish so'raladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni 2 raqami bilan tanishtirish uchun yuqorida tavsiflangan usullardan ham, yangi usullardan ham foydalanish mumkin. Masalan, tarbiyachi xonadagi buyumlarning qaysilari haqida “ikkita” yoki “ikkitadan” deyish mumkinligini so‘raydi (buyumlar oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak), yoki flanelegrafga 2-3 juft buyumni qo‘yadi va ularning nechtaligini raqam bilan belgilash mumkinligini aytadi va uni ko‘rsatadi. Bolalar beshta raqamning hammasi bilan sekin –asta ana shunday tanishtiriladi. Bilimlarni mustahkamlash har xil amaliy mashqlar jarayonida amalga oshiriladi. Bunday mashqlar asosida bolalar qaysi son katta ekanini faqatgina real buyumlarda emas, balki raqamlarda ham ko‘rsata oladi. Tarbiyachi bolalarga ko‘rsatgan raqamga mos keladigan miqdordagi buyumlarni ajratib sanashni; buyumlarni qayta sanab, natijasini ovoz chiqarib aytmaslikni, uni raqamlar yordamida ko‘rsatishni; raqamli kartochnalarga nisbatan orientir olib, qaysi son qaysi sondan katta va qancha katta (kichik) ligini aniqlash (raqamni ko‘rsatish bilan) topshiriqlarini bajarish mumkin.

Raqamlarni o‘zlashtirish kichik sonlarning hosil bo‘lishiga doir mashqlar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi 5 ta buyum qo‘yadi. So‘ngra 1 ta buyumni olib qancha qolganini raqam bilan ko‘rsatishni so‘raydi. 1 tadan buyumni olish to 0 raqamini ko‘rsatguncha davom ettiriladi.

Raqamlar yordamida bolalar keyingi (oldingi) sonni aniqlash va aytishga o‘rgatiladi. Masalan, bolalarga 6 raqami beriladi va keyingi sonni raqam bilan ko‘rsatish so‘raladi? 7 raqamini ko‘rsatib, oldingi sonni ko‘rsatishni so‘raladi va h.k.

Maktabga tayyorlov guruhida bolalarning sonning 2 ta kichik sondan iborat tarkibi haqidagi tasavvurlari shakllantiriladi. Sonni 2 ta kichik songa ajratish va 2 ta kichik sondan bitta katta son hosil qilishga o‘rgatiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni sonlarni 10 ichida hosil qilish va yoyish (ajratish) ning mumkin bo‘lgan hamma hollari bilan tanishtirish kerak. Bu bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlarni 3 sonidan boshlash maqsadga muvofiq. Tarbiyachi flanelegrafga 3 ta eman yaprog‘ini joylashtiradi, yaproqlar nechta va ular qanday rangda ekanligini so‘raydi. So‘ngra 1 ta yashil yaproqni 1 ta sariq yaproq bilan almashtiradi. Nima o‘zgarganligini, yashil yaproqlar nechtaligini va sariqlari nechtaligini so‘raydi (2 ta yashil va 1 ta sariq, jami 3 ta, demak, 3 – bu 2 va 1). Yana sariq yaproq o‘rnini almashtirib, uni yashil yaproqlardan oldinga qo‘yadi va jami yaproqlar qanchaligini, qaysi

yaproqlar qanchaligini soʻraydi (1 ta sariq va 1 ta yashil, demak, 1 va 2 yana 3).

Boshqa sonlarning tarkibi bilan ham bolalarni shunga oʻxshash tanishtirish kerak:

4 – bu 3 va 1; 1 va 3; 2 va 1;

5 – bu 4 va 1; 1 va 4; 3 va 2; 2 va 3;

6 – bu 5 va 1; 1 va 5; 4 va 2; 2 va 4; 3 va 3;

7 – bu 6 va 1; 1 va 6; 5 va 2; 2 va 5; 4 va 3; 3 va 4;

8 – bu 7 va 1; 1 va 7; 6 va 2; 2 va 6; 3 va 5; 4 va 4;

9 – bu 8 va 1; 1 va 8; 7 va 2; 2 va 7; 6 va 3; 3 va 6;

10 – bu 9 va 1; 1 va 9; 8 va 2; 2 va 8; 7 va 3; 3 va 7; 6 va 4; 4 va 6; 5 va 5.

Sonlarning 2 ta kichik sondan iborat tarkibini oʻrganishda bolalarni faqat katta bilan kichikni (7 va 1 – bu 8) ham mashq qildirish taʼvsiya etiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sonning 2 ta kichik sondan iborat tarkibiga doir bilimlarini mustahkamlash uchun kartochkalar, buyumlar bilan, keyinroq esa raqamlar bilan har xil mashqlardan, “Topchi, ikkinchi qoʻlimda nechta?”, “Sanoq lotosi”, “Senda qancha?”, “Qoʻsh, ol” kabi oʻyinlardan foydalanish kerak. Sonning tarkibi bilan tanishtirish bolani qoʻshish va ayirishga doir sodda masalalarni echishga olib keladi.

**3. Butun buyumni qismlarga boʻlish.** Bolalarga butunni qismlarga boʻlishini qogʻoz qaragʻini (kvadrat shaklida boʻlishi mumkin) teng ikki qismga boʻlishni oʻrgatishdan boshlash kerak. Bolalarga qogʻoz varagʻining oʻrtasidan buklab teng ikkiga boʻlish vazifasi beriladi. Bolalar dastlab qogʻoz varagʻini 2 ta teng qismga boʻlganliklari uchun tarbiyachi birinchi qismii butun varaq ustiga qoʻyib taqqoslash va qaysinisi katta, yoki kichik ekanini gapirib berishni (butun varaq yarimdan katta, bitta boʻlak butun varaqdan kichik) taklif qiladi. Shundan keyin yarim varaqlarni birlashtirib, bitta boʻlak qoʻyilsa, butun varaqqa teng varaq hosil boʻlishi koʻrsatiladi.

Bolalar yarimta soʻzini yaxshi tushunmoqlari uchun tarbiyachi bir varaq qogʻozni 2 ta teng boʻlakka boʻladi va bitta boʻlakni yarim varaq, deb atash mumkinligini va agar mumkin boʻlmasa, nega atab boʻlmasligini soʻraydi. (“Bu – kichik boʻlagini-chi, ... nega mumkin emas?”) Bolalarga yarimni ikkidan bir deb aytish ham mumkinligini tushuntirish kerak. Shundan keyin ikkidan bir qismii koʻrsatish va uni butun kvadrat ustiga qoʻyishni, qolgan yarimlar ustida ham shu ishni



bajarish zarur. (“Biz bitta ikkidan birga yana bitta ikkidan birni qo‘shdik va bitta butun kvadrat hosil qildi”).

Butun bilan uning bo‘laklari orasidagi munosabatlar haqidagi bilimlarni mustahkamlashni doirani ikkiga bo‘lish misolida amalga oshirish mumkin. Shundan keyin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar butunni teng to‘rt bo‘lakka bo‘lish bilan tanishtiriladi. Mashg‘ulot boshlangandan keyin, buni bolalardan kimlar bilish – bilmasliklarini aniqlab, qanday bajarish kerakligini so‘rash kerak. Agar javob to‘g‘ri bo‘lsa, u holda tarbiyachi uni qisqa va aniq qilib takrorlaydi. Agar javob noto‘g‘ri bo‘lsa, qog‘oz varag‘ini bir buklash kerakligini uqdiradi. Qog‘oz buklanib bo‘linganidan keyin, uni yoyish va hamma qanday bajarilganligini tekshirish va nechta teng bo‘lak hosil bo‘lganini sanab chiqib aytish talab qilinadi. Shundan keyin bolalarga bu ishlarni mustaqil bajarish; nima hosil bo‘lganini va qanday hosil bo‘lganini gapirib berish; qog‘ozni 4 bo‘lak qilib qirqish; bitta bo‘lakni butun varaq ustiga qo‘yish va taqoslab nima kattaligini aniqlash; yana bir bo‘lakni qo‘yib, nima kattaligini; butun varaq ustiga qo‘yish va taqqoslab nima kattaligini aniqlash; yana bir bo‘lakni qo‘yib, nima kattaligini, butun varaq yoki 2 ta bo‘lak kattaligini aniqlash topshirig‘i beriladi. Shundan keyin navbati bilan 3 ta bo‘lak bilan, 4 ta bo‘lak taqqoslanadi.

Bolalardan to‘rt bo‘lakning har birini nima deb atash mumkinligini so‘rab, ularni to‘rt dan bir, chorak so‘zlari bilan tanishtirish kerak. Bolalar to‘rt dan bir qism nima ekanini – shunday to‘rtta qismdan biri ekanini tushunishlari kerak. Tarbiyachi quyidagidek mashqlarni o‘tkazishi mumkin: bitta qismii olib, stolda nechta to‘rt dan bir qism qolganini, so‘ngra 2 ta qismii olib, bularning qaysinisi katta, qaysinisi kichik degan savollarni beradi. Doira, qog‘oz poloskasi bilan ham shunday mashqlarni o‘tkazish mumkin.

Bolalar buyumlarni 2 va 4 ta teng qismlarga bo‘lish malakasini egallab olganlaridan keyin, ular qismlar bo‘yicha tushuntiriladi va butun bo‘yicha uning qismini topishga o‘rgatiladi. Mashg‘ulotni mana bunday tashkil qilish ham mumkin. Tarbiyachi bolalarga kvadrat shaklidagi qog‘oz varag‘ini 4 qismga bo‘lishni taklif qiladi. Katta o‘lchamdagi kvadratni olib, uni qismlarga bo‘ladi. Hammadan kvadratning to‘rt dan bir qismini ko‘rsatishni so‘raydi va o‘zidagi namunani ko‘rsatadi. Bolalarning e‘tiborini o‘lchamlardagi farqqa tortadi, sababi haqida o‘ylab ko‘rishga imkon beradi.

Agar bolalar qismlarining o‘lchamlari orasidagi farqni payqamasalar, tarbiyachi flanelegrafga kichkina va katta kvadratlarni

mahkamlaydi. Bolalarga qo‘llarida kichik varaq qismlari turganini tushuntiradi. Bolalarni bunday xulosaga olib keladi; agar buyum katta o‘lchamli bo‘lsa, uning bo‘lagi ham katta bo‘ladi, kichik buyumning bo‘lagi katta buyumning bo‘lagidan kichik bo‘ladi. Shundan keyin har qaysi varaqqa mos choraklar (to‘rtidan bir qismlar)ni qo‘yishni taklif qiladi. Shunday qilib, bolalar o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rnatishni o‘rganadilar. Bu ishning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati katta.

Maktabga tayyorlash guruhida bolalarni tanga –chaqalar bilan tanishtirish vazifasi qo‘yiladi. Tarbiyachi bolalarga 1,2,3,5,10 tiyinlik chaqa – tangalarning kartondan qirqilgan namunalarini tarqatadi. Ularni qarab chiqishni taklif qiladi. (“To‘g‘ri, bular yo‘llar, ularni tanga – chaqalar ham deyiladi”).

“Qaranglar –chi, erda qanday raqamlar turibdi? – deydi tarbiyachi; - “Qaradinglarmi? Bir tiyinlikni toping, ko‘rsating (o‘zi tegishli chaqani ko‘rsatadi). Ikki tiyinlikni toping, unda 2 raqami bo‘lishi kerak. Uch tiyinlikni, besh tiyinlikni, ...10 tiyinlikni toning. Hozir “Magazin” o‘yinni o‘ynaymiz. Hamma tangachaqalarni oldingizga qo‘ying. (Tarbiyachi oldindan qimmatlari (qancha turishi) ma‘lum bo‘lgan buyumlarni tayyorlab qo‘yadi, bir varaq oq qog‘oz – 1 tiyin, bir varaq rangli qog‘oz – 2 tiyin, qora qalam – 3 tiyin, daftar 3 tiyin, rasm – 5 tiyin). Magazin ochiq. Nima qancha turushini bilish kerak. Bir varaq oq qog‘oz 1 tiyin turadi. Bir varaq oq qog‘oz uchun to‘lash kerak bo‘lgan pulni ko‘rsating. Bu rangli qog‘oz varag‘i esa 2 tiyin turadi. Shunday pulni ko‘rsating. Bu yerda daftar ham sotiladi. U 3 tiyin turadi. Uch tiyinlik chaqani toping. Rasm 5 tiyin turadi. 5 tiyinlikni toping va ko‘rsating” va h.k.

“Magazin” o‘yinni 2 -3 mashg‘ulotda, har xil buyumlardan foydalanib, takrorlash mumkin.

Keyingi mashg‘ulotlarda bolalar egallagan bilimlarini hisobga olib, mashqlar tashkil qilish kerak. Masalan, 5 ta 1 tiyinlik, 2 ta ikki tiyinlik. 1 ta uch tiyinlik va 1 va 5 tiyinliklardan iborat tangalardan foydalanish mumkin. Bolalar sonning birliklardan, 2 ta kichik sondan iborat tarkibini o‘rganishgan. Oldin bolalarga 5 tiyinlikkacha bo‘lgan pullar bilan, keyin 10 tiyiningacha bo‘lgan pullar bilan ish ko‘radigan mashqlarni berish tavsiya etiladi.

Quyidagidek o‘yin – topshiriqlar maqsadga muvofiq:

1. “Bir varaq oq qog‘oz 1 tiyin, bir varaq qizil qog‘oz esa 2 tiyin turadi. Bir varaq qizil qog‘oz uchun haqni qanday to‘lash mumkinligini o‘ylab ko‘ring (1 tiyin + 1 tiyin);

2. Daftar 3 tiyin turadi. Uni qanday to‘lash mumkin? (1 tiyin +1 tiyin + 1 tiyin + 1 tiyin + 1 tiyin; 2 tiyin + 3 tiyin; 2 tiyin +2 tiyin + 1 tiyin; 3 tiyin +1 tiyin +1 tiyin).

So‘ngra qiymatlari 10 tiyinlikkacha bo‘lgan chaqa tangalar bilan shunga o‘xshash mashqlar o‘tkaziladi. Topshiriqni kim to‘g‘ri bajarsa, unga fishka yoki bayroqcha berish mumkin. Mashg‘ulot oxirida bolalar kim necha marta to‘g‘ri javob berganini hisoblaydilar.

Agar bolalar “chaqa – tangalar” tushunchalarini o‘zlashtirib olishgan bo‘lsa, ushbu xildagi mashqlardan foydalanish mumkin: “Bir varaq oq qog‘oz 1 tiyin turadi, bir varaq rangli qog‘oz uchun esa undan 1 tiyin ortiq bo‘lsa kerak. Bir varaq rangli qog‘oz qancha turadi?”.

“Nima qancha turadi?” o‘yini bolalar o‘zlashtirgan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarga chaqa –tangalar komplekti beriladi. Tarbiyachi o‘z stoliga har xil buyumlarni yoyib qo‘yadi va ularning bahosini aniqlab qo‘yishni taklif qiladi.

“Bu pero ikki tiyin turadi, bir varaq oq qog‘oz esa undan 1 tiyin arzon turadi. Bir varaq oq qog‘oz qancha turadi?” – deb so‘raydi tarbiyachi. (Bolalar o‘zlariga kerakli tangalarni topishlari, uni yuqoriga ko‘tarishlari, so‘ngra oq qog‘oz varaqq‘i oldiga qo‘yishlari kerak). Pero ikki tiyin turadi, daftar esa undan 1 tiyin ortiq turadi. Daftar qancha turadi? Qanday chaqani ko‘tarish va daftar oldiga qo‘yish kerak? Va h.k. shunday qilib, bolalar tarbiyachi bilan birgalikda bolalar ularni sotish boshlanadi. Tarbiyachi boladan so‘raydi, “Ayt-chi, sen nima sotib olmoqchisan, u qanday narsa, u qancha turadi?”.

#### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalarini sanoqqa o‘rgatish.
2. 4 yoshli bolalarni o‘qitishning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
3. Buyumlarni sanash va ularning o‘lchamlarini taqqoslash, fazoda joylashuvlarini aniqlash.
4. Maktabga tayyorlash guruhi bolalarining 10 ichida sanash, ajratib sanash ko‘nikmalarini takomillashtirish.

## **2.7. Bolalarda predmetlarning o‘lchami va ularni o‘lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish**

### **1. Asosiy o‘quv materiallarining qisqacha bayoni**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘chada elementar matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda dasturning “Kattalik” bo‘limida narsalarni kattaliklari bo‘yicha taqqoslash malakalarini, o‘lchash faoliyatlarini amalga oshirishga, narsalarning shakllarini aniqlash va boshqa malakalarga katta ahamiyat beriladi.

**Kattaliklar.** Matematik tasavvurlarni tarkib toptirishda bolalarni buyumlarning kattaliklari bilan tanishtiruvchi masalalar ma'lum o'rinni egallaydi.

Har qanday buyumga to'g'ri to'liq ta'vsifnoma berishda buyum kattaliigining ahamiyati uning boshqa asosiy xususiyatlarining ahamiyatidan kam emas. Taqqoslash asosidagina buyumning kattaligini ta'riflash mumkin.

Rus matematik metodisti D.Galanin "kattalik" tushunchasining ma'nosini bunday ifodalaydi: "kattalik deb, buyum va harakatlarning shunday xususiyatiga aytiladiki, bu xususiyat bo'yicha buyumlarni bir – biri bilan taqqoslay olamiz, bu xususiyat har xil buyumlarda har xil miqdorda bo'lishi mumkin"! Buyumlarni taqqoslashning mezonlariga ko'ra ularning kattaliklari, tengligi yoki tengsizlik munosabati aniqlanadi. Ammo har doim ham buyumlar bevosita taqqoslanavermaydi. Biz ko'pincha buyumlarning kattaliklarini o'zimizda hosil bo'lgan umumiy tasavvurlar (fikr)da taqqoslaymiz. Bu o'rinda idrok qilinayotgan buyumning kattaligi umumlashtirilgan obraz bilan taqqoslanadi, bu obrazda buyumlarni amalda farqlash tajribasi tugallangandek bo'ladi. Kattalik, shuningdek, o'zgaruvchanlik bilan ham karakterlanadi. V.V.Davidov bunday deydi: "o'lchamlar – obektning shunday holatiki, u ma'lum chegaralargacha o'zgara borib, aqqalli berilgan alohida obektни o'zgartirsa, ham, ammo uning tur, boshlang'ich sifatini o'zgartirmaydi"! Stol uzunligining o'zgarishi uning kattaliginigina o'zgartiradi, ammo uning mazmuni va sifatini o'zgartirmaydi, stol stolligicha qolaveradi.



Kattalikning uchinchi xossasi nisbiyligidir. Haqiqatan ham, bir buyumning o'zi kattaligi bo'yicha qanday buyum bilan taqqoslanayotganiga qarab, katta yoki kichik deb aniqlanishi mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, kattalik buyumning shunday xossasiki, uni buyumdan ajratib, alohida tasavvur qilib bo'lmaydi.

Buyumning kattaligini idrok qilib, biz buyumning hajmi borasida to'liq mo'ljal olamiz va shundagina uni (katta –kichik) so'zlari bilan aniqlaymiz, yoki alohida uzunliklarning (uzunligi, kengligi, balandligi) nisbati haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Bunda subekt uchun har bir konkret holda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan uzunlik ko'p holda kattalikni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu holda kattalikning “baland”, “past”, “uzun”, “yo'g'on” kabi aniq ta'riflaridan foydalanadilar. (“ Bolaga past stul kerak”, “Mashinalar keng yo'ldan bormoqda”, “Baland archa sotib olishdi” va h.k.)

Bir qator buyumlar borki, ular uchun “katta – kichik” atamalarini ishlatib bo'lmaydi. Masalan, lenta uzun, qisqa, keng yoki ingichka (tor) bo'lishi mumkin; sakragich esa uzun yoki qisqa bo'lishi mumkin va h.k.

Shu bilan birga kuzatishlar va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar buyumlarning kattaliklarini aniqlashda “katta – kichik”, “ortiq –kam” so'zlaridan foydalanishni afzal ko'radilar. Buning sababi, birinchidan, bolalarning buyumlarning alohida uzunliklari (uzunligi, kengligi, balandligi) ni differensiyallashtira olmasliklari, ular orqasida o'lchamlik munosabatlarini o'rnatish olmasliklari va ularning har birini so'zlar bilan ifodalay olmasliklari, ikkinchidan, kattalarning o'zlari ko'pincha kattalikning aniq ta'rifi o'rniga juda umumiy bo'lgan “katta – kichik” atamalarini ishlatishlaridir. Demak, buyumlarning kattaliklarini aynan bir xil aniqlash uchun bolalarga buyumlardagi uzunlik paralarini o'rnatishni o'rgatish kerak. Bu munosabatlarga sonlargina aniqlik berishi mumkin.


Shu munosabat bilan bolalarning kattalik haqidagi tushunchalarini tarkib toptirish bilan bir vaqtda ularning son haqidagi tasavvurlarini va hisoblash malakalarini rivojlantirib borish samaraliroq bo'lishi mumkin. Shu sababli bolalarda kattalik haqidagi bilimlarni tarkib toptirishning quyidagi sistemasini maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin: masofa parametrlarini differensiyallashtirish va ular orasidagi o'lchov munosabatlarini (o'lchashlar yordamida) o'rnatishdan buyumlarning kattaliklarini butunicha hajm bo'yicha baholash va aniqlashga olib kelish kerak, chunki E.G.Vasuro bunday ko'rsatadi: “Haqiqiy umumlashtirish obektlarni shu obektlarning muhim xususiyatlari bo'yicha differensiyallashtirilgandan keyingina amalga oshadi”. Buyumlarning kattaligini butunicha aniqlashning muhim xususiyati masofa parametrlarining o'lcham munosabatlaridan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattaliklarning miqdoriy bahosini bilish zarurati bilan har doim kundalik hayotlarida, har xil mashg'ulotlarda, mehnat faoliyatlarida, o'yinlarda duch keladilar. Ammo bu bilimlar maxsus o'rgatilgunga qadar tarqoq va aniqmas bo'ladi. Chunonchi, bolalar "katta" tushunchasini tasavvur qilishda har qanday katta miqdor xarakteristikasini (yuqori, baland, keng, chuqur) qo'shib yuboradilar, masalan, "uzunroq" deyish o'rniga bolalar "katta" deyishadi, "kichik"ni bolalar "past", "tor" va h.k. deb tasavvur qilishadi.

"Teng" degan tasavvurni bolalar nutqidan "bir xil" degan tasavvur siqib chiqargan, "bir xil" so'zi nihoyatda keng ma'no kasb etadi: bolalar bu so'z bilan buyumlarning rangi, shakli, tayyorlangan materiali, ba'zan esa kattaligi va miqdori bo'yicha taqqoslash natijalarini belgilaydilar.

Tasavvurlarning bunday aniqmasligi matematik aniqlikning va kattalik ta'rifining, shuningdek, miqdor ta'rifining buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bolalarning maktabda o'qishga tayyorliklarini tekshirish shuni ko'rsatadiki, kattalikning noaniq miqdoriy baholanishi mavjud bo'lganda ular (ayniqsa, maktabda o'qishning daslabki paytlarida) atrof sharoitdan, daftar va kitob varaqlaridan fazoviy orientasiya olishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Ba'zi o'quvchilar grafik ishoralarning kattaliklariga amal qiladilar. Bu malakalar o'qitish o'rgatish, jarayonida shakllanadi. Buyumlarning balandligi, uzunligi, kengliklari bo'yicha taqqoslay olishni bilish bolalarning bilim darajalarini anchagina oshiradi.

Kattaliklarning miqdoriy baholarining shakllanishi miqdoriy munosabatlarni o'rganishda, har xil tushunchalarning, ya'ni son, geometrik va boshqa tushunchalarning tarkib topishi bilan birgalikda amalga oshiriladi.



Kattaliklar miqdoriy baholarining shakllanishi miqdoriy munosabatlarni o'rganishda, har xil tushunchalarning, ya'ni son, geometrik va boshqa tushunchalarning tarkib topishi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Kattaliklar miqdoriy baholarining shakllanish jarayoni bolalarning so'z – terminlar (baland, tor), shuningdek, eng sodda matematik ifodalar (masalan, buyumlarning balandliklari bo'yicha taqqoslaymiz).

Buyumlarning kattaliklari bo'yicha munosabatlarini tegishli belgilashlar bilan o'rnatish uslubiyati kattaliklarning miqdoriy

baholarining har xil darajalarining tarkib topishining aniq sistemasini hisobga oladi, bu ma'lum izchilikda amalga oshirilishi mumkin.

**Ikkinchi kichik guruh.** Kattalik. Ikkinchi kichik guruhda tarbiyachi bolalarga uzunligi, kengligi, balandligi, shuningdek, kattaligi bo'yicha butunlay keskin farq qiluvchi buyumlarni (lentalar, qog'oz, karton brusoklar va boshqalar) taqqoslashni o'rgatadi. Buyumlarning o'lchamlari bo'yicha nisbatlarini aniq so'zlaridan foydalanib ifodalashga o'rgatadi: uzun – qisqa, uzunliklari bo'yicha bir xil (teng); keng – tor, kengligi bo'yicha bir xil (teng) baland – past, balandligi bo'yicha bir xil (teng), ortiq – kam, miqdori bo'yicha bir xil (teng).

Bunday taqqoslash uchun avval bir – biridan kattaligi bo'yicha biror a'lomatiga ko'ra farq qiluvchi buyumlar, masalan, kengligi jihatdan bir xil, bir xil rangl, bir xil materialdan tayyorlangan, uzunliklari bo'yicha bir xil bo'lgan lentalarni berish mumkin. Bir lenta ikkinchisidan biroz uzunroq (qisqaroq) bo'lishi kerak. Bu bolalarning buyumlardagi masofa elementlarini ajratishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kattalik alomatlari bo'yicha buyumlarni taqqoslashga o'rgatishda u yoki bu obektning uzunligi kengligi, balandligi, deb nimani aytilishini qo'l harakati bilan ko'rsatish zarur. Masalan, 2 ta lentaning uzunliklari bo'yicha taqqoslashda tarbiyachi qo'lini birinchi lenta bo'ylab ham, ikkinchi lenta bo'ylab ham (chapdan o'ngga) yuritib, "bu lenta uzunroq, bu lenta esa qisqaroq (kaltaroq)" deb tushuntiradi. Shundan keyin bolaga barmog'i (kafti) bilan lenta bo'ylab (uning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha) o'tishni taklif qiladi. Obektlarning balandliklari bo'yicha taqqoslashda tarbiyachi qo'lini buyum bo'ylab pastdan yuqoriga, asosidan ustki qirrasigacha o'tkazadi; buyumlarning butunicha kattaligi bo'yicha taqqoslashda tarbiyachi qo'lini oldin birinchi, keyin ikkinchi buyum atrofida aylantirib chiqadi.

Bolalar buyumlarning uzunligi, kengligi, balandligi bo'yicha yonma – yon qo'yib va birini ikkichisining ustiga qo'yib taqqoslashga o'rgatiladi. Dastlab buyumlarni yoniga qo'yib taqqoslashdan boshlash maqsadga muvofiq, chunki taqqoslash uchun bir xil rangdagi buyumlar beriladi, bunday buyumlar bir – birining ustiga qo'yib taqqoslansa, qo'shib ketadi. Har xil rangdagi buyumlardan foydalanayotganda ustiga qo'yib taqqoslash usulidan foydalanish kerak. Tarbiyachi bu usullardan foydalanish kerak. Tarbiyachi bu usullardan qanday qildib to'g'ri foydalanishni ko'rsatadi: buyumlarning uzunligini yoniga qo'yib taqqoslaganda buyumlarni shunday qator qilib qo'yish kerakki, ularning

bir tomondagi (masalan, chapdagi) oxirlari yonma- yon tursin. Ustiga qo'yish usulidan foydalanganda buyumlarning nafaqat (chapdagi) oxirlarini, balki ularning ustki va ostki qirralari (chekkalari) ni ham ustma – ust joylashtiriladi. Tarbiyaichi bir qismi ko'rinib turgan buyum uzunroq ekanini tushuntiradi.

Tarbiyachi bolalarga ajratilgan belgilarni, taqqoslanayotgan ikkala buyumning nomini so'zlar bilan aytishni o'rgatadi (“Qizil lenta yashil lentadan uzun, yashil lenta esa qizil lentadan qisqa”).

Tarbiyachi buyumlardagi belgilarni (kenglik, balandlik) taqqoslashga doir mashqlarga bolalarning qiziqishlarini oshirish uchun har xil o'yin vaziyatlarini hosil qiladi. Masalan, ayiqchalarga sharflar bog'laydi, qo'g'irchoqlarga esa lentalar taqishadi. Bitta sharf (lenta) bog'lanadi, ikkinchisi esa bog'lanmaydi. Nega? Bir sharfni (lentani) ikkinchisiga yonma- yon qo'yib, tarbiyachi birinchisi ikkinchisidan qisqa ekanini ko'rsatadi. Ikkinchi bir o'yin o'yin vaziyatida nega bir ko'prikchadan parovoz o'tgan–u, ikkinchisidan nega o'tmaganini aniqlash; mashina qaysi darvozadan o'tgan, qaysi darvozadan o'tmaganini, nega aniqlash talab qilinadi. “Kimning barmoqlari uzun?” “Kimning uyi baland”, “Kimning sharfi keng?” va boshqa turdagi o'yin –mashqlarni o'tkazish ham mumkin.

Shundan keyin bir xil shakldagi, har xil rangdagi bittadan boqsha komponentlari (parametrlari) teng buyumlarni taqqoslashga kirishiladi, bunda (balandligi yoki uzunligi va b.) bolalarning e'tibori teng bo'lmagan parametrlarga qaratiladi. Ajralib turgan parametri, kattaligi bo'yicha kontrast bo'lgan buyumlar taqqoslash uchun olinadi, bu hol ularni ajratishni ancha osonlashtiradi. O'yin vaziyatidan foydalanish mumkin. Masalan, ikkinchi kichik guruh bolalari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda (uzunlik haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirishda) tarbiyachi har qaysi bolaga bir –biridan uzunligi bilan farq qiluvchi ikkitadan rangli qalam beradi. O'yinchoq quyon uzun qalamlarni, o'yinchoq mushuk esa kalta qalamlarni “yig'adi”. Tarbiyachi bolalarning e'tiborini quyonning quloqlari uzun, dumi esa kalta ekaniga, mushukning dumi uzun, quloqlari esa kalta ekaniga qaratadi.

Shundan keyin tarbiyachi bolalarni ajratilgan parametri bo'yicha buyumlarni bevosita taqqoslashga o'rgatadi. Bu bosqichda bolalar amaliy harakatlar (ustiga qo'yish, yoniga qo'yish va b.) ni o'zlashtirishadi. Bunday harakatlar natijasida bolalar nisbiy kattalikni aniqlaydilar. Shu maqsadda taqqoslanuvchi parametrlari kontrast bo'lmagan buyumlardan foydalanishadi. Shu bilan bir vaqtda



bolalarning tenglik haqidagi tasavvuri (“balandligi, uzunligi. Kengligi” va b. Bo‘yicha teng) tarkib topadi. Chunonchi, “baland – past – teng” (balandligi bo‘yicha) ekanligi haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirishda balandlikning o‘zini ajratilganidan keyin bolalarga, masalan, balandlikning o‘zini ajratilganidan keyin bolalarga, masalan, balandligi bo‘yicha (kontrast bo‘lgan) farq qilmaydigan ikkita minorachani berish mumkin. Tarbiyachi ikkita minorachani stolning har xil chetlariga qo‘yadi va bolalardan ular balandliklari bo‘yicha teng yoki teng emasliklarini so‘raydi. Odatdagidek bolalarning fikrlari bir xil bo‘lmaydi. Ulardan qaysilari haq, qaysi minora baland ekanini qanday bilish mumkin? Tarbiyachi ikkita minorani yonma- yon qo‘yib, o‘z harakatlarini tushuntiradi. Bunday holatda qaysi minoracha baland ekani hammaga ko‘rinib turadi.

Bolalarning masofalarni aniqlashlarini osonlashtirish uchun atrof – muhitdagi shunday buyumlardan foydalanish kerakki, ularda masofa ko‘proq o‘rinni egallasin, shu bilan bir qatorda dastlabki mashg‘ulotlarda yassi buyumlardan ko‘proq foydalanish kerak.

Bundan tashqari, bolalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan, har xil faoliyatlardan ular keng foydalanadigan buyumlardan foydalanishga harakat qilish kerak; bular har xil uzunlik va kenglikdagi lentalar, har xil uzunlikdagi sakragichlar, qurilish materiallari detallari (har xil uzunlikdagi brusoklar, kengligi har xil plastinalar, yo‘g‘onliklari har xil silindrlar, tayoqlar), har xil balandlikdagi piramidalar, keng archachalar va boshqa ko‘pgina buyumlar va o‘yinchoqlar bo‘lishi mumkin. Har qaysi mashg‘ulotda bolalarga tarqatma material (kengligi teng bo‘lgan holda har xil uzunlikdagi qog‘oz poloskalar va aksincha, uzunligi teng bo‘lgan har xil kenglikdagi qog‘oz poloskalar; har xil uzunlikdagi, har xil kenglikdagi qog‘oz poloskalar, iplar, har xil qalinlikdai latta puttalar va b.) bilan ishlash imkonini berish kerak. Tarqatma materiallar bilan ishlash har bir bolaga buyumlarning kattaliklarini har tomonlama tekshirish imkonini beradi.

Bolalarda har xil uzunlikdagi buyumlarni farqlash va tegishli atamalar bilan aniqlash malakalari tarkib topishiga va shakllanishiga imkon bergan ba’zi mashg‘ulotlarni qaraymiz.

Ikkinchi kichik guruhda o‘tkazilgan birinchi mashg‘ulotning dastur mazmuni quyidagilardan iborat:

1) bolalarga taqqoslash natijasida buyumlardagi masofani ajratishni o‘rgatish;

2) yoniga qo'yish va ustiga qo'yish usullaridan foydalanib, taqqoslash bilan uzun va kalta buyumlarni farqlash malakasini rivojlantirish;

3) bolalarni har xil uzunlikdagi buyumlarni mos atamalar bilan aniqlash bo'yicha mashq qildirish.

Mashg'ulotlar uchun har xil uzunlikdagi ikkita lenta va ikkita chizg'ich didaktik material bo'lib xizmat qiladi; bolalar uchun va qisqa (kalta) qog'oz poloskadan foydalanishadi. Tarbiyachi bolalar e'tiborini doskadagi biri ikkinchisining tagiga qoqib qo'yilgan lentalariga qaratadi va ularning kattaliklarini topishni taklif qiladi. Bolalar bir lenta baland, ikkinchisi past (Lola);, biri uzun, ikkinchisi qisqa (Zamira); biri kalta, ikkinchisi esa katta (Said) deb javob berishadi. Ko'rib turibmizki, Zamiragina to'g'ri javob bergan. Bolalarning javoblarini aniqlashtirib, tarbiyachi ta'kidlaydi: "Lentalar uzunliklari bo'yicha har xil. Biri uzun, ikkinchisi kalta". Tarbiyachi lentalarning kattaliklarini aytish bilan bir vaqtda ularni ko'rsatadi. ("Mana uzun lentaning uzunligi, mana kalta lentaning uzunligi"). Shundan keyin bolalar lentalarning uzunliklarini ko'rsatishadi, bunda ular ko'rsatilayotgan lentaning kattaligini aytib turishadi, 5-6 ta boladan so'ralganidan keyin tarbiyachi yakun yasagandek bo'ldi: "Bu lentalar uzunliklari bo'yicha har xil. Bir lenta uzun, ikkinchi lenta esa kalta". Har xil uzunlikdagi chizg'ichlarning kattaliklari ham xuddi shunday usul bilan taqqochlandi va aniqlandi. Mashg'ulotning ikkinchi qismida bolalarning hammasi tarbiyachining ushbu topshirig'ini bajarishadi: uzun, kalta poloskani ko'rsat kalta poloska tagiga uzun poloskani shunday qo'yki, ularning chap oxirlari tekis tursin; uzun, kalta poloskaga bayroqcha, kalta poloskaga koptok rasmini chiz. Har bir topshiriq bajarilganidan keyin tarbiyachi bolalardan so'rab, ularni taqqoslanayotgan buyumlarning kattaliklariga aniq ta'rif berishga o'rgata bordi. Mashg'ulot oxiriga kelib, ba'zi bolalar hatto bunday yoyiq gaplarning ham uddasidan chiqishdi; "Men uzun poloskaga bayroqcha rasmini, kalta poloskaga koptok rasmini soldim".

Bolalarning hammasi uzun va kalta buyumlarni to'g'ri ko'rsatishdi, ammo ba'zi bolalar poloskalarni katta va kichik poloska, deb aniqlashni davom ettirishdi. Bunday aniqlashlarni bir mashg'ulot davomida amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli navbatdagi ikki mashg'ulot davomida tarbiyachi bolalarning uzun va kalta buyumlarni mos atamalar bilan aniqlab taqqoslash va farqlash malakalarini mustahkamladi. Bunda u bolalarda har qanday uzunlikdagi buyumlar uzun – qisqa (kalta), uzunroq – kaltaroq buyumlar kabi umumiy

tasavvurni tarkib toptirish uchun taqqoslanadigan buyumlar doirasini asta – sekin kengaytirib borishni lozim topdi.

Shunday mashqlar natijasida bolalar buyumning nisbiy kattaligini asta –sekin ko‘z bilan chamalab aniqlashga o‘rgatiladi. Bolada kattalik bo‘yicha munosabatlarni aniqlash usulining o‘zi shakllanadi.

“Keng – tor – teng” (kengligi bo‘yicha) tasavvuri ham buyumlarni ustiga qo‘yish usuli bilan shakllantiriladi.

“Yo‘g‘on – ingichka – teng” (qalinligi (yo‘g‘onligi) bo‘yicha) tasavvuri har xil buyumlarni bevosita taqqoslash (yoniga qo‘yish usuli bilan) da shakllanadi. Buning qalinligi bo‘yicha har xil, yo‘g‘onligi bo‘yicha har xil qalamlarni olish mumkin.

Bolalar har xil o‘lchamli buyumlarni taqqoslay oladigan va tegishli belgilarni ajrata oladigan bo‘lganlaridan keyin “Topshiriq” didaktik o‘yini o‘tkaziladi. Topshiriqni tarbiyachi beradi (masalan, qo‘g‘irchoq nomidan), bolalar esa u aytgan buyumni )qo‘g‘irchoqni), masalan, baland archani, uzun qalamni, keng lentani (2 – 3 juft buyumlar orasidan tanlab) ko‘rsatishlari yoki keltirishlari kerak.

Bolalar kontrast o‘lchamli buyumlarni taqqoslashga o‘rgatilganidan keyin tarbiyachi ularni buyumlarning uzunliklari, balandliklari bo‘yicha teng bo‘lish bilan tanishtiradi, uzunliklari bo‘yicha bir xil (teng), balandliklari bo‘yicha bir xil (teng) degan ifodalardan foydalanishga o‘rgatadi. Shu maqsadda “shunday uzunlikdagi lentani top”, “balandligi shunday archani top” kabi o‘yin mashqlardan foydalanish mumkin.

**O‘rta guruh. Kattalik.** Ikkinchi kichik guruhda bolalar har xil poloskalardan biror belgi (uzunlik, kenglik) ni topishga o‘rgatilgan edi. Mazkur bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalar bir vaqtning o‘zida uzunlikni, kenglikni topa olish va ularni taqqoslay olish malakasini egallab olishlari kerak. Masalan, tarbiyachi hamma bolaga 9 xil rangli va uzunligi har xil, ammo kengligi (eni) bir xil bo‘lgan lentalarni tarqatadi va bolalarga tanish bo‘lgan usul (masalan, yonma- yon qo‘yish) bilan qaysi lenta uzun, qaysi lenta qisqa (kalta) ekanini topish topshirig‘ini beradi. So‘ngra uzun poloskani tanlash va uning uzunligi bo‘ylab barmoqni yuritib chiqishni taklif qiladi. Tarbiyachi “Poloskaning kengligi qani?” – deb so‘raydi va o‘zi poloskaning eni bo‘ylab qo‘lini yuritadi, keyin esa uning bo‘yi bo‘ylab qo‘lini yuritib chiqadi. Bolalardan poloskaning uzunligi (bo‘yi) kattami yoki kengligi (eni) kattami, deb so‘rash kerak, so‘ngra esa bo‘yicha katta, eni esa kichik bo‘lishini tushuntirib berish kerak. Eng qisqa poloskani qarash bilan

ham tarbiyachi bolalarni yuqoridagiga o‘xshash xulosaga olib keladi. Mashg‘ulotning oxirida bolalarga poloskalarining eni bo‘yicha taqqoslashni taklif qilish mumkin. Bolalar bir poloskani ikkinchi poloska ustiga qo‘yib, ular uzunliklari bo‘yicha har xil bo‘lsa ham, ammo enlari (kengliklari) bo‘yicha teng ekanliklariga ishonch hosil qiladilar.

O‘rta guruhda bolalarni buyumlar orasidagi uzunlik, kenglik, balandlik bo‘yicha arziyas kichik farqlarni ilg‘ab olishga, har xil kattalikdagi 2 tadan ko‘p buyumlarni taqqoslay olishga o‘rgatish kerak. Chunonchi, bolalarga har xil uzunlikdagi 2 ta lentani taqqoslash taklif qilinadi, so‘ngra taqqoslanayotgan lentalaridan uzunroq uchinchi lenta qo‘shiladi. Bolalar uzun lenta yanada uzunroq lenta bilan taqqoslaganda qisqa bo‘lib qolishini ko‘radilar. Har bir buyum (lenta) jufti boshqa buyumlar bilan taqqoslanadi. Masalan, qizil lenta ko‘k lentadan uzun, ammo sariq lentadan qisqa. Shunday qilib, bolada asta –sekin buyumlarning o‘lchamlari nisbiy harakterga ega degan tasavvur hosil bo‘ladi; bir obektning o‘zi, qanday buyum bilan taqqoslanayotganiga qarab, goh katta, goh kichik bo‘ladi.

Bolalarni namunaga qarab, buyumlarni ularning uzunliklari, kengliklari, balandliklari o‘zaro borish (kamayib borish) tartibida, qator qilib qo‘yishga o‘rgatish kerak. Bunda qiyinchilik shundan iborat bo‘ladiki, bolalar kattaliklari va ranglari bilan farq qiluvchi buyumni taqqoslaydilar, shuningdek, o‘lchamlari bo‘yicha kontrastlari kam bo‘lgan uch –to‘rtta buyumlarning kattaliklarini sifatlarini qiyosiy darajalarini qo‘llab, aniqlaydilar.

Mashg‘ulotlarda asosiy e‘tibor bolalarda buyumlarning uzunliklarini ajratish va ko‘rsatish, buyumlarning uzunlik bo‘yicha tengligi yoki tengmasligini aniqlash, shu asosda ular kattaliklarining aniq ta‘rifini bera olish malakalarining shakllanishiga qaratiladi. Masalan, tarbiyachi to‘rtta bolani chaqiradi va ularga ikkitadan bo‘lib sakragichni olishni va uni uzunligi bo‘yicha tuzib turishni taklif qiladi. Bolalarga murojaat qilib, tarbiyachi so‘raydi: “Bu sakrag‘ichlarning uzunliklari haqida nima deyish mumkin?” “Savolning bunday qo‘yilishi bolalarga har xil javob berish imkonini berdi, boshqacha aytganda, ular har qaysi sakrag‘ichning nisbiy kattaligini aytishlari mumkin, yoki sakrag‘ichlar kattaliklari bo‘yicha har xil deyishlari ham mumkin edi. Bolalar javobning birinchi variatini afzal ko‘rishdi. “Bolalar, to‘g‘ri aytdingiz, sakrag‘ichlar uzun va kalta”, - deydi tarbiyachi.

- “Nega biz ularni shunday ataymiz?”

- “Chunki ular kattaliklari bo‘yicha har xil”. (Sevgi).
- “Chunki ularning uzunliklari har xil”, - deb aniqlashtiradi Karima.

Tarbiyachi Karimaning javobini ma’qullab, boshqa bolalarni chaqiradi va ularga har qaysi sakrag‘ichning uzunligini kattalikni aytish bilan ko‘rsatishni talab qiladi. Bunda tarbiyachi bunday savollarni beradi: “Kim kalta (uzun) sakrag‘ichni ushlab turibdi?”, “Zohida bilan Mastura, Ilhom bilan Azamat qaday sakrag‘ichni ushlab turishibdi?”. Qizcha bir sakragich ikkinchi sakragichdan qancha uzunligini ko‘rsatadi. Sakragichlar uzunliklari orasidagi farqni hamma bolalardan qo‘lni ochib ko‘rsatish talab qilinadi.

Bolalar masofa bo‘yicha taqqoslash usulini shunday o‘zlashtiradilar.

Bolalarni kam kontrastli buyumlarning kattaliklarini farqlash va qiyosiy sifatlarini ishlatish bo‘yicha mashq qildirish uchun ularga har xil uzunlikdagi brusokdan yoki poloskalardan zina tuzishni taklif qilish mumkin. Bundan oldin “zina” pog‘onalarini, uzunliklarini ko‘rsatib, ikkitalab taqqoslashni, so‘ngra esa butun pog‘onani o‘sib borish tartibida ham, kamayib borish tartibida ham taqqoslashni taklif qilish maqsadga muvofiq.

Buyumlarning ayrim masofalarini differensiallashda va ular orasidagi o‘lchov munosabatlarini o‘rnatishda yetakchi o‘rinni o‘lchashga ajratilishi yuqorida aytilgan edi. Ammo o‘lchash faoliyati ham boshqa har qanday foaliyatlar kabi maxsus malakalar egallangandagina samarali bo‘ladi. Bu malakalar ham doim ular takrorlab turilgandagina, o‘lchash ko‘nikmalariga shakllanadi. Kattalar tomonidan maqsadga muvofiq boshqarilib turilgandagina o‘lchash malakalarini egallash (o‘zlashtirish mumkin bo‘ladi. Ish tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘lchash malakalarini egallash besh yoshga qadam qo‘ygan bolalarda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki bu harakatlar katta aniqlikni, o‘lchovni surishda qo‘l harakatlarining muvofiqlashtirilganini, sanoq va o‘lchashni birga qo‘shib borishni talab qiladi. Shu bilan birga, A.M.Leushinaning tekshirishlari ko‘rsatishicha, bolalar hayotining beshinchi yoshida sanoqning asosiy qoidalarinigina egallab ola boshlaydilar.

Bir vaqtning o‘zida sanoq va o‘lchash malakalarini (ularning asl ma’nosida) o‘zlashtirib olish bolalar uchun qiyinchilik qiladi. Shu sababli o‘rta guruhda o‘lchashlarni “modellashtirish”, ya’ni o‘lchanayotgan masofani unga joylashgan o‘lchov miqdori bilan taqqoslashdan foydalanish maqsadga muvofiq. Misol keltiramiz.

Bolalarning stollarida har xil uzunlik va har xil rangdagi poloskalar qo'yilgan. Tarbiyachining "Kattaliklari bo'yicha bular qanday poloskalar?" – degan savoliga bolalar bunday javob berishadi. "Uzunliklar bo'yicha har xil poloskalar", "Biri uzun, biri kalta poloskalar" va h.k.

Tarbiyachining "Bolalar, Siz nima deysiz, har qaysi poloskaning uzunligini bilish uchun nima qilish kerak?" – degan savoliga bolalar bunday javob berishadi: "Ularni qarash kerak". "Ularni taqqoslash kerak". Tarbiyachi qarash ham mumkin, o'lchash ham mumkin, ammo eng yaxshisi o'lchash kerakligini aytadi. Shunda biz har qaysi poloskaning uzunligini aniq bilamiz. Mana bu o'lchov bilan o'lchaymiz. Tarbiyachi bolalarga o'lchovni ko'rsatadi, ularni o'lchovni ko'rishga taklif qiladi. Qanday o'lchash kerakligini tushuntiradi: "O'lchovni men poloskaning chapdan eng chekkasiga qo'yaman. Birinchi o'lchov yoniga yana bitta o'lchovni qo'yaman. Boshqa o'lchov sig'maydi". Bolalar katta poloskaning uzunligi ikkita o'lchovga tengligini shunday tushunib oladilar. Shundan keyin ularga stollarida yotgan ikkinchi kesmani o'lchash taklif qilinadi. Bolalar har xil, ammo ko'pincha eng uzun poloskalarni o'lchashadi. Shundan keyin tarbiyachi ular qanday poloskalarning o'lchaganliklarini, unga o'lchov necha marta joylashganini oydinlashtirib oladi. Bolalarning javoblarini tinglab, umumlashtiradi: "Ko'rayapsizmi, hammangizning poloskachalaringizning uzunligi har xil, poloskalarigizga o'lchov 4 marta ham, 3 marta ham, 2 marta ham joylashgan". Bolalar uchun va qisqa poloskaning uzunliklarini o'lchashadi, uchun va qisqa poloskalarning uzunliklari nechtadan o'lchamga tengligini gapirib beradilar, qaysi poloskaga o'lchov ko'p, qaysi poloskaga kam joylashganini, nega shundayligini aniqlaydilar. Bolalarning javoblari: "Chunki uzun poloska kalta poloskadan uzunroq" (Munira), "Chunki kalta poloskaning uzunligi kichik, uzun poloskaning uzunligi katta" (Lola). Javoblar bolalarning taqqoslanayotgan buyumlar orasidagi munosabatlarni tushunishlari, bu munosabatlarni so'zlar bilan so'zlar bilan aniqlay olishlaridan guvohlik beradi.

Ammo bolalar nega bir poloska ikkinchi poloskadan uchun ekanini ko'ra olishlari uchun bunday ishni doska oldida flanelegrafda bajarish bilan chegaralanish kerak. (birinchi poloskaga 4 ta, ikkinchisiga esa faqat 2 ta bir xil o'lchov qo'yiladi).

Shunday qilib, ikkinchi kichik va o'rta guruhlarning asosiy vazifalari bolalarda buyumlarning uzunliklari, kengliklari va

balandliklari (qalinliklari) ga nisbatan masofa turlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va shu asosda:

a) o‘lchovlari kontrast bo‘lgan ikkita buyumni taqqoslashda;  
b) bittasi namuna vazifasini bajaradigan usta buyumni taqqoslashda;

c) bolalar tomonidan seriasion qatorga tartibga solib qo‘yiladigan o‘lchovlari bo‘yicha ko‘proq kontrast bo‘lgan to‘rt – besh va undan ortiq buyumlarni taqqoslashda buyumlarning kattaliklarini farqlash va ularni so‘zlash bilan aniqlash malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Bunda bolalar bir vaqtning o‘zida o‘zaro teskari munosabatlarni o‘rnatish bilan buyumlar kattaliklarining kamayish va o‘shish darajalarining qiyosiy bahosi (uzunroq – kaltaroq) ni ham, ular kattaliklarining nisbiy bahosini ham (uzun – qisqa) o‘zlashtirib oladilar. Bu bilimlarni o‘zlashtirish hajmli buyumlarning uch o‘lchovli ekanligi haqidagi tasavvurlarni bundan keyin rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.

Masofalarning har xil turlari bilan tanishtirishni asta –sekin amalga oshirish kerak. Chunonchi, eng oldin bolalarni yassi buyumlarda uzunlikni aniqlashga, buyumlarning uzunliklari bo‘yicha taqqoslashga va ularning kattaliklariga oid ta’riflar berishga o‘rgatish maqsadga muvofiq. So‘ngra buyumlarning kengligi bo‘yicha, ularning kattaliklarini aniqlab, taqqoslash kerak. Shundan keyin bolalar buyumlarda balandlikni, nihoyat, qalinlik (yo‘g‘onlik) ni ajratish malakasini egallaydilar:

- buyumlarning o‘lchamlari haqidagi tasavvurlarning xususiyatlari: uch o‘lchovli differensiyalash, buyumlarning o‘lchovlari bo‘yicha, tranzitivlik (to‘ppa – to‘g‘ri) munosabatlarini o‘rnatish;
- bolalarning uzunlik va hajmni o‘lchash usullari va o‘lchovlar haqidagi bilimlarning o‘ziga xosligi;
- bolalar o‘lchash harakatlarining xususiyatlari;
- har xil yoshdagi guruh bolalarini buyumlarning o‘lchami va kattalik bilan tanishtirish masalasi;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi har xil yoshdagi guruhlarda buyumlarning o‘lchami bilan tanishtirish (mashg‘ulotlardan qismlar ko‘rsatish);
- bolalarni kattalikni o‘lchashga o‘rgatish;
- har xil yoshdagi guruhlarda bolalarni buyumlarning o‘lchamlari bilan tanishtirish uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish;
- bolalar bog‘chasida mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun material tanlashga qo‘yiladigan talablar.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Kichik va o'rtta guruhlarda predmetlarning o'lchami va ularni o'lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish haqida.
2. Katta va tayyorlov guruhlarda predmetlarning o'lchami va ularni o'lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish haqida.
3. Kattalik guruhlarda qanday o'rgatiladi?
4. Taqqoslash bolalarda qaysi yoshdan o'rgatiladi?

### **2.8. Bolalarda shartli o'lchov yordamida turli o'lchamlarni o'lchash haqidagi tasavvurlarini shakllantirish**

**1. Katta guruh.** Katta guruhda ishlash bolalarning masofalarning har xil turlari haqidagi tasavvurlarini aniqlashdan boshlanadi.

“Uzunlik”, “kenglik”, “balandlik”, “qalinlik” (“yo‘g‘onlik”) buyumlarning kattaliklarida mustaqil orientir olish tushunchalarini egallab olish, ularni taqqoslash va kattaliklar bo‘yicha munosabatlarini tushunib olish imkonini beradi.

Buyumlar orasida kattalik bo‘yicha konkret munosabatlarni o‘rnatish tajribasi qanchalik boy va turli –tuman bo‘lsa, keyinchalik bolalarni bu munosabatlarni umumlashtirishga, konkret tavsiflarni abstrakt ta’riflarga, ya’ni “teng”, “ortiq”, “kam” (“katta”, “kichik”) tushunchalariga o‘rgatish shunchalik oson bo‘ladi.

Bolalar buyumlarning kattaliklarini taqqoslashga va uning oldin buyumlar masofalarining bir turi bilan farq qiladigan holda, keyinroq masofalarning ikki turi, nihoyat, uch turi bilan farq qiladigan hollarda aniq belgilashga o‘rganadilar.

Shu asosda qaysi hollarda buyumlar katta va qaysi hollarda kichik deb atalishi tushunchasi beriladi. Agar buyumlar bir xil o‘lchamdagi masofalar bilan farq qilsa u holda ushbu aniq so‘zlar ishlatiladi; “uzun”, “qisqa”, “keng”, “tor” va b.

Agar buyumlar ikki –uch masofa turlari bilan farq qiladigan bo‘lsa, ularni katta va kichik deb aytiladi; katta va kichik matryoshkalar, katta va kichik qog‘oz varag‘i va b.

Bolalar kattalikning o‘zgaruvchanlik, taqqoslanuvchanlik, belgini aniqlashdagi nisbiylik (qizil lenta ko‘k lentadan uzunroq, ammo oq lentadan kaltaroq) kabi xossalari bilan tanishadilar, buyumning kattaliklari bo‘yicha munosabatlarining bir qiymatli va o‘zaro teskari xarakterini tushunib etadilar.

Bolalarni kattaliklarning tartiblangan xossalari bilan tanishtirish mumkin bo‘lib qoladi.



Bolalar buyumlarning kattaliklarini o‘‘sib borishi, kamayib borishi tartibida joylashtirish bo‘yicha mashq qilib, serasion qatorning yo‘nalganligining aniqligi, alomatni aniqlashdagi nisbiylik, qatorning qo‘shni hadlari orasidagi farqlarning tengligi kabi xossalarni bilib oladilar. Munosabatlar tranzitivligini o‘rgatishga katta ahamiyat beriladi.

Bu bolalarni har qanday buyumning kattaligini bir xil kattaliklar qatorida aniq o‘rinni egallovchi kattalik deb qarashga o‘rgatib, bolalarning buyumlarning kattaliklari bo‘yicha orientir olish malakalarini takomillashtiribgina qolmay, balki ularning matematik –va umumiy aqliy rivojlanishlariga ham imkon beradi.

Bolalarning ko‘z bilan chamalash malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ish yuqoridagi ishlar bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

O‘qitishning bir qator usullarini keltiramiz, bu usullar, bizning fikrimizcha, bolalarni kattalikning xossalari bilan muvaffaqiyatliroq tanishtiribgina qolmay, balki bolalarning fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Bir alomatni ajratish bu alomatni boshqa alo‘latlar bilan taqqoslash bilangina amalga oshishni hisobga olib, masofaning har xil turlari bilan tanishtirishni juft, qarama –qarshi tushunchalarni taqqoslash asosida amalga oshiramiz: uzunlikni kenglik bilan, chuqurlikni balandlik bilan, qalinlikni balandlik va kenglik bilan taqqoslaymiz.

Har bir yangi tushunchani tanish (ma‘lum) tushunchalar sistemasiga, qarama –qarshi tushunchalarni hamda bolalar hali yaxshi o‘zlashtirmagan tushunchalarni taqqoslash shu tushunchalarni muvaffaqiyatli mustahkamlashga imkon beradi.

Yangi materialni dastlabki idrok qilish qanday katta ahamiyatga egaligi ma‘lum.

Yangi parametrni ajratish uzunlik alo‘lati kontrast bo‘lgan (yorqin ifodalangan) va ko‘p bo‘lgan buyumlarda amalga oshiriladi. Masalan, uzunlik va kenglik bilan tanishtirishda qog‘oz poloskalari, lentalar va boshqa narsalar taqqoslanadi.

Tajriba bolalar uzunlik, kenglik, balandlikni aniq yo‘nalishda qo‘l yordamida belgilanganlarida har xil turdagi masofalarni farq qilish ancha yengil bo‘lishini ko‘rsatmoqda.

Masalan, uzunlikni qo‘lni buyum bo‘ylab chapdan o‘ngga o‘tkazish bilan, kenglikni qo‘lni yuqoridan pastga qarab ko‘ndalang o‘tkazish bilan, balandlikni qo‘lni pastdan yuqoriga o‘tkazish bilan ko‘rsatishadi. Buyumlarning uzunliklari, kengliklari, balandliklarini,

shuningdek o'lchamlardagi farqlarni bir qo'lning ochilgan barmoqlari yoki ikkala qo'lni ochib ko'rsatishdan keng foydalanishadi.

Brusokning, silindirning holatini o'zgartirib, bolalar bir xil masofaning o'zi narsaning gorizontal holatida uzunlik deb atalishini, vertikal holatida esa balandlik deb atalishini ko'radilar.

Berilgan mashqlar masofalarning har xil turlarini aniq differensiyalash (farq qilish) malakasining hosil bo'lishiga imkon beradi, bolalarning ko'z bilan chamalash xususiyatlarini rivojlantiradi.

Buyumlar bilan bir qator mashqlar bajarganlaridan keyin, bolalar umumlashtirishga o'rgatiladi. "Uzunlikni (kenglikni, balandlikni) qanday ko'rsatish kerak" yoki "Bu uzunlik qalin. Siz qanday bildingiz?" kabi bolalarga qaratilgan savollar bilimlarni mustahkamlaydi.

Bolalarning balandlik haqidagi savolga bergan taxminiy javoblarini keltiramiz: "balandlik bu pastdan yuqoriga qarab turishimizdir", "Balandlik bu pastdan yuqoriga qo'lni o'tkazish mumkinligidir". Aniqlashtiramiz: "Buyumlarning balandligini aniqlash uchun yo qo'lni pastdan yuqorigacha o'tkazish, yo buyumlarning asosidan yuqori qirrasigacha ko'z bilan qarab chiqish kerak".

Taqqosla yo'li bilangina bolalarning e'tiborini buyumlarning kattaliklari bo'yicha nisbatlarini topishga qaratish mumkin, chunki kattalikni idrok qilish jarayoni o'lchash jarayonidir.

Bolalar taqqoslashni ustiga qo'yish, yoniga qo'yish yoki o'lchada o'lchash yo'li bilan amalga oshiradilar.

Bolalar bilan birgalikda buyumlarni bir – birining ustiga, yoki yoniga qanday to'g'ri qo'yish, qanday hollarda ustiga, yoki yoniga qo'yish usulidan foydalanish aniqlanadi.

Keyinchalik taqqoslashda hamma buyumlarni ham bir –birining ustiga yoki yoniga qo'yish mumkin bo'lavermasligini aniqlashadi. Masalan, shkaf bilan bufet balandliklarini taqqoslashda shunday bo'ladi. Buning uchun har qaysi buyumni biror narsa bilan o'lchash va o'lchovlarni taqqoslash kerak.

Shundan keyin o'lchov sifatida nimalardan foydalanish mumkinligi aniqlanadi. Masalan: tayoq, kanop, lenta, qo'l barmoqlaridan o'lchov sifatida foydalanish mumkin.

Buyumning uzunligini, kengligini aniqlashda o'lchovdan qanday to'g'ri foydalanish ko'rsatiladi. Bunda bolalarning e'tibori uzunlikni aniq bir qirradan boshlab ikkinchi chekkadagi qirrada tamomlash, o'lchovni to'g'ri chiziq bo'ylab qo'yish kerakligiga qaratiladi.

Shunday qilib, bolalar har xil taqqoslash usullaridan, shuningdek bilvosita taqqoslashdan, ya'ni o'lchashdan foydalanib, buyumlarni taqqoslashni o'rganadilar.

Tarbiyachi shartli olingan o'lchovdan foydalanib, bolalarni buyumlarning nisbiy kattaliklarini aniqlashga o'rgatadi. Buyumlarning nisbiy kattaliklarini topishga bevosita va bilvosita taqqoslash usullarini qo'llab bo'lmaydigan vaziyat vujudga keltiriladi. Masalan, shkaf yoki eshik baland ekanini aniqlash. Shartli olingan o'lchov (qog'oz poloska, lenta, tayoq va boshqalar) dan foydalanib, shkaf va eshikning balandliklari o'lchanadi. Bolalar shartli olingan o'lchov shkafning balandligiga 6 marta, eshikning balandligiga 7 marta joylashganligi uchun eshik shkafdan baland degan xulosaga keladilar.

Katta guruhda bolalar uzunlik va balandlikni aniqlagan mashg'ulotning bir qismini keltiramiz.

**Tarbiyachi:** Bugun katta guruh bolalari katta uy qurishadi, ular ko'p qurilish materiallariga ega bo'lishlari kerak. Ularga ayniqsa, uzunligi 3 shartli o'lchovga, balandligi esa 1 shartli o'lchovga teng bo'lgan brusoklar (taxtachalar) kerak. Har biringizning oldingizda o'lchov va brusoklar turibdi. Ularni o'lchang va kerakliklarini ajrating. Brusokning uzunligiga nechta shartli o'lchov joylanishi kerak.

**Bolalar:** Uchta shartli o'lchov.

**Tarbiyachi:** Brusokning balandligiga nechta shartli o'lchov joylashishi kerak?

**Bolalar** Bitta shartli o'lchov

**Tarbiyachi:** O'lchovlarni oling va ular bilan brusoklarni o'lchang, kerakli brusoklarni ajrating. (Bolalar topshiriqlarni bajarishdi, tarbiyachi ba'zi bolalarga yordam berdi).

Miqdoriy bahoni tarkib topishi jarayonida bolalarda ko'z bilan chamalash rivojlanadi. Shu maqsadda bolalarni idrok qilinadigan o'lchamlarning kattaliklari yaxshi ma'lum buyumlar yoki harakatlar bilan taqqoslash (uch qadamga teng uzunlik, odam bo'yicha balandlik va b.) ga o'rgatish lozim.

Shu vaqtning o'zida tarbiyachi bolalarning e'tiborini buyumlarning uzunlik, balandlik, qalinliklari bo'yicha o'zgarishlariga qaratadi. Bu o'zgarishlarni "bu kalta", "qalinroq bo'ldi", "balandroq bo'ldi" kabi so'zlar bilan to'g'ri ifodalashga o'rgatish kerak.

Tarbiyachi ta'lim jarayonida bolalar kattaliklarning miqdoriy bahosi borasida o'zlashtirgan bilim va malakalarini taqqoslashga, har xil hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanishga o'rgatishga harakat qiladi.

Bolalarning ko‘z bilan chamalash malakalarini rivojlanishiga alohida e‘tibor berish kerak. Sayllarda bolalar e‘tiborini masalan, yo‘l va yo‘lkalarning (qishloq sharoitida), ko‘chalarning o‘tish joylari va trotuarlarning (shahar sharoitida) kengligiga; balandliklari bo‘yicha teng yoki har xil bo‘lgan daraxt va uylarga, yo‘g‘onroq yoki ingichkaroq daraxtlar tanalariga va boshqa narsalarga qaratish mumkin.

Ta‘lim jarayonida bolalar e‘tiborini miqdoriy baholarning nisbiyligiga, ularning taqqoslanayotgan buyumlarning kattaliklariga bog‘liq ekaniga qaratish kerak. Bu kattalik bahosini ayni matematik jihatdan tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, biror amaliy topshiriq shaklida berilgan taqqoslashlarni, masalan, ma‘lum uzunlikdagi, kenglikdagi, balandlikdagi buyumlarni taqqoslash, yoki tanlash uchun juftini topish kabi topshiriqlarni bolalar katta qiziqish bilan bajaradilar.

Bolalar uzunligi, kengligi, balandligi namuna sifatida berilgan buyumning uzunligi, balandligi, kengligi teng, ya‘ni bitta yoki bir necha masofaning turi bo‘yicha buyumlarni topishlari yoki tayyorlashlari kerak bo‘ladigan buyumlarning kattaliklarini tenglashga doir mashqlar shunday mashqlardir.

Bunday topshiriqlarni bajarishda bolalarning ancha qiyin tahlilni amalga oshirishlariga, buyumlardan qaysinisi namuna bilan tenglashtirishga to‘g‘ri kelishini o‘rnatishlariga va buyumlarni qaysi yo‘l bilan tenglashtirish mumkin ekanini aniqlashlariga to‘g‘ri keladi.

Bolalarni tenglashtirishning ikki usulini, ya‘ni buyumni kichiklashtirish yoki kattalashtirish yo‘li bilan tenglashtirish usullarini topishiga qiziqtirish uchun harakat qilish kerak.

Buyumlar tartiblangan qatorining ko‘p sondagi buyumlar kattaliklarini taqqoslashga doir mashqlarga ham katta ahamiyat beriladi.

Bolalarning o‘rta guruhda egallagan ko‘nikmalariga asoslanib, biz ularga buyumlarni ularning kattaliklari ortib boradigan tartibda joylashtirishni taklif qilamiz.

Bolalar dastlab qatordagi eng katta yoki eng kichik elementni (eng uzun yoki eng qisqa poloskani) topadilar.

Shundan keyin bolalar qator bo‘ylab buyumlarning kattaliklarini aytib yurishadi, biz bu qatorni obrazli qilib, “zinacha” deb ataymiz: eng qisqa, uzunroq, yanada uzunroq, eng uzun yoki uzun, qisqa, yanada qisqa va h.k., nihoyat eng qisqa. Shu yo‘l bilan biz tartiblangan qator yo‘nalishi aniqligini ta‘kidlashga harakat qilamiz.

Qatordagi buyumlardan bittasi bolalarga ko'rsatiladi va uni qo'shnilari bilan taqqoslash taklif qilinadi. Ular qaysi buyum katta va qaysi buyum kichik ekanini taqqoslaydilar: qizil poloska ko'k poloskadan uzun, ammo yashil poloskadan qisqaroq.

Shundan keyin buyumlardan birining kattaligini o'zidan oldingi va o'zidan keyingi buyumlar bilan taqqoslashni o'rgatamiz (qizil lenta ko'k, sariq lentalardan uzunroq, ammo yashil, havorang, jigarrang lentalardan qisqa).

Bir nechta mashq natijasida bolalar buyumlarning tartibi bilan joylashtirish qoidasiga mustaqil kelibgina qolmay, balki eng muhimi, tartiblangan qator buyumlarini kattaliklarini aniqlashdagi nisbiylikni tushunib yetadilar.

Tartibi bilan qo'yilishi kerak bo'lgan buyumlarni qanday tanlash kerak, degan savolga bolalar, har gal qolgan buyumlar orasidan, buyumlarning qaysi tartibda joylashtirilishiga qarab, eng uzunini yoki eng qisqasini tanlash kerak, deb to'g'ri javob beradilar.

Bolalar buyumlarni tartiblashni amalda o'rganib olishganidan keyin, biz ular e'tiborini qatorning qo'shni buyumlari kattaliklari orasidagi farqning tengligiga qaratamiz.

Buning uchun oldin qo'shni buyumlar kattaliklari orasidagi farq o'lchov bilan o'lchanadi va istalgan buyum qo'shni buyumlardan bir o'lchov katta yoki kichik ekani aniqlanadi. Shundan keyin buyum qo'shni buyumlarning biridan qancha katta bo'lsa, ikkinchisidan shuncha kichik bo'lishi o'rgatiladi.

Keyinroq, xuddi shu maqsadda, bir nechta o'lchovni qo'yish va o'lchash natijasida hosil bo'lgan sonlarni taqqoslash usulidan foydalaniladi.

Bolalar har xil uzunlikdagi beshta poloskani tartibi bilan qo'yishadi, o'lchovni ketma –ket qo'yish bilan ularni o'lchashadi, o'lchash natijalarini taqqoslashadi. Har bir poloska qo'shnisidan bir o'lchov uzun yoki bir o'lchov qisqa ekani aniqlanadi.

Bunday mashqlar bir vaqtning o'zida (ya'ni parallel ravishda) bolalarning qo'shni sonlar borasidagi bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Shunday qilib, tartiblangan qator bilan ishlash jarayonida bolalar kattalikning qator yo'nalishining aniqligi, qator qo'shni hadlari orasidagi farqning tenglik alomatini aniqlashdagi nisbiylik kabi xossalarni tushunib etadilar.

Bu haqda bolalarning qatorni oraliq elementidan boshlab tuzish, oraliq yoki tushirib qoldirilgan element o'rinni topish kabi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganliklari guvohlik beradi. Bu topshiriqlar "Nima o'zgardi?", "Nima yo'q bo'ldi?" kabi o'yinlar shaklida o'tkaziladi. Masalan, hosil bo'lgan qatorda sanoq bo'icha qaysi poloska etishmaydi yoki sanoq bo'yicha qaysi poloska ortiqcha?

Kattalik bilan tanishtirishni amalga oshirishda bolalarning ko'z bilan chamalash malakalarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Katta guruhda oddiy ko'z bilan chamalash (katta yoki kichik buyumlarni topishga yoki berilgan namunaga qaraganda kattaliklari bo'yicha teng bo'lgan buyumlarni topish) ga doir masalalar taklif qilinadi. Bolalar bu masalalarni oldin ko'z bilan chamalab yechadilar, undan keyin esa ustiga qo'yish va yoniga qo'yish usullaridan foydalanib tekshiradilar.

Buyumlar kattaliklarini tenglashtirish, kattaliklar orasidagi farqni topishga doir qiyinroq masalalarni bolalar oldin amaliy yo'l bilan yechadilar, ya'ni bir buyumni ikkinchisining ustiga yoki yoniga qo'yib, ortiqcha yoki yetishmayotgan bo'lakni aniqlash bilan yechadilar.

Keyinroq bolalar shu masalalarni ko'z bilan chamalab echishni o'rganadilar.

Bolalar maxsus tanlangan buyumlar orasidan kattaligi bo'yicha teng buyumlarni topishni o'rganadilar, so'ngra esa atrofda buyumlar orasidan namunaga teng buyumni izlaydilar.

Buning uchun ushbu mashqdan foydalaniladi: "Uzunligi, kengligi, balandligi bo'yicha teng buyumlarni top va ayt. Kattalikning to'g'ri topilganligini shartli o'lchov bilan tekshiramiz".

Tartiblangan kattaliklar qatori xossalarini o'zlashtirish asosida tasavvurga ko'ra buyumlarning kattaliklarini aniqlash va taqqoslashlarga doir mashqlarga o'tamiz. Bu sistemani o'rgatishda bolalarga bir jinsli buyumlar qatorida aniq o'rinni egallovchi har qanday buyumni topish imkonini berishini nazarda tutamiz. Shu munosabat bilan bolalardan u yoki bu buyum (qalam, piyola, koptok va b.) ning kattaligi qanday deb so'raladi.

Shu bilan parallel ravishda bolalar o'zlariga tanish buyumlar kattaliklarini eslab qolishga doir mashq qildiriladi: bog'chamizning atrofida devorning balandligi qanday? va h.k. Bolalarga har xil, ya'ni lenta, qalam va boshqa buyumlar beriladi, ularda xuddi shunday o'lchamdagi boshqa buyumni aytishlari talab qilinadi. Bunday topshiriqlar beriladi: "Shunday ikkita buyumni aytki, ulardan biri

ikkinchisidan baland, uy devoridan baland, past, keng, tor, uzun, qisqa deyish mumkin bo‘lsin”.

Bolalar, odatdagidek, o‘rtoqlarini talabchanlik bilan tinglaydilar, bahslashadilar, o‘z mulohazalarini aytadilar, demak, mulohaza yuritishni o‘rganadilar.

Bolalar olgan bilimlar mos so‘zlarda mustahkamlanishi qanchalik muhim ekani ma’lum. Shu sababli ish jarayonida bolalar nutqining o‘shiga katta ahamiyat beriladi.

Bolalar buyumlarning kattaliklarini to‘g‘ri aytishni o‘rganadilar (oq sharf tor, qizil sharf esa keng), buyumlarni taqqoslashda sifatlarning qiyosiy va chog‘ishtirma darajalaridan foydalanadilar: baland – past, keng – tor, uzun – qisqa, qalin – yupqa, eng uzun.

Munosabatlarning o‘zaro teskari xarakterda ekanligini tushunmoq uchun nutqda buyumlarning kattaliklari bo‘yicha o‘zaro teskari bog‘lanishda bo‘lishlarini aks ettirishga o‘rgatiladi: qizil qalam ko‘k qalamdan uzun, ko‘k qalam esa qizil qalamdan qisqa.

Bunday ish bolalar bilan kattalikning bo‘yicha munosabatlarni nutqda aks ettirish ishning boshlang‘ich bosqichida bolalarda qiyinchilik tug‘diradi. Ana shu yerda savollarni aniq qo‘yishgina emas, balki ularni bo‘lib berish ham juda muhimdir. Masalan, bolalar qizil va ko‘k lentalar uzunliklarini taqqoslashadi: “Eng uzun lenta qaysi rangda?” Shundan keyin qiyinroq savollarni beramiz: “Ko‘k lentaning uzunligi haqida nima deyish mumkin? Qizil lentaning uzunligi haqida-chi?”.

Shundan keyingina umumlashtiruvchi savollarga o‘tiladi: “B lentalarining uzunliklari haqida nima deyish mumkin?”, “Lentalarning kattaliklarini taqqoslang”, “Lentalar nimasi bilan o‘xshash va nimasi bilan farq qiladi?”.

Qo‘yilgan savolga aniq javob olishga erishmoq kerak. Har xil ish usullari va didaktik materialni almashtirish tarbiyachiga har qaysi bolaning aniq javobni mustaqil izlashda mashq qildirish imkonini beradi. Bola juda qiynalib qolgandagina, o‘rtog‘ining javobini qaytarishga ruxsat beriladi. Bolalar o‘zlari bajarayotgan ishning mazmunini tushunib yetganlaridagina, ularning tafakkurlash qobiliyatlarini o‘stirish imkoniyati yaratiladi. Ishni bajarishgina emas, balki nima qilayotganini gapirib berish ham muhimdir. Shu sababli bolalardan nima qilganlarini, qanday qilganlarini va natija nimadan iborat ekanini so‘zlab berishni talab qilish maqsadga muvofiq.

Bolalar ishlash usullarini o‘zlashtirib olganlariga qarab, ular ishlarni oldindan rejalashtirishga majbur qilinadi. Masalan, bolalarga

buyumlarning kattaliklariga qarab guruhlash topshiriq'ini berib, oldin kattaliklarning qaysi alomatlari bo'yicha yoki buyumlarning qaysi alomatlari bo'yicha guruhlarga bo'lish mumkinligini o'ylab ko'rish taklif qilinadi.

Biroz keyinroq bu topshiriq bilan bir vaqtda buni qanday bajarishni, u yoki bu guruhga qaysi buyumlar oidligini va nega shunday bo'lishini gapirib berish taklif qilinadi.

Dastlabki shunday tahlildan keyingina bolalar tegishli ishlarni bajarishadi, guruhlarga ajratishni amalda bajarib, o'z javoblarining to'g'riligini isbotlashadi.

Bu xil topshiriqlar bolalardan vaziyatni sinchiklab tahlil qilishni, buyumlarni tanlash qoidasini oydinlashtirish (sintez) ni talab qiladi, ularni klassifikasiyalash, umumlashtirish bo'yicha mashq qilish imkonini beradi. Demak, bolalarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi.

O'tkazilgan ish natijasida yil oxiriga kelib bolalar buyumlarning uzunligi, kengligi, balandligi, qalinligini yaxshi farq qiladilar, kattaliklarni taqqoslashning har xil usullaridan foydalanadilar va bularni baholash uchun aniq ifodalarni qo'llaydilar, o'z yechimlarining to'g'riligini isbotlay oladilar, buyumlarning kattaliklarini ko'z bilan chamalab, ancha aniq topa oladilar.

Bolalar kattaliklar haqidagi o'z bilimlarini har xil (tasvirlash, o'yin, mehnat) faoliyatlarida qo'llashlari mumkin.

Mazkur ish bolalarning idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

Bolalar kattalik a'loamatlarini ajratish va shu bilan birga, ajratilgan alo'latlar bo'yicha buyumlarni taqqoslay olish, umumlashtirish malakalarini egallab oladilar. Kattaliklar orasidagi o'zaro teskari munosabatlarni aniqlay olish, bir yoki bir necha a'loomatiga ko'ra buyumlarni tartibga solish va guruhlashning uddasidan chiqa oladilar.

**2.Tayyorlov guruhi. Kattalik.** Maktabga tayyorlash guruhida o'quv yili boshida bolalarda buyumlarning uzunligi, kengligi, balandligini aniqlash malakasi mustahkamlanadi. Shundan keyin ular shartli o'lchovlar yordamida buyumlarning uzunliklari, kengliklari va balandliklarini o'lchash hamda taqqoslashga o'rgatiladi.

Bolalarga eng oldin o'lchashning ma'nosi va ahamiyatini tushuntirish, o'lchash usullarini ko'rsatish, o'lchashda amal qilish lozim bo'lgan qoidalarni aytish kerak. Shundan keyin bola har xil obektlarni o'lchash usullarini amalda egallaydi.



Mashg'ulotlarni sochiluvchi jismlarning hajmlarini o'lchashdan boshlash maqsadga muvofiq. Bunday qilish shuning uchun ham maqsadga muvofiqki, sochiluvchi jismlarni o'lchash jarayoni masofalarni o'lchashga nisbatan qiziqarliroqdir. Bundan tashqari, sochiluvchi jismlar hajmini o'lchash suyuqlik hajmini o'lchashga qaraganda kam mashaqqatlidir. Birinchi mashg'ulotning ikkinchi qismida bolalarni buyumlarning uzunliklarini o'lchash bilan tanishtirish mumkin.

Bularning hammasi (nimadan boshlash) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning matematikaviy rivojlanish rejasida prinsipial emas, ammo mashg'ulot o'tkazish uslubiyati uchun ahamiyatga ega.

**Birinchi mashg'ulot.** Bolalarning kattaliklarni shartli o'lchov bilan o'lchash haqidagi tasavvurlarini tarkib toptirish. Guruchni o'lchash. Lentaning uzunligini o'lchash.

Birinchi mashg'ulot uchun nima muhim? Bolalarga shuni ko'rsatish kerakki, sanash uchun o'lchash mumkin va o'lchash kerak, o'lchamay turib, sanash mumkin emas. Bu o'rinda mashg'ulotda har xil kattaliklarni (sochiluvchi va masofali) ko'rsatish kerak. Bolalarni o'lchov hamda "o'lchash" atamasining o'zi bilan, bir xil ma'noli har xil so'zlarni, ya'ni "o'lchashda", "o'lchab bo'lishdi", "o'lchov" kabi so'zlarni berish orqali tanishtirish kerak.

Mashg'ulotni stolda turgan qandaydir buyumlarni (masalan, kubchalarni) sanashdan boshlash mumkin. Bolalar kubchalarni sanab chiqishadi va natijaviy sonni aytishadi: hammasi bo'lib 8 ta kubcha. Shundan keyin tarbiyachi stolga don (bizning mashg'ulotda guruch) solingan kosani qo'yadi. "Bunda qancha guruch borligini qanday bilish mumkin?" – deb so'raydi tarbiyachi bolalarga murojaat qilib. Bolalar "Qancha" savoliga javob berish uchun sanash kerakligiga odatlanib qolishgan. Shu sababli bunday deyishadi: "Sanash kerak" "Qanday sanash kerak?" Ana shu yerda sanash yo'llari izlana boshlanadi. Odatdagi usul bilan guruchni sanab chiqish deyarli mumkin emas: bittadan sanab chiqish uzoq vaqt oladi.

Bolalar eng yaxshi hol "tortish kerak", deb javob berishadi. "To'g'ri", ammo bizda tarozi yo'q-ku, - deydi tarbiyachi. Uyda ham har doim tarozi bo'lavermaydi, biz esa shavla pishirishimiz kerak. Buning uchun bu nima qilamiz?" Tarbiyachi bitta stakanni olib, uni bolalarga ko'rsatadi va so'raydi. "Bunda qancha guruch borligini stakan bilan bilish mumkinmi? Mana ko'rsataman". Stakanni guruchga to'ldiradi va bolalarning e'tiborini stakanning to'laligiga qaratadi, shundan keyin

guruchni bo'sh kosaga soladi va uni stol ustiga qo'yadi. "Bolalar, - deydi tarbiyachi, - biz sanoqdan adashib ketmasligimiz uchun, siz o'z patnislaringizga fishkalarini, men esa kubchalarni qo'yaman. Kosaga nechta stakan, guruch solsak, shuncha kubcha va shuncha fishka qo'yamiz. Shundan keyin so'raydi:

- Men necha stakan guruch soldim?
- Bir stakan.
- Men stolga nechta kubchani qo'yishim kerak?
- Bitta
- Sizlar oldingizga nechta fishka qo'yishingiz kerak?
- Bitta.

Mashg'ulot boshidayoq qilingan bunday aniqlashtirishdan keyin, tarbiyachi bolalarning kosaga har qaysi ag'darilgan stakan guruch uchun bittadan fishka qo'yib borishlarini kuzatib borishi kerak. Bu o'rinda mashg'ulotdagi asosiy moment – o'lchashni o'rgatish. Bolalar e'tiborini chalg'itmaslik uchun "Men necha stakan guruch soldim?" – deb so'rash shart emas. Shu bilan birga, stakanning, ya'ni o'lchovning bir xilda to'la bo'lishini kuzatib borish kerak. Tarbiyachi bolalar e'tiborini va bajarilayotgan ishlar mazmuni qanday tushunilganini bunday tekshiradi. Ikkinchi stakan ag'darilib bo'linganidan keyin, tarbiyachi bolalar e'tiborini bu stakanda ham oldingi stakanda qancha guruch bo'lsa, shuncha guruch borligiga, shuning uchun fishkani uydagi guruch ikkinchi kosaga to'kib bo'linganidan keyingina qo'yilishi kerakligiga qaratadi. Navbatdagi, ya'ni uchinchi stakanga tarbiyachi ataylab, yarmidan oshiribroq guruch soladi, uni kosaga yaqinlashtiradi, shu vatqgacha stakanlar guruchga to'ldirilib, kosaga to'kilgan edi, bolalar o'lchash natijasini belgilash uchun fishkaga cho'zilganlarini ko'radi. Shu vaqtda tarbiyachi bolalar e'tiborini stakanning to'la emasligiga qaratadi, oldingi stakanlarning to'laligi qanday bo'lganligini ko'rsatadi, tushuntiradi, bolalarga shu mashg'ulotda belgilangan o'lchov bo'yicha stakanni guruch bilan to'ldirishni taklif qiladi, shunga amal qilish majburiyiligini ta'kidlaydi, shundan keyingina bolalarga guruchni to'kish va navbatdagi fishkani qo'yishga ruxsat beriladi. To'rtinchi stakanni to'g'ri to'ldirish, beshinchi stakanni iloji boricha uyub to'ldirish kerakki, undagi guruch oldingilaridan ko'proq bo'lsin. Shundan keyin siz bolalarning qancha to'la bo'lsa, shuncha yaxshi, kam bo'lgandagina noto'g'ri, deb hisoblab, yana fishkaga vaqtdan oldin intilayotganlarini ko'rasiz. Bolalar e'tiborini yana oldingi stakanlarning qanday bo'lganligiga qaratish, ularga guruch ko'p bo'lganini, ammo bundagidan

kam bo‘lganiga, guruch ko‘p bo‘lganini, ammo bundagidan kam bo‘lganiga, guruch miqdori bir xil, ya’ni baravardan bo‘lgan stakanlaringina sanash kerakligiga qaratish kerak. Shundan keyin ortiqcha guruchni to‘king va aytganingizdek qiling, so‘ngra oldin to‘rt stakan guruch solingan toharachaga soling, shundan keyingina bolalar fishkani qo‘yishlari kerak. Oxirgi stakanni toharagacha ag‘darayotganda tarbiyachi bolalar e’tiborini yana stakaning to‘laligiga qaratadi, oldingi to‘kilgan stakaning to‘laligiga qaratadi, oldingi to‘kilgan stakanlardagi guruchlar shunday to‘la bo‘lganini eslatadi (o‘lchash uchun 6-8 stakan guruch olish maqsadga muvofiq. Ba’zi tarbiyachilar bolalarni 10 gacha sanash bo‘yicha ko‘proq mashq qildirish maqsadida 16 stakan olishni yaxshi ko‘radilar, 6-8 stakan guruch olinganda bolalar uzoq o‘lchashlar va qayta sanashlar bilan charchab qolmaydilar, biz aytgan malumotlarning hammasini ko‘rsatishga ulgurish mumkin bo‘ladi. Shundan keyin bolalar fishkalarini sanab chiqadilar va bizda qancha guruch bo‘lganini aytishadi.

Bu mashg‘ulot uchun guruch solingan va solinadigan idishlar shaffof bo‘lgani yaxshi, shunda bolalar bir idishda guruch kamayib, ikkinchisida ko‘payib borayotganini ayoniy ko‘rib turadilar, ya’ni shunday qilinganda bolalar butun o‘lchash texnologiyasining guvohi bo‘ladilar. Shu mashg‘ulot uchun ham shaffof stakanlar olish ma’quldir.

Endi, hamma guruch o‘lchanib, bolalar hamma stakanlar sonini aytganlaridan keyin, tarbiyachi istalgan natijaga bolalar qanday usul bilan erishganlarini aytishi kerak. Shu sababli tarbiyachi:

- “Bolalar biz sizlar bilan nimalar qildik?
- Biz sanadik.
- To‘g‘ri. Sanash uchun esa biz nimalar qildik?
- Biz stakanlarga guruch soldik va uni to‘kdik.
- Biz sizlar bilan guruchni o‘lchadik. Biz o‘lchadik va toharachamizda qancha guruch borligini bildik.

Endi guruch faqat stakanlar bilan o‘lchanmasligini [bolalar don (yorma) faqat stakanlarda o‘lchanadi, degan noto‘g‘ri tasavvur shakllanib qolmasligi uchun] ko‘rsatish payti keldi. Bolalarga piyolani ko‘rsating va “Guruchni piyola bilan o‘lchash mumkinmi?” – deb so‘rang. Bolalar javoblariga bog‘liqmas holda o‘lchash mumkinligini ko‘rsating, buning uchun tog‘arachadagi guruchdan ikkita piyolani to‘ldirib, ikkinchi tog‘arachaga ag‘daring.

- Endi taqsimchani ko‘rsating.
- Taqsimcha bilan guruch o‘lchash mumkinmi?

Odatda, bu savol bolalarda negadir anglashilmovchilik tugʻdiradi. Ularga taqsimcha bilan oʻlchab boʻlmasdek koʻrinadi, albatta. Taqsimcha bilan ham guruchni oʻlchash mumkinligini koʻrsating, ammo biz bu noqulay boʻlgani uchun taqsimchadan oʻlchov sifatida deyarli foydalanmaymiz. Shundan keyin qoshiqni (osh yoki choy qoshiqni, yoki ikkalasini ham koʻrsatish mumkin) koʻrsatib, undan guruchni oʻlchashda oʻlchov sifatida foydalanish mumkinligini namoyish qilish orqali bolalarga yuqoridagi savollarning oʻzini berish kerak. Bunda koʻp miqdordagi guruchni oʻlchashda qoshiqdan oʻlchov sifatida foydalanish noqulay ekanini koʻrsatish, tushuntirish kerak.

Shunday qilib, biz birinchi galda bolalarni guruchni har xil shartli oʻlchovlar yordamida oʻlchash bilan tanishtirdik. Bolalar nima qilganliklarini soʻzlar bilan “oʻlchashda”, “oʻlchab chiqishdi” deyilishini bilishdi. Endi bu buyumlarning hammasi (guruch, stakan, piyola, taqsimcha, qoshiq) stolda qolsin, siz esa bolalarga chiroyli uzun lentani koʻrsating va ulardan “Bu lentaning uzunligi qanday ekanini bilish uchun nima qilish kerak?”. “buni aniqlash uchun nima qilish, nimani sanash kerak?” – deb soʻrang.

Stolda turgan buyumlar va hozirgina bajarilgan ish bolalarga toʻgʻri javobni aytib beradi. Odatda, ular bunday deyishadi: “Oʻlchab chiqish kerak”, “Qanday qilib?” – deb soʻraydi tarbiyachi va stolda turgan buyumlarni koʻrsatadi. “Stakan bilan oʻlchash mumkinmi?” – “Yoʻq” – deb javob berishadi bolalar. “Bu bilanchi?” – deydi tarbiyachi va lentaning bir qismiga masalan, sakkizdan bir qismiga teng kartondan qilingan ingichka tasmachani koʻrsatadi. (Tarbiyachi guruchni ham, lentani ham oʻlchashda qanday kattalikni oʻlcham qilib olishni oldindan bolalar ishtirokisiz, belgilab qoʻyadi, bunda u oʻlcham oʻlchanayotgan narsada aniq, bir butun son marta boʻlishi kerakligini hisobga oladi).

Shundan keyin lentaning uzunligi boʻyicha doskaga gorizontal mahkamlab qoʻyish maqsadga muvofiq. Soʻngra biz guruch bilan qilgan operasiani takrorlash kerak, yaʼni bolalarga oʻlchovni butunicha qoʻyish, bunda oʻlchash natijasini fishka bilan belgilash kerak ekanini tushuntirish kerak (bu haqda bolalarga tushunarli soʻzlarda, masalan, guruch bilan yuqorida tavsiflangandek gapirish kerak). Karton tasmacha uchinchi marta qoʻyilganda doskaga boʻr bilan oʻlchov tamom boʻlgan joyini emas, balki undan beriroqni, yaʼni taxminan oʻlchovning yarmida chiziq bilan belgilab qoʻyib, bunga bolalarning eʼtiborini tortish kerak, vaqtidan oldin bajarib qoʻymoqchi boʻlgan shoshqaloqlarni toʻxtatish kerak. Shundan keyin toʻgʻri bajarish kerak. Shuningdek, oʻsha lentani

navbatdagi o'lchashlardan birida o'lchovdan ancha katta bo'lakni belgilash kerak, bunda yana bolalar e'tiborini shunga qaratish va shundan keyin qanday qilib to'g'ri bajarishni bolalar bilan aniqlab olish kerak. Natijada bolalarining stollarida buning o'lchov lenta uzunligiga necha marta butun joylashgan bo'lsa, shuncha fishka (sizning stolingizda esa shuncha kubcha) yotadi. Shundan keyin bolalar bilan lentaning uzunligini topish uchun nima qilganliklarini aniqlashtirish kerak. Biz o'lchadik va bu lenta uzunligida mana bunday karton tasmachalardan shuncha bor. Bolalarga boshqa o'lchovlarni ham ko'rsating: qog'oz tasma, faner tasmasi, qalam, o'lchanayotgan lentadan ancha qisqa lentacha. Bu buyumlar bilan lentani qanday o'lchashni ko'rsating.

Shundan keyin o'z stolingiz chetiga (yaxshi ko'rinib turadigan qilib) bolalar bilan bugun o'lchagan buyumlariningizning hammasini qo'ying. Qo'lingizga stakan va karton tasmachani oling. Bu buyumlar o'xshashmi, deb bolalardan so'rang. Bolalar ularga qarab, "yo'q" deyishlari mumkin, bu tushunarli. – "Shunday bo'lsa ham, - deydi tarbiyachi, - bu o'xshashmas buyumlar nimasi bilandir o'xshash. Nimasi bilan?" Agar bolalar javob berishmasa, o'zingiz javob bering: "Biz ular bilan o'lchadik. Biz piyola bilan ham, qalam bilan ham, karton tasmacha bilan ham o'lchadik. O'lchadik, o'lchab chiqdik". Gapirganda so'zning ildizi – o'lchashni ovoz bilan ajrating. Shundan keyin bolalarga ayting: "Agar men stakan haqida ham, piyola haqida ham, karton tasmacha haqida ham bular o'lchovlar desam, to'g'ri bo'ladimi, siz nima deb o'ylaysiz? To'g'ri, Bularning hammasi o'lchov, bu guruchni stakan, piyola, taqsimcha, qoshiq bilan o'lchadik. Bu lentani karton tasma, qog'oz tasmachi, faner tasmasi, qalam bilan o'lchadik".

Birinchi mashg'ulotda bolalarga berishi kerak bo'lgan asosiy masalalar mana shulardan iborat. Ularning mustaqil roli chegaralangan bo'ladi.

Shunday hollar ham bo'ladiki, donni yoki suvni birinchi marta o'lchash bolalarda qiyinchiliklar vujudga keltirishi mumkin. Stakan bilan o'lchanib, boshqa idishga solingan guruchni bolalar guruch uyumi (to'plami) deb tasavvur qilishadi. Shuning uchun ular "Bunda necha stakan guruch bor?" – degan savolga javob berishda qiynalishadi.

Birinchi mashg'ulotning ushbu variantini taklif qilish mumkin. Tarbiyachi toharachadagi guruchni stakanlarga soladi. Natijada bolalar oldida stolda guruch bilan to'ldirilgan va bo'shab qolgan toharacha bilan bir qatorda stakan paydo bo'ladi.

Bu holda o'lchash natijalarini fishka bilan belgilamaslik kerak, chunki bu holda sanoqdan adashib ketish qiyin, bolalar to'g'ridan – to'g'ri guruchli stakanlarni sanaydilar. Bu xil o'lchash ko'rsatilganidan keyin, biz yuqorida aytganimizdek, shartli o'lchov – bitta stakan bilan bo'lmasligi kerak. Yana bitta eslatma. Bolalar o'lchovning qanday to'la bo'lishini ko'rishlari va mashg'ulotda yanglishib qolmasligi uchun (bunda guruchni oltita stakanga solib emas, balki bitta stakanga solib o'lchanish holi nazarda tutilmoqda) tarbiyachi ikkita stakan oladi. Guruch bilan to'ldirilgan bitta stakan etalon uchun olinadi va butun o'lchash davomida stolda turadi.

Biz o'lchashga oid birinchi mashg'ulot haqida gapirib, dasturning miqdor va sanoq, shakl, fazo va vaqt bo'limlariga oid masalalar haqida to'xtalmadik. Bu dastur masalalarining bittasi yoki bir nechitasi mazkur mashg'ulot mazmuniga kiradimi? O'lchashga bag'ishlangan birinchi va ikkinchi mashg'ulotga dasturning boshqa masalalarini kiritmaslikni maslahat bermoqchimiz. Bolalarning e'tiborlarini tevarak –atrofning miqdori Tomonni bilishning yangi usulini –o'lchashni o'rganishga qarating.

Vaholanki, bu o'rinda mashg'ulotning tuzilishi haqida, bu jarayonning mufassalligiga berilmagan holda, ya'ni biz bitta mashg'ulotga oladigan dastur masalalarining miqdori haqida, ularning kombinasiyalari haqida, har bir mashg'ulotga o'yinni kiritish majburiy yoki majburiy emasligi haqida to'xtalmay turib so'zlash o'rinli. Gap boshqa haqla, ya'ni har qanday matematik mashg'ulot shunday tuzilmog'i kerakki, unda pedagog stoli yonida ishlash, topshiriqni tushuntirish, tarbiyachining ko'sratishlari bilan bir qatorda, albatta bolalarning mustaqil ishlashi, o'z stolida tarqatma materiallar bilan ishlash haqida bormoqla. Bu ikki qismiing (ya'ni tarbiyachining tushuntirishi va bolalarning mustaqil ishlari) solishtirma salmog'i har qaysi darsda har xil bo'ladi. Chunonchi, yuqorida tavsiflangan o'lchashga doir birinchi mashg'ulotda asosan tarbiyachi ishladi, bolalar uning o'lchash natijalarini fishkalar bilan qayd qilib bordilar. Bu hol o'zini oqladi. Ikkinchi mashg'ulotda biz eslatib o'tgan qismlarning solishtirma salmog'i keskin o'zgaradi. Endi asosan bajarib, ishlaydilar. Tarbiyachi ularning ishlarini nazorat qilib, so'z bilan, ko'rsatish bilan yordam beradi.

**Ikkinchi mashg'ulot.** Navbatdagi (uchinchi, to'rtinchi va b.) mashg'ulotlarni tavsiflashda bunday mufassal to'xtalmaymiz. Ikkinchi

mashg'ulot esa bolalarda o'lchash malakalarini tarkib toptirish uchun prinsipial jihatdan muhim.

Bolalarning stollarida har qaysi bola uchun yog'och idish (unda don bo'ladi), taqsimcha, ong qoshiq, cho'p (yoki fishkalar nabori) qo'yilgan bo'ladi. Tarbiyachi oldindan stakanlarga besh osh qoshiqdan don solib qo'yadi. Ammo bu haqda bolalarga indamaydi. Tarbiyachining stolida ham o'sha buyumlar turadi. Mashg'ulot toharachadagi, qog'oz xaltadagi don miqdorini qanday aniqlashni oydinlashtirishdan boshlanadi. Bolalar o'lchash haqida, o'lchov haqida eslaydilar. Tarbiyachi bir qoshiq donni qanday to'lalikka olishni ko'rsatadi. Shu maqsadda o'z idishidan ikki osh qoshiq don olinadi va cho'tning ikkita toshi surib qo'yiladi. Bolalar ham mustaqil o'lchanayotganlarida har bir qoshiq olinib. To'kilganidan keyin cho'tning bitta toshini surib qo'yishlari kerak bo'ladi. Tushuntirib va ko'rsatib bo'linganidan keyin bolalar ishlashga kirishmoqlari mumkin. Tarbiyachi bolalarning ishlarini kuzatib turadi, ammo har bir bolaga qoshiqni qanday to'ldirishni ko'rsatmaydi. U so'z bilangina eslatib turadi, ya'ni og'zaki eslatib turadi: "Esingizdami, men sizga qoshiqqa qancha don solishni ko'rsatgan edim, yana esingizdami, hamma qoshiqlarni bir xil to'ldirish kerakligini aytgan edim".

Bolalar dastlab xato qiladilar, adashadilar. O'lchash jarayoni ularni o'ziga javob qiladi, shu sababli ular o'lchash mazmuniga kiradigan hamma komponentga ham alohida e'tibor bermaydilar. Odatda ular qoshiqqa qancha guruch olinganidan qat'i nazar, qoshiqda qo'l bilan bajarilgan harakatlar miqdorini sanaydilar. Birinchi mashg'ulot uchun bu qayg'uli hol emas, chunki bu hol tarbiyachiga mashg'ulot natijalarini qarayotganda, ya'ni to'ri o'lchashning afzalligi eng ayoniy bo'lgan paytda bolalarning xatolariga e'tibor berish imkonini beradi. Keyingi hamma mashg'ulotlar davomida o'lchovning to'la bo'lishini kuzatib borish kerak. Bolalarning birinchi o'lchashlarida xato qilishlari turgan gap bo'lgan holda qiyin ahvoldan qanday chiqish kerak? Biz o'tkazgan mashg'ulotlardan misol keltiramiz.

Donni qanday o'lchash tushuntirilganidan keyin, bolalar ishlashga kirishadilar. Idishlardagi donni taqsimchaga to'kishadi, har gal natijani cho'tda belgilab borishadi. Mashg'ulot davomida o'lchovning to'la bo'lishi kerakligini bolalarga eslatib turdik, ammo hozircha eslatish ish boshlash uchun yo'llanma emas edi, shunga ko'ra bolalar cho't donalarini surishardi. Natijada Anvarda 5 dongina surildi, Samadda hatto 20 ta soqqa bo'ldi, boshqalarda ham anchagina soqqa surildi, Biz

Anvardan stakanida qancha don boriligini soʻradik, ammo u topgan natija boshqalarnikidan shunchalik kam ekanidan juda siqilib, javobni eshittirib aytishni xohlamadi va tarbiyachining oʻzigagina aytish uchun javob soʻradi. Boshqa bolalarning oʻlchash natijalarini oydinlashtirdik: kimda 7, kimda 13, kimda 26 chiqqanini soʻradik. “Endi esa, - dedi tarbiyachi, - men sizlarga sirni ochib beraman: har qaysi idishda besh qoshiqdangina don bor edi. Bittagina aniq javob bunday boʻlishi mumkin: “Mening stakanimda 5 qoshiq don bor”.

Anvar oʻrindan turib, baland tovush bilan aytdi: “Men toʻgʻri topdim, mening bokalimda 5 qoshiq don bor. Men buni oʻlchab bildim. Men qoshiqqa siz koʻrsatgandek, miqdorda don soldim”.

Endi, nega shunchaki har xil javob chiqqanini bolalarning oʻzlari qanchalik tushunganliklarini aniqlash muhim edi. Shu tufayli tarbiyachi bolalarga tegishli savollarni berdi, Mana ularning javoblari.

**Lola.** Saidda shuncha qoʻy chiqishining sababi, u qoshiqlarni toʻldirmay olabergan va choʻtda, qoshiqlarni donga toʻla, deb hisoblab, donalarni surabergan. Buning ustiga u noʻldagi guruchlarni ham terib olgan va taqsimchaga solgan, buni toʻla qoshiq, deb hisoblab donalarni surabergan.

**Gulnora.** Menda 7 qoshiq boʻldi, chunki men qoshiqni juda toʻldirib olishga qoʻrqdim va menga siz qancha olgan boʻlsangiz shuncha olgandek boʻlib tuyuldi, aslida esa men kamroq olgan ekanman, shu sababli menda olingan guruch miqdori 5 emas, ozgina koʻp – 7 qoshiq boʻldi. Shunday qilib, koʻrib turibmizki, bolalar faqat oʻrtoqlarining ishlarnigina emas, balki oʻzlari bajargan ishlarini ham tahlil qila olishar, sabab bogʻlanishlarini topa olar ekanlar.

Tarbiyachi mashgʻulot oxirida bolalar eʼtiborini yana oʻz stoliga qaratadi. Stolda suv solingan grafin turibdi. Suv sezilib turishi uchun unga ozgina rang berish maqsadga muvofiq. Grafin bilan stakan ham turadi. Tarbiyachi bolalarga suvni qanday oʻlchashni koʻrsatadi, tushuntiradi. Bu ish bajarilish texnikasiga koʻra, sochiluvchi jismlarni oʻlchashni eslatadi, shu sababli tarbiyachining oʻzi koʻp emas, ikki stakan oʻlchaydi, bolalar oʻz stollariga tegishli miqdorda fishka qoʻyadilar. Tarbiyachi qolgan suvni oʻlchash uchun bir qancha bolani bittadan (yoki ikkitadan) chaqiradi, qolgan bolalar oʻz stollariga fishkalar qoʻyish bilan oʻlchash natijalarini belgilaydilar.

Shu bilan ikkinchi mashgʻulot tamomlanishi mumkin. Nechta stakan olindi va aynan nechta yogʻoch idish olindi? Stakanlar yogʻoch boʻlishi shart emas plastmassa boʻlsa ham boʻlaveradi, ammo shaffof



bo'lmashligi kerak. Shisha stakan to'g'ri kelmaydi, chunki bolalar moddalar miqdorining bir xil sathda ekanligini ko'radilar va o'lchashni o'z idishlarining "javobiga to'g'rilash"ga harakat qiladilar, aslida esa, hammadan don sathi bir xil ekanini oldindan ko'rmasdan, har qaysi bola o'zi o'lchashni o'rganishi muhimdir. Nega stakanlar olinadi? Baland idishdan bolalar guruchni qoshiqqa oson oladilar, uncha sermehnat emas, bolalar e'tiborini o'lchashning barcha shartlarini bajargandagina jarayonning o'zida to'playdilar, ortiqcha qiyinchiliklarga uchramaydilar.

Bolalarning ko'nikmalari mustahkamlanib, avtomatlashgandan keyin suyuq yoki sochiluvchi moddalarni o'lchash mashg'ulotlarga kiritiladi, ana o'shanda yassi idishlar yordamida o'lchashlarni ham qarash mumkin bo'ladi.

Mashg'ulotlarda suyuqliklarni yoki sochiluvchi moddalarni o'lchashlarda bolalar e'tiborini shunga tortish kerakki, o'lchashning boshida suyuqlik yoki don ko'pligida stakan yoki qoshiq (umuman, biz nima bilan o'lchamoqchi bo'lsak, o'sha) ixtiyorsiz to'la bo'lishiga, o'lchashning oxirida esa, stakan yoki qoshiqni to'ldirish ancha mushkul bo'ladi, shu sababli ular yetarlicha bo'lmashliklariga qaratish kerak. Bolalar bu qiyinchilikni eslarida tutishlari va o'z ishlarida bir tekislikni, o'lchashning boshida ham, oxirida ham o'lchovlarning bir xilda to'la bo'lishlariga amal qilgan holda, saqlashlari muhimdir.

Bolalarni o'lchashga o'rgatishga ketma-ket 7-9 mashg'ulotni ajratish kerak. Shundan keyin mashg'ulotga dasturning boshqa masalalari davriy ravishda kiritib turiladi.

Bolalarni yana nimaga o'rgatish kerak? Ularni buyumlarning uzunligi va kengshligini o'lchashga o'rgatish kerak. Bunda ushbular o'lchanadigan buyumlar bo'lishi mumkin: har xil shakldagi va har xil rangdagi qog'oz varaqlari; bolalar va kattalar uchun stollar (bunda bolalar stolni o'lchaganda nafaqat uning uzunligini va kengligini. Balki balandligini ham o'lchaydilar); bular har xil uzunlikdagi lenta va arg'amchilar bo'lishi mumkin va h.k.

Har bir predmetning uzunligi va kengligi bir o'lchovning o'zi bilan o'lchanishi muhimdir, shunday bo'lganda bolalar o'lchash natijasida predmetning uzunligi kengligidan qancha ortiq ekanini ayta oladilar. Bu ma'lumotni aniqlashda ularga fishkalar ham yordam beradi.

Qog'oz varag'i uzunligini shartli o'lchov yordamida o'lchashda bolalar, masalan, ko'k doirachalarni, varaqning kengligini o'lchaganda qizil doirachalarni qo'yadilar. Shundan keyin ko'k doirachalarni ham, qizil doirachalarni ham sanashadi, qaysi doirachalar ko'pligini

aniqlashadi va tarbiyachining ushbu savoliga javob berishadi: “Nima uzun va qancha uzun?”.

Bolalar o‘lchashni yetarli darajada egallab olgunlaricha va sanoqda yanglishmaydigan bo‘lgunlariga qadar o‘lchash natijalarini belgilovchi fishkalar ishlatila beriladi.

Buyumlarning uzunliklari va kengliklarini o‘lchashni to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qog‘oz varag‘idan boshlash qulay. Bunda tarbiyachi oldindan kenglik va uzunlikni qoldiqsiz, aniq son marta joylashadigan o‘lchovni (masalan, karton tasmachani) tanlab qo‘yadi. “Qoldiq” qoladigan o‘lchashdan ham qo‘rqmaslik kerak, bu shunday o‘lchashni, masalan, o‘lchov 4 marta to‘la o‘lchanadi va yana ozgina o‘lchanmagan joy qoladi. Bolalar bunday holda qancha qolganini qo‘llarida yoki o‘lchov yordamida ko‘rsatishlari kerak. Ammo bu xil o‘lchashlarni bajarishga shoshilmaslik kerak.

Bolalarni buyumlarning uzunlik va kengliklarini har xil kattalikdagi o‘lchovlar bilan o‘lchash bo‘yicha mashq qildirish kerak. Bolalar qog‘oz varag‘i uzunligi va kengligini karton tasmacha bilan o‘lchab bo‘lganlaridan keyin va o‘lchov necha marta to‘la joylashganini aniqlab olganlaridan keyin, tarbiyachi bolalarga shartli o‘lchov sifatida oldingisidan ancha katta tasmani taklif qilishi kerak. Bolalar o‘sha qog‘oz varag‘ini o‘lchaydilar, o‘lchash natijasida mutlaqo boshqa, oldingilaridan ancha kichik sonlar hosil bo‘ladi. Nega? O‘lchanayotgan kattalik o‘zgarmagani holda sonlarning o‘lchov kattaligiga bog‘liqligiga, bu qonuniyatga bolalar e‘tiborini oddiygina qaratish emas, balki shunday tushuntirish muhimki, bu qonuniyatlar ular uchun tushunarli bo‘lsin. Bu bolalarni sistematik ravishda mustaqil mashq qilishlari natijasida tushunarli bo‘ladi. Bolalar har xil kattalikdagi o‘lchovlar bilan nafaqat qog‘oz varag‘i, stollar va boshqa narsalarni o‘lchashlari, balki, suvni, donlarni o‘lchashlari va har qanday holda ham varagmar o‘sha – o‘sha, don miqdori o‘zgarmay qolganiga, ammo bir holda o‘lchov masalan, besh marta joylashganiga, boshqa bir holda o‘n marta joylashganiga, uchinchi holda esa hammasi bo‘lib ikki marta joylashganiga va ularning hammasi o‘lchovlar har xil bo‘lganligi sabab ekaniga, o‘lchov qancha katta bo‘lsa, shuncha marta kam sonda joylashganiga, va aksincha, o‘lchov qancha kichik bo‘lsa, shuncha marta ko‘p son qadar joylashganiga ishonch hosil qilishlari kerak. Yana shuni ham namoyish qilish muhimki, idishdagi suyuqlikning balandligiga qarab, uning hajmi haqida fikr yuritish mumkin emas. Bizga suv ko‘pdek ko‘ringanda ham, haqiqiy holni bilib olish uchun har doim bir

xil o'lchov bilan o'lchash kerak. Buni bolalarga konkret (aniq) misollarda ko'rsating: tarbiyachining stolida ikkita yarim litrli bankada sut turibdi. Bolalar sutlarni qarab, bakalar ham bir xil, ulardagi sust ham teng ekaniga ishonch hosil qiladilar. Shundan keyin tarbiyachi bir bankadagi sutni baland va ingichka shishaga quyadi, ikkinchi bankadagi sutni esa keng kostryulkaga quyadi.

Ikkala idishdagi sut miqdori teng bo'lishiga qaramay, suyuqlik sathi tez o'zgardi.

Shunday qilib, bolalarni shartli o'lchov yordamida don va suyuqlik hajmini, buyumlarning uzunlik va kengliklarini o'lchashga o'rgatdik. Bu mashqlarning hammasini bajarish natijasida bolalar u yoki bu buyumning uzunligi qanday ekanini ko'z bilan chamalab aniqlab olishni o'rganishadi. Bu haqiqatda ham, shunday ekaniga ishonch hosil qilish uchun, tarbiyachi mashg'ulotlarning birida bolalarga lenta va qog'oz poloskani ko'rsatadi hamda bu qog'oz poloska lenta uzunligiga necha marta joylashishini ko'z bilan aniqlashni taklif qiladi. Bolalar u yoki bu soni ko'rsatishadi. Shundan keyin tarbiyachi lentani o'lchaydi, bolalar esa xato qilganliklari yoki qilmaganliklarini ko'rishadi. Agar mashqlar etarli bo'lgan bo'lsa, xatolar sodir bo'lmaydi. Bolalarga buyumlarning o'zini har xil kattalikdagi o'lchovlar bilan ko'zda chamalab o'lchashni mashq qildirish ma'qul, bunda har gal xuddi shu o'lchovni ko'z bilan chamalashni haqiqiy o'lchash bilan tekshirib turilishi kerak.

Taxminan yettinchi mashg'ulotdan boshlab, buyumlarni teng qismlarga qanday bo'lishni o'lchashdan foydalanib, bolalarga o'rgatish kerak.

Uch, besh, yettita teng qismga qanday bo'lish kerak? Juda oson. Bolalarga shartli o'lchov bilan o'lchashni o'rgatishda o'lchov buyumga (xususiyl holda qog'oz varag'iga) uch marta ham, besh marta ham, etti marta ham joylashish hollari bo'ldi, albatta. Bolalar varaqning uzunligi bo'yicha o'lchovni qo'yib borar ekanlar, har gal o'lchov tugagan joyga qalam bilan nuqta qo'yadilar, so'ngra shu nuqtadan o'lchovni yana qo'yadilar va h.k.

Biz qog'oz varag'ini buklab, shu bukilgan chiziq bo'yicha qirqib, uch, besh yoki yetti shuningdek, ikki, to'rt, olti, sakkiz va h.k. qismga ega bo'lamiz.

Har xil qismlarning kattaliklarini taqqoslash muhim. Bolalar ushbu savollarga qiziq – qiziq javoblar berishadi: “Sen nima deysan. Yettidan bir qism kattami yoki uchdan bir qismmi?”. Ko'pincha bunday javob berishadi: “Albatta, yettidan bir katta”. Biz bolalarga ko'rsatadigan va

bolalarning o‘zlari qog‘oz varaqlarini (bunda hamma varaqlar teng) uchta, beshta va ettita teng qismga bo‘lishga oid mashg‘ulotda biz bolalardan uchdan birni va yettidan birni ko‘rsatishni, qaysi varaq katta ekanini taqqoslab aytishni so‘raymiz. Bunda farq anchagina bo‘lsa ham, bolalar bunda xato qilmaydilar, ular uchdan bir yettidan birdan katta ekanini to‘g‘ri aniqlaydilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning olgan bilimlari o‘yinlarda va o‘yin –mashqlarda puxtalanadi. Masalan, “Qog‘irchoqni kiyintir” o‘yinida ularga qog‘irchoqning balandligini o‘lchash va rangli qog‘ozdan unga mos uzunlikda ko‘ylak bichish taklif qilinadi. Bolalarga kitoblarni yamash uchun tayyorlash topshirig‘ini berish mumkin. Ular qog‘oz varag‘i o‘lchovini olishadi. Bola varaqni o‘lchaydi va qancha zagotovka tayyorlash mumkinligini aytadi, shundan keyin ularni qirqadi.

#### **Nazorat ucun savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi har xil yoshdagi guruhlarda buyumlarning o‘lchami bilan tanishtirish (mashg‘ulotlardan qismlar ko‘rsatish).

2. Bolalarni kattalikni o‘lchashga o‘rgatish

3. Har xil yoshdagi guruhlarda bolalarni buyumarning o‘lchamlari bilan tanishtirish uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish.

4. Bolalar bog‘chasida mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun material tanlashga qo‘yiladigan talablar.

## **2.9. MTTda kichik va o‘rta guruhlarida predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish**


### **1. Bolalar bog‘chasida bolalarda geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarning shakllantirilishi.**

Matematika mashg‘ulotlarida bolalar eng sodda geometrik figuralar bilan, ularning ba’zi xossalari bilan tanishadilar, buyumlarni geometrik etalonlar bilan taqqoslash asosida ularning (buyumlarning) shaklini tahlil qilish va baholashni o‘rganadilar.

Bolalar asta –sekin shakl haqidagi umumiy tasavvur shakllanadi, bunday tasavvur maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi.

**Ikkinchi kichik guruh.** Uch yoshli kichkintoylar dumaloq buyumlarni va burchaklari bor buyumlarni farq qilishga, ya’ni buyumlarning shakllarini elementar tahlil qilishga o‘rgatiladi.

Qarash uchun geometrik shaklga ega bo'lgan, detallari yo'q oddiy shakldagi buyumlar tanlanadi. Buning uchun dastlab, har xil rangdagi, ammo bir xil shakldagi, bir xil buyumlardan, masalan? Uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi bayroqchalardan foydalanish maqsadga muvofiq, bu kichkintoylarga shakl a'lomatini ajratishga yordam beradi. Shundan keyin har xil rangli bir xil buyumlarni sodda



shakldagi istalgan buyumlar (koptok, ip koptok g'ildiraklar) ni berish mumkin.

Tarbiyachi bolalarga buyumlarning shakllarini payqash – harakat yo'li bilan, “shakl” so'ziga urg'u bergan holda tahlil qilishni o'rgatadi. U buyum konturi (tashqi ko'rinishi) ustidan qo'lini o'tkazib “dumaloq” (g'ildirak), - deydi.

Bolalarni birgalikda harakat qilishga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Kichkintoylar tarbiyachining qo'l harakatini kuzatib, xuddi shunday harakatni haqoda bajarishga “yordam” berishadi. Buyum konturi ustidan qo'l yoki ko'rsatkich barmoq aylantirib chiqiladi. Har galgi harakat buyum ustidan qo'lni tekkishib chiqish bilan tugaydi, shunday qilinmasa, shakl haqidagi tasavvur kontur chizig'i bilan bog'lanib qolishi mumkin.

Tarbiyachi bolalarda buyumlar konturini o'rab olish, ularni qo'l bilan qamrab olish, qo'lni sirt bo'yicha siypalab chiqish, buyumlarni dumalatish, ularni har xil holatga qo'yish istagini uyg'otadi. Natijada yumaloqlangan va burchakli buyumlarning xossalarini (turgun, turg'un emas va h.k.) topadilar.

“Shakli bo'yicha o'xshashlarini tanla” kabi o'yin mashqlardan foydalanish mumkin. Chaqirilgan bola o'z buyumini tekshirib chiqib, uni shu shakldagi buyumlar turgan stolga o'tkazib qo'yishi kerak. Keyinroq bolalar buni mustaqil bajaradilar, masalan, o'z stollari yonida o'tirgan hollarida har xil shakldagi buyumlarni ajratib qutilarga solishadi: bir qutiga dumaloq (doiraviy), ikkinchi qutiga burchakli (burchaklari bo'lgan) buyumlarni solishadi.

Ikkinchi kichik guruhda bolalar doira va kvadrat bilan tanishtiriladi. Buning uchun tarbiyachi dastlab har bir bolaga 2 tadan geometrik figura, masalan, qizil doira va yashil kvadrat beradi (tarbiyachining o'zida ham shular bo'ladi). Tarbiyachi bolalarga 2 ta figuradan bittasining nomini aytmagan holda ko'rsatadi va ulardan xuddi shunday figurani topish va ko'rsatishni so'raydi. So'ngra ikkinchi

figurani ko'rsatib, bolalardan o'z stollaridan xuddi shunday figurani topib ko'rsatishni so'raydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni geometrik figuralar bilan tanishtirish metodikasida buyumlarni payqash – harakat yo'li bilan tekshirish usullariga o'rgatish muhim ahamiyatga egayu buni qanday bajarishni tarbiyachi ko'rsatadi: u bolalarni birga ishlashga javob qilgan holda, buyum konturi ustidan bir necha marta ko'rsatkich barmog'ini yuritib chiqadi (bola har bir figura konturi ustidan qo'lini yuritib chiqadi). Bunda u figura nomini aytadi. Ikkinchi mashg'ulotda bolalar tarbiyachining har bir geometrik figura konturini hosil qilayotgan qo'l harakatini kuzatishadi. Shundan keyin o'zlari figura konturi bo'yicha barmoqlarini yuritib chiqib, uning nomini aytishadi. Bolalarni kontur ustidan barmoq yuritib chiqish bo'yicha mashq qildirish uchun 2-3 ta doira, kvadrat tasvirlangan kartochnalardan ham foydalanish mumkin.

O'z tarbiyalanuvchilarini **doira va kvadratni ajrata olish** bo'yicha bir necha marta mashq qildirib, tarbiyachi bolalarni figuralar bilan aktiv harakat qilishga (qo'lga olish, bir birining ustiga qo'yish, qator qilib qo'yish) chorlaydi. Bu bolaga geometrik figuralarning



qo'llari va shakllarini eslab qolishga yordam beradi.

Keyingi mashg'ulotlarda tarbiyachi o'zidagiga qaraganda kichik o'lchamdagi, ammo rangi bir xil bo'lgan doira va kvadratlarni beradi, so'ngra esa namunadan o'lchami ham, rangi ham farq qiladigan doira va kvadratlarni beradi.

Bolalarning doira va kvadrat haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash uchun (Doirani o'ng qo'lingga ol", "Kvadratni chap qo'lingga ol", "Qo'lingda turgan narsaning nomini ayt", "Hamma doiralarni yuqori poloskaga, hamma kvadratlarni pastki poloskaga qo'y" kabi topshiriqlardan, shuningdek "top –chi, haltada nima bor", "Juftini top", "O'z O'yingni top" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin.

Bunday topshiriqlarga mashg'ulotning bir qismini ajratish kerak, qolgan vaqtda esa doira va kvadratlardan ko'rsatish uchun xizmat qiladigan va tarqatma material sifatida foydalanib, buyumlar to'plamini yoki bitta buyumni topish, yoki yoniga qo'yish yo'li bilan buyumlar guruhlarini taqqoslash kabi mashqlarga bag'ishlash mumkin. Bolalarni buyumlarni ularning tasvirlari bilan mos keltirish bo'yicha ("Buyum va

uning tasviri”, “Bizning to‘lorqa” kabi o‘yinlarda) mashq qildirish ham foydali.

Oxirgi o‘yinda bolalar buyumning kontur va yassi tasviri orasidagi moslikni idrok qilishni mashq qiladilar. Buyumlar shaklini obstrakt geometrik figuralar bilan taqqoslash kichkintoylar uddalay oladigan ish. Bolalar geometrik figuralarni har qanday buyumni – koptokni, g‘ishtni va boshqa narsalarni qanday idrok qilsalar, shunday idrok qiladilar.

Binobarin, bolalar qurilish komplektlarida, mazaikalarda har xil geometrik figuralar bilan doimo har xil rangli va har xil o‘lchamli bo‘lishi mumkinligini tushuntiradi.

O‘rta guruhda tarbiyachi bolalarda **har xil shakldagi figuralarni idrok qilish tajribasini to‘plashni** davom ettiradi. Bolalar ikki – esh qismdan iborati sodda va murakkabroq shakldagi buyumlarni ko‘zdan kechirishadi va rasmlarini chizishadi, ularni loy va plastilindan yasashadi, bunda qismlarning shakli hozircha geometrik etalonga yaqin bo‘ladi (bular piyola, jo‘ja va boshqa narsalar bo‘lishi mumkin).

O‘rta guruhda tarbiyachi predmetlar shaklini sezish – harakat va ko‘rish bilan –tekshirishni tashkil qiladi. Tekshirish natijalari dumaloq (doiraviy), to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida kabi so‘zlar bilan mustahkamlanadi.

Bu guruhda “Buyum o‘zi haqida nima deydi?”, “Qismlariga ko‘ra buyumning o‘zini bil”, “Buyumlar donasi” kabi o‘yinlardan va shuningdek kubchalar, qirqma rasmlardan foydalanish mumkin.

Geometrik obrazlar haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni bolalar o‘yinlardan, mehnatdan, kundalik hayot (turmush) dan oladilar. Ular tarbiyachiga taqlid qilib, mozaikalar va qurilish materiallari komplektiga kiruvchi u yoki bu buyum nomini aytadilar. Ularning xossalari bilan amalda tanishadilar.

Matematika mashg‘ulotlarida sanoqqa o‘rgatish uchun doiralar, uchburchaklar va boshqa narsalardan ko‘rsatma material sifatida foydalaniladi. Bolalar figuralar miqdorini aniqlab, ularni aytishadi.

Mashg‘ulotlarda bolalarni doira, kvadrat, uchburchakning ba’zi belgilari bilan, keyinroq esa, to‘g‘ri to‘rtburchakning belgilari bilan tanishtirish, figuralar har xil o‘lchamli va har xil rangli bo‘lishini ko‘rsatish kerak.

Bolalar tarbiyachi bilan birga katta o‘lchamli (diametri 15sm) figuralarni qarashadi, kichik o‘lchamdagi xuddi shu figuralarni ko‘rsatishadi.

Bolalarga o‘z konvertlaridagi figuralarni ajratish va ular qanday ifguralar ekanini va qanchaligini aytish taklif qilinadi.

Tarbiyachining topshirig‘iga binoan, bolalar figuralarning kattaliklari bo‘yicha ortib va kamayib borish tartibida joylashtiradilar, har xil figuralarning miqdorlarini taqqoslab, qaysi figuralar kam, qaysi figuralarning miqdori barobar ekanini aniqlaydilar.

Birinchi mashg‘ulotda bolalarga figuralarning bir xil komplekti beriladi, keyingi mashg‘ulotlarda esa, har qaysi bola figuralarning shunday komplektini oladiki, unda figuralarning miqdori, rangi va o‘lchami har xil bo‘ladi.

Tarbiyachining ko‘rsatmasiga binoan, bolalar figuralarni ikki poloskali kartochkalarga shakli, rangi, kattaligi bo‘yicha joylashtiradilar, so‘ngra poloskalarining har qaysisidagi figuralar miqdorini taqqoslaydilar.

Shunday mashg‘ulotlar o‘tkaziladiki, ularda bolalar kvadratlar bilan to‘g‘ri to‘rtburchaklarni taqqoslaydilar va ularning ba‘zi xususiyatlari bilan tanishadilar. Masalan, tarbiyachi bolalarga kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak olishni, navbati bilan ularning konturlaridan barmoqlarini yuritib chiqishni va ular nimalari bilan farq qilishini o‘ylab ko‘rishni taklif qiladi. Bolalar kvadratni to‘g‘ri to‘rtburchak ustiga qo‘yib, figuralarni taqqoslashadi va to‘g‘ri to‘rtburchak uzun ekanini, u shunisi bilan kvadratdan farq qiliini ko‘rishadi.

Bolalar sanashni o‘rganib olishganidan keyin, ular tanish figuralarning elementlari bilan, ya‘ni tomonlari va burchaklarining mavjudligi hamda ularning miqdori bilan tanishtiriladi.

Tarbiyachi kvadratning bir uchidan ikkinchi uchigacha barmog‘ini yuritadi va bu kvadratning Tomoni ekanini aytadi. kvadratning hamma Tomoni ko‘rsatadi.

Shuni kuzatish kerakki, bolalar “burchak” so‘zini burchakning uchi bilan, ya‘ni burchakni hosil qiluvchi nurlar (Tomonlar) chiqadigan nuqta bilan bogmamasinlar. Shuning uchun burchak ko‘rsatilayotganda, qo‘lni burchak teksiligida bir tomondan ikkinchi Tomongacha surib borib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar o‘z kvadratlari va to‘g‘ri to‘rtburchaklarining tomonlarini topishadi, so‘ngra esa burchaklarini topishadi, kvadrat va to‘rtburchakning to‘rttadan burchagi va to‘rttadan Tomoni borligini aniqlashadi.



Navbatdagi mashgʻulotda ular uchburchaklarni ham xuddi shunday tekshirishadi va hamma uchburchakda uchtadan burchak va uchtadan Tomon borligini aniqlashadi.

Bunday mashqlarni bolalar figuralarni tekshirib, qoʻyilgan savolga javobni mustaqil izlab topa oladigan qilib tuzish kerak.

Geometrik shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash uchun tarbiyachi bolalarga oldin gugurt choʻplaridan figura tuzishni, soʻngra ornament hosil qilishni taklif qiladi.

Figuralarni farq qilish va aytish boʻyicha mashq qildirish uchun “Nima oʻzgardi?”, “Nima yoʻq boʻldi?” “Shaklar doʻlinosi”, “Xuddi shunday figurani koʻrsat” kabi didaktik va harakatli oʻyinlardan foydalaniladi. Masalan, tarbiyachida disk boʻlib, unga doira boʻylab har xil geometrik figuralar joylashtiriladi. U disk strelkasini surish bilan goh u figurani, goh bu figurani koʻrsatadi, bolalar esa, oʻz figuralari orasidan xuddi shunday figuralarni topishadi, koʻrsatishadi va nomini aytishadi.

“Oʻz uychangni top” oʻyinida polga chizilgan yoki chilvirdan tuzilgan doiralar, kvadratlar, uchburchaklar va boshqa figuralar uycha boʻlishi mumkin. Katta oʻlchamli figuralar shaklini aniqlash bolalarga qiyinlik qilishini hisobga olib, bunday oʻychalar oʻshchamlarini tobora kattalashtirib borish maqsadga muvofiq.

Individual mashqlar uchun “Juftini top”, “Kartochkaga mos figura tanla” va boshqa oʻyinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bolalar figuralarning rangli va kontur tasvirlarini mos qoʻyishadi, shaklga mos figura tanlashadi.

Yil oxirida bolalar sodda geometrik figuralarni nafaqat farq qilishadi va aytishadi, balki ularning baʼzi belgilari boʻyicha orientir oladigan boʻlishadi. Bolalarni buyumlar shaklini geometrik shakllar bilan taqqoslashga oʻrgatish mumkin. Shu maqsadda maxsus mashqlardan foydalaniladi. Masalan, tarbiyachi stolga geometrik figurani qoʻyadi, bolalar esa shu shakldagi buyumlarni tanlashlari kerak. Geometrik shakl – namuna figura ayrim bolalarga berilishi ham mumkin, ular shaklni va oʻzlari tanlagan buyumni koʻrsatishadi.

Mashqlarni “Xuddi shu shakldagi buyumni top”, “Men nimani aytsam, shuni top”, “Topshiriq” va boshqa oʻyinlar shaklida oʻtkazish maqsadga muvofiq. Tarbiyachi har qaysi shakldagi buyumdan ikki – uchtadan tanlaydi. Asta –sekin ularning miqdorini toʻrt – beshtaga yetkazish mumkin.

### **Nazorat ucun savol va topshiriqlar:**

1. Bolalarning (xususiy kuzatish materiallaridan foydalanib) buyumlarning shakli va geometrik figurani idrok qilish xususiyatlari.

2. Buyumlarning shakli va geometrik figuralar haqidagi bilimlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor va aqliy rivojlanishidagi ahamiyati.

3. Har xil yosh guruhlarida bolalarni buyumlarning shakllari va geometrik figuralar bilan tanishtirish masalalasining tahlili.

4. Bolalarni geometrik figuralarning shakllari bilan tanishtirish usullari.

5. Geometrik figuralarni har xil belgilar (alamatlar) bo'yicha guruhlash.

6. Geometrik figuralarni qayta tiklashga o'rgatish usullari

7. Har xil yosh guruhlarida bolalarni shakl bilan tanishtirish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish.


8. Geometrik figuralar va buyumlarning shakllari bilan tanishtirishga oid o'yinlar o'tkazish uchun didaktik materiallar tanlashga qo'yiladigan talablar.

### **2.10. MTTda katta va tayyorlov guruhlarida predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish**

**1. Katta guruh.** Katta guruhga kelguncha bolalarda etarlicha katta sensor tajriba to'plangan va shakllarni tekshirish ko'nikmasi takomillashgan bo'ladi. Tarbiyachi bolalarning geometrik figuralarning shakllari haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun o'rta guruh materialini takrorlagandan keyin, ularga atrofdagi buyumlardan doira. Uchburchak, kvadrat shaklini topishni o'rgatadi. Masalan, u tarelkaning tagi, stol ustining sirti, fortochka, qog'oz varag'i va boshqalar qanday geometrik figurani, eslatadi, deb so'raydi. Tarbiyachi "Loto" tipidagi o'yin tashkil qilishi mumkin. Bolalarga rasmlar (har biriga 3-4 tadan) beriladi, ular shu rasmlar orasidan tarbiyachi ko'rsatayotgan figuraga o'xshash figurani izlashlari kerak. Shundan keyin bola nima topganini aytadi va gapirib beradi.

Tarbiyachi yordamida bolalar geometrik figuralardan har xil naqshlar, o'zlariga tanish buyumlar uchburchaklardan gilam, kvadrat va doiralardan avtomobil, kvadratlar va chburchaklardan qayiq va boshqa narsalar tuzidilar.

Katta guruhda bolalar yangi tushuncha –“kvadrat” bilan tanishtiriladi. Bunda tarbiyachi bolalarda mavjud bo‘lgan kvadrat haqidagi tasavvurlardan foydalaniladi. Chunonchi, mashg‘ulotda bolalar har xil kattalik va rangdagi 5 ta kvadrat olishadi. Tarbiyachi bular nimasi bilan farq qilishini so‘raydi, ularni kattaliklari chapdan o‘ngga qarab kamayib boradigan tartibda joylashtirishni taklif qiladi. Bu figuralar nimasi bilan o‘xshashligini so‘raydi. Bolalar e‘tiborini har qaysi kvadratda qancha Tomon va qancha burchak borligiga qaratadi. Shundan keyin tarbiyachi uchburchakning nechta burchagi borligini eslashni taklif qiladi. Bolalarni bunday xulosaga keltiradi: 3 ta burchagi bo‘lgan figurani uchburchak deyiladi, agar figurada 4 ta burchak bo‘lsa, uni to‘rtburchak deb atash mumkin. O‘zlarida nechta uchburchak va nechta to‘rtburchak borligini so‘raydi. Navbatdagi mashg‘ulotda bolalar ikki xil to‘rtburchak –kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak oladilar; ikkala figurani taqqoslaydilar, ular nimalari bilan o‘xshash, nimalari bilan farq qilishini aniqlashadi. So‘ngra tarbiyachi bolalarning bilimlarini mustahkamlash uun ularga qog‘ozga har xil to‘rtburchaklar chizishni; qog‘ozga hamma tomoni teng to‘rtburchak chizishni va ular nima deb atalishini aytishni; ikkitadan Tomoni teng to‘rtburchak chizishni; cho‘plardan har xil to‘rtburchaklar tuzishni; to‘rtburchak shaklidagi



buyuchlarni topish va aytishni; № 2 ta teng uchburchakdan, 4 ta teng kvadratdan to‘rtburchak tuzishni taklif qiladi.

Bolalar geometrik figuralarning shakllarini bilganliklari uchun ular bilan qiyinlik darajasi har xil bo‘lgan, masalan, “Tavsifi bo‘yicha top”, “Har qaysi figurani o‘z joyiga qo‘y”, “Shakli bo‘yicha tanla” kabi didaktik o‘yinlarni o‘tkazish mumkin.

Bolalarni geometrik figuralar bilan tanishtirish uchun bir nechta mashg‘ulot ajratiladi. Ularning mavzusi: oval bilan doirani, to‘g‘ri to‘rtburchak bilan kvadratni va nihoyat, uchburchaklar bilan to‘rtburchaklarni taqqoslashga oid bo‘ladi.

Mashg‘ulotlarni bunday tuzish mumkin. Mashg‘ulotning birinchi qismida geometrik figuralar qaraladi, tekshiriladi va taqqoslanadi. Mashg‘ulotning ikkinchi qismida shakllarning xossalari va belgilari haqidagi bilimlarni taqqoslashga doir har xil mashqlar o‘tkaziladi. Nihoyat, uchinchi qismda bolalarga buyumlarning shaklini shaklning geometrik etaloni bilan taqqoslash o‘rgatiladi.

Mashg'ulotning birinchi qismida tarbiyachi bolalarning geometrik figuralar bilan bajaradigan tekshirish ishlari sistemasini tashkil qiladi. Tarbiyachi ketma- ket savollar qo'yadi, bolalarning e'tiborini shakllarning xususiyatlari va xossalriga, o'xshashlik va farq qilish belgilariga qaratadi, ishlash usullarini aytib, bolalarning javoblarini aniqlashtiradi. Masalan, bolalarni oval bilan tanishtirishda tarbiyachi ovaldan barmoqni yuritib chiqishni taklif qiladi, bolalardan u qanday figurani eslatishini so'raydi. Bunda tarbiyachi doirada va ovalda burchaklar yo'q ekanini, ular dumaloq uzluksiz chiziqdan hosil bo'lganini ta'kidlaydi, bolalardan figurani stolda dumalatishni, atrofidan barmoqni yuritib chiqishni taklif qiladi.

Oval doiradan nimasi bilan farq qilishini ko'rsatish uchun tarbiyachi ovalni doira ustiga qo'yishni, so'ngra doirani ovalning ustiga qo'yishni, doira o'rtasini topishni va unga nuqta qo'yishni hamda doira har xil tomonga – yuqoriga, chapga, o'ngga bir xil kengayishi yoki kengaymasligini qarashni maslahat beradi. Oval bilan ham xuddi shunday ish bajariladi. Bolalar odatda doira bor xil, oval esa uzoqroq, cho'ziqroq kengayishini ta'kidlab, to'g'ri xulosa chiqarishadi.

Kvadrat bilan to'g'ri to'rtburchakni taqqoslashda tarbiyachi bolalarga ketma –ket savollar beradi; o'xshashlik va farq qilish alomatlarini topishda bolalarga yordam beradi. Bu boradagi suhbat quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

**Tarbiyachi:** Bu figuralar nima deb ataladi?

**Bolalar:** Kvadrat va to'g'ri to'rtburchak.

**Tarbiyachi:** Biz kvadrat bilan to'g'ri to'rtburchakni taqqoslab, ular nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qilishini bilib olamiz. Kvadrat oling va undan barmoq yuritib chiqing. Kvadratda nimalar bor? (bolalar kvadratning tomonlari va burchaklarini topishadi va ko'rsatishadi).

**Tarbiyachi:** To'g'ri to'rtburchakda nimalar bor? Kvadratda va to'g'ri to'rtburchakda nechtdan tomon va nechtdan burchak bor? (Tomon va burchaklarni sanab chiqish o'arurligi aniqlanadi).

- Kvadrat va to'g'ri to'rtburchakda burchaklar soni tengmi?
- Kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchak va tomonlarining soni haqida nima deyish mumkin?
- Kvadrat tomonlarining kattaligi haqida nima deyish mumkin? Qanday tekshirish mumkin.


**2. Hajmli geometrik shakllar** bilan tanishtirishda bolalar har xil tekshirish harakatlari sistemalaridan foydalanishadi: kontur bo'ylab

barmoqlarini yuritib chiqadilar, ularning sirtlarini qo'llari bilan silab chiqadilar, asosni tavsiflaydilar, yoqlarni sanaydilar, ularning kattaliklarini taqqoslaydilar, bunda bevosita taqqoslash usulidan foydalanadilar.

Masalan, tarbiyachi bolalar bilan birga shar, silindrni tekshiradi. U bolalardan sharni, silindrni dumalatishni so'raydi, so'ngra ularni to'xtatib, tushuntiradi: sharga ozgina tegishing bilan, u dumalaydi, shar juda turg'un emas, silindr esa dumalashi ham, turishi ham mumkin.

Tarbiyachi qog'oz varag'iga silindrni qo'yib, qalam aylantirib chiqishni taklif qiladi. Chizilgan doiracha bilan silindr asosi orasidagi bog'lanish o'rnatiladi. Bolalar silindrning asosi bo'ylab barmoqlarini yuritib chiqadilar. Ular "uning tagi doira" deyishadi.

Har xil mashqlar bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash va aniqlash imkonini beradi. Masalan, bolalarga plastilindan kub, silindr, shar yasashni, qog'ozdan kvadratlar, to'g'ri to'rtburchaklar va uchburchaklar qirqish, figurani ikki va to'rt qismga bo'lishni, va aksincha, qismlardan butun tuzish, bir xil figuralardan boshqa figuralar tuzishni (ikkita kvadratdan to'g'ri to'rtburchak tuzish va b.), cho'plardan u yoki bu figurani yasashni taklif qilish mumkin. Chunonchi, tarbiyachi bolalarga cho'plardan uchburchak (to'g'ri to'rtburchak) tuzish va unga nechta cho'p ketganini gapirib berishni taklif qiladi va uchta, oltita cho'pdan qanday figura tuzish mumkinligini o'ylab ko'rishni so'raydi va h.k.



Bolalar geometrik figuralarning har xil alomatlariga ko'ra, ya'ni shakli, rangi, kattaligi bo'yicha guruhlariga ajratadilar, ularni kattaliklarining kamayib borishi yoki o'chib borishi tartibida joylashtiradilar.

Bolalarga shakli yoki rangi boqyicha o'xshash figuralarni tanlashda ularga nechta guruh hosil bo'lishini o'ylab ko'rishni taklif qilish, so'ngra amaliy ishlarni bajarish foydalidir. Muhimi, bolalar u yoki bu topshiriqni bajarib, nima qilganliklari va natijada nima hosil bo'lganini, ya'ni u yoki bu guruhga qancha va qanday figuralar kirganini gapirib berishlari shart.

Bolalarga u yoki bu figurani tavsifi bo'yicha topishni yoki "Paypaslab bil" kabi o'yinlarda figurani mustaqil tavsiflashni taklif qilish mumkin.

Mashg'ulotlarda va kundalik turmushda didaktik o'yinlar o'tkaziladi. Masalan, "Har qaysi figurani o'z o'rniga qo'y" o'yini geometrik figuralarning bir qator alomatlariga ko'ra o'zgarishini, jumladan, proporsiyalar bo'yicha, kattaliklari bo'yicha o'zgarishini ko'rsatish imkonini beradi.

Bolalarga buyumlarning shaklini shaklning geometrik etaloni bilan taqqoslash asosida aniqlashni o'rgatishga katta ahamiyat beriladi.

O'yin va mashqlar uchun o'yinchoq qushcha, matryoshka va boshqa narsalar tanlanadi.

Buyum shaklini baholab, bolalar uning biror geometrik obrazga o'xshashliklarinigina emas, balki undan farqlarini topishlari ham muhimdir. Tajriba bolalarga bu juda qiynlik qilishini ko'rsatmoqda.

Buyumlarning o'zlari bilan bir qatorda bolalar ular tasvirlangan rasmlarni tanlaydilar. Ular oddiy geometrik obraz bo'yicha, keyinroq esa og'zaki ishlaydilar:

-to'g'ri to'rtburchak tomonlarining kattaliklari haqida nima deyish mumkin? Qanday tekshirish mumkin?

Har xil usullardan foydalanish mumkinligi aniqlanadi: figurani teng ikki buklab, oldin qarama – qarshi tomonlarni, so'ngra burchaklarni (burchakni burchak bilan) ustma – ust tushurish mumkin, tomonlarni qog'oz poloska bilan o'lchash ham mumkin.



Oxirida tarbiyachi so'radi: "Kvadrat nimasi bilan to'g'ri to'rtburchakka o'xshaydi?"

Bolalarni doira bilan ovalni, kvadrat bilan to'g'ri to'rtburchakni taqqoslashga o'rgatishda bu figuralar har xil o'lchamda, rangda, har xil fazoviy joylanishda tasvirlangan jadvallardan foydalaniladi. Bolalar qog'oz, karton, faner, plastilindan tayyorlangan figuralar bilan ishlaydilar.

Kundalik hayotda, loy va plastilindan narsalar yasash mashg'ulotlarida bolalar, ular istasalar ham, istamasalar ham, hajmli geometrik figuralar (shar, kub, silindr) bilan uchrashadilar. Tarbiyachi bolalar bu figuralarni yaxshilab o'zlashtirishlariga yordam berishi mumkin. Ushbu o'yinlar o'tkaziladi: "Xaltachadagi nima?", "Top va jim tur", "Xonamizdan sharga o'xshagan predmetlarni top", "Kim dumaloq

jismlarni ko‘p aytadi?”, Bolalar “Geometrik loto”, “Yettitasi qatorasiga” va boshqa stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘ynashadi. Bu o‘yinlar jarayonida tuzilishi bo‘yicha yaqin figuralarni ham (oval – doira), hajmli va yassi shakldagi figuralarni ham (oval – doira), hajmli va yassi shakldagi figuralarni ham (shar – doira, kub – kvadrat) farq qila olish malakalari takomillashtiriladi, shakl bo‘yicha orientir olish tezligi hosil qilinadi, atrof – borliqdagi shakllar ko‘p xilligigiga nisbatan bolalarning qiziqishlari rivojlantiriladi.

**3. Maktabga tayyorlov guruhi.** Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarning shakl haqidagi bilimlar mustahkamlanadi va sistemaga solinadi. Bolalar maktabga borgunlariga qadar quyidagi geometrik shakllarni farq qilish, nomlarini aytish, asosiy xossalari va belgilarini bilishlari kerak: doira, oval, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat, uchburchak, to‘rt burchak, shar, kub va silindr. Bu shakllarni bolalar rangi, kattaligi, proporsiyasi, u yoki bu figuralarning fazoviy holatlaridan qat’i nazar, bilishlari, hayotiy buyumlardan o‘zlariga tanish shakllarni topa olishlari kerak. Bu ishga, odatda, mashg‘ulotlarning bir qismi ajratiladi.

Mashg‘ulotlarda shu maqsadlarda o‘yinlar o‘tkaziladi, bu o‘yinlarning shartiga ko‘ra, bolalar atrofdagi buyumlardan o‘zlariga tanish geometrik shakllarni topishadi. Masalan, tarbiyachi kvadrat shaklidagi buyumlarni aytishni taklif qiladi. Buyumni to‘g‘ri topib, uning shakli haqida gapirib bergan har qaysi bola bittadan fishka oladi. Ko‘p buyum aytgan (ko‘p fishka to‘plagan) bola yutib chiqadi. Tarbiyachi buyumni ko‘rsatmasdan, uning taviri tushirilgan kartochnikani ko‘rsatishi mumkin.

Bolalar olgan bilimlarni sistemaga solish, ularga ba’zi buyumlar orasidagi munosabatlarni tushunib olishda yordam berish muhim vazifalardan biridir.

Bolalarni to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat modellaridan foydalanib, “to‘rtburchak” tushunchasi bilan tanishtirilgan. Endi, ularga to‘g‘ri to‘rtburchak 4 ta burchagi va 4 ta Tomoni bo‘lgan figura ekanini tushuntirish qoladi. Bolalarga bir nechta topshiriq berish mumkin, ya’ni ular to‘rtburchak shaklidagi qanday buyumlarni bilishlarini, rasmda tasvirlangan buyumlar shaklini aytishlarini so‘ray va shu kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Bolalarga bu figuralarni farq qilishnigina emas, balki ularni tiklay olishni ham o‘rgatish kerak. Masalan, tarbiyachi bolalarga kattakli qog‘ozga tomonlari 4 tadan kattakka teng kvadrat chizishni tavsiya qiladi. So‘ngra tomonlari oldingisidan 2 ta kattak ortiq bo‘lgan kvadrat

chizishni, ustki va pastki asoslari 4 tadan kattakka, chap va o'ng tomonlari 2 tadan kattakka teng to'g'ri to'rtburcha chizishni taklif qiladi. Topshiriqni bajarishganidan keyin bolalardan qanday figurani tasvirlaganlarini so'rash kerak.

Tarbiyachi bolalarga bunday topshiriq berishi mumkin: tomonlari teng (har biri 4 kattakdan) to'rtburchak chizing, uni ikkita figuraga ajrating (ajratishni chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qaratib bajarish mumkin) va qanday ifguralar hosil bo'lganini ayting. Keyingi mashg'ulotlarga bolalarga rasmi chizilgan kvadratni "burchagidan burchagiga" bo'yicha bo'lish vahosil bo'lgan figuralarni aytishni taklif qilish maqsadga muvofiq. U holda ham, bu holda ham bolalar figuralardan biri (to'rtburchak, uchburchak)ni rangli qalam bilan bo'yashlari mumkin.

Bu xil mashqlar bolalarni geometrik figuralarning shaklini almashtirishga doir mashqlarni bajarishga (2-4 ta doira qismidan butun doira yasash (tuzish); oldin 2ta, keyin 4 ta uchburchakdan to'rtburchak tuzish va h.k.) zamin tayyorlaydi.

Uchburchaklar va to'rtburchaklar haqidagi bilimlar asosida tarbiyachi yangi tushuncha – "ko'pburchak" tushunchasini kiritadi. Har xil turdagi uchburchaklar, kattaligi va fazodagi o'rni bo'yicha har xil bo'lgan to'rtburchak modellarini ko'rsatadi. Figuralarni qarab, ularning nimasi umumiy, degan savolga javob berishga harakat qilishni taklif qiladi. Bolalarning diqqatlarini uchburchaklar va to'rtburchaklarning Tomonlari va burchaklari borligiga qaratish kerak. Shundan keyin bu figuralarning har birida qanchadan burchak borligini, bu figuralarni bir so'z bilan qanday atash (ko'pburchaklar) mumkinligini so'rash kerak.

Bolalarni mashq qildirish uchun quyidagidek topshiriqlardan foydalanish kerak: "Bir xil o'lchamdagi 10 ta cho'pdan bir nechta ko'pburchak tuzing". "Kattakli daftarga har xil o'lchamli va rangli ko'pburchaklar chizing".

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni buyumlarni shakli bo'yicha guruhlashga doir mashq qildirish maqsadga muvofiq. Masalan, oldin bolalar buyumlarni 2 ta guruhga, ya'ni yumaloq shakldagi figuralar va ko'pburchaklar guruhlariga bo'lishadi. Shundan keyin ko'pburchaklar ichidan to'rtburchaklar va uchburchaklarni ajratishadi. Nihoyat, to'rtburchaklar orasidan kvadratlarni topishadi.

Quyidagidek mashqlar o'tkazish foydali: "Top-chi, qatorida qaysi figura ortiqcha?", "Qaysi figura etmaydi?", "Huddi shunday shakldagi figurani top" va h.k.



Tarbiyachi bolalarni sodda masalalar – bosh qotirg'ichlar (cho'plardan har xil geometrik figuralar tuzish) bilan tanishtirish mumkin. Masalan, 7 ta cho'pdan 2 ta kvadrat tuz, 6 ta cho'pdan to'g'ri to'rtburchak tuz; 7 ta cho'pdan 3 ta uchburchak tuz; 6 ta cho'pdan 2 ta uchburchak va 1 ta kvadrat tuzish mumkinmi? Bu mashqlar bolaning topqirligini, xotirasini, tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi.

Butun ish ma'lum izchillikda tuzilishi kerakligi tushunarli.

O'quv yili boshida tarbiyachi bolalarning shakl haqidagi bilimlari darajasini aniqlaydi.

Katta guruhda foydalanilgan usullarning o'z bilimlariga kamchiliklarni to'ldirishga yordam beradi. Geometrik figuralar haqidagi bilimlarni mustahkamlash va aniqlash, shuningdek, bolalarni kattaklar bo'yicha o'lchashga mashq qildirish uchun kattakli qog'ozda kvadratlar, to'g'ri to'rtburchaklar, doiralar, ovallar chizish bo'yicha mashqlar o'tkaziladi.

Geometrik figuralar, shuningdek, sodda shakldagi buyumlar (bayroqchalar, olxo'rilar, olmalar va h.k)ning rasmini chizishga matematikadan 10-12 ta mashg'ulot ajratiladi.

U yoki bu figura rasmini chizgandan, keyin, bolalar ularni ikki yoki to'rt qismga bo'ladilar, bunda ular figuralarning qarama –qarshi tomonlari yoki burchaklarini to'g'ri chiziq bilan birlashtiradilar va nima hosil bo'lganini gapirib beradilar.

Bolalar tarbiyachining topshiriig'iga ko'ra, har xil yo'nalishda ma'lum miqdorda kattaklarni sanab, nuqta qo'yishlari va bu nuqtalarni o'zaro birlashtirib, u yoki bu figurani hosil qilishlari mumkin.

Tayyorlov guruhida har xil alomatlariga ko'ra, ya'ni rangi, shakli, kattaligi va miqdoriga ko'ra buyumlarni guruhlarga ajratishga doir mashqlariga keng o'rni beriladi. Bolalarga figuralarning to'rtta – beshtadan har xil ko'rinishlari, uch – to'rt xil rangda ikkitadan beshtagacha xil o'lchamlarda beriladi. Ular bu figuralarning rangi va o'lchamiga e'tibor bermay, o'lcham alo'lati bo'yicha guruhlaydilar.

Tarbiyachi dastlab bolalarga figuralarning belgilarini aniqlashda yordam beradi, keyinchalik esa, ularning o'zlari figuralarning qanday belgilari bo'yicha guruhlarga bo'lish, nechta guruh hosil bo'lishi, u yoki bu guruhga nechta figura kirishi kabi masalalarni mustaqil hal qiladilar, ya'ni oldin ishlarni rejalashtirishadi, keyin esa bajarishadi.

Bolalar figuralarni guruhlashda bitta belgi bo'yicha mo'ljal olib, boshqa belgilarga e'tibor bermaydilar.

Guruhlashga doir mashqlar oʻtkaganda bolalarning figura haqidagi bilimlarini sistemalashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, oldin figuralarni guruhga ajratish, soʻngra yumaloq figuralar orasidan toʻrtburchaklar va uchburchaklarni ajratish kerak. Nihoyat, toʻrtburchaklar orasidan toʻgʻri toʻrtburchaklar va kvadratlarni topish kerak.

Bolalar ayrim shakllar orasida bogʻlanishlar oʻrnatadilar: figuralar juftini tanlashga doir mashqlar shu maqsadga xizmat qiladi, uchburchaklar, toʻrtburchaklar va h.k. har xil rang va oʻlchamdagi, ammo bir xil proporsiyadagi figuralar, masalan, teng yonli uchburchaklar juft tashkil qiladi. Bolalar har xil proporsiyadagi bir jinsli figuralarni taqqoslashadi.

Bolalarga mantiqiy mashqlarni taklif qilish foydali, masalan, “Topingchi, qatorda qaysi figuralar ortiqcha?”, “Figuralarni tanlashda qanday xato qilishgan?” (Qator qilib qoʻyilgan 6 ta uchburchak orasiga bitta toʻrtburchak qoʻyilgan va h.k.), “Qanday figura etishmaydi?” (uch-toʻrt xil oʻlchamdagi uchburchaklar, ovallar, toʻrtburchaklar qatorlarga joylashtirilgan, har qaysi qatorga buyumlar kattaliklari kichiklashib boradigan tartibda joylashtirilgan, bir qatorda bitta figura etmaydi).

Bir guruhdagi figuralarning ikkinchi guruhdagi figuralardan farq qilish alomatlarini topishga doir masalalar uchburchaklar, toʻrtburchaklar va boshqa figuralar haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash imkoinin beradi. Doiralalar va ovallar, uchburchaklar va toʻrtburchaklar tasvirlangan juftlashgan jadvallardan foydalanish mumkin, figuralar ikki – uch xil oʻlchamda va rangda berilgan.

Tayyorlov guruhi dasturida geometrik figuralar koʻrinishini oʻzgartirish, bir xil figuralardan boshqa xil figuralar tuzish nazarda tutilgan.

Tarbiyachi bolalarga oʻz ixtiyorlaridagi figuralarni qarashni, ularni shakl boʻyicha taqsimlash, ular qanday atalishini va qanday kattalikda ekanini aytishni taklif qiladi. Soʻngra esa, qandaydir ikki uchta figura olib, ularni birlashtirish yoʻli bilan qanday yangi figura tuzish mumkinligini oʻylab koʻrishni taklif qiladi. Bolalar figuralarni tuzganlaridan keyin, qanday yangi figuralar hosil boʻlganini va ular qanday figuralardan tuzilganligini gaprib berishni taklif qiladi.

Bolalar qismlardan butun figuralar tuzib, ikkita yarimta, 4 ta yarimta, sakkizdan bir qismdan, doiraning toʻrtidan biriga teng qismlay va h.k. dan nechta doira tuzish mumkinligini fahmlaydilar.

Maktab yoshidagi katta bolalar bilan ishlashda geometrik mazmunli qiziqarli o‘yin va mashqlar katta foyda keltiradi. Ular matematik bilimlarga qiziqishni rivojlantiradi, bolalarning aqliy qobiliyatlarining o‘shiga yordam beradi.

Bolalar topqirlikka doir masalalari, “boshqotirmalar”, yasashga doir masalalarni yechadilar, masalan, bir figura yoniga ikkinchi figurani yasash yo‘li bilan bolalar 7 ta cho‘pdan ikkita kvadrat tuzadilar. U yoki burasm –applikasiyani (xo‘roz va b.) tuzishda nechta doira, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchakdan foydalanilganini aniqlashadi. U yoki bu rasm, yoki naqsh qanday figuralardan tuzilganini topadilar (fahmlaydilar), ular nechta ekanini ko‘radilar.

“Tangram” (geometrik konstruktor) o‘yinida murakkab figuralar, ya’ni “quyoncha”, “Turnalar”, “xo‘rozcha” va boshqa narsalarni bolalar yettita sodda figuralardan yasaydilar.

Tarbiyachi bolalarni masalaning yechilish yo‘llarini ongli izlashga o‘rgatadi, ularga o‘ylab ko‘rish, fahmlash, so‘zlab berish, so‘ngra o‘z echimini tekshirishni taklif qiladi. Masalan, tarbiyachi bunday deydi: “Bu figuraga qarang, u bizga nimani eslatadi? Ha, bu xuddi xo‘rozchadek. Bu xo‘rozni “Tangram” o‘yining ettita figurasidan tuzish kerak. Qarang, u qanday qismlardan iborat, har qaysi qism qanday figuralardan tuzilgan, ular qanday kattalikda va qanday joylashgan. Siz “xo‘rozcha” figurasini qanday tuzishingizni gapirib bering. Agar dastlab tarbiyachi figuralarni bolalar bilan birgalikda qarasa, keyinchalik ularga tahlil rejasini beradi, shundan keyin esa ularni mustaqil tahlil qilishga o‘rgatadi.

Dastlabki ikkita uchta figurani (murakkab figurani) bolalar namunaga qarab tuzadilar, namunada har qaysi figuraning chegarasi aniq belgilangan, keyinroq esa figuraning umumiy konturi tushirilgan namunaga amal qiladilar.

Shundan keyin bolalar qanday buyumlarni o‘yinning yettita figurasidan foydalanib, tasvirlash mumkinligini o‘zlari o‘ylab topadilar.

Shuni esda saqlash muhimki, bolalarning amaliy harakatlaridan oldin masala yechimining borishini aqalli oddiygina o‘ylab ko‘rilsagina, o‘yinlar qiziqarli bo‘ladi.

Masalalar yechish jarayonida bolalarni noto‘g‘ri tanlangan echish yo‘lidan. “Bo‘lmadi, o‘ylab ko‘rchi, boshqacha qanday qilish mumkin, deb voz kechishga o‘rgatib, ular tafakkurini rivojlantiradi. Alohida qiyinchiliklar bo‘lgan holda yechimning bir qsimini aytib beradi, to‘g‘ri

topilgan echimni ragʻbatlantiradi: “Bu choʻpni sen toʻgʻri olding, oʻylab koʻrchi, yana qaysi choʻpni olish kerak”.

Tarbiyachi bolalarning mustaqilliklarini rivojlantiradi, masalani oʻzing yechsang, oʻshanda qiziqarli boʻladi, deb ularni ishontiradi. Maslalani yechishga bolalarning kuchlari yetadigan boʻlishi kerak, boʻlmasa, bolalarda ishtiyoq yoʻqoladi. Shu sababli qiziqarli masalalar bolalar dasturda nazarda tutilgan shakl haqidagi bilimlarni oʻzlashtirib olganlaridan keyin, shaklni toʻgʻri aytibgina qolmay, balki uni qayta tiklay oladigan, shaklini almashtira oladigan, hayotiy buyumlardan oʻzlariga tanish geometrik figuralarni topa oladigan boʻlganlaridagina beriladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Katta guruhlarda qanday shakldagi predmetlar haqida tasavvurlar shakllantiriladi?
2. Tayyorlov guruhlarda qanday shakldagi predmetlar haqida tasavvurlar shakllantiriladi?

### **1.11. Bolalarda fazoviy tasavvurlarini shakllantirish**

**1. Fazoda moʻljol olish tushunchasining mazmuni.** Insonning fazoda moʻljol olish muammosi keng va koʻp qirrali. Fazoda farqlash va fazoni idrok qilish, fazoviy tasavvurlar va har xil fazoviy munosabatlarni, masalan, obektlarning shakli, oʻlchami, fazoviy yoʻnalishlari, fazoda joylashgan oʻrni, hajmi, boʻyicha, eni, balandliklari kabi masofalarining hammasi har xil fazoviy kategoriyalardir. Ularni idrok qilish va ular haqidagi tasavvurlar fazoviy idrok tasavvur qilishdir.

Professor V.S.Sverdlovning tavsifi boʻyicha, fazoda moʻljol olish fazoviy idrok va tasavvurlarning amaliy ifodasidir. Fazoda moʻljol olish fazoni bevosita idrok qilish va aytib oʻtilgan kategoriyalarni bilish asosida amalga oshadi. Bunda diqqat, xotira, tafakkurning qatnashishi majburiydir. Mana shuning uchun ham “fazoda moʻljol olish” tushunchasining mazmunini aniqlashda baʼzi mualliflar u atrof tevarakdagi buyumlarning holatlari, oʻzaro masofalari, kattaliklari shakllari, oʻzaro joylashuvlari va ularning moʻljol olinayotgan jismga nisbatan vaziyatlarini oʻz ichiga oladi, deb hisolaydilar.


Birmuncha torroq maʼnoda fazoda moʻljol olish” ifodasi joyda moʻljol olish deyilganda, quyidagilar tushuniladi:

- a) “Turish nutqasi”ni, yaʼni subektning uni oʻrab olgan obektlarga nisbatan makonini aniqlash. Masalan, men uydan oʻng Tomonda turibman va h.k.

b) atrofdagi obektlarni fazoda mo‘ljal olayotgan odamga nisbatan yakkalashtirish. Masalan, javon mendan o‘ngda turibdi, eshik esa mendan chap Tomonda;

v) buyumlarning bir – biriga nisbatan fazoda joylashuvlarini, boshqacha aytganda, ular orasidagi fazoviy munosabatlarni aniqlash.

Faol harakat qilish fazoda mo‘ljal olishning zarur komponentidir, chunki inson fazoda “joyning bir nuqtasidan ikkinchi nuqtasiga harakat qilib, muvaffaqiyatli o‘tishini amalga oshirish uchun” fazoda mo‘ljal oladi. Shu sababli, fazoda mo‘ljal olish amalda har doim quyidagi uchta topshiriqqa bog‘liq harakat (yo‘nalishi) ni tanlash; shunga rioya (amal) qilish (yo‘nalishni saqlash); harakat qoxirida maqsad (nishon) ni aniqlash. Bundan harakatlarning o‘zaro muvofiqligi va aniq fazoviy mo‘ljal olganligi muhim komponentlar va shu bilan birga. Insonning fazoda mo‘ljal olishini egallashning ko‘rsatkichi ekanligi ko‘rinadi.



Har xil yosh bosqichida bolalar bilan ishlashning mazmuni va uslubitining asosiy yo‘nalishlarini qaraymiz.

Bolalar bog‘chasida tarbiya va tahlil dasturining “Fazoda mo‘ljal olish” bo‘limi ikkinchi kichik yoshdan boshlab berilgan. Ammo bolalarda fazoviy idrok va elementar tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha maqsadga muvofiq ishni, bizning fikrimizcha, ilk yoshdayoq boshlash kerak. Uch yoshgacha bo‘lgan bolalarda tevarak –atrofda 9uy sharoiti, guruh “onasida, buyumlarning, o‘yinchoqlarning odatdagi joylashuvlarida) juda katta qiziqini qiziqish bilan amaliy orientir (mo‘ljal) olish bo‘yicha har xil tajriba to‘plash davridir. Shuning uchun ham katta odam bolani xonalarning (guruh xonasi, uxlash xonasi, yuviniladigan xona, hojatxona), buyumlarning, narsalarning, o‘yinchoqlarning fazoviy joylashuvlari bo‘yicha erkin mo‘ljal olishga o‘rgatishi kerak.

Bolalar hayotining ikkinchi yili boshlanishidanoq tanish fazoni (xona yoki uning qismini) ancha aniq tasavvur qila boshlaydilar, tanish buyumlarning joylashuvidagi ba’zi o‘zgarishlarni hech bir qiynalmay payqay oladilar. Ikki yoshligidanoq bolalarda tanish chegaralangan fazoda harakat qilish yo‘li haqida dastlabki elementar tasavvurlar tarkib topa boshlaydi, bu tasavvurlar hayot faoliyatida takomillashadi.



Bolalarning dastlabki fazoviy tasavvurlari ular hayotining ikkinchi yilidanoq nutqlarida ham aks eta boshlaydi (“Mana”, “bu erda”, “u erda”, “bunda”). Buning ustiga soʻzlar harakat yoʻnalishini yoki qiziqtiruvchi buyumni koʻrsatuvchi imo – ishoralar bilan

kuzatiladi. Ana shu yoshda bolalar “oʻziga”, boshqa odamga nisbatan moʻljal (orientir) olishni egallay boshlaydilar. Kattalarning takliflariga binoan, qoʻgʻirchoqning koʻzlari, ogʻzi, biqini, qoʻlchalari qayerdaligini mamnuniyat bilan koʻrsatadilar. Uch yoshga qadam qoʻygan bolalar, masalan, oʻzlarining chap va oʻng qoʻllarini farqlay boshlaydilar. Bunda katta odamning vazifasi bolaning shu malakalarni egallab olishiga yordam berishdan iborat.

**2. Ikkinchi kichik guruh.** Dasturning asosiy vazifasi kichkintoyni “oʻziga” nisbatan moʻljal olishga oʻrgatishdan, iborat, boshqacha aytganda, kichkintoy bunda oʻziga nisbatan oʻng, chap, yuqori tomon va h.k. larni ajrata oladigan boʻla olishi kerak. Oʻz tanasiga nisbatan fazoda Tomonlar boʻyicha moʻljal olish bu moʻljal olishning birinchi umumlashtirilgan usulidir. “Oʻziga” va “oʻzidan”ga nisbatan moʻljal olish bu moʻljal olishning birinchi umumlashtirilgan usulidir. “Oʻziga” va “oʻzidan” ga nisbatan moʻljal olishda “oʻng – chapni”ni farqlash eng koʻp qiyinchilik tugʻdiradi. Mana shuning uchun ham bola oldin oʻz qoʻllarini farqlashga oʻrgatiladi. Dasturning bu vazifasi ustida ishlash keyingi yosh guruhida ham davom ettiriladi.

Bolaning oʻziga nisbatan moʻljal olishi dasturining yangi vazifasiga –boshqa odamga, buyumlarga nisbatan moʻljal olishga oʻrgatish vazifasiga – oʻtish uchun zarur asos boʻladi. Ammo boshqa odamga nisbatan moʻljal olish faqat oʻz gavdasi sxemasini bilgandagina mumkin boʻladi. Bola hayolan bu sxemani boshqa obektlarga nisbatan koʻchiradi va oʻxshashlik boʻyicha uni boshqa odamdan va buyumlardan ajratadi. Masalan, bolalar oʻyinchoqlarni qarashadi, ular bilan faol harakat qilishadi. Suhbatning borishida tarbiyachi bolalar eʼtiborini xarakterli detallarga qaratadi. Masalan, mashina qaralayotgan boʻlsin; oldinda kabina, orqada kuzov, pastda oldingi va keyingi gʻildiraklar. Buyumlar tasvirlangan qirqma rasmlar, kubchalar mustaqil ravishda detallardan (qismlardan) butunni tiklash imkonini beradi, yaʼni obektning fazoviy buyumlarini (ustida – ostida, tagida – yuqorisida,

oldidan – orqasidan, bir tomoni –yosh tomonidan va ikkinchi tomonidan) o‘zlashtirish imkonini beradi. Bolalar hali obektning o‘ng va chap tomonlarini farqlay olishmaydi, bu murakkab malaka maktabgacha katta yoshda o‘zlashtiriladi. Kichik guruhda buyumning fazoviy harakteristikasini tushunish qisman o‘zlashtiriladi. U holda, deb so‘raladi, bolalarni buyumlarga, boshqa odamga nisbatan mo‘ljallash o‘rgatish zarurmi? “O‘ziga” nisbatan mo‘ljallash o‘zi yetarli bo‘lishi mumkinmi?

Gap shundaki, tevarak –atrofimiz, ya’ni atrofimizdagi fazo, odamlar, har xil buyumlar to‘plami to‘lib tashib yotibdi. Mana shu fazoda mo‘ljallash ularning har xil parametrlarini, jumladan, “oldindan”, “orqasidan”, “yonidan”, “ustidan”, “ostidan”, keyinroq buyumning “chap” yoki “o‘ng” tomoni kabi parametrlarini hisobga olish majburiyatini yuklaydi. Oldin o‘ziga, so‘ngra boshqa odamga, buyumlarga nisbatan qarama –qarshi tomonlarni ajratish, birichidan,



istiqbolda bolaning faqat “o‘ziga” nisbatangina emas, balki boshqa obektlarga, boshqa odamga nisbatan mo‘ljallash malakasini egallashini ta’minlaydi.


Ikkinchidan, bu bilim va malakalar buyumlar orasidagi fazoviy munosabatlarni bilib olish uchun zarur. Biz bu munosabatlar

haqida ularning tomonlariga – oldingi (yuz tomonga), yon, yuqori (ustki) va h.k. tomonlarga mos kelishlariga qarab, mulohaza yuritamiz. Nihoyat, uchinchidan, hatto ancha chegaralangan fazo chegaralarida ham (guruh xonasi, yoki xonaning bir qismi, stolning usti, qog‘oz varag‘i va h.k.) mo‘ljallash asosiy yo‘nalishlarini bilishni nazarda tutadi. Bu yangi dasturiy vazifa. Bu to‘liq o‘zlashtirilgandan keyingina, uni butun ish mazmunidagi asosiy vazifa deyish mumkin.

Maktabgacha kichik yoshda bolalar yo‘nalishlarning asosiy guruhlarini farqlashga (oldiga – orqaga, yuqoriga – pastga, o‘ngga – chapga) o‘rgatiladi. Bola bu yo‘nalishlarni o‘z gavdasining tomonlarini bilganligi asosida o‘zlashtiradi. Bolakaylar buni kundalik turmush faoliyatida o‘rgatiladi. Masalan, yuvinish, kiyinish jarayonida tarbiyachi bolalarning gavda qismlarini aytib ularni o‘ng va chap qo‘lni farqlashga o‘rgatadi; tushlik vaqtida qoshiqni o‘ng qo‘lda ushlashni, chap qo‘lda esa bir burda nonni ushlashni o‘rgatadi, bolalarga chap qulog‘i, o‘ng

qulog‘i, chap oyog‘i, o‘ng oyog‘i qaerdaligini ko‘rsatishni taklif qiladi; chap oyoq, chap ko‘z, chap quloq, chap qo‘l joylashgan tomonda, o‘ng oyoq, o‘ng ko‘z, o‘ng quloq esa o‘ng qo‘l tomonda joylashganligini tushuntiradi.

Elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish mashg‘ulotlarida bu vazifalar. “Qo‘g‘irchoqni cho‘mltirish”, “Qo‘g‘irchoqni uxlashga yotqizish”, “Qo‘g‘irchoqni kiyintirish” kabi didaktik o‘yinlarda aniqlashtiriladi. Masalan, tarbiyachi kichkintoylarga qo‘g‘irchoqning boshini, yuzini (oyoqlarini) yuvishni, so‘ngra esa, uning (bolaning) o‘zi yuzi, boshi va boshqa a‘zolari qaerda ekanligini ko‘rsatishni so‘raydi



<http://www.liveinternet.ru/users/naknika/>

Bolalarga fazoviy yo‘nalishlarni o‘z gavdasining aniq qismlariga mos qo‘yishni o‘rgatish kerak, yuqoriga – bosh tomonga, pastda – oyoqlar, oldinda yuz, chapda – chap qo‘l, o‘ngda – o‘ng qo‘l.

Mashg‘ulotlarda kichkintoylarni pastda – yuqorida, oldinda – orqada, chapda – o‘ngda kabi juft qarama – qarshi yo‘nalishlarni farqlashga o‘rgatish kerak.

Bu malakalarga tayanib, tarbiyachi bolalarni “o‘zidan”ga nisbatan oldinga- orqaga, o‘ngga –chapga kabi fazoviy yo‘nalishlarni ko‘rsatish va aytishga o‘rgatish kerak. Masalan, ayiqchaga oldin o‘ng qo‘l, keyin chap qo‘l bilan silkashni, qo‘g‘irchoq qaysi Tomonga ketganini (o‘ngga, chapga, zinadan yuqoriga, pastga), koptok qayoqqa dumalaganini ko‘rsatish va aytishni so‘raydi; bayroqchalarni oldin tepaga ko‘tarish, so‘ngra pastga tushirishni; qo‘llarni oldinga (o‘z oldiga, to‘g‘risiga), chapga, o‘ngga cho‘zish, ularni orqaga yashirishni va h.k.ni so‘raydi. Bu xil mashqlar vaqtida hg‘amma bola va tarbiyachi bir tomonga qarab o‘tirishlari yoki turishlari kerak.

Dastur vazifa (masala) larini amalga oshirish “Bayroqcha qaysi tomonni ko‘rsatmoqda?” kabi o‘yin-mashqlar yordamida bajariladi. Bolalar, masalan, bayroqcha bilan qaysi yo‘nalish (yuqori yoki past, to‘g‘ri yoki orqa, chekaa) ko‘rsatilayotganini payqab olishlari kerak. Ularning o‘zlari bayroqchalar, lentalar, pufaklar (sharlar), koptoklar yordamida ko‘rsatilgan o‘yin – topshiriqlarni bajaradilar. Yo‘nalishlarni



hisobga olgan holda fazoda mo‘ljal olishning birinchi tajribasi, fazoning o‘zini idrok qilishning qayta qurilishi shunday sekin – asta tarkib topadi.

Asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tashqi dunyoning fazoviy tavsifini o‘zlashtirish uzoq davom etadigan jarayondir. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda fazoni bunday idrok qilish va asosiy yo‘nalishlarni bilganlik asosida mo‘ljal olish uchun ba’zi asoslarga yaratiladi. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan esa, tekislikda mo‘ljal olishning ba’zi malakalari (rasm solish, elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish mashg‘ulotlarining borishida) egallanadi. Bolalar varaq o‘rtasini, uning yuqori va pastki qismlarini farqlashni, har xil yo‘nalishlarda (chapdan o‘ngga, yuqoridan pastga qarab) oziqlar o‘tkazishni o‘rganadilar, sanoq materialini ustki va pastki poloskalarga qo‘yishni, uni varaqda, kartochkada chapga yoki o‘ngga joylashtirishni o‘rganadilar.

To‘rt yoshga qadam qo‘ygan bolalarning ish mazmunida yana bitta vazifani, ya’ni buyumlar orasidagi fazoviy munosabatlarning ba’zi variantlarini (“ustida”, “ostida”, “orqasida”, “ichida”, “oldida”, “orqasida”, “yuqorisida”, “pastida”) bilib olish vazifasini ta’kidlash kerak. Bu vazifa o‘yinlar (“O‘yinchoqlar berkinmashoq o‘ynaydi”, “Quyuncha qayerga yashirindi?”, “O‘yinchoqni qayerdan topdingiz?”) shaklida qiziqarli hal qilinadi.

Dastur vazifasini bajarish kontekstida lug‘at ustida ishlash ham olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi kichik bolani dasturda nazarda tutilgan fazoviy belgilashlarni to‘g‘ri tushunishining o‘zi, u (hatto ba’zida) yo‘naltiruvchi savollar yordamida bu munosabatlardan mustaqil foydalana oladigan bo‘lishining o‘zi mutlaqo kifoya.

Ikkinchi kichik guruh bolalari uchun o‘ng va chapni farqlash juda qiyinlik bilan amalga oshadi. “O‘ngga –chapga” yo‘nalishlarini farqlashga o‘rgatishning dastlabki bosqichida qanday pedagogik yo‘l - yo‘riq amalga oshirilishi kerakligi haqida fikr yuritamiz.

O‘z qo‘llarini farqlash qobiliyati avval bolaning o‘ng va chap qo‘llari chun xos bo‘lgan harakatlarni bajarish jarayonida seziladi. Masalan, ovqatlanish vaqtida u qoshiqni o‘ng qo‘li bilan, nonni esa chap qo‘li bilan ushlaydi; rasm chizish mashg‘ulotlarida bola chap qo‘li bilan rasmni tutib turadi, o‘ng qo‘lida esa qalam, mo‘yqalam bo‘ladi. Bu ikki vaziyatdan tarbiyachi, bunday foydalanadi; mashg‘ulot boshlanishida (yoki ovqat eyish oldidan) bolalar e’tiborini qalam (yoki qoshiq) ni har doim o‘ng qo‘lda tutish kerakligini, chap qo‘l bilan esa, qog‘oz varag‘ini (yoki taqsimchani) tutib turish (nonni ushlash) kerakligini uqtiradi. Tarbiyachi bunga bolalar e’tiborini tortibgina qolmay, balki ko‘rsatadi

ham. Hatoga yo‘l qo‘ygan (yanglishgan) bolaga tarbiyachi ikkinchi marta ko‘rsatadi (“Mana endi hammasi to‘g‘ri; qalam o‘ng qo‘lingda, chap qo‘ling bilan esa qog‘ozni tutib turasan”)

Bolalarning harakatlarini tekshirishda tarbiyachi ular bilan suhbatlashadi, ma‘qullaydi. Pedagogik baho his –tuyg‘uga to‘la bo‘lishi, to‘la qanoatlanganlikni ifodalashi, o‘z tarbiyalanuvchilarining topqirliklaridan hayratlanishini ifodalashi muhimdir.

Bunday baholash o‘ziga xos pedagogik usul bo‘lib, bolaning harakatlari to‘g‘riligini ifodalabgina qolmay, balki his – hayajonli kayfiyat hosil qilishda, ularning bunday mashqlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, o‘z qo‘llarining farqlashni tezroq o‘rganib olishga istak uyg‘otadi.

Tarbiyachi dastlab bolalarga qo‘llarini nomlari bo‘yicha farqlashni o‘rgatadi. Tarbiyachi bolalarning qo‘llarini belgilaydi, bolalar ularni farqlashadi. Shu

maqsadda bu bolaga murojaat qilib so‘raydi:

- Sening o‘ng qo‘ling qani?
- Mana (ko‘rsatadi).
- Sening o‘ng qo‘lingdagi nima?
- Qoshiq.
- Sening chap qo‘lingdagi nima?
- Non.
- Balli, sen qaysi qo‘ling o‘ng, qaysi qo‘ling chap ekanini juda yaxshi bilar ekansan.

Bir necha mashg‘ulotdan keyin, bunday deb so‘rash mumkin: “Hozir, men sizlardan o‘z o‘ng va chap qo‘lingizni bilish bilmasligingizni so‘rab, tekshiraman. “Odatda, bolalar tarbiyachining savollariga faollik ko‘rsatib, mamnuniyat bilan javob beradilar (“Mendan hali so‘ramandingiz”, “Men ham bilaman”, “Qoshiq qaysi qo‘limda ekanini mendan so‘rang”, “Toping-chi, qalam qaysi qo‘limda”). Bunda tarbiyachining vazifasi bu faollikni quvvatlab turishdan iborat. U so‘raganda, bolalar ba‘zida xato qiladilar (bunday xatolardan bolakaylarning hayajonli ta’sirlanishini ko‘ra bilish kerak). Xato o‘ziga xos pedagogik usuldir. Unda bola qaysi qo‘li o‘ng, qaysi qo‘li chap qo‘l ekaini pedagogga mamnuniyat bilan tushuntiradi.

Bunday kichik mashqlar nihoyatda zarurdir. Bu xil mashqlarning davomiyligi bir yarim – ikki daqiqadir. Mashqlar bolalar e’tiborini asosni faoliyatdan chetga tortadi, deb aslo xavotir olmaslik kerak. Aksincha, bunday mashqlar bolalarning hayotiy faoliyatiga to‘liq

ravishda ijobiy ta'sir etib, ularni faollashtiradi. Mashqlar o'ziga xos "ma'naviy – his – tuyg'uga to'la tetiklashtirishning o'rnini bosadi, e'tiborning yo'nalishini o'zgartirish mexanizimini mashq qildiradi. Ularning ta'limiy samarasi ravshan, bu samara mashqlarning kollektiv shakllarini o'tkazish rejimida ("haftasiga 3-4 marta individual ish bilan qo'shib olib borilganda) atigi bir – bir yarim oy o'tganidan keyin so'zila boshlaydi.

Shunga qaramay, bunday savol paydo bo'lishi mumkin: "Aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'limning boshlanishida nega ilk bor bunday mashqlar, albatta, faqat ma'lum pedagogik vaziyatlarga jiddiy "Bog'langan" bo'lishi zarur? Gap shundaki, rasm solish mashg'ulotlarida, nonushta, tashki ovqat, kechki ovqat vaqtida bolalar har qaysi qo'l uchun xarakterli bo'lgan harakatlarni bevosita bajarishadi. Boshqa sharoitda bolalar bu harakatlar haqidagi tasavvurlar bilan ish ko'rishlariga to'g'ri keladi. Shu sababli noto'g'ri beriladigan javoblar miqdori ortib ketadi. Ana shuning uchun ham mashqlar samaradorligini orttirishning muhim sharti – oldingi tajribani aktuallashtirib borishdan iborat. Qiyinchilik paydo bo'lgan hollarda farqlashning asosiy mezonini eslatib qo'yish zarur ("O'ng qo'lingda har doim qoshiqni ushlaysan" va h.q). Xarakterli tomoni shundaki, tarbiyachining yordami bolalarda faol harakat reaksiyasini uyg'otadi: ular tasavvurdagi qoshiqni (qalamni) qaysi qo'lda ushlab qulay ekanini qandaydir darajada sinab ko'rishadi. Shu bilan ilgari shakllangan senso'lator bog'lanishlar kompleks ravishda jonlantiriladi, shundan keyin bolalar taklif qilingan topshiriqlarni ko'proq ishonch bilan bajaradilar.

Mashqlardan bog'cha tartibotining har xil momentlari (yuvinish, kiyinish, sayrga chiqishga yig'ilish)da foydalanish mumkin. O'z qo'llarini farqlash malakasi uchun konkret pedagogik vaziyatda, musiqa, matematika, konstruksiyalash mashg'ulotlarida, harakatli o'yinlar vaqtida va jismoniy tarbiya mashqlarida bir necha daqiqa ajratish mumkin.

Masalan, ikkinchi kichik guruhda o'tkaziladigan matematika mashg'ulotlarida tarbiyachi dastur vazifalarining butun bir kompleksini amalga oshirishi mumkin. Buning uchun galdagi vazifa xuddi oldingidek, o'z qo'llarini farqlash ko'nikmasini takomillashtirishdan iborat. Shu asosda keyingi yosh guruhlarda tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilarini o'ng va chap oyoqlarini, ko'zlarini bir – biridan farqlashga o'rgatadi. Dasturning bu vazifasi bolalarni umumlashtirilgan idrokka, juft qarama- qarshi tomonlarni aniqlashga olib keladi.

Mashg'ulotni guruh bilan yoki bitta bola bilan o'tkazish ham mumkin. Mashqlarning o'yin shakllarining samaradorligi, pedagogik jarayonda ulardan keng foydalanishning mumkinligi mazkur didaktik vositaning alohida ommaviyligidadir. Mana shu o'yin – mashqlarning varaintlari bo'lib, ularning maqsadi - qo'llarni o'z nomlari bo'yicha amalda farqlashdan iborat. Bu mashqlarning davomiyligi 4-5 daqiqadan ortmaydi.

“Qo'llaring qayerda?” Topshiriq: qo'llarni orqaga yashirish. Tarbiyachi oldin bolaning o'ng qo'li qayerda, chap qo'li qayerda ekanini topadi, so'ngra bitta (yoki bir nechta) bolaga o'z qo'llarini ko'rsatish va ularning nomini aytishni taklif qiladi.

“Zoldir qani?” Topshiriq: zoldirni kaftga berkitish. Tarbiyachining vazifasi zoldir qaysi qo'lda – o'ng qo'ldami yoki chap qo'lda ekanini topish. Shundan keyin tarbiyachi bolalarga navbati bilan o'zlarining chap va o'ng qo'llarini ko'rsatishni, ularni atashni, zoldir qaysi qo'lga yashirilganini aytishni taklif qiladi.

“Bayroqchani ol”. Tarbiyachi bolalar qaysi qo'l o'ng (chap) qo'l ekanini eslashlarini, shu qo'l bilan bayroqchani olishni; bayroqchani boshqa qo'lga o'tkazishni, qo'lni yuqori ko'tarishni, bayroqlani silkitishni va yana boshqa (chap) qo'lga o'tkazishni taklif qiladi. Yoki ko'k bayroqcha (chap) qo'lga o'tkazishni taklif qiladi. Yoki ko'k bayroqcha (lentacha) o'ng qo'lda, sariq bayroqcha chap qo'lda. Topshiriq: bayrochalar o'rinlarini almashtirish. Shunday keyin tarbiyachi so'raydi: “Bayroqning rangi qanday? U qaysi qo'lda?”.

“O'yinchoq qaysi qo'lda?” Tarbiyachi oldin bolalardan biriga o'yinchoqni o'ng (chap) qo'l bilan olishni aytadi. keyin esa, bola o'yinchoqni qaysi qo'lga olishni xohlasa, o'sha qo'lga olishini va o'yinchoq qaysi qo'lida ekanini aytishni taklif qilishi va u o'ng qo'lida qanday o'yinchoq, chap qo'lida qanday o'yinchoq borligini aytishi kerak.

“Toshlarni boshqa qo'lingga o'tkaz”. Bir nechta (5-6 ta) toshni bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tkazish kerak. Topshiriqni bajarish jarayonida bola o'z qo'llarini farqlaydi, ularni belgilaydi. Shu bilan bir vaqtda bola “bitta” va “ko'p” atamalarini farqlashni o'rganadi.

O'z qo'llarini farqlashga oid bundan keyingi mashqlar qiyinroq harakatlar bilan bajariladi.

“Nima og'ir?” Topshiriq: ikki buyumdan qaysinisi og'ir (yengil) ekanini aniqlang: qaysi qo'ldagi (o'ng yoki chap qo'ldagi) buyum og'ir, qaysi qo'ldagisi yengil ekanini aniqlash. Bolalar kichik guruhda olingan

bilimlar asosida “o‘ngga chapga” “fazoviy yo‘nalishlar) bilan tanishadilar. Bu yosh guruhlarida bolalar bu yo‘nalishlarni farqlashgagina o‘rgatiladi. (bilib olish, mustaqil aytish va ko‘rsatish).

Dasturning navbatdagi muhim vazifasi chegaralangan gorizont tekislikda (qog‘oz varag‘i, sanoq materialini qo‘yish uchun kartochka) “O‘ngga chapga) yo‘nalishlari bo‘yicha mo‘ljall olishning dastlabki malakalarini rivojlantirishdan iborat. Bolalar o‘ng qo‘llari bilan sanoq materialini tanlab olib, ularni kartochkaga chapdan o‘ngga yo‘nalish bo‘yicha qo‘yishni o‘rganadilar. Topshiriq; tekislikning uzunligini boshqa poloska yoki lentacha bilan taqqoslash uchun tekislash, nihoyat, uchinchidan tekislikda mo‘ljall olish. Endi umumlashtiruvchi xulosalarni (tavsiyalarni) bayon qilish (ifodalash bilan cheklanamiz:

1. Bolalar o‘ng va chap qo‘l bilan harakat qilish (ishlash)ning yetarlicha va rang barang amaliy tajribasini to‘plashlari kerak. Oldin bu harakatlarning differensial harakterini (o‘ng qo‘lda qoshiqni, qalamni, mo‘yqalamni ushlab, chap qo‘lda taqsimcha, qog‘oz varag‘i va hokazolarni tutib turish) mustahkamlash, so‘ngra bolalarni qo‘llarining nomlari bo‘yicha farqlashsh, nihoyat, uchinchidan tekislikda mo‘ljall olish. Endi umumlashtiruvchi xulosalarni (tavsiyalarni) bayon qilish (ifodalash) bilan cheklanamiz:

2. Bolalar o‘ng va chap qo‘l bilan harakat qilish (ishlash)ning yetarlicha va rang barang amaliy tajribasini to‘plashlari kerak. Oldin bu harakatlarning differensial harakterini (o‘ng qo‘lda qoshiqni, qalamni, mo‘yqalamni ushlab, chap qo‘lda taqsimcha, qog‘oz varag‘i va hokazolarni tutib turish) mustahkamlash, so‘ngra bolalarni qo‘llarining nomlari bo‘yicha farqlash va mustaqil no‘llashga undash zarur.

3. Qo‘llarning nomi bilan har qaysi qo‘l uchun xos bo‘lgan harakatlar xarakteri (bola o‘ng va chap qo‘li bilan nima qiladi) orasidagi aloqani mustahkamlash.

4. O‘rgatuvchi mashqlarda ikkala qo‘lning nomi va harakat xarakteri bo‘yicha qiyoslash kerak. Taqqoslash differensiallash jarayonini jadvallashtiradi.

5. Mashqlar va differensiallash tobora murakkablashtira borilishi kerak.

a) o‘ng va chap qo‘l uchun xarakterli bo‘lgan tabiiy harakatlarni bajarish jarayonini aniqlashdan bu harakatlar haqidagi tasavvurlar asosidagina farqlashgacha;

b) berilgan masala yagona va mustaqil bo‘lgan (“Sening qo‘llaring qayerda?”, “Bayroqchani ol”, “Zoldir qani?”) vaziyatda aniqlashdan,

natijada uni bajarish jarayonidan (“Qaysi qo‘l bilan uzoqqa?”), “Qaysi qo‘l bilan aniqroq?”) farqlashgacha murakkablashib borishi kerak.

Pedagogik tajribani tahlil qilish ko‘pincha bolalar bilan ishlash natijalari kutilganidan anchagina past ekanini ko‘rsatmoqda. Buning sababi uslubiy harakterlagi xatolarga yashirinib yotibdi. Ularni harakterlab o‘tamiz.

Ko‘pincha tarbiyachilar qo‘llarning aniq nomlari (“chap, “o‘ng”) o‘rniga bu qo‘l” yoki “yo‘q, bu qo‘l emas, boshqasi”, deyishadi. Boshqa bir xato. Tarbiyachi qo‘llarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri belgilaydi, bolalarni ularni mustaqil no‘llashga undaydi. Ammo og‘zaki bilimlarda asosiy mezon – har qaysi qo‘l uchun harakterli bo‘lgan haarkat faoliyatini tushunib yetishdan uzilgan holda shakllantiriladi. Sensor komponentdan uzilgan holda og‘zaki farqlash jiddiy uslubiy xatodir.

Navbatdagi xato. Tarbiyachi ko‘pincha xatoni mustaqil tuzatish muhimligini yetarlicha baholamaydi. U yerdan berishga shoshiladi, bayroqchani chap qo‘ldan o‘ng qo‘lga o‘tkazadi. Natija ravshan: kichkintoy endi bayroqchani o‘ng qo‘lida ushlab turibdi, yo‘l qo‘yilgan xatoga tushunib yetilmagan. Yana bitta xato. Bilish jarayonini jadallashtirish maqsadida tarbiyachi mezon sifatida mo‘ljallangan buyumlarni aytadi, masalan, “derazaga yaqin turgan qo‘l o‘ng qo‘l, chap qo‘l esa devorga yaqin turgan qo‘ldir”. Aniq shart – sharoitda, tushunarliki, hammasi xatosiz aniqlanadi. Ammo shuni hisobga olish kerakki, bu holda bolalar eng oldin buyum oriyentirlarni farqlaydilar.

Bizning hozirgi “o‘ng – chap” dunyoimiz keng va turli tumandir. Uni hatto katta yoshdagi bolaning ham mustaqil ravishda tushunib olishi oson emas, unda, masalan, fazoviy xarakteristikaning nisbiyligi, uning hisob boshlanadigan nuqtaga nisbatan bog‘liqligi aralashib ketishi mumkin. Bunday holda nima absolyut va o‘zgarmas? Bolaning o‘z fazoviy sxemasi (koordinatlari) o‘zgarmas. Har qaysi odamning sxemasi va buyum olami obyektlarining fazoviy sxemasi o‘zgarmas. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha muassasalar dasturining “Fazoda mo‘ljal olish” bo‘limi bo‘yicha elementar “fazoviy ta’limi” mana shu haqiqatlarni o‘zlashtirib olishdan boshlanadi.

**3. O‘rta guruh.** “Fazoda mo‘ljal olish” bo‘yicha ishlash bir necha yo‘nalishda o‘tkaziladi. Eng oldin amaliy tajriba takomillashtiriladi. Bolalar bu yosh davrida ancha mustaqil bo‘lib qolishadi, o‘yinchoqlar saqlanadigan joyni bilishadi, o‘rnatilgan tartibga amal qilishadi. O‘rta guruhda ular oshxonada navbatchilik vazifalarini bajarishga o‘rgatiladi, o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab esa, materialni mashg‘ulotga

tayyorlash o'rgatiladi. Navbatchilarning vazifalarini bajarish stoldagi idishlar, o'quv ashyolarining fazoviy joylashuvlarini o'zlashtirish bilan bog'liq. Bolalar endi binoda va bolalar bog'chasi uchastkasida erkinroq mo'ljal oladilar. Masalan, boshqa guruhlar, musiqa zali, vrach xonasi qayerda joylashganini, ularga qanday borishni biladilar. Bularning hammasi atrofni o'rab olgan fazoda katta qiziqish bilan mo'ljal olishdan darak beradi. Pedagogik ishning ushbu yo'nalishi keyingi yosh guruhlarida asosan bolalar bilan kundalik muloqotlarda, ya'ni o'qishdan tashqari vaqtda ham keng joriy qilishadi.

O'rta guruhda o'quv faoliyatini tashkil qilish jarayonida tarbiyachi boshqa masalalarni ham hal qiladi: 1) fazo haqidagi dastlabki bilimlarni mustahkamlaydi, ularni kengaytiradi va teranlashtiradi, yangi ma'lumotlar beradi; 2) olingan bilimlarni o'yinlarda, dasturning boshqa bo'limlariga bag'ishlangan mashg'ulotlarda har xil hayotiy situatsiyalarda qo'llashga o'rgatadi. "Bolalar bog'chasida ta'lim tarbiya dasturining "Fazoda mo'ljal olish" bo'limiga mos ravishda tarbiyachi bolalarga o'ziga nisbatan yo'nalishni aniqlashni, berilgan yo'nalishda harakat qilishni (oldiga – orqaga, yuqoriga – pastga, o'ngga -chapga), o'ziga nisbatan buyumlarning holatini so'zlar bilan tushuntiradi.

Ammo oldin bolaga nisbatan qarama- qarshi yo'nalishda turgan, ya'ni oldida orqasida, o'ngda – chapda turgan 1-2 ta o'yinchoqni, buyumlar joylashuvini aniqlashga doir topshiriq beriladi. O'yinchoqlar yoki qandaydir buyumlar soni asta –sekin 4 taga yetkaziladi. Dastlabki vaqtlarda buyumlarni boladan uncha uzoqmas masofaga (uning yoniga) joylashtirish ma'qul. Keyinchalik masofani kattalashtirib borish kerak. Tarbiyachining topshirig'iga binoan, bola xonaning ma'lum bir joyiga turadi va o'z oldida chapida va o'ngida qanday buyumlar turganini aytadi. shundan keyin tarbiyachi boladan o'ngga (chapga) turilishini va yana qanday buyumlar undan qaysi yo'nalishda turganligini aytishni so'raydi.

Fazoda ("Top-chi, bunda nima bor?", "Biling –chi, nima o'zgaribdi?" tipidagi) mo'ljal olishga doir mashqlar o'yin xarakteriga ega bo'lishi kerak.

Bolalarda berilgan yo'nalishda harakat qilish malakasini tarbiyalash maqsadida "Qayerga borsang, shuni topasan", "Buyumni top", "Bayroqchani top" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Bolalar o'yin topshiriqlarni bajarishda asosiy fazoviy yo'nalishlarni farqlashni va ularni belgilashni, mashq qiladilar. Masalan, tarbiyachi bolalar yo'qligida o'yinchoqlarni xonaning har xil joyiga (rasm

orqasiga, gilam ostiga, shkafga va h.qga) berkitadi. O‘yin boshlanishidan oldin, u bolalarga berkitilgan o‘yinchoqlarni qidirishlarini aytadi. shundan keyin, u bolalarni navbati bilan stol yoniga chaqiradi, o‘yinchoqni qaysi yo‘nalishda qidirish kerakligini aytadi. Izlanishni boshlashdan oldin bola qanday o‘yinchoq va qaysi yo‘nalishni takrorlashi kerakligiga alohida e’tibor beriladi.

Ishning mazmuni aniq va ixcham ifodalangan. Uni sharhlaymiz. Besh yoshga qadam qo‘ygan bolalar fazoviy yo‘nalishlarni farqlashlarigina emas, balki unga amal qilishlari ham kerak. “Dasturda” bolalarni berilgan yo‘nalishda harakat qilishga o‘rgatish kerakligi ta’kidlanadi. Shunday qilib, bilimlar bolalar tajribasida akslanishi, asosiy yo‘nalishlarni hisobga olgan holda mo‘ljal olish malkalarida sezilishi kerak. Bu yangi masala. Mana shuning uchun ham o‘quv –o‘yin topshiriqlarining bajarilish sur‘ati dastlab sustroq bo‘ladi. Axir bola berilgan yo‘nalishni aniqlashdan oldin, ikki taklifdan birini tanlab olishi uchun (“Qayerga borasan? nima topasan?” deb ataluvchi mashhur o‘yin namunasida) oldin o‘ylab olishi kerakda.

Dasturga muvofiq o‘rta guruhda bolalar ko‘proq fazoda o‘zlaridan mo‘ljal olishlari kerak, fazoda buyumlarning “o‘ziga nisbatan” joylashganligini elementar tasavvur qilishlari kerak. Bu mazmun elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda didaktik vositalar – didaktik o‘yinlar, qiziqarli mashqlar, “Nima o‘zgardi?” tipidagi o‘yin –mashqlar yordamida ro‘yobga chiqadi. O‘yinchi oldida turgan vazifa o‘yinchoqlarning joylari o‘zgartirilmasdan va o‘zgartirilgandan keyingi joylashuvlarini topishdan iborat. Buyumlar oldin bir – biridan uncha uzoq bo‘lmagan masofada joylashtiriladi. Ushbularni aniqlash kerak, uy qanday rangda, u qayerga joylashgan, boladan boshlangan yo‘lning oxiridami, boladan oldindami, orqadami, undan o‘ngdami yoki chapdami, uyga borishda yo‘lda qanday o‘yinchoqlar uchraydi, ulardan qasilari bolaga yoki uyga yaqin (uzoq) joylashgan va h.q atrofda buyumlarning fazoviy xarakteristikalarini tushunishlari, uning fazodagi xususiy joylashuviga bog‘liqligi asta – sekin mana shunday oydinlashtiriladi.

Bu xil o‘yin – mashqlar real buyumli atrofni alohida buyumlar joylashuvining fazoviy xarakteristikasi bilan birgalikda idrok qilishga tayyorlaydi.

**4. Katta guruh.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning fazoviy tasavvuri faoliyatning hamma turlari jarayonida kengayadi va mustahkamlanadi. Mashg‘ulotlar tarkibiga fazoda mo‘ljal olishga doir



maxsus mashqlarning kiritilishi ham bunga imkoniyat beradi. Masalan, tarbiyachi bolalarga chapda eng baland, o'ngda eng past buyum turadigan qilib, buyumlarning kattaliklari bo'yicha yoyishni taklif qiladi, yoki uning o'zi stolga o'yinchoqlarni (it, mushuk, sigir, qo'y, quyon) joylashtiradi va bolalarga murojaat qiladi: "Sigirning yonida nima turganini qarang va ayting. Mushukdan chapda nima turibdi? Qo'y qaysi hayvonlar orasida turibdi?" So'ngra tarbiyachi o'yinchoqlarni biri – birining orqasida turadigan qilib aralashtirib qo'yadi va so'raydi. "Nima birinchi ketmoqda? Nimadan keyin mushuk ketmoqda? Nimadan oldinda sigir ketmoqda? Qo'ydan keyin nima ketmoqda?" va h.q

Bolalar atrofdagi buyum orasida o'z holatlarini aniqlaydigan mashqlar ham samarali: "Stolning orqasida turibman, stolning yonida, deraza oldida turibman".

Katta guruhda maktabgacha yoshdagi bolalar qog'oz varag'ida mo'ljal olishga o'rgatila boshlanadi. Oldingi guruhlarning dasturlarida bunday vazifa yo'q edi. Tarbiyachi rahbarligida bolalar ma'lum miqdorligi buyumlarni ko'rsatilgan yo'nalishda; qog'oz varag'ining yuqori, pastki qismiga, chap qismiga, o'ng qismiga joylashtirish malakasini egallaydilar. Bunday topshiriqlar ham bo'lishi mumkin: varaqning chap qismiga 5 ta doiracha; o'ngiga esa 1 ta ortiq doiracha qo'y; varaqning pastki va ustki qismlariga 8 tadan uch burchak joylashtir. Topshiriqni bajarganidan keyin bola qanday figuralardan nechtasini joylashtirganini va qayerlarga joylashtirganini gapirib beradi. Bolalarni buyumlarning qog'oz varag'idagi, stoldagi, poldagi holatini belgilash uchun so'zlarni to'g'ri, ma'nosi bo'yicha ishlatishga o'rgatish kerak.

Yil oxiriga kelib bolalar o'zlariga, boshqa odamlarga nisbatan o'rnini so'zlar bilan ifodalay oladigan bo'lishlari kerak.

Ifodalangan qoidani tarbiyachi ochib berishga va to'ldirishga harakat qiladi. Katta guruhlarda eng oldin asosiy yo'nalishlarni hisobga olgan holda fazoda tez mo'ljal olish tajribasini istiqbolda takomillashishi ta'minlanishi kerak. Topshiriqlar xarakteri tobora qiyinlasha boradi. Bajarish sur'ati ortadi, Tarbiyachi, "Paketni top", "Bayroqchani top", "Razvedkachilar" kabi didaktik o'yinlarda bir yoki ikki yo'nalishni birining ketidan birini ketma – ket topishnigina emas, balki birdaniga bir qancha (beshtagacha) yo'nalishni topishni taklif qilishi mumkin, masalan,

Qayin daraxtigacha to'g'ri bor; o'nga burilib, besh qadam yur; chapga buril, yana uch qadam yur; orqaga buril (aylan)". Yurish, yugurish

jismoniy tarbiya va musiqa mashgʻulotlarida, harakatli oʻyinlarda, badantarbiya daqiqalarida va ertalabki gimnastikada harakat yoʻnalishini tez oʻzgartirish kabi mashqlardan keng foydalaniladi. Fazoda moʻljal olish mashqlari bolalarda yoʻl harakati qoidalari haqidagi bilimlarni shakllantirish ishi mazmuniga ham kiritiladi. Katta guruhda fazoda tez moʻljal olish tajribasi ham rang –barangdir: “Koʻz bogʻlash” oʻyinlari juda murakkab topshiriqdir – nishongacha berk koʻzlar bilan borish talab qilinadi (“Toy chaga yem ber”, “Barabanga taq –taq urish” oʻyinlari). Bu vazifa ustida ishlash dasturning bolalarning fazoviy munosabatlar haqidagi bilimlarini kengaytirish talabi kabi (“chapdan”, “oʻngdan”, “yuqorida”, “pastda”, “oldida”, “orqasida”, “orasida” doimo diqqat markazda turmogʻi kerak.

Maʼlumki, bolalar buyumlar orasidagi fazoviy munosabatlarni farqlashning dastlabki tajribasini kichik va oʻrta guruhlarda olganlar. Katta guruhda bu bilimlarni kengaytirish, sistemalashtirish masalasi, bolalarni oʻyin materiallaridagina moʻljal olishgagina emas, balki atrofdagi real sharoitda ham moʻljal olishga oʻrgatish vazifasi qoʻyiladi. Mana shuning uchun ham bu yosh guruhida bunday topshiriqlardan foydalanish maʼqul, u yoki bu buyum qayerda hamda u boshqa buyumlarga nisbatan qanday joylashgan? Masalan, qurilish materiallari qoʻyilgan shkaf eshikdan chap tomonda turibdi: eshik bilan shkaf orasiga rasm osib qoʻyilgan; kitob burchagi shkaf qarshisida derazalar orasiga joylashtirilgan va h.q) Maxsus didaktik oʻyinlarda (“Qoʻgʻirchoqqa mebellarni joy – joyiga qoʻyishga yordam bering”, “Nima qayerda turibdi?” va h.q) real buyum muhitning bunday fazoviy –ogʻzaki tavsiflari ham tekislikda moʻljal olish kabi besh yoshli bolalarga toʻla mos keladi.

Maktabgacha yoshga yetguncha bolalarda tekislikda moʻljal olishga doir bilim va malakalarning maʼlum miqdordagi tajribasi toʻplanadi. Bolalar varaq teksiligida uning oʻrtasini, burchaklarini, chekalarini yoki tekislikni chegaralovchi tomonlarini bemalol ajrata oladilar; varaqning ustki yoki ostki (yuqori va quyi) chap va oʻng qismlarini ajrata oladilar. Bolalar asosiy fazoviy yoʻnalishlarni hisobga olgan holda tekislikda moʻljal ola biladilar. Bu malakalarni ular hali kichik va oʻrta guruhlardayoq doimo egallashgan. Hozirgi bosqichning asosiy vazifasi bu tajribani mustahkamlash, chuqurlashtirishdan iborat. Bunday mashqlar foydali: buyumlar tasvirlangan rasmlar varagʻi teksiligida kichik oʻyinchoqlarni, geometrik figuralarning modellarini joylashtirish. Bu topshiriqlarni bajarganlaridan keyin bolalar

obyektlarning tekislikda va bir – biriga nisbatan joylashuvlarini mustaqil ravishda tavsiflab berishlari kerak (masalan, qizil doiracha varaqning o‘rtasida uchburchaklar orasida turibdi, sariq uchburchak doirachadan chapda, ko‘k uchburchak esa, undan o‘ng tomonda turibdi).

Ish mazmunidagi yangi element -oraliq yo‘nalishlarni bilishdan iborat. Bola tekislikda oriyentir (mo‘ljal) olganidan keyin, uning har bir alohida elementini yoki qismini (burchagi, tomoni, uning biror qismi) yanada aniqroq aytishi mumkin. Endi varaq tekisligining to‘rttala burchagining har bir xususiy tavsif oladi: ustki o‘ng burchak, ustki chap burchak, pastki chap burchak va h.q. Varaq sirtida, masalan, markazdan balandda (tepada) yoki markazdan pastda (quyida) joylashgan yana ikkita qismii o‘ng va chap qismii ajratish mumkin; varaq sirtining to‘rtta qismining har biri ikki yoqlama, ya’ni ustki o‘ng qism yoki pastki chap qism kabi, fazoviy tavsif oladi. Fazoda mo‘ljal olish malakalarini qiyinlashtirish shart – sharoitlariga besh yoshli bolalarning bilimlari bemalol yetadi, ammo bunda bitta shart bajarilishi zarur: elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg‘ulotlarida didaktik o‘yinlardan, qiziqarli mashqlardan keng foydalanish kerak. Va, nihoyat, oxirgisi: bolalarga faqat “o‘zidan” emas, balki boshqa odamga, boshqa buyumlarga nisbatan mo‘ljal olishga o‘rgatish haqida. O‘quv – o‘yin topshiriqlari – o‘rtog‘ining o‘ng tomoni yoki chap tomoniga turish, undan oldinda yoki orqada turish, ko‘rsatilgan buyumga nisbatan o‘zining fazodagi o‘rnini tavsiflab berish; ko‘rsatilgan oriyentirga nisbatan bir yoki bir necha buyumni joylashtirish – bolalarning bu malakalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

**Tayyorlov guruhi.** Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarning harakat yo‘nalishida ularning o‘zi va buyumlar orasidagi, buyumlarning o‘zi orasidagi fazoviy munosabatlarda, shuningdek, qog‘oz varag‘ida (tekislikda) mo‘ljal olish malakalari rivojlantiriladi va mustahkamlanadi. Bolalar bilan ishlash metodikasi “chapdan – o‘ngdan”, “ustida – ostida” kabi qarama- qarshi yo‘nalishlarni ajratishga asoslanishi kerak.

Bolada qog‘oz varag‘ida mo‘ljal olish malakalarini shakllantirish uchun bunday topshiriq beriladi: varaqning yuqori chekkasiga 4 ta varaqcha va pastki chekkasiga shuncha gulcha qo‘yish. Shundan keyin tarbiyachi bolalarga nima qayerda yotganini gapirib berishni taklif qilishi mumkin. Bundan keyin topshiriqlarning murakkabroq variantlaridan 9figuralar miqdorini orttirish, ular o‘rinlarini almashtirish va h.q) foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, “kim eslab

qoladi?”, “nima o‘zgardi?”, “Nimalari bilan farq qiladi?”, “Juft kartochkalar” kabi o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Bunday topshiriqlarni o‘tkazish metodikasi haqida fikr yuritamiz.

Olti yoshli bolalar “o‘ziga” nisbatan to‘la ishonch bilan mo‘ljal oladilar. Ammo hali ularning ko‘pchiligi buyumlarning, boshqa odamlarning o‘ng va chap tomonlarini farq qilishda qiynaladilar. Ularni, masalan, o‘zi tomoniga yuzi bilan aylangan o‘rtog‘ining o‘ng qo‘li uning chap qo‘li qarshisida bo‘lish holi ajablantiradi.

Nega bunday bo‘ladi? Oldingi ish natijasida bolada quyidagi bilim va malakalarning puxta stereotipi (andozasi) yig‘ilib qoladi: o‘ngda (o‘ngroqda, o‘ngga), o‘ng qo‘l turgan tomonda bo‘ladi. Bu fazo “o‘zidan” mo‘ljal olishda mutlaqo to‘g‘ri. Ammo endi vaziyat o‘zgardi. “Bolaga boshqa odamdan yoki boshqa buyumlardan mo‘ljal olish taklif qilinadi. Demak, munosabat nuqtasi subyektning o‘zidan tashqarida belgilanadi. Bu yerda oldinga tajriba fazoviy vaziyatlarning yangi variantlari bilan ziddiyatlikka kirishgandek bo‘ladi. Haqiqatda esa, masalan, bola o‘zi bilan juft bo‘lib turgan. Malik o‘zidan o‘ng tomonda turganini yaxshi biladi. Bu endi odat, oddiy haqiqat. Ammo teskari fazoviy munosabatlarni (chunonchi, “Agar Malik mendan chap tomonda turgan bo‘lsa, u holda men undan o‘ng tomonda turgan bo‘laman”) tushunish tayyorlov guruh bolalari uchun ham unchalik oson emas. Bu yerda “boshqa odamga nisbatan” mo‘ljal olish vaziyati mavjud. Buni to‘g‘ri tahlil qilish uchun bola eng oldin o‘rtog‘ining o‘ng va chap qo‘li (tomoni) ni aniqlashi kerak. Katta guruhda bolalar bu malakani egallab olishgan, endi esa shu malaka puxta va ustivor ko‘nikma bo‘lishi kerak.

Olti yoshli bolalar o‘ng va chap tomonni boshqa odamga nisbatan aniqlashni xuddi o‘ziga nisbatan o‘ng va chap tomonni aniqlagandek aniqlashini yaxshi tushunib olmoqlari kerak (chap tomon o‘ng qo‘l turgan tomonda, o‘ng tomon chap qo‘l turgan tomonda) aniqlashning samarali usuli xayolan o‘rtog‘ining orqasiga turishdan iboratdir. Shunday qilib, “yuzi bilan orqasiga” boshlang‘ich holatidan, ya‘ni bola shrtog‘ining orqasida turgan holatida boshqa odamga nisbatan o‘ng va chap Tomonni aniqlash kerak, shundan keyin “yuzma-yuz” holatida, ya‘ni boshqa bola qarshisiga turib, “o‘ng-chap”ni farqlash kerak. Keyinroq esa har qanday boshlang‘ich holatda, hatto o‘rtog‘i orqasi bilan turganda ham, “o‘ng –chap” tomonlar aniqlanadi.

Katta guruh bolalari fazoviy yo‘nalishlarning asosiy guruhlarini muvaffaiyatli farqlay oladilar. Ular bu bilimlardan atrof fazoda va gorizont tekislikda mo‘ljal olishda bimalol foydalana oladilar. Kichik

yoshdagi guruhda ularga oraliq yoʻnalishlar (“oʻngdan oldinda”, chapdan oldinda”) tanishtirilgan, ammo amalda qoʻllashni bittagina vaziyat –varaʻq tekisligida moʻljal olish bilan chegaralanilgan edi. Maktabgacha tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Chunonchi, bolalar atrofdagi fazoda (guruh xonasi, zal, uchastka) moʻljal olib, endi guruh xonasi yuzining oldingi oʻng qismini, yoki oldingi chap qismii ajrata oladilar, orqadagi oʻng burchakni, yoki chap burchakni aniqlab oladilar va h.q shu fazo chegarasida mavjud har bir buyumga imkoni boricha aniq fazoviy – ogʻzaki tavsif beriladi. Yoki ular oʻyinchoq mashinani (toychoqni, kuchukchani, ayiqchani) qaror ekanlar, har bir gʻildirakni (oldingi oʻng yoki oldingi chap, orqadagi oʻng yoki chap gʻildirak) ajratib va tavsiflab bera oladilar. Fazoviy yoʻnalishlarni, shuningdek, oraliq yoʻnalishlarni hisobga olib, moʻljal olish tajribasi ham ancha oʻzgaradi. “buyumlardan” moʻljal olishga oid topshiriqlar miqdori asta –sekin ortadi. Topshiriqlarni bajarish surʻati va sifatiga nisbatan talablar ortadi. Koʻp mashqlar musobaqa elementlarini oʻz ichiga oladi (topshiriqni kim tezroq, aniqroq bajaradi) shunday qilib, maktabga tayyorlov guruhida murakkablashtirish elementlari va baʻzi yangi topshiriqlar amalga oshirila boradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish qaysi yoshdan boshlab oʻrgatiladi?
2. Fazoda moʻljal olishning mazmuni haqida fikringiz.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tekislikda moʻljalga olish qanday oʻyinlar orqali oʻrgatiladi?

## **2.12. Bolalarda vaqt tasavvurlarini shakllantirish**

### **Vaqt boʻyicha moʻljal olish tushunchasining mazmuni.**



Bolalarning oʻzlari rejimning har xil momentlarini bajarish uchun qanchadan vaqt sarflaganliklariga qiziq boshladilar. Ular rejimni ongli bajaradigan boʻlishdi. Bolalarda bir, ikki yoki bir necha daqiqaning oʻtishini aynan bir xil farqlash malakasi shakllandi. Bolalar rivojlanishining umumiy samarasi

shunday boʻldi, unda nafaqat intellektual, balki axloqiy komponentni ham koʻrish mumkin.

M.I.Vasilyeva bolalarni hammasi boʻlib bittagina vaqt oʻlchovi birligi— daqiqa bilan tanishtirdi. Shunisi juda qimmatliki, bolalarda



vaqtni his etishni, ularni daqiqa bilan tanishtirish asosida rivojlantirish ataylab qilingan tadqiqotlarsiz, jonli pedagogik jarayon sharoitlarida amalga oshirildi. Bolalarga daqiqaning davomiyligini ular uchun qiziqarli bo'lgan har xil faoliyatlarda his etishni taklif qilindi. Masalan, tarbiyachi bolalarga bir daqiqa davomida ko'ptokni polga urib o'ynashni yoki ko'ptokni osmonga otib, ilib olib, o'ynashni taklif qiladi. Bir xil o'yin-mashqlar sakragichlar, halqalar bilan ham o'tkaziladi. Bolalar daqiqaning davomiyligini his etishlari uchun ba'zan ularga bir daqiqa jim o'tirish taklif qilinadi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini qanoatlantirish uchun ularning rejimning biror momentini bajarishga qancha vaqt sarflaganliklarini, har bir bolaning faoliyat sur'ati qandan ekanini aytib berdi. Keyinroq bolalarning o'zlari masalan, kiyinish uchun sarflagan vaqtlari davomiyligini aniqlashadi- Tarbiyachi esa, bolalarning vaqt haqidagi hukmlarining aynan bir xilligini tekshirib turadi.

Bolalarda vaqt bo'yicha mo'ljal olish malakasi qachon rivojlana boshlaydi, demak, qachon maxsus pedagogik rahbarlik talab qilinadi?

Ma'lumki, vaqtga nisbatan refleks hayvonlarda ham, odamlarda ham mavjud. Masalan, bola hayotining birinchi onlarida shakllanadigan vaqtga nisbatan refleks emizishlar orasida o'rnatilgan vaqt oraliqlari davomiyligini his etishdan dalolat beradi. Mana shuning o'zi rivojlanayotgan bolada vaqt bo'yicha mo'ljal olishning dastlabki bosqichidir, u hozircha dastlabki signal xarakteriga ega.

Ma'lumki, vaqt bo'yicha oriyentr (mo'ljal) olish hayvonlarda ham kuzatiladi. Bu malaka hayvonlarda biologik ehtiyojlarning paydo bo'lishi va organizm faoliyatining davriyligi asosida rivojlanadi. Shu sababli hayvonlarda vaqt bo'yicha mo'ljal olish, aniqlik va takomilning eng yuqori darajasiga yetgani bilan ham ularning mutlaqo biologik ehtiyojlari bilan shartlanilgan chegaradan oshib ketmaydi.

Falsafa va psixologiyaning tasdig'icha, vaqtni idrok etish bo'yicha mo'ljal olish insonda biologik asosda ham, ijtimoiy asosda ham, uning hayotiy faoliyatida keng ijtimoiy aloqalar va munosabatlar jarayonida paydo bo'ladi va shakllanadi.

Vaqtning birinchi signal aloqalari shaklidagi hissiy in'ikosi (akslanishi) bola hayotining birinchi oylaridayoq, bunda, albatta, o'zining biologik asosini yo'qotmagan holda, ijtimoiy jihatdan bevosita namoyon bo'ladi. Keyinchalik vaqtni birinchi signal aloqalarni shaklida hissiy akslanishi ikkinchi signal aloqalari sistemasiga kiritiladi va muhim sifat o'zgarishlariga uchraydi. Vaqtni his etish ham sifat jihatidan boshqacha bo'lib qoladi, vaqtni his etishni rivojlantirish bolaning vaqt o'lchovlari birliklarini doimo o'zlashtirishiga asoslanadi.

Atrofdagi olamning inson miyasida akslanishining umumiy tabiatiga o'xshash, fazoni va vaqtni akslantirish bir vaqtning o'zida bilish bosqichlari hisoblanadigan ikki asosiy shaklda, ya'ni bevosita (hissiy-obrazli) va bilvosita ifodalangan (mantiqiy-tushunchaviy) shaklda yaqqol namoyon bo'ladi. Aks ettirishning bu asosli shakllarining o'zaro bog'liqligi va birligi borliqning fazoviy va vaqt munosabatlarining akslanish sohasida ham payqala boshlaydi.

Akslantirish va vaqt bo'yicha mo'ljal olishning yangi darajasiga o'tishni, odatda, nutqning shakllanishi davri bilan, bola nutqining lug'at tarkibi va grammatik tuzilishi ixtisoslashtirishi davri bilan bog'laydilar. Bu jarayonda bola tomonidan maxsus («vaqtga» doir) atamalarining o'zlashtirilishi va kattalarning o'rgatuvchilik funksiyasiga muhim rol ajratiladi.

Shunday qilib, maktabgacha bo'lgan yoshni bolaning vaqtga nisbatan mo'ljal olishni nazariy bilishini dastlabki bosqichining shakllanishi va vaqtni hissiy va mantiqiy aks ettirish birligini shakllantirish, deb tavsiflash mumkin.



Ikkinchi signal aloqalarida vaqt bo'yicha mo'ljal olish yoki uning «mantiqiy-tushunchaviy» darajada aks ettirilishida vaqtning har xil birliklarni yoki vaqt o'lchovini bilishning zarurligi nazarda tutiladi. Vaqtning sekund, daqiqa, soat, kun,

sutka, hafta, oy, yil va boshqa o'lchov birliklari o'ziga xos etalonlar-dir. Insonning obyektiv borliqning vaqtga oid munosabatlarini tarixan bilish va obyektiv baholashining umumlashtirilgan tajribasi shunday birliklarda to'plangan. Vaqt o'lchovi birliklari o'zaro bog'langan va ular o'ziga xos sistema

hosil qiladi. Vaqt o'lchovining har bir keyingi birligi ma'lum miqdordagi oldingi miqdordan tuziladi. Chunonchi, masalan, 60 sekund bir daqiqani hosil qiladi, bir soat 60 daqiqaga teng; bir sutka 24 soatga teng; bir, yil 12 oyga teng va h.k


Vaqt etalonlarining butun sistemasini o'zlash-tirish asosida vaqt o'lchovi \* birliklari orasidagi munosabatlarni uni tuzuvchi komponentlar sifatida tushunish yotadi.

Mana shuning uchun ham maktabga borguncha bolalarning vaqt bo'yicha mo'ljal olish malakasining ontogenik va psixodidaktik aspektlari birinchi navbatda bolalar tomonidan alohida vaqt o'lchovi birliklarini, shuningdek, vaqt etalonlari sistemasini o'zlashtirishdan iborat.

Shunday qilib, bolalar bog'chasida vaqt bo'yicha mo'ljal olishning rivojlanishi tor didaktik maqsadlarga xizmat qila olmaydi, u bola shaxsini kamol toptirishning samarali vositasi bo'lib qolishi kerak. Har xil guruhlarda vaqt bo'yicha mo'ljal olish malakasini shakllantirish masalasi va metodikasini xuddi shu pozitsiyalardan qarash kerak.

## **2.Ikkinchi kichik guruh.**

Vaqt tushunchalarini shakllantirish ishini kundalik turmushda o'tkazish kerak. Aniq kun tartibi (qat'iy o'rnatilgan turish vaqti, tonggi gimnastika, mashg'ulotlar, ovqatlanish, hordiq chiqarish vaqtlari) bolalarda sutka qismlari haqida tasavvurlarni shakllantirish uchun real sharoitdir.



Sutka davomida tarbiyachi bolalar e'tiborini ular faoliyatlari xarakterlari bilan bog'liq har xil vaqt oraliqlari o'rtasidagi munosabatlarga qaratadi. Tarbiyachi sutka qismini aytadi va bolalarning shu qismga mos keluvchi faoliyat turlarini sanab o'tadi, masalan: «Hozir er-talab. Siz gimnastika qildingiz, yuvindingiz, nonush-ta qilasiz». yoki «Hozir kunduzi. Kunduzi ota-onalarimiz ishlashadi, biz esa shug'ullanamiz».

Tarbiyachi bitta bola bilan, kichik-kichik guruhlar bilan suhbatlashib, ulardan kechasi, ertalab (uyg'onganlaridan keyin), kunduzi nima qilganliklarini gapirib berishni so'raydi.

Elementar matematik tasavvurlarni rivojlan-tirishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda bolaning sutka haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir vaqt oralig'i uchun xarakterli bo'lgan faoliyat turlari tasvirlangan rasmlar o'zlariga ko'rsatiladi va



ulardan soʻraladi: «rasmda tasvirlangan bolalar nima qilishmoqda? Buni ular qaysn vaqtda qilishmoqda?» Ushbu savollarga javob berish taklif qilinadi: «Sen qachon dam olasan? Sayr qilasan? Uxlaysan? va h.k. Kichkintolarga kunduzi, kechasi, ertalab, kechqurum tasvirlangan rasmlarni sutkaning berilgan qismi uchun xarakterli boʻlgan amaliy faoliyatlari tavsiflangan hikoyalardan, sheʼrlardan parchalar oʻqishdan ham foydalapish mumkin.

Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda ularning sutkaning u yoki bu vaqtiga mos keladigan faoliyatlari va tabiat hodisalari tasvirlangan syujetli rasmlarni qaraydi, illyustrativ materiallardan foydalanib va ularsiz didaktik oʻyinlar oʻtkazadi, suhbatlashadi, hikoyalar, ertaklar oʻqiydi.

Tarbiyachi asta-sekin bolalar sutka qismlarining xarakterli belgilarini farqlashlariga, ularni gapirib berishlariga erishadi.

Ish vaqtining oraliqlari, yaʼni kunduz-kecha, ergalab-kechqurun, yaqqol tasvirlangan rasmlarni qarashdan boshlagan maʼqul. Bunda tarbiyachi bolalarning vaqtning u yoki bu oraligʻidagi faoliyatlari haqidagi xotiralarini faollashtiradi. Masalan, kun tasvirlangan rasmni koʻrsatadi va soʻraydi: «Rasmda nima tasvirlangan?»

Bolalar. Bolalar oʻynashmoqda. Quyosh yoritmoqda. Qushchalar uchmoqda.

Tarbiyachi. Qachon quyosh yorqin nur sochadi?

Bolalar. Kunduzi.

Tarbiyachi- Bolalar, siz kunduzi nima qilasiz?

Bolalar. Oʻynaymiz, ovqatlanamiz, shugʻullanamiz va boshqa ishlarni qilamiz.

Tarbiyachi. Ota-onalarimiz kunduzi nima qilishadi?

Bolalar. Ota-onalarimiz kunduzi ishga borishadi.

Shundan keyin, kechasi tasvirlangan rasmni qarab, bolalar kechasi qorongʻi boʻlishini, osmonda yulduzlar va oy boʻlishini, uylarda elektr lampochkalar yonayotganini, kechasi hamma uxlashini taʼkidlaydilar.

Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda ertalab va kechqurun tasvirlangan rasmlarni ham xuddi shu usulda qaraydi. Tabiatda va odamlar faoliyatida sutkaning u yoki bu qismi yorqin tasvirlangan (ajratilgan) rasmlarni tanlashadi.

Bolalar olgan bilimlarini keyingi mashgʻulotda mustahkamlash zarur. Shu maqsadda sutkaning har bir qismiga oid belgilar yorqin tasvirlangan ertak aytib berish mumkin. Masalan, tarbiyachi quyunchani stolga oʻtkazadi va u oʻrmondan kelganligini aytadi.

Quyuncha bolalar bilan salomlashadi «Hozir, - deydi tarbiyachi, - shu quyuncha haqida ertak aytib beraman». Oʻrmonda bir quyuncha yashar edi. Bir kun ertalab vaqtli uygʻondi, derazadan qaradi va oʻrmon yorugʻ, quyosh koʻtarilib kelayotganini, qushlar sayrayotganini koʻrdi. Quyuncha boʻsagʻaga chiqdi - kun issiq, badantarbiya qildi. Tishlarini tozaladi, yuvindi. Shundan keyin nonushta qilish uchun stol yoniga oʻtirdi... Nonushta qilib boʻlganidan keyin, oʻz doʻstlari - quyunchalar bilan oʻynash uchun oʻrmonga chopib ketdi.

Tush payti boʻldi. Oʻrmon juda isib ketdi. Quyuncha uyiga chopib bordi, panjalarini yuvdi va ovqatlanish uchun stol yoniga oʻtirdi. Tushlikdan keyin hordiq olish uchun karavotchaga yotdi, uxlab uygʻonganidan keyin yana oʻynash uchun oʻrmonga chopib ketdi.

Mana endi quyosh bota boshladi. Qorongʻu tusha boshladi. Qushchalar sayrashdan toʻxtashdi. Kech boʻldi. Quyuncha oʻz oʻrtoqlari bilan xaprlashib, uyga chopib ketdi. Uyida u ovqatlandi va uxlash uchun yotdi.

Tim qorongʻi kecha boshlandi. Oʻrmonda hamma narsa - quyuncha ham, qushcha ham, kapalak ham uxlamogʻda, quyosh ham uxlamogʻda, Faqat yulduzlar bilan oy bedor. Ular tim qorongʻu kechada yorqin nur sohib turishibdi.

Bolalar, quyuncha oʻz fotosuratini oʻrmondan keltirdi, u qachon suratga tushganini, yaʼni ertalab, kech-qurun, kunduzi yoki kechasi suratga tushganini bilishni istaydi».

Tarbiyachi quyunning sutkaning har vaqtidagi hara-katlari tasvirlangan rasmlarni bolalarga koʻrsatadi-Bolalar qachon nima boʻlishini aniqlaydilar va nega bunday deb oʻylashlarini tushuntirib beradilar.

Keyingi mashgʻulotda tarbiyachi har qaysi bolaga ertalab, kechqurun, kunduzi va kechasi tasvirlangan toʻrttadan rasm beradi va sutkaning u yoki bu vaqti tasvirlangan rasmni koʻrsatishni soʻraydi. Eng yaxshisi bolalarning va kattalarning harakatlari yoki tabiat hodisalari tasvirlangan rasmlarni tanlash maqsadga muvofiq. Bu mashgʻulotda vazifa yanada murakkablashtiriladi. Bolalar mustaqil ravishda sutkaning har-xil qismlari uchun xarakterli boʻlgan belgilarni ajratishlari kerak, bitta emas, balki birdaniga toʻrtada rasmni tahlil qilib, ularni tarbiyachi aytgan tartibda joylashlari, ketma-ketligini aniqlashlari kerak.

To'rtinchi mashg'ulotda bolalarning sutkaning qismlarini haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Mashg'ulot didaktik o'yin tariqasida o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga qachon nima bo'lishini topishni taklif qiladi.

O'yinda sutkaning har xil qismi uchun xarakterli bo'lgan belgilarni aytishadi, bolalar esa bu qachon bo'lishini aniqlashadi. Masalan, «Quyosh chiqadi. Onalar va otalar ishga ketishadi, bolalar esa bog'chaga borishadi». Quyosh yuqori ko'tariladi. Bolalar sayr vaqtida o'ynashadi. Yoki «Ko'cha qorong'i. Osmonni oy yoritmoqda, uylarning derazalarida esa chiroqlar yorug'i ko'rinib turibdi» va h.k.

Kichik guruhda bolalarni sutkaning qismlarini ularning xarakterli belgilari bo'yicha farqlashga taxminan shunday o'rgatish mumkin.

**3.O'rta guruh.** O'rta guruhda tarbiyachi bolalarning aktiv lug'atlarida sutka qismlarining nomlarini mustahkamlaydi, bolalarning vaqtning bu oraliqlari haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtiradi va kengaytiradi. U doimo bolalar e'tiborlarini sutka qismlarining almashinishi ketma-ketligiga qaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar har doim ertalab kechasidan keyin kelishini va kunduzi bilan almashinishni, kunduzi kechqurun bilan, kechqurun esa kechasi bilan almashinishini bilib oladilar.

Sutka qismlarining ketma-ketligini bilishlarini mustahkamlash uchun rasmlarni qarashni, ular bo'yicha hikoyalar tuzishni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Rasmlar qarab bo'linganidan keyin, bolalarga ularni stollarga to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish va sutkaning qismlarini tartibi bilan aytish topshirig'ini berish mumkin. Yil oxirida bolalarga shu mashqlar asosida sutka haqidagi umumlashgan tasavvurlarni berish va "sutka" so'zining mazmunini ochib berish mumkin.

O'rta guruhda bolalar «kecha», «bugun», «ertaga» tushunchalarini farqlashni o'rganib olishlari kerak. Kattalar tomonidan tegishli no'llardan har doim foydalanish buning uchun eng yaxshi sharoitdir. Masalan, bolalarga yangi o'yinchoqni



ko'rsatishdan oldin tarbiyachn \_ularga bugun u yangn o'yinchoq ko'rsatishi va ular shu o'yinchoqni o'ynashlari haqida ogohlantirishy kerak. Yeki tarbiyachi bolalarga kecha nima bilan mash-g'ul bo'lgapliklarnni, bugun ertalab nima qilganlik-larini eslashni taklif qiladi. Bolalarga bunday deyish mumkin: «Bugun biz sizlar bilan loy va plastilindan narsalar yasanmiz, ertaga esa, rasm chizamiz». Kecha biz sizlar bilan uchastkada sayr qildik, bugun esa parkka boramiz» va h.k. Maktabgacha yoshdagi bola-lar tarbiyachi bilan har doim shunday muloqotda bo'lib, bu tushunchalarni o'zlashtiradilar. Konkret misollarda «tez-sekin» tushunchalari bilan tanishadilar.

O'rta guruhda bolalarda vaqt bo'yicha mo'ljal olish malakalarini shakllantirish ishini kichik guruhda qanday o'tkazilgan bo'lsa, shunday o'tkaziladi; tarbiyachi o'yin usullaridan, illyustrativ materialdan keng foydalanadi, bolalarning u yoki bu vaqt oralig'i uchun xarakterli bo'lgan tabiat hodisalari, odamlarning harakatlari haqidagi tasavvurlarini faollashtiradi-O'rta guruhda sutka qismlarpning ketma-ketligini yaxshi eslab qolish uchun endn ramziy ayoniylik elementlaridan foydalanish mumkin. Chunonchi sutkaning qismlari har xil rangdagi doirachalar bilan tasvirlanadi. Masalan, oq doiracha kunduzini, qora doiracha kechasni, sariq doiracha ertalabni, ko'k doiracha kech-quruni bildiradi.

Dastlab bolalar xotirasida sutka qismlarining xarakterli belgilarini faollashtirish va bolalarni sekin-asta ular ketma-ketligini egallashga olib kelish maqsadga muvofiq. Mashg'ulotni, masalan, bunday o'tka-zish mumkin.

Ayiq keladi, bolalar bilan salomlashadi. Tarbiyachi nega u g'amgin ekanini so'raydi. Ayiq rasmlar olib kelganini, bolalarga tartibi bilan: ertalab, kechqurun, kunduzi, kechasini ko'rsatmoqchi ekanini, ammo hammasini aralashtirib yuborganini, endi ertalab qayerda, kunduzi qayerda, kechqurun qayerda, kechasi qayerda ekanini bila olmayotganini aytadi. Tarbiyachi rasmlarni tartibga solishda ayiqqa yordam berishni taklif qiladi, bolalardan rasmlarni qanday joylashtirish kerakligini so'raydi. Doskaga tartibsiz joylashtirilgan rasmlar orasidan bolalar ertalab, kunduzi, kech-qurun, kechasi tasvirlangan rasmlarni topadilar va ularni kerakli tartibda joylashtiradilar. Bolalar rasmlarni tartibga solib olgunlaricha, tarbiyachi ularga sutkaning har xil qismlari haqida

topishmoqlar aytadi. Topishmoqlar ko‘proq qiziqarli bo‘lishi uchun ularni she’rlar shaklida olish ma’qul.

Mashg‘ulot oxirida tarbiyachi doim ertalabdan keyin kunduzi kelishi, keyin kechqurun kelishi, so‘ngra kechasi, kechasidan keyin yana ertalab kelishini ta’kidlaydi.

Keyinroq bolalar sutka qismlari ketma-ketligini, ularning istalganidan boshlab aniqlashni o‘rganadilar, «sutka» tushunchasini o‘zlashtiradilar. Bu ishda har xil rangdagi doirachalardan sutkaning har xil qismlarini aniqlash uchun belgilar sifatida foydalanish mumkin.

Tarbiyachi mashg‘ulotda oldin bolalarning sutka qismlarining ketma-ketligi haqidagi bilimlarini aniqlashtiradi: «Ertalab o‘tishi bilan nima boshlanadi? Ertalab qachon boshlanadi?» Shundan keyin doirachalarni ko‘rsatadi va ular bilan ertalabni, kechquruni, kunni va kechasini belgilash mumkinligini aytadi. Oq doiracha kunduzini bildiradi. Qora doiracha kechasini bildiradi. Kechasi qorong‘u bo‘ladi. Sariq doiracha ertalabni bildiradi. Ertalab quyosh chiqadi. Ko‘k doiracha kechquruni bildiradi.

Tarbiyachi doirachalarni ushbu tartibda joylash-tiradi: sariq, oq, ko‘k, qora va bolalardan doirachalar rangini aytish va ular nimani bildirishni tushuntirib berishni so‘raydi. Shunday doirachalar hamma bolalarga ham beriladi- Tarbiyachining ko‘rsatmasiga binoan, ular kunduzni, kechani, ertalabni, kechquruni bildiruvchi doirachalarni ko‘rsatishadi.

Keyingi mashg‘ulotda bolalarda sutka qismlarining istalganidan boshlanadigan ketma-ketligi haqidagi bilimlarni shakllantirishga doir ish qilinadi. Pa’noga har xil rangdagi doirachalar qo‘yiladi. Bolalar har qaysi doirachaning rangi nimani bildirishini eslashadi va ularni rangi bo‘yicha sariq, oq, ko‘k, qora (ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi) tartibda joylashtiradilar. Bolalar sutka qismlarining ularning istalganidan boshlangan ketma-ketligini o‘rnatish bo‘yicha shu usulda mashq qiladilar.

Tarbiyachi bunday deydi: «Ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi — bularning hammasi sutkaning qismlaridir. Sutka har doim shu to‘rtta qismdan iborat. Endi siz sutkaning qaysi qismlarini bilasiz? Ertalabdan keyin sutkaning qaysi qismi keladi? Ularni Tartibi bilan ayting. Kechqurundan keyin sutkaning qaysi qismi keladi? Ularni tartibi bilan ayting. Ertalab, kunduzi, kechqurup va kechasi birgalikda nimani tashkil qiladi? (sutka)».

Shundan keyin bolalar sutkalarining almashinishi bilan tanishadilar, «kscha», «bugun», «ertaga» tushunchalarini o‘zlashtiradilar. Doirachalar — sutka qism-larining ramzidan foydalanib, bolalar qaysi qismdan xohlashsa, o‘sha qismdan boshlab sutkaning hamma qismini tartibi bilan aytadilar-

Tarbiyachi bolalarga sutkalar har doim bir-biri bilan almashninishini tushuntiradi.

Kechasi soat zang urganda bir sutka tamom bo‘lib, ikkinchi sutka boshlanadi. Soat zang urguncha bo‘lgan sutqa kecha deb ataladi. U o‘tib bo‘lgan bo‘ladi. Soat zang urgandan keyin boshlangan sutka bugun deb ataladi. Soatning zang urishidan keyin keladigan sutka ertaga deb ataladi. Sutkalarining hammasida to‘rtta qism mavjud: ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi.

Bolalar kecha ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi nima qilganlarini va ertaga nima qilishlarini gapirib beradilar. Kepingi mashg‘ulotlarda bu bilimlar mustahkamlanadi.

O‘rta guruhda bolalar sutkalar va ularning qismlarini farqlashnigina emas, balki harakat tezliklarini, ya’ni tez, sekinni umumiy tarzda aniqlaydilar. Masalan, stol yoniga chaqirilgan ikkita bola sayr qilish uchun qo‘g‘irchoqni kiyintiradilar, yaproqlardan namunaga qarab gul tuzadilar va h.k. Qolgan bolalar bu ishni kim tezroq, kim sekinroq bajarganini kuza-tyb turadilar. Bolalar mavjud tasavvurlariga taya-nnb, nima tezroq uchishini (chopishini, suzishini), tayyorami (samolyotmi) yoki qushmi, o‘rdakmi yoki baliq-mi, itmi yoki sigirmi va h.k. taqqoslashadi.

**Katta guruh.** Katta guruhda asosiy e’tibor haftadagi o‘zgarishni, yil fasllarining xarakterli xususiyatlarini ongli o‘zlashtirishga qaratiladi. Bolalar kecha qaysi kun bo‘lgani, bugun qaysn kun ekannnn, ertaga qan-sn kun bo‘lishini, haftadagi kunlar sonini, ularniNg tartibinn aytishni o‘rganadilar. Bunday tashqari, bolalar Gshl fasllarining xarakterli belgilarini o‘zlarning bu vaqtdagi o‘yinlarini, odamlarning ta-biatdagi mehnatlarini annqlaydilar.

Ma’lumki, bolalar hafta kunlarni bir tekisda o‘zlashtirmaydilar. Ular yakshanba, shanba va dushanba-mi eng yaxshi eslab qoladilar.

Y a k s h a n b a - xursandchiliklar bo‘ladigan kun, yaqinlar bilan, ya’ni ota-opa, buvi va boshkalar bilam birga bo‘ladigan kun. Bu kun yaia shunisi bplai ham g‘ay-rioddiy kunkp, ba’ziia bola

hayotining odatdagi tar-tibi o'zgaradi: buvisining uyida tushlik qplish, meh-monlar kelishi, kinoga borish va h. k.

Shanba ham yakshanbaga o'xshagan kun. Bu kunlar-ning bola tomonidan haftaning boshqa kunlaridan alohida ajratilishining sababi shundan iborat bo'lsa kerak. Shu narsa ham payqaldiki, bolalar bog'chada butun sutka davomida bo'lishlari munosabati bilan shanba va yakshanba bilan birgalikda, chorshanba ham ajratishadi. Nega? Odatda, ota-onalar bolalarini chorshanbada uylarga olib ketadilar. Ular shuning uchun ham bu kunni yaxshi biladilar, uni kutadilar. Bolalar dushanba ham yaxshi biladilar, chunki shu kuni ular, yakshanbadan keyin bog'chada bo'lishlarining birinchi kunidir. Seshanba, payshanba va juma kunlari alohida ahamiyatli voqealar bilan belgilanmagan. To'g'risi, juma kunini bolalar dam olish arafasi sifatida, bolalar bog'chasida bo'lishlarining dam olinadigan kunlardan oldingi oxirgi kun sifatida yaxshiroq biladilar va ajratadilar. Shunday qilib, kichik bolalarning haftaning har xil kunlarini bilishdek bilimlarni o'zlashtirishlarida ularning faoliyatlari va hayajonli kechinmalarining roli haqida gapirish uchun ba'zi asoslar bor.

Shu sababli bolalarni hafta tushunchasi bilan tanishtirishni haftaning hamma kunlarini o'zlashtirish emas, balki kecha qaysi kun bo'lganini, ertaga qaysi kun bo'lishini aniqlashdan boshlash ma'qul. Bunda tarbiyachi oldin haftaning yakshanba, dushanba kunlarini, so'ngra esa, asta-sekin haftaning boshqa kunlarini o'rgatishni nazarda tutadi. Bolalar hafta kunlarining nomlarini aytibgina qolmay, balki ularga oid elementar ta'vsifnomalar berishlari muhimdir.

Masalan, tarbiyachi mashg'ulot davomida ushbularni suraydi: «Kecha qaysi kun edi?» «Ertaga qaysi kun bo'ladi?» Agar bolalar haftaning kunlarini aytishda qiynalishsa, tarbiyachining o'zi aytadi. U yakshanba dam olish kuni ekanini aytadi. Shu kuni hamma dam oladi. Bolalar bog'chaga borishmaydi. Yakshanbadan keyin dushanba deb ataluvchi kun keladi. Bu dam olish kunidan keyin bolalar bog'chaga, kattalar ishga boradigan birinchi kun va h.k.

Shunday qilib, tarbiyachi bolalarni haftaning kunlari bilan ketma-ket tanishtiradi. Bolalar hafta kunlarining nomlarini va ular tartibini yaxshi eslab qolishlari uchun, ularning e'tiborini hafta kunining nomi bilan uning tartibi orasidagi bog'lanishga qaratish

kerak- Masalan, chorshanba — haftaning oʻrtasi payshanba— haftaning toʻrtinchi kuni, juma esa haftaning beshinchi kuni va h.k.

Bolalar hafta kunlarini farqlash va aytishni oʻrganib olganlaridan keyin, kunning hamma nomlarini ketma-ket oʻzlashtirish ustida ish boshlash mumkin. Bolalar haftada hammasi boʻlib necha kun borligini aniqlashadi, ularning tartibini aytishadi. Tarbiyachi bolalardan haftaning qaysi kunlarini bilishlarini, ular haftada nechta ekanligini soʻraydi. Haftaning hamma kuni tartibi bilan kelib ketishini tushuntiradi: birinchi kun dushanba, ikkinchi kun seshanba, uchinchi kun chorshanba va h.k.

Taʼlimning bu bosqichida hafta kunlari tartibini yaxshi eslab qolish uchun rasmlardan - haftaning hamma kunlari tasvirlangan simvollaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bolalarga koʻrsatish uchun katta doira (diametri 35 sm) olish mumkin. Unda har xil rangli doirachalar (diametri 8 sm. li) tartibi bilan terib qoʻyilgan. Bu doirachalarning ichiga esa 1 dan 7 gacha sonlar yozilgan kichik doirachalar (hafta kunlari tartibiga mos ravishda 7 ta doiracha) joylashtirilgan. Har xil rangli doirachalar bunday joylashtirildi: qora, kulrang, koʻk, yashil, sariq, nimrang, qizil. Katta doira oʻrtasiga harakatlanadigan strelka joylashtirilgan.

Har qaysi bola alohida hafta kunlarini belgilovchi rangli doirachalar oladi.

**Tarbiyachi:** hafta kunlarini kattalar qanday bilishadi?

**Bolalar:** taqvimdan bilishadi.

**Tarbiyachi:** biz ham hafta kunlarini taqvimdan bilishni oʻrganib olamiz. Bizda bunday taqvim boʻladi (koʻrsatadi). Siz hafta yetti kundan iboratliginn bilasnz: dushanba, seshanba, chorshanba, iayshanba, juma, shanba va yakshanba. Istalgan kunni bnzning ka-lendardan doirachalardagi raqamlardan bilish mumkii, Undagi qora doira dushanbani bildiradi. Dushanba haftaning birinchi kuni. Shu sababli qora fonda bittagnna oq doiracha. Navbatdagi doira kulrang, unda ikkita oq doiracha. U haftaning ikkinchi kuni- seshanbani bildiradi va h.k.

Bolalar oʻz doirachalarini qaraydilar, bitta oq doirachali qora doirani topadilar. Bu dushanba. Bolalar shu usulda ketma-ket qaraydilar va barcha doirachalarni aytishadi.

Shundan keyin tarbiyachi strelka bilan rangli doirachani-taqvimdagi hafta kunlarini koʻrsatadi. Bolalar oʻzlaridagi doirachalardan xuddi shundaylarni topadilar va ularni aytadilar;



hamma doirachalarni qator qilib joylashtiradilar va hafta kunlarining hammasini tartibi bilan aytib chiqadilar. Bolalar hafta kunlarini to'g'ri va teskari tartibda ayta oladilar, sanoq bo'yicha haftaning to'rtinchi yoki beshinchi kunini aniqlaydilar, aytilgan kun qaysi kunlar orasida, aytilgan kungacha necha kun o'tganligini, aytilgan kundan oldin qaysi kun kelishini aniqlaydilar va «Hafta» taqvimini «Ob-havo» taqvimi bilan yonma-yon osib qo'yish mumkin, bunda bolalar har kuni strelka bilan haftaning o'tayotgan kunini belgilaydilar.

Katta guruhda taqvim bilan ishlash sanoq bilan tanishilgandan keyin o'tkazilishi kerak. Taqvimdan foydalanib tarbiyachi, bir tomondan, «hafta» tushunchasining mohiyatini chuqur tushunilishiga ershpadi, ikkinchi tomondan, bolalarni miqdor va sanoq bo'yicha mashq qildiradi.

Hafta kunlarining nomlari orasidagi farqningina emas, balki ularning tartib raqamlari, kunlar orasidagi to'g'ri va teskari bog'lanishlarni ham ko'rsatish kerak. Buning uchun eng yaxshisi qandaydir biror-bir jinsli (doiralar, uchburchaklar va h.k.) 1 dan 7 gacha buyumlardan foydalanish kerak yoki 1 dan 7 gacha bo'lgan raqamlardan foydalanish kerak.

Katta guruhda sutkaning qismlari haqidagi bilim-lar mustahkamlanadi. Sutka qismlarini bola vaqtning obyektiv ko'rsatkichlari tabiat hodisalari (quyosh yorqin nur sochadi — kunduzi; qorong'ulashdi — kechqurun va h.k.) bo'yicha ham aniqlay olishi kerak.

Kunning har xil vaqtida faoliyatning har xil turlari bilan shug'ullanayotgan bolalar tasvirlangan rasmlar, fotosuratlar; «Bizning kun», «Davom ettir», «Aksincha» kabi didaktik o'yinlar sutka qismlari haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash imkonini beradi.

Tarbiyachi bolalardagi mavjud tasavvurlarga tayanib, tarbiyachi ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi birga sutka hosil qilishini mustahkamlashni davom ettiradi. Turmushda biz ko'pincha sutka so'zini kunduzi so'zi ma'nosida nshlatamiz. Bir kun boshqa kun bilan almashinadi. Yetti kun bir haftani hosil qiladi. Haftaning har bir kuni o'z nomiga ega. Dushanba — haftaning boshlanishi, undan keyin seshanba, chorshanba keladi va h.k. Hafta kunlarining nomlari biror aniq faoliyat bilan bog'lansa (seshanba kunlari matematika va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanamiz, payshanba kunlari musiqa mashg'ulotlari bo'ladi va h.k.), bola uni eslab qolishi oson bo'ladi.

Bolalar tartib sanoqni o'zlashtirib olganlaridan keyin, ularni haftaning har bir kuni nomini uning tartibp bilan bog'mashga o'rgatiladi.

**5. Tayyorlov guruhi.** Bu yosh bosqichida bolalarda hafta kunlarining ketma-ketligi; yil fasllarining ketma-ketligi haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash ishi davom ettiriladi. Bolalarni oplarning nomlari bilan, hafta kunlarining ketma-ketligi har doim o'zgarmas ekan- lgn bilan tanishtirish kerak. Bu tartib: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba. Yetti sutka hafta hosil qiladi.

Katta guruhda boshlangan ish tayyorlov guruhida ushbu izchillikda davom ettiriladi. Bolalar hafta kunlarini to'g'ri va teskari tartibda aytishni o'rganadilar. Aytilgan kungacha va undan keyin haftada necha kun borligini, ikki aytilgan kun orasida qanday kun borligini aniqlaydilar. Aytilgan kunlar orasida tushib qolganlarini aniqlaydilar. Bolalar hafta har doim, sanashni qaysi kundan boshlaganimizdan qattiy nazar, o'z ichiga yetti kunni olishini bilishlari kerak.

Bu masalalarni hal qilish uchun «Hafta» taqvimi, «Hafta kunlari» kabi qo'llanmalardan foydalaniladi. Masalan, katta guruhda «Hafta kunlari ketma-ketligi» temasini o'rganishda tarbiyachi «Hafta, tizil» kabi didaktik o'yindan foydalanadi- Bolalarga kartochkalar - hafta kunlari tarqatiladi, ular shu kartochka bilan guruhda yurishadi. Tarbiyachining «Hafta, tizil» signali berishi bilan bolalar o'z kartochkalaridagi raqamlarga mos ravishda qatorga turadilar. Qolgan bolalar haftalar to'g'ri tizilganini tekshirishadi, hamma kunlarni tartibi bilan aytishadi, shundan keyin o'ynovchilar almashinadi.

Tayyorlov guruhida shu mashqning o'zini o'tkazishda bolalar har qanday kundan boshlab saflanadilar. Saflanish uchun signal sifatida hafta kunining nomi: seshanba, payshanba va h.k. xizmat qiladi yoki «Qaysi hafta oldin saflanadi?» o'yini o'tkaziladi. Guruhdagi bolalar soniga qarab, uchta yoki to'rtta hafta o'ynaydi, «Haftalar» oldin ikkita, so'ngra esa uchta yoki to'rtta kolonna (saf) bo'lib turishadi. Har qaysi bolaning bir qo'lida kartochka —hafta kunining sim-voli, ikkinchi qo'lida o'z «haftasi» nipg raqami bo'ladi. Birinchi kolonna («hafta») bolalariga, masalan, bitta uchburchakli, ikkinchi kolonna bolalariga ikkita uchburchakli, uchinchi kolonna bolalariga uchta uchburchakli kartochkalar tarqatiladi. Tarbiyachining «Haftalar, saflan» signali bo'yicha har kim o'z o'rniga turadi. O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi, tez va xatosiz saflangan kolonna yutib chiqadi. O'yinning borishida bolalar kartochkalarini almashtiradilar.

Katta va tayyorlov guruhleri mashg'ulotlarida tarbiyachi bolalarga hafta kunlari haqidagi masalalarni yechishni taklif qiladi. Qatta guruhlarda beriladigan topshiriqlar juda sodda bo'lib, ularda haftaning qo'shni kunlarini bilish talab qilinadi. (Ertaga biz qo'girchoq teatriga boramiz, bu qaysi kun bo'ladi? Kecha bizda musiqa mashg'uloti bo'ldi. Aytilgan kecha haftaning qaysi kuni edi? Bugun dushanba. Ertaga qaysi kun? Bizda haftaning ikkinchi kuni musiqa, rasm mashg'uloti esa, haftaning uchinchi kuni bo'ladi. Rasm mashg'uloti qaysi kuni bo'ladi? Sherzod baliq oviga bordi. U keyingi kuni - juma kuni qaytib keldi. Sherzod qaysi kuni baliq oviga borgan?).

Tayyorlov guruhida masalalar qiyinlashtiriladi. Masalan: Kamol . buvisinikiga dushanba kuni ketdi, ikki kundan keyin esa qaytib keldi. Kamol uyiga qaysi kuni qaytib keldi? Dushanba kupi Gulnora kasal bo'lib qoldi. U bog'chaga keyingi dushanba kuni keldi. Gulnora necha kun kasal bo'ldi? (Bir hafta, 7 kun). Hilola seshanba kuni, Ilhom esa undan bir kun keyin teatrga bordi. Ilhom qaysi kuni teatrga borgan?

Katta va tayyorlov guruhlarda bolalarning yil fasllari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishi ham bajariladi.

Yil fasllari haqidagi bilimlarni shakllantirishda mashg'ulotlarda rasmlar hamda hikoyalar, she'rlar, topishmoqlar, maqollar kabi og'zaki materiallardan keng foydalaniladi. Adabiyotdan yil fasllarini tasvirlovchi belgilarni ko'plab topish mumkin. Tarbiyachining o'zi yil fasllari haqida topishmoqlar, she'rlar, maqollar to'plamlarini tuzishi va zarur bo'lganda ulardan foydalanishi maksadga muvofiq bo'lar edi.

Yil fasllari haqidagi bilimlarni shakllantirishga oid dastlabki mashg'ulotlarda tekshirish mavsumlari - qish-yoz, bahor-kuz tasvirlangan rasmlarndan foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga rasmlarni ko'rsatadi va u yoki bu kartochkada yilning qaysi fasli tasvirlanganini va nima uchun bunday o'ylashlarini so'raydi. Bolalar yil fasllarini va ularning xarakterli belgilarini aytadilar. Ular yana u yoki bu yil fasllari haqida bilganlarini gapirib berishlari mumkin. Tarbiyachi bolalarga yo'naltiruvchi savollar bilan yordam beradi (savollar o'yinlar, kishilarning tabiatdagi mehnatlari, har xil tabiat hodisalari haqida bo'lishi mumkin).

Bolalarning bilimlarini mustahkamlash uchun illyustrativ material adabiy material bilan qo'shib foydalaniladi. Masalan,

tarbiyachi bolalarga yilning to'rt fasli tasvirlangan har xil kartochkalarni tarqatadi va qisqa she'r - topshiriqni o'qiydi. Bolalar javob kartochkani ko'taradilar va topishmoq yilning qaysi fasli haqida ekanini va nima uchun ular xuddi shu kartochkani ko'targanliklarini gapirib beradilar.

Bolalar hamma topishmoqni to'g'ri topganlaridan keyin, tarbiyachi yozdan keyin, qishdan keyin, kuzdan keyin, bahordan keyin yilning qaysi fasli kelishini so'raydi. Kartochkalarni yil fasllarining bir-biridan keyin kelish tartibida yoyishni taklif qiladi.

Bolalar yil fasllarining ketma-ketligini yaxshi eslab qolishlari uchun yil va uning fasllari simvollaridan (rasmlarni qarab chiqqanlaridan keyin) foydalanish mumkin. Bu to'rtta teng qismga bo'lingan va har qaysi qism boshqa rangga bo'yalgan (yaxshisi oq, qizil, sariq va yashil bo'lgani ma'qul) doira.

Tarbiyachi bolalardan so'raydi: «Siz yil fasllaridan qaysinisini bilasiz? Yil fasllari hammasi bo'lib nechta?» Shundan keyin doirani ko'rsatadi va deydi: «Mana bu yil bo'lsin. U to'rt qismga bo'lingan».

Bolalar doira qismlarini qarashadi. Tarbiyachi bolalarga doiradagi har bir qismiing rangini mos yil fasli va uning xarakterli belgilari bilan taqqoslashni taklif qiladi.

Doiraning oq qismi qishni bildiradi. Qishda hammayoq oppoq qor bilan qoplanadi. Qizil qismi yozni bildiradi- Yezda qizil quyosh yorqin nur sochadi. Doiraning yashil qismi bahorni bildiradi. Bahorda yam-yashil o'tlar chiqadi, daraxtlar yashil yaproqlarini yozadi. Kuz sariq rang bilan belgilangan. Kuzda daraxtlarning yaproqlari sarg'ayadi.

Tarbiyachi yil fasllarini strelka bilan ko'rsatadi, bolalar esa, ularni istalganidan boshlab ketma-ket aytadilar.

Masalan, tarbiyachi strelka bilan doiraning u yoki bu qismini ko'rsatadi, bolalar esa o'z tarqatma materiallaridan yilning berilgan fasliga mos kela-diganini topishadi yoki yilning bu fasli haqida she'r o'qishadi, topishmoq, maqol aytishadi.

Tayyorlov guruhida ham bolalar qish, bahor, yoz va kuz oylarini aytishnn o'rganadilar.

Bolalar joriy oy bilan tanishtiriladi, uning xarakterli belgilarini — tabiat hodisalari, bayramlar (agar shu oyda bayram bo'lsa), odamlarning tabiatdagi mehnatini ta'kidlaydilar, shu oy haqidagi maqolni eslaydilar.

Birinchi mavsum - kuz tugashi bilan tarbiyachi «Yil fasllari» qoʻllanmasini koʻrsatadi va tushuntiradi: «Doiraning har qaysi qismi, yaʼni oq, yashil, qizil va sariq qismining har biri yana uchtadan qismga boʻlingan. Bular oylar. yilning har bir faslida uchtadan oy bor. Hozir noyabr oyi. Bu kuz oyi. Siz yana qaysi kuz oylarini bilasiz? «Ularning hammasi tar-tnbi bilan keladi: sentyabr, oktyabr, noyabr».

Yilning har bir fasli oʻtishi bilan tarbiyachi shu faslga mos oylar bilan tanishtiradi. Bolalar yoʻl-yoʻlakay oldingi faslning oylarini eslashadi. Maktabga tayyorlov guruhida bolalar mashgʻulotga ajratilgan vaqtda qilinadigan ishlarni bajarib ulgurishga oʻrgatiladi. Buning uchun xilma-xil usullardan foydalaniladi.

Masalan, tarbiyachi bolalar necha daqiqa shugʻullanishlarini, bu vaqt ichida nima qilishlari kerakligini aytadi. Mashgʻulot qismlarining vaqtini belgilaydi: 5, 10 daqiqa oʻtdi, «7 daqiqa qoldi», «2 daqiqa nchida siz doirachalarni tartibi bilan joylashtirishga ulgurishyngiz kerak», «5 daqiqa ichida», «Topingchi, topishmoq yilning qaysi fasli haqida» oʻyinini oʻynaymiz va h.k.

Agar mashgʻulotlarda qum soatlardan foydalanilsa, bolalar vaqtning oʻtuvchanligini, uning oraliqlari davomiyligini ayoniy koʻradilar. Shunday qilib, vaqt boʻyicha moʻljal olish malakasi kundalik tarbiyaviy ishdagina emas, balki mashgʻulotlarda ham shakllanadi. Tarbiyachi reja materialining hamma bolalar Tomonidan oʻzlashtirilishiga erishadi. Taʼlim vaqt oraliqlarini, ular ketma-ketliklarini topishga doir har xil oʻyin va mashqlar shaklida oʻtkaziladi. Bunda material ham, taʼlimning metod va usullari ham tobora qiyinlashtiriladi.

Taʼlimning vazifasi eng avval bolalar maktab yoshigacha vaqt oʻlchovining alohida birliklarini bilib olishdan iborat boʻlsin. Bu bilim har xil uzunlikdagi vaqt oraliqlarini hissiy aks ettirishga asoslansip, yaʼni imkoniyatga qarab puxta sensor zaminga asoslanishi kerak. Hissiyot va mantiq, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda «vaqt sezgisi» deyiladigan ndrok vaqtni yuksak «mantiqiy tushuncha» sifatnda aks ettirish va chamalash (moʻljal olish) darajasnni rivojlanishining zarur shartidir.

Taʼlimning vazifasi vaqt oʻlchovining (soat, hafta, oy, yil va h.k.) har bir alohida birligi ichidagn komponentlari orasida mavjud

boʻlgan sistemali xarakteri, shuningdek barcha mavjud birliklar orasidagi sistemali va oʻzaro bogʻliqlikni tushunish uchun bolaga yordam berishdan iborat. Bu bogʻlanishni koʻrsatish, uning uchun xarakterli boʻlgan miqdoriy munosabatlarni ochish— demak, bolalarni etalonlar yagona sistemasining alohida birliklarini tushunishga yaqinlashtirishdir.

Bolalarda takomillashayotgan vaqt munosabatlarning akslanishi bolaning turli-tuman amaliy va aqliy faoliyatida, uning obyektiv faoliyatidagi oʻrab olingan tomonlari orasidagi munosabatlarni doirasida maksimal ifodasini olishi muhimdir. Shu bilan bolalar bogʻchasida bolalarda vaqt boʻyicha moʻljal olish malakasini rivojlantirish ishi tor mutaxassislikka xizmat qilishi emas, balki bolalar shaxsini butunicha kamolotga yetkazishga xizmat qilishi kerak.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Bolalarni vaqt haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning ahamiyati.

2. Dasturda vaqtni chamalashga qoʻyiladigan talablarning murakkablashishi.

3. Istalgan yosh guruh bolalarida vaqtni chamalash darajasini aniqlash. Shu maqsadda maxsus savollar va topshiriqlar ishlab chiqish va bolalarga taklif qilish.

4. Tarbiyachining taqvim ish rejasini koʻchirib oling (1 oy uchun). Istalgan yosh guruhida vaqtni chamalash haqidagi tasavvurlari shakllanishida topshiriq va uslubiy usullarning samaradorligi.

5. Kichik va oʻrta guruhlarni sutka qismlari bilan tanishtirish uslubiyati.

6. Katta va maktabgacha tayyorlov guruhida kun, hafta va oy-larning ketma-ket kelishi va nomlari bilan tanishtirish.

7. Katta bogʻcha yoshidagi bolalarda vaqtni sezish qandan boʻli-shini koʻrsatish.

### **III BOB. MTTLARDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING HUQUQIY ASOSLARI**

#### **3.1. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari (O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari)**

Mazkur O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrda 929-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida»gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni (bundan buyon matnda bolalar deb yuritiladi) har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat’iy nazar, quyidagi ta’lim muassasalariga qo‘llaniladi:

- davlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo‘lgan «Mehribonlik» uylari.

2. Maktabgacha ta’lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim turlari bo‘yicha pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan muassasalar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar mazkur Davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

## 2-bob. Davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari

3. Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**maktabgacha ta'lim** — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

**rivojlanish** - inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

**rivojlanish sohasi**- bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

**kichik soha** - sohaning kichik guruhleri. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

**kutilayotgan natija** - bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

**bola kompetentsiyasi** - ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatleri;

**integratsiya** - bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

**inklyuziv ta'lim** - bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

«Men» **kontseptsiyasi** - bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi;

**refleksiv faoliyat** - bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

4. Davlat talablarining maqsadi - mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion ko'lmunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

5. Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;



- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

6. Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi:

- bolaning noyobligi;

- «Men» kontseptsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;

- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;

- bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

### **3-bob. Davlat talablarining tarkibi.**

7. Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohaslariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

8. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

- bilish jarayonini rivojlanishi;

- ijodiy rivojlanish.

9. «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- yirik motorika;

- mayda motorika;

- sensomotorika;

- sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

10. «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:

- «Men» kontsepsiyasi;
- hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

11. «Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari» sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:

- nutq va til;
- oʻqish malakalari;
- qoʻl barmoqlari mayda motorikasi.

12. «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

13. «Ijodiy rivojlanish» soha quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

14. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

- goʻdaklik (tugʻilgandan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- oʻrta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

15. Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 1-ilovasida belgilangan.

16. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 2-ilovasida belgilangan.

#### **4-bob. Yakuniy qoidalar**

17. Mazkur Davlat talablari buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar boʻladi.

18. Mazkur Davlat talablari Vazirlar Mahkamasi qoshidagi taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Sogʻmiqni saqlash vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Oʻzbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazi bilan kelishilgan.

## Nazorat uchun savollar

1. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining I-bobini izohlang.
2. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining II-bobini izohlang.
3. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining III-bobini izohlang.
4. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining VI-bobini izohlang.
5. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablar necha bobdan iborat?

### 3.2. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalari

Мақтабда хато бўлиши мумкин, коллежда хато бўлиши мумкин, олийгоҳда ҳам хато бўлиши мумкин лекин шу хатоларни тўғрилашнинг биттаю-битта яғона йўли мактабгача таълим тарбияга аҳамият беришдир.

*Шавкат Миромонович Мирзиёев*



### 1-bob. Umumiy qoidalar

Мақтабгача та’лим ташкilotining davlat o‘quv dasturi (quyida: «МТТ davlat o‘quv dasturi») O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetentsiyalari belgilangan.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim muassasalarida qo'llash uchun majburiy:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalari;
- maktabgacha guruhlarga ega bo'lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

### **1.1. MTT davlat o'quv dasturini qo'llash.**

Davlat o'quv dasturi variativ o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

Ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o'quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega.

Ta'lim tashkiloti Davlat o'quv dasturi asosida o'zining MTT ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi<sup>1</sup>.

### **1.2. MTTning maqsad va vazifalari.**

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

## **2-bob. MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari**

### **2.1. MTT ta'lim jarayonining maqsadlari**

O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetentsiyalar va rivojlanish sohalari kompetentsiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

---

<sup>1</sup> Дастурга 1-илова

## **2.2. MTTda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari**

- MTT ta'lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:
- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;
- bola salo'latligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari javobgar bo'ladi.

## **2.3. Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish.**

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bolalar va aholi ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari fakul'tativ hisoblanadi va ularni tashkil qilishda ko'ngillilar (volontyorlar), ota-onalar va ho'liylar ishtirok etishi mumkin.

## **2.4. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari javobgar bo'ladi.

Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

## **2.5. Ota-onalar bilan hamkorlik.**

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

## **3-bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetentsiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

**Kompetentsiya** bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetentsiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **3.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari**

**Kommunikativ kompetentsiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

**O'yin kompetentsiyasi** – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

**Ijtimoiy kompetentsiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

**Bilish kompetentsiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

## **3.2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetentsiyalari**

Bolaning kompetentsiyalari bola rivojining quyidagi sohalarda belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

### **3.2.1. «Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetentsiyalari**

«Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi» sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;
- sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

### **3.2.2. «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetentsiyalari**

«Ijtimoiy-emotsional rivojlanish» sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o‘zгалarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

### **3.2.3. «Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari» sohasi kompetentsiyalari**

«Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari» sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruktsiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- turli ma‘no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

### **3.2.4. «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetentsiyalari**

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

### **3.2.5. «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetentsiyalari**

«Ijodkorlik» sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- san‘at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;



- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;

- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

#### **4-bob. O'quv-tarbiyaviy faoliyat**

O'quv-tarbiyaviy faoliyat «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari» asosida amalga oshiriladi.



Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv va tarbiyaviy faoliyatni o'quv yillari bo'yicha tashkil qiladi.

O'quv yili 2 sentyabrda boshlanadi va 31 maygacha davom etadi.

1 iyundan 31 avgustgacha MTMda yozgi

sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

#### **4.1. O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish**

O'quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salo'latlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi o'quv rejasiga muvofiq olib boriladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi<sup>3</sup>.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

- yillik mavzuviy;

<sup>2</sup> Дастурга 2-илова

<sup>3</sup> Дастурга 3-илова

- haftalik.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari ifodalanadi. Faoliyat turini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy faoliyatning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi.

Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda yordam berishi lozim. SHuni yodda tutish joizki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

#### ***Yillik mavzuviy reja.***

Yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuviy rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuviy reja maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashida tasdiqlanadi<sup>4</sup>.

#### ***Haftalik reja***

Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi<sup>5</sup>. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat / kichik guruhda \* katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat / bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat / ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan

---

<sup>4</sup> Дастурга 3-илова

<sup>5</sup> Дастурга 4-илова

bog‘ga borishni rejalashtirgan bo‘lsa-yu, ob-havo juda yo‘lg‘irli bo‘lsa, bu tadbirni xonada o‘tkazishning imkoni bo‘lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg‘ulotlar konspekti. Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

- titul varag‘i;
- guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;
- ertalabki badantarbiya kompleksi;
- guruhda sentyabrdan avgustgacha bo‘lgan ta‘lim jarayonini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;

- haftalik ish tahlili;
- ilovalar.

Mashg‘ulotlar konspektlarida maqsadlar, faoliyatning qisqacha ta‘rifi, zaruriy jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy xarakterga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o‘zgartirilishi mumkin.

### **5-bob. Bolaning rivojlanish sohalari bo‘yicha yutuqlari**

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlarini ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g‘amxo‘rlik qilish, erkin ijodiy o‘z-o‘zini ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko‘zda tutadi. SHu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, **bola rivojlanishini kuzatib borish** pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o‘zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko‘rish, qo‘llab-quvvatlash, rivojlanish yo‘llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta‘lim faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va tako‘lillashtirib boriladi. Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalar rivojlanishiga oid Davlat talablarida aks ettirilgan sohalar va soha ostilari hamda kutilayotgan natijalar olingan (malaka va ko‘nikmalar).

***Bolaning rivojlanish xaritasi*** 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi, har bir bola uchun individual tarzda yiliga uch marta to‘ldiriladi<sup>6</sup>. Maktabgacha ta‘lim tashkilotidan

---

<sup>6</sup>Дастурга 6-илова

<sup>7</sup>Дастурга 7-илова

chiqishda **6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi** (faqat maktabgacha tashkilotlari uchun<sup>6</sup>).

Maktabga tayyorgarlik deganda bolada umumiy kompetensiyalarni va rivojlanish sohalari kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi. Bu xarita maktabgacha ta'lim tashkilotining har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda Davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

Tarbiyachiga u yoki bu natija qanday darajada aks etayotganini belgilash taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) umumlashtiriladi va tavsiya hamda takliflar ko'rinishida ota-onalarga e'tiboriga havola etiladi.

## **6-bob. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Rivojlantiruvchi muhit mazmuni:**

-maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;

-muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarini ayting.
2. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalari necha bobdan iborat.
3. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarining 1-bobini izohlang.
4. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarining 2-bobini izohlang.
5. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarining 3-bobini izohlang.
6. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarining 4-bobini izohlang.

7. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarining 5-bobini izohlang.

8. Ilk qadam dasturi va uning maqsad va vazifalarining 6-bobini izohlang.

## **“Ilm yo‘li” variativ dasturi**

### **I bob. Dasturning maqsad, vazifa va tamoyillari**

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan, Prezidentning 2017-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 5198 - Farmoni ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Shu bois eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va o‘quv-metodik ta‘minotni takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Boshlang‘ich ta‘limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999- sonli qarorini ijro etish doirasida O‘zbekiston o‘z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta‘lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta‘lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dastur”, maktabgacha ta‘limni rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi.

“Ilm yo‘li” variativ dasturi bolaning to‘laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o‘qishini, uning maktabda ta‘lim olishga samarali tayyorlanishini ta‘minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo‘lib sanaladi.

Mazkur dastur o‘ziga xos bo‘lib, unga ko‘ra, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi.

Dastur idoraviy bo‘ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilishi mumkin:

- bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega bo‘lgan umumiy hamda ixtisoslashtirilgan tiplardagi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida;
- maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan o‘rta-maxsus va oliy ta’lim muassasalarida;
- maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimi uchun pedagog-kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.

Shuningdek, har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti, shu jumladan, maktabgacha ta’limning muqobil shakllari hududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o‘z muqobil shakllarini ishlab chiqishi mumkin.

Dastur asosiga bola shaxsining rivojlanishidagi asosiy sohalar (jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari kiritildi. Dastur (kurrikulum)ning o‘rgatuvchi jarayonidagi integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

6-7 yoshli bolalarni o‘qitish majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlar dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta’lim sektori rejasi, maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo‘naltirilgan sifatli pedagogikaga prinsiplariga asoslangan.

Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi;
- maktabgacha ta'limga sarf-xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50% kam bo'lmaganda);
- umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlar;
- ta'limni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi;

-g'ayriaxloqiy va jinoiy xatti-harakatlar ehtimolining kamayishi.

Dasturning maqsadlari va vazifalari maktabgacha bolalar uchun quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi:

-zarur bo'lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;

-6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishi kerak;

- 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi zarur (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan;

- maktab ta'limiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga;

- amaliyotga bola yo'naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etishga;

- oila va jamoalar bilan hamkorlik;

- ta'lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e'tiborga olish;

- qulay, do'stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan.



majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvi;
- inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;
- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning etakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;
- bola – ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb etish;
- interfaol ta'lim;
- integrativ o'qitish.

Dasturda ko'zda tutilgan vazifalar nafaqat rivojlanish markazlardagi faoliyat paytida, balki mustaqil, o'yin jarayonida hamda pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida ham to'liq bajarilishi lozim.

## **II bob. 6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklar**

**Fiziologik rivojlanish.** Mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo'linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgarib boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 sm ga, o'rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo'ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikanin rivojlanishi davom etadi. Qo'l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Qo'l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi bo'lib sanaladi.

**Psixik jarayonlarning rivojlanishi.** Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol

rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o‘lcham to‘la o‘zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. SHuningdek, endilikda o‘ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo‘lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o‘zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo‘ladigan paytlarda xatolikka yo‘l qo‘yishlari uchrashi mumkin.

**Diqqat.** Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma‘lum bir predmetlarga va ob‘ektlarga yo‘naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko‘ra olishi mumkin.

**Xotira.** Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo‘ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo‘ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o‘zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo‘ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag‘batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo‘lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo‘ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o‘ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko‘rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o‘rgatish mumkin.

**Fikrlash.** Ilgarigidek, yetakchi bo‘lib ko‘rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so‘zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so‘zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig‘ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo‘lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyliги mavjud bo‘lishi ma‘lumdir. Maktabgacha bo‘lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To‘la holda so‘zli-mantiqiy,

tushunchali yoki abstrakt fikrlash o‘smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar echimini topa olishi mumkin bo‘ladi.

**Tasavvur.** Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o‘ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu faqat yaratuvchilik tasavvurlari bo‘ladi, ya’ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo‘ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo‘lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

**Nutq.** Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo‘la boradi. So‘z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko‘p o‘qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo‘ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So‘z boyligi taxminan 3 000 ta so‘zgacha boyib boradi.

**Shaxs rivojlanishi.** Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o‘zgarish bo‘lib “*harakatlar ichki rejasi*”ning paydo bo‘lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko‘rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashida “Men” obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya’ni, tahlil qilishi, o‘z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o‘z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma’nan rivojlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo‘ysundirilishi hisoblanadi. “Men qilishim kerak”, “men qila olaman” motivlarining anglanishi “men xohlayman” motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

**O‘z “Men”ini anglash** va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo‘lishi yangi ehtiyojlarni tug‘diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning etakchi turi bo‘lib hisoblangan o‘yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to‘la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o‘z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o‘z o‘rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya’ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – “*maktab o‘quvchisi o‘rnini*”ni egallashga intiladi, bu esa 6-7

yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi.

6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub'ekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy “Men”ini anglash paydo bo'ladi.

*O'z-o'zini baholash* bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi va birinchi bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va emotsional ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek etakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o'yinlarning o'ziga xosligi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o'zaro harakatlarini o'zlashtirishni va uni amalga oshirib ko'rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishni boshlaydilar.

O'yinlar murakkablasha boradi, ba'zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo'ladi. Bunda bolalar butun o'yin maydonini to'la kuzatib turishga, o'yindagi barcha ishtirokchilarni ko'rib turishga va zaruriy o'yin harakatlariga bog'liq bo'ladigan o'z xulq-atvori yoki rolini o'zgartirib turishga qodir bo'ladilar.

**6-7 yoshli bolaning muloqoti.** Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya'ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki “nima bo'ldi” yoki “nima bo'ladi” tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo'ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo'ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo'lib sanaladi. muloqot jarayonidagi etakchi

ehtiyoj – o‘zaro tushunish, his-tuyg‘ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o‘zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Ota-onalar hamda pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo‘lishi ifodalanadi:

muloqot tashabbusini boshlash;

birinchi yaqinlik;

biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj;

musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish;

sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal);

guruhda bolalarning tutgan o‘rni bo‘yicha farqlanishi paydo bo‘ladi.

7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo‘lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko‘nikmalar bo‘lib quyidagilar sanaladi:

- bola tomonidan odam turmush madaniyati predmetlari va narsalari dunyosining o‘zlashtirilishi;

- boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati;

- “maktab o‘quvchisi ichki hissiyoti”ning shakllanishi, ya’ni, ongli ravishda, u nima qilish kerakligi va kattalar undan nimani kutayotganliklarini to‘la tushuna olish bilan bolaning maktabga borish istagining paydo bo‘lishi.

Maktabgacha yoshda davomida bolalar narsalar dunyosini kishilik madaniyatining predmetlari sifatida o‘zlashtiradilar; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qilishni o‘rganadilar; ularda jinsiy identifikatsiyalanish rivojlanadi, maktab o‘quvchisi pozitsiyasi shakllanadi.

Maktabgacha bo‘lgan yosh oxiriga kelib bola endilikda bilishga doir va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo‘lib, bu unga maktabda keyinchalik muvaffaqiyatli o‘qishga imkon beradi.

### **III bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limida kompetentlilik yondashuvi**

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limida kompetentlilik yondashuvi bolaning o‘suvi shaxsini hayotga, shu jumladan, maktabda o‘qishga tayyorlashni, unda ma’naviy qadriyatlar va me’yorlarni o‘zlashtirish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o‘z menini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘ladigan faoliyat usullarini ko‘zda tutadi.

Boshlang'ich asosiy kompetensiyalar faoliyat va xulq-atvor sub'ekti sifatida bolaning yaxlit rivojlanishini talab qiladi.

### **3.1. 6-7 yoshdagi maktabgacha bo'lgan bolaning umumiy asosiy kompetensiyalari**

**Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

**O'yin kompetensiyasi** – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

**Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

**Bilish kompetensiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

### **3.2. Bola rivojlanishi sohalarining kompetensiyalari**

**Bola kompetensiyalari** uning quyidagi rivojlanish sohalarida aniqlanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

#### **3.2.1 Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasi kompetensiyalari**

“ Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish” sohasida o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunida 6-7 yoshli bola :

- jismoniy rivojlanishdagi o'z imkoniyatlari va yosh me'yorlariga mos holda jismoniy faollikni namoyon qiladi;
- koordinatsiyalashgan va maqsadli holda harakatli faollikning har xil turlarini amalga oshira oladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini tartibga soladi;
- shaxsiy gigiena ko'nikmalarini qo'llaydi;
- sog'lom turmush va to'g'ri ovqatlanish asoslarini biladi;

- xavfsiz hayotiy faoliyati qoidalariga rioya qiladi.

### **3.2.2. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari**

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

### **3.2.3.«Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari**

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

### **3.2.4.”Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari**

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;

- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

### 3.2.5. «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari

“Ijodiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- san‘at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;
- milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san‘atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

## IV bob. O‘qitishga yondashuvlar

O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari (O‘zR IMYOBRDT – 2018 y) ning, “Ilk Qadam” Davlat o‘quv dasturining (2018-y), O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasining joriy qilinishi, boshlang‘ich maktab ta’limi Davlat ta’lim standartlarining qabul qilinishi o‘z ortidan nafaqat ancha vaqtlardan beri mavjud bo‘lib kelayotgan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim orasidagi izchillikni ta’minlash bo‘yicha ishlar tizimining qayta ko‘rib chiqilishini keltirib chiqardi, balki pedagoglarga maktabgacha va maktab ta’lim tizimini yangichasiga qayta tuzib chiqishga ham imkon berdi.

Maktabgacha ta’limdagi modernizatsion o‘zgarishlar tarbiyachilarga **maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish** metodlari va shakllarini tanlab olish erkinligini beradi. Zamonaviy o‘qitishning asosiy



natijasi bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunga ko‘ra bola uning rivojlanishiga va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga qanchalik yordam bera oladigan nimalarni o‘zlashtirgani e‘tiborga olinadi. Pedagog tomonidan tanlab olingan o‘qitish shakllari intellektual jarayonlarning shakllanishiga yordam berishi, masalalarni ijodiy hal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishi, mustaqillikni va ma‘suliyatni o‘rgatishi, bolalarni o‘z xulq-atvorini boshqarishni mashq qildirishi lozimdir. Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘limning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib sanaladi. U sog‘lom va rivojlangan bola shaxsining shakllanishini ta‘minlashi, tizimli o‘qitishga tayyorlash bilan unda o‘qish-o‘rganishga intilishni uyg‘otishi zarur.

Maktabgacha ta‘lim jarayonida ustivor model bo‘lib maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy-yo‘naltirilgan o‘qitilishi va tarbiyalanishi hisoblanadi.

#### **4.1. Shaxsiy yondashuv maqsadi**

Bu berilgan standart ostiga “qayta yasalishi” va bo‘ysundirilishi emas, balki shaxsning rivojlanishi, “uning qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilinishi”dir. Shaxsiy yondashuv ta‘lim jarayoni sub‘ektlarining shaxsiy majburiyatlari (funktsiyalari) rivojlanishining to‘laqonli namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ko‘zda tutadi.

Shaxsiy funksiyalar – bu shaxs tomonidan “uyg‘un rivojlangan shaxs bo‘lish”dek ijtimoiy buyurtmani amalga oshiruvchi ma‘lum bir sifatlarning namoyon qilinishidir.

Ta‘lim jarayonini tashkil etish asosi sifatida shaxsiy yondashuv bola shaxsining jamoa oldida tan olinishini, unda gumanistik o‘zaro munosabatlarning hosil qilinishini asosiy deb biladi. Mana shu munosabatlarga bog‘liq holda bola o‘zini shaxs sifatida anglaydi va boshqa kishilarda (tengdoshlari va kattalarda) ham shaxs sifatida ko‘rishni o‘rganadi. Har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo‘llari pedagogning qadriyatli yo‘nalishlariga, ya‘ni, uning xulq-atvorida ifodalanadigan moddiy va ma‘naviy qadriyatlarga, yo‘l-yo‘riqlar, ishonch-e‘tiqod, moyilliklarga nisbatan tanlama munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogning mahorati uning kasbiy faoliyatini yo‘nalishini belgilab beradi. Pedagogning shaxsiy yondashuvi bolaga o‘zini shaxs sifatida anglashda hamda imkoniyatlarini aniqlashga yordam ko‘rsatishini ko‘zda tutadi.

## 4.2. Bolaga yo'naltirilgan yondashuv

Bu shunday o'qitishki, u bolaning yosh xususiyatlarini, uning qobiliyatlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini, tajribasini, maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgunigacha oiladagi madaniyatni hisobga oladi, bu bolani o'qitishdagi maqsadlarga erishishida yordam beradi.

1. O'qitish bolalar eng optimal ravishda qanday rivojlanayotganliklari va o'qiyotganliklarini bilishga asoslanishi kerak;

2. O'qitishdagi muvaffaqiyat pedagogning bolalarni qanday qilib o'qitish va rivojlantirish metodlari hamda usullarini bilishiga bog'liq bo'ladi;

3. Pedagogning asosiy vazifasi bu bolaning potensialni aniqlashi va uning rivojlantirilishiga yordam ko'rsatish;

4. Maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi bolalikning qadriyatini tushunish va uni muddatidan oldin katta bo'lib qolishga turki bermaslik. Pedagog quyidagilarni bilishi va yodda tutishi lozim:

1. Bolalarni ular qanday bo'lsalar, shunday qabul qilish.

2. Bolalarga o'qitish maqsadlariga erishishda ko'maklashish.

3. Bolalar nimalarga qodir ekanliklarini va ular o'z yosh guruhlarida qanday o'qiyotganliklarini bilish tarbiyachiga o'qitishni rejalashtirish va tashkil etish uchun boshlang'ich ma'lumotni berish.

4. Agar pedagog barcha bolalarga bir xilda yondashadigan bo'lsa, bola muvaffaqiyat qozona olmaydi.

5. Pedagog bolaning turli xil predmetlar bilan faoliyatini, uning turli xil mashg'ulotlarga kirishib ketganligini doimiy kuzatishi kerak, bolalarning qobiliyat, qiziqish va ehtiyojlarini bilib olishga intilishi lozim.

6. Bu axborotlar asosida pedagog rejalashtirishni amalga oshiradi va bolaning rivojlanishida olg'a siljishga erishi uchun o'qitish metodlarini moslashtiradi.

7. O'qitish bolalar endilikda nimalarni bilishlari va uddalay olishlarigagina emas, balki ulardan yangi ko'nikmalarni va yangicha tushunishni hosil qilish yo'nalishida ma'lum bir urinishlarni ham talab qilishiga asoslanadigan bo'lsa, eng samarali bo'ladi<sup>7</sup>.

---

<sup>7</sup>Л.С.Виготский. “Яқин ривожланиш ҳудуди” –катта ёшли киши билан ҳамкорликдаги фаолияти давомида ривожланувчи шахс томонидан юзага чиқариладиган, лекин индивидуал фаолият доирасида намоён бўлмайдиган катта ёшли киши билан боланинг ўзаро таъсирлашувлари жараёнида бола томонидан эришиладиган ривожланиш даражаси. Яқин ривожланиш ҳудудига йўналтириш билан ўқитиш ривожланишни олға суриши мумкин, чунки яқин ривожланиш ҳудудида ётган нарса бирон-бир ёшд қайта ўзгартирилади, такомиллаштирилади ва кейинги ёшда, янги ёш босқичида долзарб

8. O‘qitish maqsadlari berilgan yosh guruhidagi ko‘pchilik bolalar uchun realistik va erishiladigan bo‘lishi kerak. Bolalarga yangi hosil qilingan ko‘nikmalarni amalda qo‘llashning ko‘plab imkoniyatlari taqdim etilishi lozim.

### **Bolalarga o‘qitish maqsadlariga erishishda yordam ko‘rsatish**

1. Bolalar odatda yangi ko‘nikmalarni o‘z tashabbuslari bilan, masalan, zinapoyadagi pog‘onalarni sanash kabi, amalda qo‘llaydilar.

2. Yangi ko‘nikma o‘z takomiliga etkazilishi bilan bolalarga o‘rganishni davom ettirish uchun yangi vazifalar kerak bo‘ladi. Lekin bu vazifalar ham realistik bo‘lishi zarur.

### **Bolaga yo‘naltirilgan yondashuv:**

1. Pedagoglar joriy davrdagi olg‘a siljish darajasini belgilayotganlarida va keyingi qadamlarni rejalashtirayotganlarida dastur maqsadlarini xotirada tutadilar.

2. Maqsadlar qanchalik realistik ekanligi darajasi individual bolaning rivojlanish darajasiga, oldingi tajribalarga, bilim va ko‘nikmalarga, shu jumladan, o‘qitish ro‘y berayotgan kontekstga bog‘liq bo‘ladi.

### **Pedagog qabul qiladigan qarorlar:**

1. Katta yoshdagi bolalar pedagoglari har kuni bolalar qanday kitoblarni o‘qishlari, kichik guruhlariga qancha kishini kiritish kerakligi, qanaqa savollarni berish, boshqalar bilan o‘yinga kirishib keta olmayotgan bolaga qanday qilib yordam berish bo‘yicha ko‘plab qarorlarni qabul qiladilar.

2. Boshqa qarorlar – pedagoglar rivojlantiruvchi muhitga, materillarni joylashtirishga, kichik guruhlarda ishlash uchun bolalarni qanday qilib taqsimlashga nisbatan qabul qiladigan qarorlardir.

3. Barcha vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlar sinchiklab ko‘rib chiqish va rejalashtirish natijasi bo‘lib sanalishi kerak.

**Pedagoglar tomonidan axborotlashtirilgan qarorlarni qabul qilish** – barcha kichik va muhim qarorlar axborotlashtirilgan holda, ya’ni, pedagog o‘z kuzatuvlari (bolalarni kuzatish va ularning ota-onalari bilan suhbatlashish natijasida tarbiyachilar har bir bolaning

---

ривожланиш даражасига ўтади. Бола мактабда унинг доимий ўсиб боришига имконят берувчи фаолият билан шуғулланади. Бу фаолият унга ўзидан ҳам юқорига кўтарилгандек ёрдам беради. “Ўқитиш фақат ривожланиш олға қараб силжиганидагина яхшидир”. Бунда у хаётга яқин ривожланиш ҳудудида ётадиган бошқа кўплаб функцияларни уйғотади ва келтириб чиқаради. “Педагогика бола ривожланишининг кечаги эмас, балки эртанги кунига йўналтирилиши лозимдир” .

kuchli va kuchsiz tomonlarini, shuningdek, qiziqishlarini bilib oladilar) asosida oladigan axborotlarga tayangan holda qabul qilinishi lozim.

**Pedagog diqqat qilishi lozim bo'lgan omillar** – bolani o'qitish bo'yicha qaror qabul qilishda pedagogni etaklashi lozim bo'lgan uchta muhim omil mavjuddir:

**1. Berilgan yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi va o'qishi haqida nimalar ma'lum bo'lsa ularni e'tiborga olish.** Pedagoglarni bolalarni yosh xususiyatlarini bilishi, bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi, ishlarni rejalashtirish, qanday materiallar va mashg'ulotlar xavfsiz, qiziqarli, yetarlicha murakkab bo'lishi bolalarning yaxshi rivojlanishi hamda o'qitilishiga yordam beradi. Bu omil yoshiga moslik deb ataladi.

**2. Har bir bolaning individual xususiyatlarini e'tiborga olish.**

Har bir individual bolaning kuchli va kuchsiz tomonlari, qiziqishlari va ehtiyojlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash pedagoglarga o'qitishda moslashtirilgan va individual variativ yondashuvlarni amalga oshirish hamda samarali individuallashtirish imkonini beradi.

**3. Bolalar yashaydigan ijtimoiy va madaniy qadriyatlar haqida nima ma'lum bo'lsa, ularni e'tiborga olish.** Bolaning uyidagi va o'z hamjamiyatidagi turmushini shakllantiradigan qadriyatlar, kutishlar, xulq-atvor va tilga doir o'ziga xosliklarni o'rganish pedagoglarga bolalar uchun ma'noga ega bo'lgan rivojlantiruvchi muhitini va mashg'ulotlarni tashkil etishga imkon beradi, ularning madaniyati bilan taqqoslanadi va bolalarga hamda ularning oilalariga hurmat namoyish etiladi.

#### **4.3. Rivojlantiruvchi yondashuv**

**Rivojlantiruvchi yondashuv** – bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishining muhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv.

Bu yondashuvga muvofiq bolalar:

- o'yin jarayonida atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib, faol ta'lim oladi;
- rivojlanishning qonuniy bosqichlarini bosib o'tadi;
- hissiy va kognitiv(aqliy) rivojlanishi uchun ijtimoiy o'zaro munosabatlarga ehtiyoj sezadi.

Har biri o'ziga xos sur'atda, betakror shaxs sifatida rivojlanadi.

#### **4.4 Individuallashtirish**

**Individuallashtirish** – o‘ta muhim masala, chunki yondashuv qay darajada individual bo‘lsa, har bir bola shu darajada mo‘ljaldagi ta’lim natijalariga erishishining ehtimoli ortadi va shu tufayli dasturning amalga oshirilishi oson kechadi, muayyan fan bilan bog‘liq muammolar kamayadi, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar oshadi.

Individuallashtirish ta’lim jarayonini bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab - ehtiyojlari bilan moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda bolalarning bilim doirasi kengayib, o‘ziga nisbatan hurmati oshadi. Ularda yanada murakkabroq masalalarni hal etishga tayyorgarlik hissi paydo bo‘ladi.

Pedagog o‘zgaruvchan vazifalar va faoliyatning qiziqarli turlarini rejalashtirishi, bolalarni diqqat bilan kuzatishi, zarur hollarda, material va vazifalarni almashtirishi va moslashtirishi lozim. Bolalarni kuzatish va ota-onalar bilan suhbat natijasida pedagoglar har bir bolaning kuchli va zaif jihatlari hamda qiziqishlarini o‘rganadi. Pedagogik strategiya – bu bolalarning qo‘yilgan maqsadlarga erishishiga yordam beradigan pedagog qo‘llaydigan muayyan uslublar yig‘indisi. Uning asosini bolaning qiziqishlari, uning kuchli va zaif jihatlari, ta’lim uslubi, yosh xususiyatlari va shaxsiy sifatlarni e‘tiborga olish tashkil etadi.

#### **4.5.Rivojlantiruvchi o‘qitish muhiti**

Bu faollikning har xil turlari bilan to‘ldirilgan ta’lim jarayonini amalga oshirish bo‘lib, u funkcionallik, bolalar uchun qo‘llanmalar va materiallarning ommabopligi, ko‘p bo‘g‘inlilik (turlicha rivojlanish darajasiga ega bolalarning o‘z-o‘zini yuzaga chiqarishlarini ta’minlaydi) va ko‘p funkcionallilik (bolalarning har xil faoliyat turlariga jalb etilishini ta’minlaydi) bilan ajralib turadigan rivojlantiruvchi muhitning ratsional tashkil etilishini talab qiladi. Bu ayniqsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli mustaqil faoliyati uchun o‘ta muhimdir.

Guruh xonasida bolalarning o‘z qiziqishlari bo‘yicha erkin mustaqil faoliyat uchun maydoncha ajratiladi. Bu syujetli o‘yin, tajriba va sinovlarni o‘tkazish, stol ustidagi va didaktik o‘yinlar, konstruksiyalarni yasash, qo‘l mehnati va badiiy faoliyat uchun ajratilgan past stellajlar, shkafchalar, shuningdek, kitoblar va albomlarni bemalol tomosha qilish, o‘qish mumkin bo‘ladigan kitoblar burchagi bo‘lishi mumkin.

Guruh xonasining jihozlanishi o‘z ichiga bolalarning ko‘z bilan yaxshi ko‘ra oladigan, yaqin kelib, ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladigan balandlikda osilgan yarim sharlar xaritasini, O‘zbekiston xaritasini,

globuslarni, harakatlanadigan ikki tomonlama yozuv taxtasini olishi lozim bo‘lib, ulardan rasm chizish, yozish uchun mashg‘ulotlarda hamda sxemalarni, illyustrativ materiallarni va shu kabilarni namoyish qilish uchun stend sifatida foydalanish mumkin. Yozuv taxtasidan barcha bolalar har doim foydalana oladigan bo‘lishi kerak.

Guruhlar xonalaridagi stenlarda va foyeda bolalarning ishlari ekspozitsiyalarini, shuningdek, ular mashg‘ulotlarda katta yoshlilar bilan birgalikda tayyorlagan jadvallar, pannolar va shu kabilarni joylashtirish imkoniyatini ko‘zda tutmoq kerak.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotchi hududidagi guruhlardagi holat shunday yaratiladiki, bunga ko‘ra u bolaning tanlovni mustaqil amalga oshirishi imkonini berishi lozim. Har bir guruhning xonasi bi nechta markazlarga ajratilishi mumkin bo‘lib, ularning har birida o‘rganish va o‘ynash, tajriba va sinov o‘tkazish, boshqa bolalar va kattalar bilan o‘zaro harakat qilish uchun etarlicha miqdordagi materiallar mavjud bo‘ladi. Har xil guruhlarda markazlardagi to‘plamlar bolalarning yoshi, qiziqishlari, ehtiyojlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi, vaqt o‘tishi bilan ular almashtirilishi, bir markaz boshqasiga transformatsiyalanishi mumkindir. Masalan, syujetli-rolli markazi bir vaqtning o‘zida tasviriy faoliyat markazi bo‘lishi, boshqa vaqtda esa kitoblarni tomosha qilish va o‘qish markazi bo‘lishi mumkin. Lekin kitoblarni toza havoda ham o‘qish mumkin, shuning uchun maktabgacha ta‘lim markazi hududini ham rivojlantiruvchi muhitning muhim tarkibiy qismi sifatida olib qarash kerak bo‘ladi. Maktabga tayyorlash bo‘yicha guruhlarda 5 tadan kam bo‘lmagan turli xil faoliyat markazlarini ko‘zda tutish tavsiya qilinadi<sup>8</sup>.

Mahalliy xudud (mahalla)ning resurslarini ham yoddan chiqarmaslik lozim, shuning uchun pedagog bolalar bilan muzey, park, fermaga, tomorqaga sayohatlarni tashkil etishi, mehmonga chaqirishni rejalashtirishi lozim bo‘ladi.

Dastur rivojlantiruvchi muhit deganda nafaqat maktabgacha ta‘lim tashkiloti xonalarini, balki unga yondosh hududlarning, shuningdek, mahalliy xudud (mahalla)ning resurslarining ham tushunilishini taklif qiladi.

---

<sup>8</sup>“Билимлар йўли” Вариатив дастурига 9-илова, “Ривожланиш марказларини самарали ташкил этиш бўйича методик тавсиялар”.

#### **4.6.Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin faoliyatning etakchi turi sifatida**

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra (K. Groos, V Shtern, F. Bontendayk, J. Piaje, E.Erikson, L. Vygotskiy, D.B. Elkonin i dr.), o'yin kichik bolalar hayotining muhim qismi bo'lib, o'yin bilan rivojlanish uzviy bog'liq jarayonlardir. Ekspertlarning fikricha, «O'yin bolalarga bilim doirasi va harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni qurshab odamlar dunyosi va undagi o'zining o'rnini anglash uchun zarur» (Frost i YAkob, 1995g.). O'yin jarayonida bolalar hamkorlik qilishga o'rganadi, qoidalar bilan tanishadi va yangilarini ishlab chiqadi, o'ziga va boshqalarga baho berishi ko'nikmalarini rivojlanadi, shaxsiy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy muammolarni hal etadi.

«Ilm yo'li»variativ dasturi kuzatish va izlanish, tajriba o'tkazish va loyihaviy faoliyat kabi muhim turlarining ahamiyatini inkor etmagan holda, faoliyatning etakchi turi – o'yinga pedagoglarning diqqat-e'tiborini jalb etadi. Aynan o'yin jarayonida ma'lum darajada faoliyatning mazkur turlarining barchasida albatta ishtirok etadi.

#### **4.7.Inklyuziv ta'lim tamoyillari**

**Inklyuziv ta'lim** – ta'lim-tarbiyaning mutlaqo yangi tizimi. Bu hol pedagog tomonidan ta'lim jarayoninini tashkil etishda har bir bolaning fiziologik va ruhiy rivojlanishi, ayniqsa, o'ziga xos bolalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olinishini anglatadi

«Ilm yo'li» variativ dasturi mualliflarining nazarida, maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya vazifasini amalga oshirish bilan birgalikda, bola hayotiy faoliyatining asosiy sohasi hamdir. Shu munosabat bilan, mazkur dasturda aynan pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish huquqini ta'minlashi lozim degan g'oyani ilgari suradi.

Bu jarayonda bolalarning zaif toifasiga alohida e'tibor talab etiladi. Jamoada bolalar bir-biri bilan o'zaro aloqa bog'lashga, jinsi, irqi, millati, madaniyati, tili, e'tiqodi, yoshi, alohida talab-ehtiyojlari, oilaning tuzilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, boshqa kishilar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga o'rganadi.

«Ilm yo'li» variativ dasturi inklyuziv ta'limning quyidagi tamoyillariga tayanadi:

- Insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;
- Har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir;

•Har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e'tirof etilishiga haqlidir;

•Barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;

•Chinakam ta'lim muayyan o'zaro munosabatlar doirasidagina amalga oshirilishi mumkin;

•Barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi;

•Ta'lim olayotganlar uchun ijobiy yutuqlarga erishish qo'lidan kelmaydigan ishdan ko'ra, uddalay oladigan ishda ko'proq namoyon bo'ladi;

•Rang-baranglik inson hayotini boyitadi;

•Bir-birimizdan farq qilishimiz va har birimiz individual shaxs ekanimizni tan olish;

•Rivojlantiruvchi dasturlarning individuallashtirishini ta'minlash, ya'ni dasturlarni har bir bolaning birgalikdagi faoliyat doirasidagi talab-ehtiyojlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining umumiy maqsadlarini e'tiborga olgan holda tuzish;

•Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning o'qishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;

•Barcha bolalar bir xil taqdirlanishi lozim;

•Yosh xususiyatlariga mos bo'lgan umumiy o'quv rejasidan foydalana olish imkoniyatini yaratadigan ta'limning differensiyallashgan strategiyalariga tayanish;

•Maktabgacha ta'lim tashkiloti va qisqa muddatli guruhlarini bolaning talab-ehtiyojlariga uzluksiz moslashuvini ta'minlash;

•bolalarni bir yillik majburiy maktabga tayyorlash bo'yicha guruhlar va maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning talab-ehtiyojlariga doimiy moslashtirilishini ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim prinsipial jihatdan yangicha tizim bo'lib sanaladi. Bu shuni anglatadiki, bunda pedagoglarga ta'lim jarayonini tuzib chiqishda alohida olingan bolaning, ayniqsa, notipik rivojlanishga ega bolalarning fiziologiyasi va psixikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladigan individual o'ziga xosliklarini hisobga olishlari kerak bo'ladi



## V bob. O‘quv-tarbiya faoliyati

O‘quv-tarbiya faoliyati “O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv va tarbiyaviy faoliyatni o‘quv yillari bo‘yicha tashkil etadiladi<sup>9</sup>.

O‘quv yili har yilning 2-sentyabridan boshlanadi va 31-maygacha davom etadi.

To‘liq va noto‘liq tayyorlov guruhleri o‘quv-tarbiyaviy jarayonni haftasiga 15 soatdan kam bo‘lmagan hajmda tashkil etiladi.

6-7 yoshli bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlash bo‘yicha guruhlar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bazasida, maktablarda, mahalliy xududlar (mahallalar)da, maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar bazasida, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilishi mumkin.

Mazkur guruhlardagi bolalarning ro‘yxati maktabgacha ta’lim tashkiloti joylashgan hududga birlashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining xodimlari hovlima-hovli, xonadonma-xonadon yurib, ko‘rib chiqishlari orqali shakllantiriladi.

6-7 yoshli bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlash bo‘yicha guruhlar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bazasida, maktablarda, mahalliy hududlar (mahallalar)da, maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar bazasida, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladi.

Boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlovdan o‘tgan bolalarga davlat namunasidagi boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlovdan o‘tganligi haqida sertifikat beriladi.

## VI bob. Rejalashtirish

**Rejalashtirish** – zarur shart-sharoitlarni, foydalaniladigan vositalar, shakllar va metodlarni ko‘rstaish bilan o‘quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ketma-ketligini, tartibini oldindan belgilashdir. Rejalashtirish qanchalik savodli, o‘ylab amalga oshirilgan bo‘lishi butun o‘quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi.

---

<sup>9</sup> “Илм йўли” Вариатив дастурига 1-илова, “Бошлангич таълимга болаларнинг мажбурий йиллик тайёрлаш бўйича гуруҳларда ишловчи педагоглар учун тавсиялар”.

Rejalashtirish pedagogik vaziyat rivojlanishidagi noaniqlik ulushining sezilarli darajada kamayishiga, balki pedagogning bugungi va ertangi kunlardagi harakatlarining izchilligini ta'minlashga ham imkon beradi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va otalarning hamkorligiga, ular tomonidan hamkorlikdagi o'z vazifalari va maqsadlarining anglab etilishiga, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayotni qiziqarli, foydali, ijodiy jarayonga aylantirish istagiga asoslanadi.

Rejalashtirish modelini tanlashda har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligini, uning tajribasini, o'z faoliyati natijalarni ko'ra olish mahoratini, ularning tahlil qilinishini, shu jumladan, MTT dagi ish shart-sharoitlarini hisobga olish lozim bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya faoliyati guruhning kun tartibiga<sup>6</sup> tayanib, unda kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va pedagog rejalashtirgan ta'lim-tarbiya ishlarining turlari<sup>7</sup> navbati bilan ko'rsatiladi.

Ta'lim-tarbiya faoliyati ta'limiy va ijtimoiy ehtiyojlarni (sog'liq, ovqatlanish va xavfsizlik) qondirish maqsadlarida bolaning yoshga doir va individual rivojlanishiga asoslanadigan o'quv rejasiga muvofiq olib

<sup>6</sup>“Ilm yo'li” variativ dasturiga 6-ilova, «Boshlang'ich ta'limga bolalarning majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhlardagi namunaviy kun tartibi».

<sup>7</sup> “Ilmga yo'li” variativ dasturiga 7-ilova, «Majburiy bir yillik tayyorlash guruhida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning namunaviy miqdori»

berilgan. Ta'lim-tarbiya faoliyati bolaning kundalik hayotidan va uni o'rab turgan muhitdan<sup>8</sup> kelib chiqadigan yaxlit butun mavzularga birlashtiriladi.

Ta'lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirish o'qitish shart-sharoitlariga bog'liq holda integratsiyalash, turli-tumanlik va moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi, mana shunday qilib pedagog ishlarning rejasini mustaqil ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya faoliyatida rejalashtirishning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- yillik mavzuiy rejalashtirish;
- haftalik rejalashtirish.

Rejalashtirish davomida faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari keltirib o'tiladi. Faoliyatni tanlab olishda ta'lim-

tarbiya faoliyatining umumiy maqsadlari ham, rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar ham, faoliyat mazmuni va turlarining integratsiyalashuvi ham hisobga olinadi.

Rejalashtirish davomida kun tartibini e'tiborga olish zarurdir. Kun tartibi ish sur'atini belgilab beradi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga bir tekisda o'tishga yordam berishi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, o'yin maktabgacha yoshda bolaning asosiy faoliyat turi bo'lib hisoblanadi. kun tartibini tuzib chiqishda kunduzgi uyqu (bu hisobga olinmasligi ham mumkin), dam olish vaqti, sayr qilish vaqti hisobga olinadi.

**Yillik mavzu rejasi.** Yillik mavzu rejada oy mavzulari, hafta mavzulari aks etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zlarining yillik mavzuiy rejalarini mintaqaviy yoki boshqa o'ziga xosliklarning hisobga olib tuzib chiqishlari ham mumkin. Mazkur mavzuiy reja maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogik kengashida tasdiqlanadi<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> "Ilm yo'li" variativ dasturiga 8-ilova, «Namunaviy yillik mavzuiy reja»

<sup>9</sup> "Ilm yo'li" variativ dasturiga 10-ilova, «Namunaviy mavzuiy rejalashtirish»

#### **Ish rejasi quyidagilarga imkon beradi:**

- ta'lim-tarbiyaning faoliyatining maqsadi, strategik va taktik vazifalarini aniq ifoda etish;
- ta'lim-tarbiya ishining mazmunini maqsali belgilash, uning vositalari va tashkiliy shakllanini tanlash;
- jamoaning va har bir shaxsning ilgarilanma harakatini rejalashtirib hamda tegishli o'zgartirishlar kiritib borish jarayonida o'z faoliyatning istiqboldagi natijalarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

Ilmiy jihatdan asoslangan aniq-tiniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishni engillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi.

Ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o'zara hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalari tahlil etishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari, bolalarni majburiy bir yillik ta'limga tayyorlash guruhlarda maktabga tayyorlash «Ilm yo'li» variativ dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

**Haftalik reja.** Haftalik reja yillik mavzuiy rejaga tayanadi va o‘z ichiga haftaning kichik mavzularini, shu jumladan, shu mavzu bo‘yicha mazkur haftada o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni oladi.

Haftalik reja hafta mavzusiga mos holda rivojlanishning barcha sohalari bo‘yicha maqsadlarning belgilanishiga, mos holdagi markazlarning tayyorlanishiga, mashg‘ulotlarning tasmlanishiga yo‘naltiriladi. Hafta mavzusi erkin faoliyatning barcha markazlari orqali o‘tishi lozimdir. Haftalik rejada ham guruhdagi, ham tashqarida sayr qilish vaqtidagi didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar rejalashtiriladi.

Bolalar bilan ishlashning mazmuni va ketma-ketligi faoliyat turini (fal faoliyat/passiv faoliyat; individual (kichik guruhda yoki katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostidagi) faoliyat, bola rahbarligi ostidagi faoliyat) va uni amalga oshirish joyini (xona ichidagi faoliyat/tashqaridagi faoliyat) hisobga olish bilan rejalashtirilishi zarur.

Haftalik ish rejasi turli-tuman va moslashuvchan bo‘lib hisoblanadi, ya’ni, bolaning qiziqishlarini va ob-havo o‘zgarishlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasi bilan almashtirilishi mumkin yoki faollik vaqti korreksiyalanishi mumkin bo‘ladi. Masalan, tarbiyachi bahorgi gullayotgan boqqa bolalarni olib borishni rejalashtirgan, lekin ob-havo yomg‘irli bo‘lsa, u holda bu tadbir xona ichida o‘tkaziladigan boshqa tadbir bilan almashtirilishi mumkin.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ishchi jurnali va mashg‘ulotlarning konspektidir.

**Tarbiyachining ishchi jurnali**<sup>10</sup> o‘z ichiga quyidagi bo‘limlarni oladi:

- titul varag‘i;
- havo iliq va sovuq vaqtlarda guruhning kun tartibi;
- ertalabki gimnastika majmuasi;
- sentyabrdan avgust oyigacha guruhdagi ta’lim jarayonini rejalashtirish (o‘z ichiga ertalabki lineyka, sayrlar, ota-onalar bilan suhbatlarni oladi);
- haftalik ishlar tahlili;
- ilovalar.

Mashg‘ulotlarning konspektlari faoliyat maqsadlari, uning qisqacha bayoni, zaruriy jihozlar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi. Mazkur konspektlar tavsiyanoma xususiyatiga ega bo‘lib, tarbiyachining ko‘rsatmasiga binoan ijodiy tarzda o‘zgartirilishi ham mumkin.

<sup>10</sup> “Ilm yo‘li” Variativ dasturiga 11-ilova, «Pedagogning ish jurnali namunaviy shakli».

## VII bob. Mashg'ulotlardagi o'qitish

Ta'lim-tarbiya faoliyatining maqsadi bo'lib bolada umumiy asosiy kompetensiyalarning va rivojlanish sohalari kompetensiyalarining shakllantirilishi uchun shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash guruhlarida bolalarning barcha faoliyati, mashg'ulotlarni ham o'z ichiga olgan holda o'yinli tarzda o'tkaziladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga mos holda ko'zda tutiladiki, bola maktabgacha tayyorlov guruhidan chiqishda ma'lum bir natijalarga erisha oladi.

### 7.1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi

Kichik soha: Yirik motorika

Talab: Bola o'z tana a'zolarini boshqaradi, maqsadli to'g'ri harakatlanadi

**Kutilayotgan natija:**

- bir, ikki, to'rtta bo'lib saflanadi, doira bo'lib, qator bo'lib yuradi;
- yurishda turli topshiriqlarni bajaradi;
- yengil yuguradi (shiddat bilan, to'siqlarni engib o'tib, yo'nalish va muvozanatni saqlagan holda);
- bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o'ngga va chapga almashtirib sakraydi;
- arqonda turli usullarda sakraydi;
- arqonli narvon, yo'g'on arqonda yuqoriga ko'tariladi;
- ikki oyoqli velosipedda uchadi.

Kichik soha: Mayda motorika

Talab: Bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi

**Kutilayotgan natija:**

- tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko'rsatadi;
- arqonlardan turli tugunlarni tugadi;
- o'yin faoliyati mobaynida mayda o'yinchoqlar bilan o'ynaydi;
- belgilangan chiziqlar bo'ylab qog'ozni batartib yirta oladi;
- mayda qismli mozaika va pazllarni yig'adi.

Kichik soha: Sensomotorika

Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir

### **Kutilayotgan natija:**

- pastdan, boshi uzra ko'ptokni irg'itadi;
- ko'ptokni yer bo'ylab ilonizi qilib irg'itadi;
- chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi;
- ko'ptok bilan nishonni urib tushiradi (bouling);
- gardishni qo'lida, oyog'ida, belida aylantiradi;
- halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.

### **Kichik soha: : Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik**

**Talab: Bola sog'liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi. Bola xavfsiz sog'lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega.**

### **Kutilayotgan natija:**

- o'zining tashqi ko'rinishiga etibor beradi;
- jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi;
- tabiat burchagidagi o'simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi;
- salomatlikka zararli bo'lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o'ynash va hokazo);
- bog'chada, ko'chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi;
- piyodalar va velosipedchilar uchun yo'l qoidalarini biladi;
- yong'in xavfsizligi -101; milliy gvardiya- 102; tez yordam -103; gaz xizmati -104 telefon raqamlarini biladi;
- xavfli vaziyatlarda qanday yo'l tutishni biladi va tushuntiradi
- supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo'qolib qolsa, o'zini qanday tutish kerakligini biladi.

## **7.2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**

### **Kichik soha: «Men» konsepsiyasi**

**Talab: Bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti-harakatiga javob beradi.**

### **Kutilayotgan natija:**

- mustaqillikka intiladi;
- o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his tuyg'ularni anglaydi va farqlay oladi;
- o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi;
- o'ziga yuklatigan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi;
- shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir;
- boshqalarga namuna bo'lishga harakat qiladi.

**Kichik soha: «Men» konsepsiyasi**

**Talab: Hissiyotlar va ularni boshqarish.**

**Kutilayotgan natija:**

- o‘z hissiyotlari nazorat qiladi;
- turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi;
- o‘z hissiy holatini izohlab berishi mumkin;
- boshqa insonlar yoki badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapiradi;
- o‘zini yomon his etayotganlarga hamdardlik bildiradi va yupatadi.

**Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.**

**Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir.**

**Kutilayotgan natija:**

- kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo‘ladi;
- qiyin vaziyatlarda amaliy echim qidiradi;
- boshqalar xatti-harakatiga o‘z taassurotlarini bildiradi;
- o‘zgalar yutug‘iga quvonganligini namoyon etadi;
- nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantiradi, o‘z o‘yinchog‘ini beradi, muloyim so‘zlar aytadi);
- o‘yinlar o‘ylab topadi, syujetli rolli o‘yinlar, turli ertaklarni sahnalashtirishda ishtirok etadi.

### **7.3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari**

**Kichik soha: Nutq va til**

**Talab: Bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so‘zlashadi va muloqot qiladi.**

**Kutilayotgan natija:**

- o‘z ona tilida erkin so‘zlashadi; so‘z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to‘g‘ri qo‘llaydi;
- gapdan sinonim va antonimlarni topa oladi va berilgan so‘zlarga ularni moslaydi;
- ko‘p ma’noli so‘zlarni turli ma’nolarini farqlaydi;
- turli gaplarni tuzadi;
- shaxsiy tajribasiga tayanib, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi;
- turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydi;

- guruh muokamasida muloqotga kirishib va tinglab ishtirok etadi;
- qofiyalar tuzadi, topishmoqlar topadi;
- nutqida xorijiy soʻzlarni qoʻllaydi;
- kichik sheʼrlarni, qofiyalarni soʻzlab berishi mumkin;
- yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).

### **Kichik soha: Oʻqish malakalari**

**Talab: Bola kitob va oʻqishga qiziqish bildiradi.**

#### **Kutilayotgan natija:**

- boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini soʻzlab beradi;
- sodda va murakkab gaplarni nutqida qoʻllaydi;
- soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻladi;
- boʻgʻinli kartochkalar yordamida boʻgʻinlardan soʻzlar tuzadi;
- soʻz, tovush, boʻgʻin, gap haqida tushunchaga ega;
- peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni oʻqiydi;
- bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, sheʼr, hikoya) ;
- mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.

### **Kichik soha: Qoʻl barmoqlari mayda motorikasi**

**Talab: Bolada yozuv malakasi shakllanadi.**

#### **Kutilayotgan natija:**

- qogʻozda toʻgʻri chiziqlar, soʻzlar va qisqa gaplarni yozadi;
- daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay oladi;
- rasmlarni toʻgʻri joylashtiradi;
- qoʻlni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizadi;
- matodagi rasmni toʻqiydi;
- «oʻziga» va «oʻzidan» harakatlari yoʻnalishini tushunadi;
- turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi.

## **7.4. Bilish jarayonini rivojlanishi**

### **Kichik soha: Intellektual-anglash malakalari**

**Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud**

#### **Kutilayotgan natija:**

- atrof-olam haqida mustaqil maʼlumot izlaydi;
- kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi;
- yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi;
- rasmlar boʻyicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi;
- oʻz mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega;



- o‘z xalqining ayrim milliy an‘analari va odatlarini biladi;
- bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (kerakli ma‘lumotni topa oladi);

- ichki va tashqi belgilarga ko‘ra predmetlarni guruhlarga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab).

**Kichik soha: Elementar matematik malakalar**

**Talab: Bola elementar matematik malakalarga ega.**

**Kutilayotgan natija:**

- hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi;
- geometrik shakllar va figuralarni biladi;
- 20gacha bo‘lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi;
- 10 gacha qo‘shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni echadi (son va belgilarni qo‘llagan xolda +, -, =);
- son qatori haqida tushunchaga ega
- guruhlarni teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga ko‘p?, qanchaga kam?);
- hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma ket joylashtiradi;
- shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o‘lchaydi.

### **7.5. Ijodiy rivojlanish**

**Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish**

**Talab: Bola turli xil san‘at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi.**

**Kutilayotgan natija:**

- she‘rni ifodali o‘qib bera oladi;
- tanish asarlarni mustaqil so‘zlab beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi;
- she‘riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi;
- musiqiy asarning harakterini aniqlashga qodir;
- bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi;
- tasviriy san‘at turlarini farqlaydi.

**Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar**

**Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o‘zgartirish malakasiga ega.**

**Kutilayotgan natija:**

- turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi;
- individual va jamoada qo‘shiq ayta oladi;

- raqsda harakatlariga jilo bergan xolda shaxsiy namuna yaratishi mumkin;
- musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo‘r bo‘lib chalishi mumkin;
- g‘oya yaratadi va tatbiq etadi;
- maqsadga erishishda o‘rindosh sifatida turli predmetlar qo‘llaydi;
- turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi;
- olamni o‘zgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi;
- buyumlarni ikkilamchi qo‘llashda g‘oyalar taklif etishi mumkin

## **VIII bob. Kuzatish va baholash**

Kuzatish – bolalar rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlarni ularni tabiiy sharoitda (uyda, guruhda, ochiq maydonchada), kun davomida turli vaqtda, butun yil davomida hamda to‘plangan ma’lumotlarni hujjatlashtirib borgan holda baholashning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Pedagogning ishi aynan pedagogik kuzatuvdan boshlanishi zarur, chunki u bolani tushunishga, bolani tushunishdan esa – u va oila a’zolari bilan o‘zaro aloqalarning eng maqbul strategiyasini tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

**Kuzatish** – bu bolaning ishlayotgan yoki o‘ynayotgan paytida, uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatish jarayonidir. Pedagog bolani kuzatish orqali xatti-harakatining turi, bilim olish bo‘yicha qiziqishlari, ko‘nikmalar darajasi va rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlarni aniqlaydi.

**Hujjatlashtirish** - bola faolligini kuzatish natijalini qayd etish jarayoni.

**Qayd etish** – kuzatilayotgan faollikni hujjatlashtirish jarayoni. Aksariyat pedagoglar bu ishni tabiiy ravishda amalga oshirsa ham, bolalarni muntazam kuzatish to‘liq ma’lumot to‘plash imkoniyatini beradi

### **8.1. Kuzatishni o‘tkazishdan maqsadlar**

**Har bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari va ko‘nikmalarini aniqlash uchun.** Kuzatish bolalarni shaxs sifatida bilishni, ularda intiluvchanlik rag‘batlantirish va bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirishga yordam beradi.

**Vaqt o'tishi va ta'lim natijalariga ko'ra boladagi o'zgarish va rivojlanish dinamikasini tushunish uchun.** Kuzatish bolalarning jismoniy, ijtimoiy va hissiy jihatdan, yil davomida nutqining rivojlanishi va savodga tayyorligini ko'rish imkoniyatini yaratadi..

**O'qitish muhitiga o'zgarishlari kiritish uchun.** Pedagoglar bolalar uchun tayyorlangan joy va materiallardan ular qanday foydalanayotganini kuzatib, mavjud materiallar bolalarning ehtiyojiga javob berish-bermasligi, qo'shimcha materiallarga zarurat bor-yo'qligi masalasiga javob topishi mumkin.

**E'tibor talab qiladigan holatlarni aniqlash uchun.** Kuzatish kattalarga bolalarda qondirilishi zarur bo'lgan alohida ehtiyojlar bor yoki yo'qligini ko'rish imkoniyatini beradi. Bu eshitish, tayanch-harakat apparati va bola rivojlanishidagi boshqa jismoniy va ruhiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu kabi muammolar aniqlanishi bilan o'z vaqtida tegishli mutaxassislariga murojaat etish zarur.

**Muammoviy vaziyatlarni mukammal tarzda hal etish usullarini aniqlash uchun.** Kuzatish pedagogga muayyan vaziyatda boladan qanday xatti-harakat kutish mumkinligini aniqlash va shu orqali bolalarga o'z xatti-harakatini boshqarishni o'rganishga yordam beradi.

**Rejalashtirishga o'zgarishlar kiritish uchun.** Pedagog kuzatish natijalaridan foydalanib, u yoki bu narsani o'zgartirishga ehtiyojni, bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda rejaga qanday o'zgartirishlar kiritish lozimligini aniqlaydi.

**Ota-onalar va MTM mutaxassislari foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun.** Kuzatish bolalarni, ularning qiziqishlari, yutuqlari, muloqot va o'zaro aloqa ko'nikmalarini, muammolarini, alohida ehtiyojlarini tushunishni hamda xulosalarning asosliligini ta'minlashga yordam beradi.

Pedagoglar ota-onalar bilan ishlash jarayonida oilaga bolalar, ularning kuchli va zaif tomonlari, alohida ehtiyojlari haqida ko'proq bilishga ko'maklashadi. Bunday ma'lumot almashuv chinakam hamkorlik muhitini vujudga keltiradi.

## **8.2.Muvaffaqiyatli kuzatishning o'ziga xosliklari:**

Bola haqida ma'lumot to'plash va baholash aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish muntazam amalga oshirilishi, onda-sonda emas, joriy xarakterga ega bo'lishi lozim.

Kuzatish jarayonida to‘plangan ma’lumotlar hujjatlashtirilishi va tahlil qilishini dorkor.

Bola haqidagi bilimlarning asosini turli vaziyatlardagi kuzatish natijalari tashkil etishi bolalarning haqiqiy imkoniyatlarini bilish va tushunish, uning rivojlanish doirasini hamda uning ilgari borishi yoki aksincha, qiyinlashtiruvchi omillarni aniqlashga imkonini beradi.

Bola haqida ma’lumot to‘plashda har tomonlama yondashish, uning ayrim xislatlariga (ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’i nazar) sun’iy ravishda alohida urg‘u berishga yo‘l qo‘ymaslik dorkor.

Bolaga xos xususiyatlar tahlilini uning eng yaxshi, kuchli jihatlaridan boshlamoq maqsadga muvofiqdir, chunki aynan shunday yondashuv bolani tushunishda va pedagog faoliyatida o‘ziga xos tayanch sifatida xizmat qiladi.

Kuzatish mezonlari (bola haqida ma’lumot to‘plash yo‘nanalishlari) 6-7 yoshli bolaning ruhiy-jismoniy rivojlanishiga oid bilimlarga asoslanishi zarur.

### **8.3.Kuzatishning asosiy tamoyillari:**

Bolaning kuzatilayotgan harakatini pishiq-puxta hujjatlashtirish;  
Sub’ektiv talqin (pedagogning shaxsiy fikri, his-tuyg‘ulari) yo‘l qo‘ymaslik;

Bola tomonidan shaxsan bajarilgan ishni yoki aytilgan gapnigina xolisona kuzatish;

Imkon boricha ko‘proq ma’lumot to‘plash, ular imkon darajasida sodda va tushunarli bo‘lishi kerak

### **8.4.Bolalarning individual rivojlanishini hujjatlashtirish va kuzatib borish**

**Bolalar sog‘ligining kundalik nazorati.** Bolalar guruhga kelishi bilan tarbiyachi ular sog‘lig‘ining holati haqida qaydlar qiladi.

**Pedagogning bolalar bilan individual ishlash daftari<sup>11</sup>.** Daftarga rivojlanishning ayrim sohalarida alohida e’tibor qilish lozim bo‘lgan bolalar haqida ma’lumot qayd etiladi. Pedagoglar daftardagi ma’lumotlardan pedagogik maqsadlarni qo‘yish va bolaning rivojlanishiga xizmat qiladigan faoliyat turlarini rejalatirishda foydalanishi mumkin.

<sup>11</sup>«Ilmga yo‘l» Variativ dasturiga 1-ilova, «Pedagog ishchi jurnali namunaviy shakli», «Bolalar bilan individual ishlash» bo‘limi

**"Portfolio"**. Bu bolaning qisqa muddatli guruhga kelganidan tortib ta'limni yakunlagunga qadar yutuqlari va ishlarining individual to'plami. Portfoliodan rivojlanishning o'z-o'ziga baho berish vositasi foydalanish, unga bolaning o'z fikr-mulohazalarini aks ettirishga harakat qilib, so'zlar va sonlarni yozishga urinishlarini, nuqt namunalarini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning ruxsati bilan bola faoliyatini aks ettiradigan fotosuratlarini, og'zaki nutqlari yozilgan audiodisklarni tanlab olish mumkin. Bolalar ularga tegishli bo'lga portfelio ota-onalarga ko'rsatilishi bilishi lozim.

**Intervyu va suhbatlar.** Bolalar kattalar bilan o'z fikrlari, g'oya va ishlari bo'yicha gaplashishni juda xush ko'radi. Bunday hollarda pedagog bolalarga samimiyat va hurmat bilan munosabatda bo'lishi, o'zini qiziqtirgan mavzu bo'yicha bolaning so'zlarini tinglashi, ochiq savollar berishi, suhbatga undashi lozim. Bundan tadqiqotning maqsadi bolalarning xususiyatlari va ehtiyojlari haqida ko'proq bilishdan iborat.

**Bola rivojlanishining xaritasi** o'z ichiga 6 yoshdan 7 yoshgacha davrni oladi<sup>12</sup>, har bir bolaga individual holda yiliga uch martadan kam bo'lmagan tarzda to'ldirib boriladi.

<sup>12</sup> "Bilimlar yo'li" Variativ dasturiga 12-ilova, «6-7 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi».

Maktabgacha ta'lim tashkilotsidan chiqishda **6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorlanganligi xaritasi** to'ldiriladi (*faqat maktabgacha ta'lim tashkilotsining bitiruvchilari uchun*<sup>13</sup>).

Maktabga tayyorlik deganda bolada umumiy kompetensiyalarning va rivojlanish sohalari kompetensiyalarining kuchaytirilganligi tushuniladi. Mazkur xarita maktabgacha ta'lim tashkilotsining har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda dasturga mos holda rivojlanishning barcha beshta sohalari bo'yicha kutilayotgan natijalar (bola kompetensiyalari) taqdim etiladi.

Tarbiyachiga u yoki bu natija qay darajada aks etishini belgilash taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi bo'yicha natijalar (bola kompetensiyalari) umumlashtiriladi va tavsiyalar hamda istaklar ko'rinishida ota-onalarning diqqatiga etkaziladi.

## 8.5. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhlardagi 6-7 yoshli bolalarning o'qitish samaradorligini va rivojlanishi taraqqiyotining baholanishini o'tkazish muddatlari

Bola rivojlanishi xaritasini to'ldirish uchun o'z ichiga uchta siklni – dastlabki (o'quv yili boshidagi), oraliq va yakuniy kuzatishlarni oluvchi kuzatish amalga oshiriladi.

**Dastlabki kuzatish** o'quv yili boshida – taxminan sentyabr oyi davomida o'tkaziladi. Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari aniqlanadi, shu vaqtga kelib uning yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi o'z diqqatini ta'lim sohalarini o'zlashtirish bo'yicha mavjud muammolarga qaratadi, bolaning qaysi sifatlarini qo'llab-quvvatlash kerakligini, har bir bola uchun qaysi vazifalar dolzarb ekanligini aniqlaydi. Bundan so'ng **berilgan vaqt davomida bolaning yoshini hisobga olgan holda uning rivojlanishi xaritasini to'ldiradi.**

<sup>13</sup> “Ilm yo'li” Variativ dasturiga 13-ilova, «Bolaning maktabga tayyorlik xaritasi».

Oraliq kuzatish yarim yillik oxirida (dekabr, yanvar oylari) o'tkaziladi. Bu kuzatishning maqsadi bo'lib bolaga nisbatan tanlab olingan metodikaning to'g'riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilash sanaladi. Mazkur kuzatish natijalari bo'yicha tarbiyachi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda zarur vaziyatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

**O'quv yili oxirida** (odatda may oyida) tarbiyachi **yakuniy kuzatishni** o'tkazadi. Yakuniy kuzatish asosida belgilangan vazifalar qanchalik bajarilganligi baholanadi, mazkur bolaning rivojlanishida kutilayotgan natijalarni hisobga olish bilan pedagogik jarayonning kelgusi maqsadlari belgilanadi/to'liq kunlik qatnash guruhida ishtirok etishni hisobga olish bilan yozgi davr uchun individual ishni olib borish belgilanadi.

Kuzatishni o'tkazishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish tavsiya qilinadi:

-kuzatish bola uchun odatiy vaziyatlarda amalga oshiriladi va bolaga yordam ko'rstishga yo'naltiriladi;

-kuzatish bolaning rivojlanishi haqida yanada ob'ektiv tasavvur yuzaga kelishi uchun ikki haftadan kam bo'lmagan (yoki bir oy davomida) tarzda o'tkaziladi;

-tarbiyachi bola haqidagi axborotlarni ota-onalar va tashkilotining boshqa xodimlari bilan bo'lgan suhbatlardan ham olishi mumkin;

-tarbiyachi bolaning moyilliklariga, qiziqishlariga, uning muloqotdagi va bilishdagi o'ziga xosliklariga o'z diqqatini qaratishi lozim.

O'quv yili yakunida tarbiyachi bolalar tomonidan o'quv dasturini o'zlashtirish darajasi haqida yakuniy pedagogik kengashga hisobot yozdai va bolalar bilan kerakli natijaga erishilmagan ko'rsatkichlarda to'xtalib o'tadi, buning bajarilmasligi sabablarini (ayrim metodikalarni egallamaganlik, adabiyotlar va tarqatma materiallarning kamligi, guruh texnik vositalar bilan kerakli darajada ta'minlanmagan, bolaning kasalligi va kelmasligi bo'yicha, ota-onalarning faol emasliklari va h.k.) ko'rsatadi.

## **IX bob. Hamkorlik**

### **9.1. Oilalar bilan hamkorlik**

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichkina bolalar oilaga juda bog'lanib qolgan bo'ladi, chunki oila:

- ularning jismoniy jihatdan barkamol bo'lishini, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlaydi, sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladi;
- ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi
- ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Pedagoglar bolaning dastlabki tabiyachisi sifatida oilaning etakchi rolini tan olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhga kelgunga qadar oila bolaga madaniyatni, muhim va eng zarur ko'nikmalarni singdirishga ulguradi. Bolani maktabga tayyorlash bola va oila o'rtasida shakllangan ana shu dastlabki munosabatlarga tayangan holda ota-onalarga boshlang'ich majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlar faoliyatining barcha jabhalarida ishtirok etishga imkon beradi.

Oilalarni jalb etish maktabga tayyorlash bo'yicha majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarda bolalarning bilim olish faoliyatini boyitishda, bola qiziqishlari va uydagi ta'lim-tarbiya natijalaridan foydalanishda muhim o'rin egallaydi. Bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bilim olishida ikki ta'lim muhiti – uy va majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining bir-biri bilan bahamjihatligi g'oyat muhimdir.

Oilalarda bolalarni maktabga tayyorlash ishlari turlicha olib boriladi. Ba'zi oilalarda bolalar bilan ko'p shug'ullanilsa ham, bu asosan o'quv mashg'ulotlaridir – husnixat yozuvi, alifbe o'rgatish, turli adabiyotlar o'qib berish bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa muhim bo'lgan syujetli o'yinlar, harakat faolligi, tasviriy faoliyatga oid ishlar bilan shug'ullanmaydilar. Boshqa oilalarda bolani o'yinchoqlar va televizor bilan yakkama-yakka qoldirib, bu unga yoqadi va rivojlanishi uchun etarli bilim beradi deb hisoblashadi.

Natijada ayrim hollarda majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarga rivojlanishida muayyan muammolari, mustaqil faoliyatni etarli darajada amalga oshira olmaydigan, maqsadga erishish uchun irodasi bo'sh, o'zaro hurmat, umumqabul qilingan me'yor va qoidalar asosida boshqalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydigan bolalar qabul qilinadi. Bundan tashqari, ayrim bolalarda sensor ko'nikmalari, tasavvurlarining rivojlanmagani, hissiyot olamining qashshoqligi kuzatiladi. Uydagi ta'lim-tarbiyaning turli-tuman sharoitlari ta'sirida bolalar rivojlanishining alohida sohalari bo'yicha erishilgan natijalarning har-xilligini qayd etish muhim. Boshlang'ich majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarga kelayotgan bolalarga xos ana shu xususiyatlarni ta'lim jarayonida albatta e'tiborga olish, ularni ota-onalar xohishiga binoan aqliy rivolashtirishga emas, balki umumrivojlantiruvchi vazifalarni hal etishga, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirgan ma'qul.

Ijtimoiy-psixologik muhofaza, bola yutuqlarining muvaffaqiyati unga kim va qanday ta'sir etayotganiga bog'liq. Vaqtning katta qismini bola MTT va uyda o'tkazadi, shuning uchun pedagoglar va ota-onalarning ta'siri bir-biriga zid bo'lmasligi, aksincha, bola tomonidan ijobiy va faol qabul qilinishi kerak. Bunga pedagoglar va ota-onalar hamkor va hamfikir bo'lib, tarbiyaviy muammolarni bahamjihatlik bilan hal etish orqaligina erishish mumkin.

Pedagoglar ta'lim jarayonini tashkil etishda va bevosita pedagogik jarayonning o'ziga ota-onalarni jalb etishni, ularga bolalar bilan rivojlantiruvchi o'zaro aloqalar shakllarni o'rgatish, bolalarning ta'lim-tarbiyasiga doir metodik yordam berishni nazarda tutadigan oilalar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarning ahamiyatga katta e'tibor berishlari lozim.

Samarali faoliyat yuritish va oilani MTT ishiga jalb etish uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi va yaqin qarindoshlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Boshlang'ich majburiy bir yillik



maktabga tayyorlov guruhlariga qatnashayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun MTT xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

1. Ota-onalarda MTT xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish.

2. Bolalarning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning MTT kirishiga ko'maklashish.

Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish; ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish

## **9.2. Bolalarni boshlang'ich ta'limga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhlar ishiga oilalarni jalb qilishning foydaliligi**

Ota-onalarning MTT faoliyatiga jalb etilishi bolalarga ham, ota-onalarga ham, MTT ham foyda keltiradi. Muloqot, o'zaro hurmat, turfaxillikni, bola manfaatlarining muhimligini e'tirof etish samarali hamkorlikka asos bo'lib xizmat qiladi. Samarali hamkorlik shakllantirilishi uchun pedagoglar va ota-onalar o'zlarida yangi ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishlari kerak.

Pedagog uchun oila shunchaki ta'sir ob'ekti sifatida xizmat qilmasligi kerak, bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruh pedagoglari bola uchun oila uning shaxs sifatida shakllanishini belgilab beradigan zarur muhit ekanini o'zlari ham tushunishlari, ota-onalarga ham tushuntirib berishlari zarur. SHuning uchun ota-onalarning pedagogik jarayon doirasiga jalb etilishi, ularning faol ishtiroki pedagog shunday bo'lishini xohlashi uchun emas, bu o'z bolasining rivojlanishi uchun muhim bo'lgani uchun kerakdir.

## **9.3. Hamkorlik imkoniyatlari**

Oila a'zolarinig bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlar faoliyatida ishtirok etishi uchun turlicha imkoniyatlar yaratiladi:

- Ota-onalar uchun qulay vaqtda oilalarga tashrifini rejalashtirish pedagogga bolalar va ota-onalar bilan ular uchun odatiy vaziyatda tanishish imkonini beradi;

- Ota-onalarga bolalarining qanday ishlayotgani va o'ynayotganini ko'rish uchun istagan paytda guruhga tashrif buyurishiga imkon berish;

- Ota-onalarni guruhda bolalar bilan birgalikda shug‘ullanish uchun taklif etish, ma’lumot almashish tarzida pedagog tomonidan taqdim etiladigan bolalar portfeolari haqida o‘z fikr-mulohazalarni bildirish;

- Ota-onalar pedagoglarga qandaydir oilaviy voqealar – tug‘ilgan kunlar, yangi ish, qarindosh yoki qo‘shni shaharga tashrib buyurish haqida xabar bergan hollarda ushbu voqealarni guruhdagi bolalar bilan muhokama qilish;

- Bolalar bilan to‘laqonli muloqot tajribasi bilan o‘rtoqlashish imkoniyatini yaratadigan mavzular bo‘yicha ko‘rgazmalar;

- Bolaning milliy va mintaqaviy madaniyatni o‘rganishga mo‘ljallangan muzeylarga birgalikda tashrif buyurish;

- Ota-onalar bilan birgalikda bayram tadbirlari, bolalar ishlari ko‘rgazmalarini tashkil etish.

Pedagoglar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati va o‘zaro muloqoti uchun ko‘plab rangbarang imkoniyatlarning mavjudligi har bir oilaning xususiy manfaatlari va xohish-istaklariga mos keladigan hamkorlik shakllarni ishlab chiqishga imkon beradi<sup>14</sup>.

#### **9.4. Oila bilan muloqot qilish**

Bolalar yuzasidan oilalar bilan muloqot yuritish – pedagogik jamoa vazifalarining eng muhim qismi. Har bir oila bolalarning kamol topishi, ularning yaxshi va bajonidil o‘qishidan manfaatdordir. Ehtimol, MTM – bu bolalarning oldindan tashqaridagi ilk tajribasi bo‘lgani uchun oila a‘zolari uning yutuqlaridan boxabar bo‘lishni istaydi. Pedagoglar bola haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish va yanada samarali faoliyat yuritish uchun ota-onalar bilan bolaning uydagi va maktabdagi mashg‘ulotlari, uning kuchli va zaif tomonlari, tashvishlantirayotgan jihatlari haqida bajonidil muhokama etishlari zarur.

Albatta, muloqot ochiq-oshkora va ishonchli bo‘lishi uchun vaqt talab etiladi. Shuning uchun boshidanoq ota-onalar bilan suhbatlashish, oiladan taqdim etilayotgan ma’lumotlar naqadar muhim ekanini tushuntirishlari kerak. Diqqat bilan tinglay olish – ochiq muloqotning muhim negizidir.

Muloqot chog‘ida pedagoglar ota-onalar uchun tushunarli, aniq tilda so‘zlashishi, savollar berish uchun ularga imkon qoldirishi darkor.

#### **9.5. Oilalar bilan muloqot qilish tamoyillari:**

- ota-onalar uchun vaqt toping, imkoniyat tug‘diring, ularni o‘z fikr-mulohazalari, quvonch-shodligi, maqsadlari va tashvish-xavotirlarini bayon etishga da’vat qiling;

•yuzma-yuz gaplashish uchun joy toping, barcha ma'lumotlarni mahfiy deb qabul qiling;

•oilalar pedagoglar bilan o'zigagina tegishli shaxsiy ma'lumot bilan o'rtoqlashadi, shuning uchun u sir saqlanishi zarur. Sir saqlash tamoyiliga pedagog ham, oilalar ham rioya etishi lozim.

### **9.6. Kutuvlar**

Tajriba oilaning va pedagogik jamoaning mo'ljallari yoki maqsadlari har doim ham mos kelavermasligi ko'rsatadi. SHuning uchun ham bola qabul qilinishi bilan bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlar dasturini ota-onalar bilan muhokama etish va bu boradagi muloqotni yil davomida olib borish maqsadga muvofiqdir. Qarashlar va mo'ljallardagi tafovut bir-birini tushunmaslikka va muloqotning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalarning ta'lim jarayonida bola nimalalarga erishishi lozimligi haqidagi mo'ljallarini, ular uchun "muvaffaqiyatlilik" nimani anglatishini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv yilining boshidayoq ushbu masalaning muhokama etilishi kelgusidagi muloqotni yo'lga qo'yishga yordam beradi.

### **X bob. Resurs ta'minoti**

Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruhlarning resursli ta'minoti<sup>15</sup> - bu 6-7 yoshli bolalarni tarbiyalash va o'qitish, rivojlantirishning samarali metodlarini o'zlashtirayotgan pedagoglar uchun mo'ljallangan "Ilm yo'li" namunaviy dasturining o'quv-metodik qismidir.

Resursli materiallarning mazmuni O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari bilan, shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlariing amaliyotchi-pedagoglarining xohish-istaklariga mos holda shakllantirilgan va pedagoglarning ishi uchun eng dolzarb mavzularni yoritib beradi:

<sup>15</sup> "Ilm yo'li" Variativ dasturiga 1-ilova, «Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha bitta guruhning moddiy-texnik asoslar va ta'limiy-didaktik materiallar bilan jihozlash me'yorlari».

bolalarda xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish, ota-onalar bilan ishlash, bolaning yutuqlarini kuzatish va baholash hamda boshqa shu kabilar.

Maktabgacha ta'lim sohasida milliy va xorijiy mutaxassislarining tajribalari 6-7 yoshli bolalarning rivojlanishi, tarbiyalanishi va o'qitilishi uchun o'z dasturlari ishlab chiqiladigan, boshlang'ich ta'limga majburiy yillik tayyorgarlik bo'yicha guruhlar tashkil etilgan yoki tashkil etilishi kutilayotgan O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim va umumta'lim tashkilotlarining pedagoglariga yordam berishga safarbar etilgan.

## **XI bob. Ilovalar**

### **1-ilova. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy yillik tayyorlash bo'yicha guruhlarda ishlovchi pedagoglar uchun tavsiya**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabridagi "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori bilan mos holda maktabgacha ta'lim tizimini kelgusida takomillashtirish, sog'lom, faol, to'la rivojlangan, ijtimoiy moslashgan bola shaxsini shakllantirish, shuningdek, boshlang'ich ta'limga bolalarning sifatli tayyorgarligi va kelgusidagi muvaffaqiyatli o'quv faoliyatiga shart-sharoitlarni yaratish maqsadlarida respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tarzda 6-7 yoshli boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy yillik tayyorlash guruhlari tashkil etiladi.

Mazkur guruhlarda bolalar har tomonlama rivojlanadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar bilan ishlash borasida har qanday yangi ish kabi ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladi.

"Ilm yo'li" variativ dasturi mualliflari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik to'lovsiz tayyorlash bo'yicha guruhlardagi pedagogik jarayonni to'laqonli ravishda tashkil etishga yordam beradigan metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

Shuni ko'zda tutish kerakki, maktabgacha ta'lim qamrab olingan va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnamagan bolalarning rivojlanish darajasi sezilarli ravishda farqlanadi. Aynan mana shuning uchun ham kelgusi barcha ishlar asosiga har bir tarbiyalanuvchining individual qirralari va intellektual imkoniyatlari sinchiklab o'rganilishi qo'yilishi zarur bo'ladi.

Eslatib o'tamizki, o'qitish va tarbiyalash tizimi ham maktabgacha ta'lim tashkilotida, ham oilada bolalar faoliyatining istalgan turi

ko‘rinishida, shu jumladan, o‘quv mashg‘ulotlarida o‘yinlardan foydalanish negizida olib borilishi lozim.

6-7 yoshli bolalarning o‘qitilishini tashkil etish mazkur guruhlarda individual, hamkorlikdagi mashg‘ulotlar yoki rivojlanish markazlarida kichik guruhlar bo‘yicha didaktik va rolli o‘yinlar, kuzatishlar, tajriba qilish shaklida olib borilishi mumkin.

## **XULOSA**

1. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda elementar matematik tassavurlarni shakllantirish metodikasining nazariy asoslari va amaliy masalalarini o‘rganish kichik, o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha tarbiyalanuvchilarining ilk matematik bilim va ko‘nikmalarni egallashlariga, faolligini oshirish usullarini bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarining kelgusi amaliyotda muhim vosita hisoblanadi va dastlab bolalarga elementar matematik tushunchalar ustida ishlashga o‘rgatishda hamda ularning qo‘llanilishiga doir misol va masalalarni yecha olishga o‘rgatish muhim o‘rinni egallaydi.

2. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda elementar matematik tassavurlarni shakllantirish usularidan foydalanishga doir mashq va topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarishga o‘rgatish, ular yordamida tahlil qilish, tadqiqot o‘tkazish, kichik, o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha tarbiyalanuvchilarining mantiqiy ilk matematik faoliyat tadbirlarini amaliy faoliyatda zarurligi va qo‘llash usullariga o‘rgatishda foydalanish ularning bilim saviyalarining oshishiga va fikrlashlarini o‘stirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish usullari yordamida bolalar bilan sonli miqdorlar, geometrik shakllar, fazo va vaqtga doir konkret mashqlar va masalalar yechish jarayonida nazariy mantiqiy savollardan foydalanish nafaqat mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki nazariy qoida va tushunchalarning tadbirlarini go‘zlashtirilishini ta‘minlaydi va ularni bosqichma-bosqich tafakkur usullari mohiyatini tushunishlariga xizmat qiladi.

4. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda elementar matematik tassavurlarni shakllantirish usullaridan foydalanish ko‘nikmalarni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash: loyihalash usuli, axborot –kommunikativ vositalaridan foydalanish, turli interfaol dars usullarini qo‘llash, bunda o‘qituvchining turli imkoniyatlardan foydalana olishi, tayyorlovchi savol va topshiriqlardan o‘rinli foydalana olishini talab etadi.

## GLOSSARIY

**Geometriya** –yunoncha “geometriya” so‘zi ikki so‘zdan iborat: “geo” – “yer” va “metrio” – “o‘lchov”, ya‘ni tarjimada bu so‘z “geodeziya” degan ma‘noni anglatadi.

**Diametr** – yunoncha so‘z “ko‘ndadang”, “kalibr” degan ma‘noni anglatadi.

**Doira diametri**-bu aylananing istalgan ikki nuqtasini bir - biriga tutashtiruvchi va uning markazidan o‘tuvchi kesma.

**Kvadrat** – bu barcha tomonlarning uzunligi teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak. Kvadrat- muntazam to‘rtburchakdir.

**Doira** –qadimgi german tillarida “krieger” – “halqa”, “aylana”, yunoncha – “g‘ildirak”, “aylana”.

**Kub** – bu muntazam oltiyoq. Kub – bu barcha qirralari bir-biriga teng bo‘lgan to‘g‘riburchakli parallelepiped.

**Matematika** – yunoncha masma so‘zi fan, ta‘limot, fikrlashgini o‘rganaman degan ma‘noni anglatadi.

**Matematika** – bu haqiqiy olamning miqdoriy munosabatlari va fazoviy, shakllari haqidagi fan.

**Ko‘pburchak** – ushbu atama “ko‘p” va “burchak” so‘zlarini birlashtirish orqali hosil bo‘ladi. Uning hind-yevropa tillarida mavjud (masalan, yunon tilida “poligon” (ko‘pburchak) “poli” – “ko‘p” va “gonna” – “burchak” daniborat).

**Oval**- fransuzcha “oval” – “oval” so‘zi lotincha “ovum” – “tuxum” dan olingan. Oval – yopiq qavariq tekis tekis egri chiziq.

Aylana. Yunon tilidan tarjima qilingan ushbu so‘z periferiya so‘zidan olingan.

**Kesma** – bu ikki xil nuqtadan va ular orasidagi yotgan barcha nuqtalardan tashkil topgan to‘plamdir.

**Piramida**- ba‘zilar yunoncha “piramida” so‘zi misrcha “piramus” – “inshoatning yon qirradi” dan kelib chiqqan deb hisoblashadi.

**Piramida** – bu yoqlaridan biri ko‘pburchak bo‘lgan, qolganlari esa umumiy uchga ega bo‘lgan uchburchaklarlan iborat ko‘pyoq.

**Prizma** - yunoncha “prizma” so‘zi “kesilgan ulush”, “kesilgan qism” degan ma‘noni anglatadi.

**To‘g‘ri to‘rtburchak** - bu barcha burchaklari to‘g‘ri burchaklarga ega bo‘lgan to‘rtburchak.

**To‘g‘ri burchak**- qadimgi geometrik tushunchalardan biri bu odamning vertikal holati va ko‘plab atrof-muhit obyektlari tasviri bilan bog‘liq.

**To‘g‘ri burchak** – bu o‘ziga qo‘shi burchakka teng burchak. To‘g‘ri burchakning kattaligi 90 gradusga teng.

**Radius-** bu so‘z lotincha “radius” – “nur”, “g‘ildirak spitsasi” dan keladi. Bu atama 17-asrning oxirida qabul qilingan.

**Aylana radiusi** – bu aylananing markazidan undagi istalgan nuqtagacha bo‘lgan masofa.

**Uchburchak** -termin ikki so‘zni birlashtirish orqali hosil bo‘ladi: “uch” va “burchak”. “Uch” so‘zi odatdagi slavyan, hind-yevropa (yunoncha “tris” – “uch” bilan taqqoslang).

**To‘g‘ri doiraviy silindr** - to‘rtburchakni uning yontomonlaridan biri atrofida aylantirish natijasida hosil bo‘lgan jism.

### **Asosiy tushunchalar**

**Sifatli pedagogika** – bolalarni o‘yin shaklida qiziqarli va zavqlantiruvchi tarzda o‘qitish; bolalarda o‘qishga bo‘lgan xohish-istaklarini qo‘llab-quvvatlaydigan, maktabga borish imkoniyatlarini ta‘minlaydigan, ota-onalarga yordam ko‘rsatadigan, bolalarning sog‘ligini (ham psixik, ham jismoniy) saqlashning samarali o‘qitish dasturidir; tarbiyalanuvchilarning o‘qishi, salomatligi va individual rivojlanishining muvaffaqiyatli natijalaridir;

**Invariantli qism** – istalgan MTT da amalga oshirilishi kerak bo‘lgan maktabgacha ta‘lim Davlat dasturining majburiy qismi;

**Variativ qism** – ta‘lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladi, maktabgacha ta‘limning hududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarini, turlari bo‘yicha har xilligini aks ettiruvchi maktabgacha ta‘lim turi;

**O‘zR IMYOBRDT<sup>10</sup>** – O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari;

**Yondashuv** – bu pedagogik faoliyatning o‘zaro bog‘langan g‘oyalari, tushunchalari va usullarining ma‘lum bir xususiyatli jamlanmasidan foydalanishga undovchi pedagog faoliyatining metodologik yo‘naltirilishidir;

**Shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuv** – bu ta‘lim jarayoni markaziga faoliyat sub‘ekti sifatida ta‘lim oluvchi qo‘yiladigan yondashuvdir. Yetakchi tamoyili bo‘lib ta‘lim oluvchining ehtiyojlari, motivlari,

---

<sup>10</sup> Davlat talablari Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирининг 2018 йил 18 июндаги №1-МХ буйруғи билан тасдиқланган, Адлия вазирлиги томонидан 2018 йил 3 июлда № 3032-рақам билан рўйхатга олинган.

tajribasi va dolzarb rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilganlik va yaqin istiqboldagi rivojlanish hududida o‘qitish sanaladi<sup>11</sup>.

**Individual yondashuv** – ta’lim beruvchining guruhdagi har bir bolaning faol harakati va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e’tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o‘qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishni hamda mo‘ljallangan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqini e’tiborga olishini bildiradi.

**Ta’limning rivojlantiruvchi muhiti** - bola rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar (o‘yinlar, o‘yin predmetlari va jihozlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, bolalarning turli faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi uchun mo‘ljallangan uskunalari) o‘zaro bog‘liqligini belgilab beradigan hal qiluvchi ko‘rsatkichlardir.

**Inklyuziv ta’lim** – alohida individual imkoniyatlarni va ta’limiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan barcha bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning teng ravishda ommabopligini ta’minlaydigan jarayon;

**Model** (lotinchadan- o‘lcham, namuna) – tabiatdagi yoki jamiyatdagi hodisa yoxud jarayonlarni talqin qilish;

**Integratsiyalashgan rejalashtirish** – bolalarni o‘qitish va rivojlantirish integrallashgan jarayondir: bola rivojlanishining har bir sohasi uning boshqa sohalari bilan uzviy bog‘liq. Ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularni bir-biridan ajratmaslik zarur, biroq bir butun majmua sifatida qarash lozim. Turli sohalardagi ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘liq va bir-biri bilan uyg‘unlashgan .

**Bola kompetensiyasi** – bolaning bilim, ko‘nikma, malakalar va qadriyatlar majmuidir. Tayanch kompetensiyalar rivojlanish sohalaridan qat’iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

**Pedagogik strategiya** – bolalarga belgilangan maqsadlarga erishishda yordam ko‘rsatish uchun pedagoglar foydalanadigan konkret metodlar to‘plamini namoyon qiladi. Strategiya asosida bolaning qiziqishlari, uning kuchli va kuchsiz tomonlari, yoshga doir o‘ziga xosliklar va shaxsiy sifatlarning hisobga olinishi, o‘qitish shakli yotadi;

**“Men” konsepsiyasi** – bolaning o‘zi, uning reflektiv faoliyatining qismi haqidagi tasavvurlarining tizimi;

**Rejalashtirish vositalari** – pedagog kutilayotgan natijalarga erishish uchun faoliyat mazmunini, turlarini, imkoniyat(resurs)larini belgilaydigan vositalar, metodlar, usullar;

---

<sup>11</sup> Л.С. Виготский.



**Kuzatish** – bola ishlayotgan yoki o‘ynayotgan vaqtda uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatib borish jarayoni;

**Hujjatlashtirish** – bu yozuv yordamida belgilangan shaklda turli xil tashuvchilarga biron-bir axborotlarni saqlab qo‘yish jarayoni, bolalarni kuzatishga va ro‘yxatga olib qo‘yishga tizimli yondashuvdir, olinadigan ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlashga yordam beradi.

### **Mavzular yuzasidan testlar.**

**1. Har xil predmetdan tuzilgan guruhni toping?**

- a) Ayiq, shar, o‘yinchoq, qoshiq, kub
- b) Qizil, ko‘k, yashil, sariq
- c) Stol, stul, tumba
- d) Qoshiq, vilka, kosa, tovoq

**2. Bir xil tushunchaga kiruvchi narsalarni tasvirlagan qatorni toping?**

- a) Kitob, qalam, ruchka, daftar
- b) Shkaf, qalamdon, shar
- c) Kub, shar, to‘rtburchak, shkaf
- d) Sumka, shar, qalam, shkaf

**3. 6 ta stol xonaning o‘rtasida turibdi, 1 tasi esa deraza oldida turibdi. Guruhda jami nechta stol bor? Ushbu masala qaysi masala turiga kiradi?**

- a) Illustriyali masala
- b) Og‘zaki masala
- c) Drammalashtirilgan masala
- d) Amaliy masala

**4. Vazada 5 dona gul bor edi. Zarnigor 1 ta gulni oldi vazada nechta gul qoldi? Ushbu masala qaysi masala turlarining qaysi biriga tegishli?**

- a) Og‘zaki masala
- b) Illustriyali masala
- c) Drammalashtirilgan masala
- d) Amaliy masala

**5. Kichik guruhdagi bolalarga matematika mashg‘uloti haftasiga necha marta o‘tiladi?**

- a) 1
- b) 2
- c) 3
- d) 4

**6. Matematik tasavvurlarni shakllantirish fani necha bo‘limga bo‘linadi?**

- a) 5
- b) 6
- c) 4
- d) 3

**7. Qaysi asarda 1 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlar va 0 raqami yordamida arifmetik to‘rt amalni bajarish qoidalari izohlab berilgan?**

- a) “Hisobi al - hind”
- b) “Al jabr val - muqobala”
- c) “Turk hisobi”
- d) “Hind hisobi”

**8. “Aytilgan narsalarni faqat rasmlardagina emas, balki real voqealikda ham ko‘rsatish juda foydaliroqdir”, - ushbu fikr kimniki?**

- a) Ya.A.Komenskiy
- b) A.Avloniy
- c) Al Beruniy
- d) Al Xorazmiy

**9. Masalalar necha turga bo‘linadi?**

- a) 3
- b) 2
- c) 4
- d) 5

**10. Agar to‘plam biron - bir elementga ega bo‘lmasa u qanday to‘plami?**

- a) Bo‘sh to‘plam
- b) To‘plamlar yig‘indisi
- c) Ochiq to‘plam
- d) Yopiq to‘plam

**11. Kichik guruhlarda fazoni, tevarak-atrofnı bilishga nimalar o‘rgatiladi ?**

- a) Chapga, o‘ngga
- b) Ustida, ostida, yuqorisida
- c) Doira, kvadrat, ichiga
- d) Bayroqga, sharcha, o‘ngga

**12. “Juftini top”, “O‘z uyingni top”, “Xaltada nima bor” kabi o‘yinlardan bolalarga nimani o‘rgatish uchun foydalanish mumkin?**

- a) Geometrik figuralar va shakllarni tushuntirishda
- b) Miqdor va sanoqni o‘rgatish uchun
- c) Kattaliklar bilan tanishtirish
- d) Fazoda mo‘ljallashga o‘rgatishda

**13. Maktabga tayyorlov guruhlarida matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg‘ulotlari 1 yilda necha marta o‘tkaziladi?**

- a) 72
- b) 36
- c) 48
- d) 60

**14. Necha yoshli bolalarda o‘z xulqini boshqarish qobiliyati paydo bo‘ladi?**

- a) 6
- b) 4
- c) 5
- d) 3

**15. Qaysi guruhda bolalar 1 dan 5 gacha bo‘lgan sanoq tartibi bilan tanishadilar va u yoki bu buyumning tartibi bo‘yicha o‘rnini topish o‘rgatiladi?**

- a) O‘rta
- b) Kichik
- c) Katta
- d) Tayyorlov

**16. “Qaysi qo‘l bilan uzoqqa”, “Nima ogir”, “Qaysi qo‘l bilan aniqroq” kabi mashg‘ulotlarda bolalarga nima o‘rgatiladi?**

- a) Masofa va og‘irlik haqida tushuncha
- b) Vaqtni bilish
- c) Miqdor va sanoq tushunchasi
- d) Figura va shaklni haqida tushuncha

**17. A1 - Xorazmiy qaysi asari bilan algebraga atalgan?**

- a) “Al Jabr val - muqobala”
- b) “Hisobi al - hind”

- c) “Xindiston”
- d) “Algebra”

**18. Matematik mashg‘ulotlarda o‘qituvchi qanday usul va metodlardan foydalanadi?**

- a) Amaliy og‘zaki, ko‘rsatmali
- b) Tasvirlash
- c) Hikoya qiiish
- d) Aniq - buyumlami ko‘rsatish

**19. O‘rta guruhda bolalarga kattalik haqida nimalar o‘rgatilishi kerak?**

- a) Uzunlik, kenglik, bolandlik bo‘yicha arziyas kichik farqlarni ilg‘ab olishga, har xil kattalikdagi 2 tadan ko‘p buyumlarni taqqoslay olishga o‘rgatish kerak.
- b) Uzunlik, kenglik, balandlik bo‘yicha arziyas tushunchlar
- c) Har xil kattalikdagi 2 tadan kam buyumlami taqqoslay olish
- d) Har xil kattalikdagi 2 tadan ko‘p buyumlami taqqoslay olish

**20. 2 ta lentaning uzunliklari bo‘yicha taqqoslashda birinchi va 2 lenta bo‘ylab yuritilib, “bu lenta uzunroq, bu lenta qisqaroq” deb qaysi guruh bolalariga kattalik haqida tushuncha beriladi?**

- a) Kichik
- b) O‘rta
- c) Katta
- d) Tayyorlov

**21. Qaysi guruhda bolalar doira va kvadratni farq qilish, figurani tanish va nomini aytishga o‘rgatiladi?**

- a) O‘rta
- b) Kichik
- c) Katta
- d) Tayyorlov

**22. Dramalashtirilgan masalalarda -**

- a) Bolalarning kuzatgan, ko‘pincha o‘zlari bevosita bajargan harakatlari aks ettiriladi.
- b) Bolalarning oldingi qilingan ishlari ko‘rsatmasiz ag‘zaki aks ettiriladi.
- c) Mustaqillikni rivojlantirish aks ettiriladi.
- d) Bolalarning hayollaridagi o‘ylari aks ettiriladi.

**23. 2 yoshli bolaga miqdor va sanoq haqida qanday bilimlarini berish kerak?**

- a) 3 gacha bo‘lgan sonlarni sanaydi.
- b) 5 gacha bo‘lgan sonlarni sanaydi.
- c) 10 gacha bo‘lgan sonlarni sanaydi.
- d) 22gacha bo‘lgan sonlarni sanaydi.

**24. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” kitobining muallifi kim?**

- a) N.U.Bikbaeva, Z.I.Ibrohimova
- b) S.Qurbonboeva, Z.I.Toshtemirov
- c) A.L.Asqarova, U.Bikboeva, H.I.Qosimova, D.Toshev
- d) G‘.Qodirov, Isayev

**25. Ilk yoshdagi bolalar narsalarni farqlashda avvalo uning nimasiga e‘tibor berishadi?**

- a) Shakliga
- b) Rangi va tusiga
- c) Harakatlariga
- d) Turgan joyiga

**26. Bolalarning ilk matematik bilimlarini mustahkamlashda qanday faoliyatlardan foydalanish lozim?**

- a) O‘yin
- b) Rasm chizish
- c) Loy ishi, qurish - yasash
- d) Hammasi to‘g‘ri

**27. To‘plamlar qanday belgilanadi?**

- a) Lotin harfning katta harfi bilan
- b) Krill harfning katta harfi bilan
- c) Lotin harfning kichik harfi bilan
- d) Krell harfning kichik harfi bilan

**28. Modellashtirish qanday usul?**

- a) Ko‘rsatmali, amaliy
- b) Ko‘rsatmali
- c) Amaliy
- d) Og‘zaki

**29. Maktabgacha tayyorlov guruhida mashg‘ulotlar haftasiga necha marta o‘tkaziladi?**

- a) 2
- b) 1
- c) 3
- d) 4

**30. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli xususiyatlari qaysilar?**

- a) Eng elementar usulda sanash, o'lchash va hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish
- b) Aqliy faolyait uchun asos bo'ladigan har xil amaliy ishlaming bajarish
- c) Didaktik materialardan keng foydalanish
- d) O'lchash va hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish

**31. Metodik usul sifatida savollarga qanday talablar qo'yiladi?**

- a) Aniqlik, mantiqiy izchillik bolalarning yoshlariga mos bo'lishi.
- b) Aniqlik, gozallik
- c) Mantiqiy izchillik
- d) Bolalaming yoshlariga mos bolishi

**32. Maktabga borish oldidan bolalar qanday geometrik figuralaming asosiy xosslari va belgilarini bilishlari va nomlarini aytishlari shart?**

- a) Doira, shar, to'rtburehak, kub, uchburchak, oval, silindr, to'g'ri to'rtburchak.
- b) Doira to'rtburchak uchburchak
- c) Shar, kub, silindir
- d) To'g'ri to'rtburchak, shar

**33. O'rta guruhda nechtagacha doirachalarga ega bolgan sonli figuralardan foydalaniladi?**

- a) 5 tagacha
- b) 7 tagacha
- c) 6 tagacha
- d) 4 tagacha

**34. Sifat belgilari bilan farq qiluvchi bir turdagi predmetlar guruhini toping?**

- a) 1 ta qizil ruchka, 3 ta ko'k ruchka
- b) 2 ta qizil qalam, ko'k ruchka
- c) 2 ta olma, 3 ta nok
- d) 4 ta oq ayiq, 1 ta uycha

**35. Bir xil tushunchaga kiruvchi narsalar berilgan qatorni toping?**

- a) 2 ta kofta, 1 ta ko'ylak
- b) 3 ta qalam, 1 ta sumka, 1 ta kofta
- c) 2 ta parta, 1 ta daftar

d) 4 ta parta, 3 ta savatcha

**36. Kichik guruhda bolalar vatq haqida qanday tasavvurga ega bo'ladilar?**

- a) Ertalab, kechqurun, kunduzi, kechasi
- b) Ertalab, kechasi
- c) Kechqurun, kunduzi
- d) Indinga, kechasi, kunduzi

**37. "Ra'noda 6 dona gul bor edi. Dilafruz 2ta gulni oldi vazada nechta gul qoldi?" Ushbu masala qaysi masala turiga kiradi?**

- a) Og'zaki masala
- b) Drammalashtirilgan masala
- c) Amaliy masala
- d) Illustriyali masala

**38. O'rta guruhda mashg'ulot davomiyligi qancha vaqt davom etadi?**

- a) 20 daqiqa
- b) 25 daqiqa
- c) 30 daqiqa
- d) 10-15 daqiqa

**39. Katta guruhda mashg'ulot davomiyligi qancha vaqt davom etadi?**

- a) 25 daqiqa
- b) 30 daqiqa
- c) 10-15 daqiqa
- d) 20 daqiqa

**40. Tayyorlov guruhda mashg'ulot davomiyligi qancha vaqt davom etadi?**

- a) 30 daqiqa
- b) 10-15 daqiqa
- c) 20 daqiqa
- d) 25 daqiqa



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T., 2017 y.
2. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T., 2016 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustunvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi” T., 2016 y.
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son,70-modda.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
6. Xasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.T., Ilm ziyo, 2006 y.
7. Bikbayeva N.U., Ibragimova Z.I., Qosimova X.I. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish» T. «O‘qituvchi»1995 y.
8. Ilk qadam dasturi, T., 2020 y.
9. Jumayev M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi” T., 2007 y.
9. Xasanboyeva O. va boshqalar.“Oilada barkamol aqlod tarbiyasi”T., 2010 y.
10. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, 2013y.
11. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogikasi”. “Tafakkur sarchashmalari” nashriyoti. T.,2013y.
12. Raxmonqulova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish”,T.2010 y.
13. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, 2013 y.
14. Павлова Л.И. Теория и методика развития математических представлений у дошкольников / Л.И. Павлова— М. : Московский педагогический государственный университет, 2017. — 108 с.

15. Зайцева Е.С. Тестовая методика обследования речи детей в возрасте 4–7 лет [Электронный ресурс] / Е.С. Зайцева, В.К. Шептунова.— СПб. : КАРО, 2015. — 72 с.
16. Беляева Н.Л. Организация методической работы по экономическому воспитанию детей дошкольного возраста [Электронный ресурс] : учебное пособие для студентов и педагогов дошкольных образовательных учреждений. - Набережные Челны: Набережночелнинский государственный педагогический университет, 2007. — 137 с.
17. Методика воспитания и обучения в области дошкольного образования [Электронный ресурс] : учебник. - Пермь: Пермский государственный гуманитарно-педагогический университет, 2013. — 208 с.
18. Диагностическое обследование детей раннего и младшего дошкольного возраста [Электронный ресурс] / О.В. Баранова [и др.].— СПб. : КАРО, 2014. - 64 с.
19. Белошистая А. В. Формирование и развитие математических способностей дошкольников: Вопросы теории и практики: Курс лекций для студ. дошк. факультетов высш. учеб. заведений. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003 г. - 400 с.
20. Михайлова А., Носова Э. Д., Столяр А. А., Полякова М. Н., Вербенетс А. М.. Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста. Издательство «Детство-пресс». Санкт-Петербург, 2008.
21. Xasanboyeva O. va boshqalar. “Oilada barkamol avlod tarbiyasi”T., 2010.
22. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, T., 2013 y .
23. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogikasi”. “Tafakkur sarchashmalari” nashriyoti. T., 2013 y.
24. Тихеева Е. И. «Развитие речи дошкольника», Ленинград — Москва, 1937.
25. Тихеева Е. И. «Развитие речи детей (раннего и дошкольного возраста)» Пособие для воспитателей детских садов. Издательство «Просвещение», Москва, 1972.

28. Леушина А. М. Формирование элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста. - М., Просвещение, 1974.- 368 с.
29. Блехер Ф.Н. Дидактические игры и дидактические материалы: Число, величина, форма, пространство и время / Ф.Н. Блехер. – М.: Учпедгиз, 1980.– 223 с.
30. Блехер, Ф.Н. Дидактические игры и занимательные упражнения в 1 классе / Ф.Н. Блехер.– М.: Просвещение, 1980. – 224 с.
31. Блехер Ф.Н. Математика в детском саду и нулевой группе / Ф.Н. Блехер. – М.: Просвещение, 1991. – 156 с.
32. Сычева, Г.Е. Формирование элементарных математических представлений у дошкольников / Г.Е. Сычева. – М.: Книголюб, 2007. – 226 с.
33. Тарунтаева, Т.В. Развитие элементарных математических представлений у дошкольников / Т.В. Тарунтаева. – М.: Владос, 1999.– 314 с.
34. Формирования элементарных математических представлений у дошкольников. / Под ред. А. Столяра. – М.: Просвещение, 1988. – 398 с.
35. Усова, А.П. Обучение в детском саду / под ред. А.В.Запорожца. – М.: Просвещение, 2001.– 400с.
36. "Ilm yo'li'variativ dasturi. Toshken 2019 y.

### **Internet saytlari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz).
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

**E.M.Mardonov**

**MATEMATIK TASAVVURLARNI  
SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA  
METODIKASI**

Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun

**O'QUV QO'LLANMA**

Muharrir	N. Isroilov
Musahhih	O. Sharapova
Texnik muharrir	O. Shukurov

**ISBN 978-9943-6088-3-2**

2021 - yil 24 avgustda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.  
2021 - yil 16 sentyabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84<sub>1/16</sub>. "Times New Roman" garniturasini.

Offset qog'ozini. Shartli bosma tabog'i –15,25.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 484

---

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

